Ключевые слова: электронная коммерция, системы безопасности, кибератаки, конфиденциальность данных, доверие клиентов, протоколы шифрования, многофакторная аутентификация, платёжные шлюзы, мошенничество, цифровая грамотность, правовые основы, DDoS-атаки, SQL-инъекции, межсайтовые скрипты, зелёная логистика.

Abstract

The article analyzes the security aspects of e-commerce platforms. It examines the types and classification of cyberattacks, data privacy protection, and fraud prevention mechanisms. Special emphasis is placed on the role of encryption protocols, multi-factor authentication, and payment gateways in ensuring transaction security. The importance of implementing modern security measures to strengthen customer trust, enhance competitiveness, and achieve economic efficiency is highlighted. The study provides recommendations for improving the legal framework and promoting digital literacy in Uzbekistan.

Keywords: e-commerce, security systems, cyberattacks, data privacy, customer trust, encryption protocols, multi-factor authentication, payment gateways, fraud, digital literacy, legal framework, DDoS attacks, SQL injections, cross-site scripting, green logistics.

KIRISH

So‘nggi yillarda elektron tijorat global miqyosda jadal rivojlanmoqda. Onlayn xarid qilish, to‘lov tizimlari va raqamli xizmatlarning ommalashuvi bilan birga, bu sohada axborot xavfsizligi muammolari ham dolzarb masalaga aylandi. Elektron tijorat platformalarining xavfsizligi nafaqat foydalanuvchi ma’lumotlarini himoya qilish, balki foydalanuvchilarning ishonchini saqlab qolish uchun ham muhimdir. Hozirgi kunda elektron tijorat dunyo bo‘ylab iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Foydalanuvchilarning tovar va xizmatlarga onlayn buyurtma berishi odat tusiga kirayotgan bir davrda, elektron tijorat platformalari mijozlarga qulaylik yaratish bilan birga, xavfsizlik masalalariga ham alohida e’tibor qaratishi zarur bo‘lib qolmoqda. Xavfsizlik masalalari nafaqat foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, balki ular orasida ishonchni mustahkamlash va raqobatbardoshlikni oshirish uchun ham zarurdir. Ma’lumotlarning buzilishi, kiberhujumlar va firibgarlik holatlari platformalar uchun katta xavf tug‘diradi. Shu bois, xavfsizlik bo‘yicha chuqur tahlil olib borish nafaqat xavf-xatarlarni aniqlash, balki ularning oldini olishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

ADABIYOTYLAR SHARHI

Elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlari tahlil qilinishi zarur, chunki bu jarayon bir qator muhim sabablarni o‘z ichiga oladi:

1. Ma’lumotlarning maxfiyligi va yaxlitligi. Elektron tijoratda ma’lumotlar, masalan, mijozlarning shaxsiy va moliyaviy ma’lumotlari, doimiy ravishda xavf ostida bo‘ladi. Xavfsizlik modellarini tahlil qilish orqali ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash va ularni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish mumkin. Bu, o‘z navbatida, mijozlar ishonchini oshiradi va platformaning obro‘sini saqlab qolishga yordam beradi.

2. Tahdidlar va hujumlar. Elektron tijorat platformalari turli xil tahdidlarga duch keladi, jumladan, kiberhujumlar, viruslar va boshqa zararli dasturlar. Xavfsizlik jihatlarini tahlil qilish orqali bu tahdidlarga qarshi samarali himoya choralarini ishlab chiqish mumkin bo‘ladi. 23 Maxmudov L.U. Xizmat ko‘rsatish sohasida elektron tijorat operatsiyalarini amalga oshirishning konseptual modellari.

3. Huquqiy va tartibga solish masalalari. O‘zbekistonda elektron tijoratni tartibga soluvchi qonunlar mavjud bo‘lsa-da, ularda hali ham bo‘shliqlar mavjud25. Xavfsizlik jihatlarini tahlil qilish orqali qonunchilikni takomillashtirish va yangi xavfsizlik standartlarini joriy etish uchun zarur bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

4. Mijozlar ishonchi. Mijozlar onlayn xarid qilishda xavfsizlikni birinchi o‘ringa qo‘yadilar. Agar platforma xavfsizlikni ta’minlasa, bu mijozlarning ishonchini oshiradi va xarid qilish faoliyatini kengaytiradi. Tahlil natijalari asosida mijozlarni xabardor qilish va ularning xavfsizligini ta’minlash uchun strategiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

5. Raqobatbardoshlik. Hozirgi raqobat yuqori bo‘lgan bozor sharoitida elektron tijorat platformalari o‘z xavfsizlik darajalarini oshirish orqali raqobat ustunligini qo‘lga kiritishi mumkin. Tahlil qilish orqali eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash va joriy etish mumkin. Elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini tahlil qilish nafaqat ma’lumotlarni himoya qilish, balki biznesning muvaffaqiyatli ishlashi uchun ham muhimdir. Bu jarayon orqali xavf-xatarlarni aniqlash, mijoz ishonchini oshirish va raqobatbardoshlikni ta’minlash mumkin bo‘ladi.

O‘zbekistonda elektron tijoratni tartibga soluvchi qonunchilikning rivojlanayotganiga qaramay, xavfsizlik masalalarida hali ko‘plab bo‘shliqlar mavjud. Ushbu maqola elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini tahlil qilish, asosiy tahdidlar va himoya choralarini aniqlash hamda O‘zbekiston sharoitida xavfsizlik tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda kiberxavfsizlikning zamonaviy texnologiyalari, huquqiy asoslar va foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirish masalalari muhokama qilinadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini tahlil qilish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Asosiy metod sifatida tahliliy va tasniflash yondashuvlari ishlatildi, bu esa kiberxavfsizlik tahdidlarini turlarga ajratish va ularning platformalarga ta’sirini baholash imkonini berdi. Xavfsizlik tizimlarini baholashda funksionallik, joylashuv va ishlash prinsipi bo‘yicha tasniflash amalga oshirildi, bu tizimlarning samaradorligini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqotda shifrlash protokollari (SSL/TLS), ko‘p faktorli autentifikatsiya, to‘lov shlyuzlari va boshqa xavfsizlik choralarining texnik xususiyatlari tahlil qilindi. O‘zbekistonda xavfsizlik masalalarini o‘rganish uchun normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qonunchilik tahlil qilindi. Bundan tashqari, global miqyosda qo‘llaniladigan xavfsizlik standartlari (masalan, PCI DSS) va ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi ko‘rib chiqildi. Ma’lumotlar manbai sifatida ilmiy adabiyotlar, statistik ma’lumotlar va elektron tijorat platformalarining amaliy tajribalari (masalan, Uzum Market, Click, PayMe) ishlatildi. Foydalanuvchilar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishda xaridorlarning raqamli savodxonligini oshirish va kiberxavfsizlik bo‘yicha treninglarning ahamiyati alohida e’tiborga olindi. Ushbu metodlarning kombinatsiyasi orqali elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlari chuqur tahlil qilinib, O‘zbekistonda sohani rivojlantirish uchun amaliy yechimlar taklif etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahdidlar kiber jinoyatchilar tomonidan amalga oshiriladigan hujumlar va firibgarliklarni o‘z ichiga oladi. Quyida elektron tijoratda ko‘p uchraydigan asosiy tahdidlar batafsil keltirilgan:

1. Hisobni qo‘lga olish (Account Take Over — ATO). ATO foydalanuvchi hisoblarini egallash uchun login ma’lumotlarini o‘g‘irlashni o‘z ichiga oladi. Bu usul orqali jinoyatchilar karta ma’lumotlarini olish yoki foydalanuvchi hisobidan ruxsatsiz

xaridlar qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. “ATO barcha firibgarlik yo‘qotishlarining taxminan 29.8 foizni ga tengdir”28.

2. Chatbot imposteri. Firibgarlar soxta chatbotlarni yaratib, foydalanuvchilardan shaxsiy ma’lumotlarni olishga harakat qiladilar. Foydalanuvchilar qonuniy va soxta chatbotlar orasidagi farqni ajrata olmaydi. “Bunday firibgarlik harakatlari barcha firibgarliklarning 24.1 foizini tashkil etadi”29.

3. Orqa eshik fayllari. Kiber jinoyatchilar zararli dasturlarni kiritish uchun eskirgan plaginlar yoki himoyalanmagan kirish nuqtalaridan foydalanadilar. Bu orqali ular kompaniyaning barcha ma’lumotlariga, shu jumladan mijozlarning shaxsiy ma’lumotlariga kirish huquqiga ega bo‘lishadi. “Barcha hujumlarning 6.4 foizni orqa eshik fayllaridan kelib chiqadi”30.

4. SQL injection. Hujumchilar onlayn shakllar va URL so‘rovlaridan foydalanib, ma’lumotlar bazasiga ruxsatsiz kirishga harakat qiladilar. Bu usul orqali shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash mumkin. “SQL injection hujumlari barcha hujumlarning 8.2 foizni ni tashkil etadi”31.

5. Saytlararo skript (Cross-Site Scripting — XSS). “XSS hujumlari xakerlarga foydalanuvchi brauzeri orqali boshqa foydalanuvchilar tomonidan ko‘riladigan veb-sahifalarga zararli skriptlarni kiritishga imkon beradi. Bu xakerlarga kirish boshqaruvlarini chetlab o‘tish va shaxsiy ma’lumotlarga kirish imkonini beradi”32.

6. Ransomware (tovlamachi-viruslar). “Ransomware zararli dasturlari foydalanuvchilarning ma’lumotlarini shifrlab, ularni qaytarish uchun pul talab qiladi. Ushbu viruslar ko‘pincha fishing xatlari orqali tarqatiladi. Tashkilotlarning axborot tizimlariga ruxsatsiz kirish va buzg‘unchilik maqsadida foydalaniladi”33.

7. IOT qurilmalariga hujum. “Internetga ulangan qurilmalar (masalan, kameralar va sensorlar) orqali amalga oshiriladigan hujumlar, bu qurilmalar ko‘pincha xavfsizlik choralariga ega emas. Bu turdagi tahdidlar tashkilotlarning axborot tizimlariga ruxsatsiz kirishga olib kelishi mumkin”

Elektron tijoratdagi tahdidlarni bartaraf etish uchun elektron tijorat kompaniyalari xavfsizlik choralarini kuchaytirishi va foydalanuvchilarga shubhali faoliyatlardan ehtiyot bo‘lishni tavsiya qilishi zarurdir. Xaridorning malakasi elektron tijoratdan xavfsiz foydalanishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston hamda boshqa mamlakatlarda ham elektron tijoratning rivojlanishi bilan birga, xaridorlarning raqamli savodxonligi va kiberxavfsizlik bo‘yicha bilimlarini oshirib borish zarur. Malakali xaridorlar onlayn muhitda firibgarlik va kiberhujumlardan o‘zlarini himoya qilishda, to‘g‘ri va ishonchli ma’lumotlarni tanlashda, shuningdek, xavfsiz to‘lov tizimlaridan foydalanishda tajribali bo‘lishadi. Bunday xaridorlar, shuningdek, elektron tijorat platformalarini samarali va xavfsiz ishlatish uchun zarur bo‘lgan texnik ko‘nikmalarga ega bo‘lib, bu esa ularning onlayn xarid qilish tajribasini yaxshilaydi va umumiy xavfsizlikni oshiradi. Shunday qilib, xaridorning malakasi nafaqat individual foydalanuvchining manfaatlariga, balki elektron tijorat ekotizimining barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

1. Texnologik xavfsizlik choralarini qo‘llash. HTTPS va SSL/TLS sertifikatlari bilan himoyalangan saytlar orqali xarid qilish ma’lumotlarning shifrlanishini

ta’minlaydi. Masalan, Amazon yoki O‘zbekistondagi Click tizimlari HTTPS protokolidan foydalanadi. Brauzerda “Not secure” belgisi paydo bo‘lsa, bu saytlardan foydalanish tavsiya etilmaydi. Ikki faktorli autentifikatsiya (2FA) tizimi, masalan, PayPal orqali SMS-kod bilan hisobga kirish, hisob xavfsizligini oshiradi.

2. Parollarni boshqarish va hisob xavfsizligini ta’minlash. Oddiy parollar (masalan, “12345”) o‘rniga murakkab parollar (“As foizni29_LmtF”) tavsiya etiladi. LastPass yoki 1Password kabi parol menejerlari parollarni xavfsiz saqlash va eslab qolishda yordam beradi. Login va parollarni brauzerda saqlash tavsiya etilmaydi, ayniqsa umumiy kompyuterlarda.

3. Ishonchli platforma va sotuvchilarni tanlash. Xariddan avval sotuvchining reytingi va mijozlar sharhlarini o‘rganish lozim. Masalan, AliExpressda xarid qilishdan oldin izohlar orqali firibgarlik xavfini kamaytirish mumkin. Bozor narxidan ancha arzon mahsulotlar, masalan, $150 evaziga iPhone 15 taklif etilishi firibgarlik belgisi bo‘lishi mumkin.

4. To‘lov xavfsizligini ta’minlash. Visa, MasterCard kabi ishonchli to‘lov tizimlari orqali to‘lovlar amalga oshirilganda tranzaksiya himoyasi va mablag‘ni qaytarib olish imkoniyati mavjud. Virtual kartalardan (Kapitalbank, Humo) foydalanish asosiy hisobni himoyalaydi. Click yoki PayMe kabi tizimlar orqali ikki faktorli tasdiqlash foydalidir.

5. Xarid jarayonida ehtiyotkorlik. Sayt manzillarining aniqligiga e’tibor berish zarur. Masalan, “ www.amazonn.com” kabi qalbaki manzillar asl saytdan farqlanadi. Tovar tavsifi va kafolat shartlarini diqqat bilan o‘rganish, sotuvchining qaytarib berish siyosatini tushunish muhim.

6. Foydalanuvchilar xabardorligini oshirish. Google Security Checkup kabi xizmatlar hisob xavfsizligini baholashda yordam beradi. Davlat xavfsizlik organlarining ogohlantirishlari, spam va fishing xabarlardan ehtiyot bo‘lish, kiberjinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi. 7. Xariddan so‘nggi nazorat choralari. Bank hisobini muntazam tekshirib borish, shubhali tranzaksiyalar aniqlansa zudlik bilan bankka murojaat qilish lozim. Firibgarlik holatida PayPal yoki Click orqali shikoyat yuborish va mablag‘ni qaytarish imkoniyati mavjud. Login va parollarni davriy yangilab borish shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligini oshiradi.

Elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini mustahkamlash iqtisodiy samaradorlikka bir qator ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, xavfsizlikni ta’minlash xaridorlar o‘rtasida ishonchni oshiradi, bu esa onlayn xaridlarni ko‘paytiradi va sotuvlarning o‘sishiga olib keladi. Xaridorlar xavfsiz muhitda xarid qilishni afzal ko‘rishadi, bu esa kompaniyalarni raqobatbardosh qilishga yordam beradi. Ikkinchidan, mustahkam xavfsizlik choralari kiberjinoyatlardan himoya qiladi, bu esa moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytiradi. Kiberhujumlar natijasida yuzaga keladigan zararlar, masalan, ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi yoki moliyaviy firibgarlik, kompaniyalar uchun katta iqtisodiy xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday yo‘qotishlarni oldini olish orqali kompaniyalar o‘z resurslarini samarali ravishda rivojlantirishga yo‘naltirishi mumkin bo‘ladi. Uchinchidan, xavfsizlikning yuqori darajasi kompaniyaning obro‘sini oshiradi va brend sodiqligini kuchaytiradi. Mijozlar

ishonchli va xavfsiz xizmatlardan foydalanishni afzal koʻradilar, bu esa takroriy xaridlarni ragʻbatlantiradi va mijozlar bazasini kengaytiradi. Natijada, elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini mustahkamlash iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, raqobatbardoshlikni kuchaytirishga va moliyaviy yoʻqotishlarni kamaytirishga yordam beradi.

Elektron tijorat platformalarining xavfsizligiga tahdidlar xilma-xil shakllar va koʻrinishlarda namoyon boʻlib, ularning har biri platformalarning barqaror faoliyatiga va foydalanuvchilarning ma'lumotlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Tahdidlarni tahlil qilishda ularni asosiy turlarga boʻlish imkonini beruvchi klassifikatsiya muhim ahamiyatga ega.

Tashqi tahdidlar Fishing, zararli dasturlar, DDoS hujumlari va firibgarlik Maqsadi boʻyicha Moliyaviy Soxta tranzaksiyalar va toʻlov ma'lumotlarini oʻgʻirlash Obroʻ-e'tiborga tahdid Mijoz ma'lumotlari buzilishi yoki xizmatdagi uzilishlar Operatsion Texnik nosozliklar va xizmatni rad etish hujumlari (DDoS) Usullari boʻyicha Ijtimoiy muhandislik Fishing va manipulyatsiya orqali tizimga ruxsatsiz kirish Texnik hujumlar Viruslar, troyanlar va zararli dasturlar orqali tizimga zarar yetkazish Elektron tijorat platformalarining xavfsizlik tizimlari turli tahdidlarga qarshi himoya qilish uchun keng qamrovli va koʻp qatlamli yondashuvlardan foydalanadi. Bu tizimlar nafaqat texnik jihatdan, balki tashkiliy va operatsion xavfsizlikni ham oʻz ichiga oladi.

Shunday qilib, elektron tijorat platformalari uchun xavfsizlik tizimlari bir nechta mezonlarga koʻra tasniflanishi mumkin.

1. Funksionalligi boʻyicha. Xujumlarni oldini olish tizimlari (IPS): tarmoq trafigini tahlil qilib, xakerlik urinishlari, portlarni skanerlash va boshqa hujumlar kabi shubhali harakatlarni bloklashga qaratilgan boʻladi. Xujumlarni aniqlash tizimlari (IDS): tarmoqni passiv ravishda kuzatib borib, potentsial tahdidlar haqida ogohlantiradi. Fayervollar: kiruvchi va chiquvchi tarmoq trafigini boshqaradi, ruxsatsiz kirishni bloklaydi. Veb zaiflikdan himoya qilish (WAF) tizimlari: veb-ilovalarni SQL injection, XSS va boshqalar kabi keng tarqalgan hujumlardan himoya qiladi. Anomaliyalarni aniqlash tizimlari: foydalanuvchilar va tizimlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, normal sharoitlardan ogʻishlarni aniqlaydi. DDoS hujumidan himoya qilish tizimlari: serverlarni haddan tashqari yuklanishiga va ularni ishlamay qolishiga qaratilgan tarqatilgan hujumlardan himoya qiladi.

2. Joylashuvi boʻyicha. Tarmoq: tarmoq perimetri va serverlarini himoya qiladi. Xost: shaxsiy serverlar va ish stantsiyalarida oʻrnatilgan boʻladi. Bulutli: xizmat sifatida taqdim etiladi va bulutli infratuzilmalarni himoya qilish imkonini beradi.

3. Ishlash prinsipiga koʻra. Faol: real vaqtda tahdidlarni bloklashga qaratilgan ximoya tizimlari boʻladi. Passiv: tarmoqni kuzatib boradi va ogohlantiradi. Maksimal himoyani ta'minlash uchun turli xil texnik va tashkiliy chora- tadbirlarni oʻz ichiga olgan kompleks yondashuvdan foydalanish kerak. Tahdidlarni muntazam tahlil qilish va xavfsizlik tizimini oʻzgaruvchan sharoitlarga moslashtirish muvaffaqiyatning asosiy omillari hisoblanadi. Elektron tijorat platformalaridagi xavfsizlik tizimlari foydalanuvchi ma'lumotlarini, moliyaviy operatsiyalarni va biznesdagi obroʻsini

himoya qilishda asosiy rol o‘ynaydi. Kibertahdidlar va firibgarlikning kuchayishi bilan samarali xavfsizlik tizimlari zaruratga aylanib bormoqda.

Quyida elektron tijoratda foydalaniladigan xavfsizlik tizimlarining asosiy turlari, shuningdek, ularning funksional xususiyatlari keltirilgan.

1. Shifrlash protokollari. Secure Sockets Layer (SSL) va Transport Layer Security (TLS) protokollari mijoz va server o‘rtasida uzatiladigan ma’lumotlarni shifrlashni ta’minlaydi. Bu karta raqamlari va foydalanuvchi shaxsiy ma’lumotlari kabi nozik ma’lumotlarini ushlashdan himoya qiladi. Barcha zamonaviy onlayn-do‘konlar HTTPS (xavfsiz HTTP) dan foydalanishi kerak, bu veb-trafikni himoya qilish uchun standart protokoldir.

2. To‘lov shlyuzlari. PayPal yoki Stripe kabi to‘lov shlyuzlari ma’lumotlarning buzilishi xavfini minimallashtirib, xavfsiz to‘lovlarni qayta ishlashni taklif qiladi. Ushbu tizimlar shifrlash va tokenizatsiyani o‘z ichiga olgan ko‘p qatlamli xavfsizlik mexanizmlaridan foydalanadi. Uchinchi tomon to‘lov shlyuzlaridan foydalanishda karta ma’lumotlarini o‘z serverlarida saqlashdan qochish imkonini beradi, bu esa o‘g‘rilik xavfini kamaytiradi.

3. Ko‘p faktorli autentifikatsiya (MFA). Ko‘p faktorli autentifikatsiya foydalanuvchilardan hisobga kirishdan oldin bir nechta identifikatsiya shakllarini taqdim etishlarini talab qiladi. Bu parollar, SMS kodlari yoki biometrik ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Ko‘pgina e-tijorat platformalari foydalanuvchi hisoblarini ruxsatsiz kirishdan himoya qilish uchun MFAni qo‘llaydi.

4. Antivirus dasturlari va ruxsatsiz kirishni oldini olish tizimlari (IPS). Antivirus dasturlari tizimlarni zararli dasturlardan himoya qiladi va IPS tarmoq trafigini shubhali harakatlar uchun nazorat qiladi hamda real vaqtda hujumlarning oldini oladi. Antivirus yechimlari va IPS-dan foydalanish onlayn-do‘kon serverlarini DDoS yoki SQL injectionlari kabi hujumlardan himoya qilishga yordam beradi.

5. Fayervollar. Fayervollar kiruvchi va chiquvchi trafikni nazorat qiladi, potentsial xavfli ulanishlarni filtrlaydi. Ular apparat yoki dasturiy ta’minot bo‘lishi mumkin. E-tijorat serverlarida xavfsizlik devorlarini sozlash ichki tizimlarga ruxsatsiz kirishni oldini olishga yordam beradi.

6. Xodimlar va mijozlarni o‘qitish. Xodimlarni kiberxavfsizlik asoslariga o‘rgatish, mijozlarni fishing xatarlari va boshqa tahdidlar haqida xabardor qilish ham xavfsizlik tizimining muhim qismidir. Fishing hujumlarini aniqlash bo‘yicha xodimlarni muntazam ravishda o‘qitish ma’lumotlar sizib chiqishi xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

7. Tartibga solish va muvofiqlik. PCI DSS (Payment Card Industry Data Security Standard) kabi xalqaro ma’lumotlar xavfsizligi standartlariga muvofiqlik to‘lov ma’lumotlarini himoya qilish uchun zarur. E-tijorat kompaniyalari PCI DSS talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun muntazam tekshiruvdan o‘tishi kerak. Xulosa va takliflar. Kiberjinoyatlar ko‘payishi va mijoz ishonchini saqlash zarurati platformalar uchun xavfsizlikni ustuvor vazifa etib belgilaydi. Ishonchli muhit yaratish nafaqat platformalar, balki foydalanuvchilar uchun ham muhim, chunki ularning e’tiborsizligi moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, elektron tijoratni

tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish ham dolzarb masalalardan biridir. Xavfsizlikni ta’minlash uchun platformalar shifrlash texnologiyalaridan foydalanishi, ikki faktorli autentifikatsiya va kuchli parol tizimlarini joriy qilishi, muntazam yangilanishlarni amalga oshirishi lozim. Xaridorlarni firibgarliklardan himoya qilish uchun ularni xabardor qilish va zarur maslahatlar berish ham samarali

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

Foydalanuvchilarning 68% qismi o‘z shaxsiy ma’lumotlarining platformalarda to‘liq himoyalanmaganligini his qilgan.

Eng ko‘p uchraydigan tahdidlar quyidagilar bo‘ldi: fishing (soxta sahifalar orqali ma’lumotlarni qo‘lga kiritish), ma’lumotlar sizib chiqishi, zaif parollar, ikki bosqichli autentifikatsiyaning yo‘qligi.

Amazon va Alibaba kabi yirik platformalarda xavfsizlik protokollari (SSL, 2FA, monitoring tizimlari) yuqori darajada joriy etilgan, biroq mahalliy platformalarda bu boradagi choralar sust.

So‘rovda qatnashganlarning 40% dan ortig‘i o‘tgan yil ichida kamida bir marta onlayn firibgarlikka uchraganini bildirgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Elektron tijorat platformalari uchun xavfsizlik masalasi beqiyos ahamiyatga ega. Zamonaviy raqamli dunyoda ishonchli xavfsizlik mexanizmlarini joriy etish nafaqat foydalanuvchi ma’lumotlarini himoya qiladi, balki platformaning o‘sishini ham ta’minlaydi. Shu sababli, barcha elektron tijorat subyektlari bu borada jiddiy choralar ko‘rishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akbarova M.R., Akbarov J.M. Axborot xavfsizligiga bo‘ladigan tahdidlar / M.R. Akbarova, J.M. Akbarov // Экономика и социум. – 2021. – №6(85), ч.1. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-xavfsizligiga-bo-ladigan-tahdidlar .

2. Maxmudov L.U. Xizmat ko‘rsatish sohasida elektron tijorat operatsiyalarini amalga oshirishning konseptual modellari / L.U. Maxmudov // Raqamli iqtisodiyot. – 2024. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/xizmat-ko-rsatish-sohasida-elektron-tijorat-operatsiyalarini-amalga-oshirishning-konseptual-modellari/viewer .

3. Mustafayeva F.Sh. O‘zbekistonda elektron tijorat tizimlari qo‘llanilishining joriy holatini tahlil qilish (“Foton” AJ misolida) / F.Sh. Mustafayeva // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2024. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-elektron-tijorat-tizimlari-qo-llanilishining-joriy-holatini-tahlil-qilish-foton-aj-misolida .

4. Оладько В.С. Угрозы информационной безопасности в системах электронной коммерции / В.С. Оладько // Экономика и социум. – 2015. – №2(15). – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ugrozy-informatsionnoy-bezopasnosti-v-sistemah-elektronnoy-kommertsii .

5. Risks and avoidance of my country’s foreign trade e-commerce platform under cross-border e-commerce model / Goldenwell Germany. – 2024. – URL:

6. “Innovations in Science and Technologies” илмий-электрон журнали ISSN: 3030-3451. 2 / 2025 йил. www.innoist.uz 177 Innovations in Science and Technologies, 5-сон. 2025 йил. https://srcyrl.goldenwellgermany.com/news/risks-and-avoidance-of-my-country-s- foreign-tr-68900033.html .
7. Top e-commerce attacks, fraud, and security / Martech Zone. – 2024. – URL: https://uz.martech.zone/top-ecommerce-attacks-fraud-security/ .
8. Uslubiy qo‘llanma: O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarb masalalari / ScienceBox. – 2023. – URL: https://sciencebox.uz/index.php/sjeg/article/view/5237 .
9. Информационная безопасность в электронной коммерции / Positive Technologies. – 2023. – URL: https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/information-security-threats-in-ecommerce/ .
10. Киберугрозы в розничной торговле 2023 / Positive Technologies. – 2023. – URL: https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/retail-cybersecurity-threatscape-2023/ .

YASHIL MARKETINGNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

Ziyayeva Shahlo Shoakbar qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Savdo ishi” kafedrasi katta o‘qituvchi, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil marketingning milliy va mintaqaviy xususiyatlari yoritilgan. Yashil iqtisodiyot doirasida ekologik muammolar, iste’molchilarning xulq-atvori, davlat siyosati va biznes strategiyalari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilingan. Eko-innovatsiya, aylanma iqtisodiyot, raqamli marketing va korporativ ijtimoiy mas’uliyat konsepsiyalari asosida samarali strategiyalar ishlab chiqish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston va xalqaro tajriba solishtirilib, yashil marketingni rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil marketing, yashil iqtisodiyot, eko-innovatsiya, raqamli marketing, barqaror rivojlanish, ekologik madaniyat, mintaqaviy xususiyatlar.

Аннотация

В статье раскрыты национальные и региональные особенности развития зелёного маркетинга. Рассмотрены взаимосвязи между экологическими проблемами, потребительским поведением и государственной экологической политикой. Акцент сделан на эко-инновации, цифровой маркетинг и устойчивое развитие. Представлены предложения по развитию зелёного маркетинга в Узбекистане с учётом международного опыта и локальных условий.

Ключевые слова: зелёный маркетинг, зелёная экономика, эко-инновации, цифровой маркетинг, устойчивое развитие, экологическое сознание, региональные особенности.

Abstract

The article highlights the national and regional features of green marketing development. It examines the relationship between environmental challenges, consumer behavior, and ecological policy. Focus is placed on eco-innovation, digital marketing, and sustainable development. Practical recommendations are proposed for advancing green marketing in Uzbekistan based on global experience and local conditions.

Keywords: green marketing, green economy, eco-innovation, digital marketing, sustainable development, environmental awareness, regional features.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida barqaror rivojlanish konsepsiyasi global iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Shu jarayonda yashil marketing tushunchasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yashil marketing – bu korxonalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, tarqatish va reklama jarayonlarida ekologik tamoyillarga asoslanish, tabiatga zarar keltirmaslik va jamiyat uchun ijtimoiy mas’uliyatni oshirishga qaratilgan faoliyatdir [1].

Yashil marketingning paydo bo‘lishiga XX asrning oxirlarida kuchaygan ekologik inqirozlar, global isish va tabiiy resurslarning tez sur’atlarda kamayishi sabab bo‘lgan. Shu boisdan ham ko‘plab xalqaro tashkilotlar, xususan BMT, Jahon banki va

boshqa nufuzli institutlar barqaror rivojlanishni ilgari surib, biznes sektorini ekologik tamoyillarga amal qilishga chaqirdi. Bugungi kunda esa yashil marketing nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham iqtisodiy va ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Milliy darajada yashil marketingni rivojlantirish, eng avvalo, mamlakatning iqtisodiy siyosati va ekologik strategiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot” strategiyasining qabul qilinishi hamda 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish dasturlarida ekologik barqarorlik masalalariga alohida e’tibor qaratilgani yashil marketingni milliy darajada qo‘llash uchun muhim asos yaratmoqda. Misol uchun, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, chiqindilarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liq loyihalar yashil marketingni amalga oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda [2].

Mintaqaviy xususiyatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, Markaziy Osiyo davlatlarida yashil marketingni rivojlantirishda tabiiy-geografik omillar, ekologik muammolar va aholining ijtimoiy xulq-atvori muhim rol o‘ynaydi. Masalan, suv resurslari tanqisligi, cho‘llanish jarayonlari va havo ifloslanishi kabi ekologik muammolar iste’molchilarni ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarga ko‘proq talabchan bo‘lishga undamoqda [3]. Shu bilan birga, mintaqada yashil marketingning muvaffaqiyati aholining ekologik madaniyat darajasini oshirish bilan chambarchas bog‘liq.

Yashil marketing strategiyalarini ishlab chiqishda korxonalar bir necha yo‘nalishlarga e’tibor qaratishi lozim:

- Mahsulot strategiyasi – ekologik toza, qayta ishlanadigan yoki energiya tejamkor mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Narx siyosati – yashil mahsulotlarni iste’molchilarga qulay narxlarda taklif qilish, shu bilan birga, ekologik innovatsiyalar xarajatlarini qoplash;
- Reklama va kommunikatsiya – jamiyatda ekologik ongni shakllantirish, yashil brendlarni targ‘ib qilish;
- Distributsiya – logistika tizimida chiqindilarni kamaytirish va transportda energiya samaradorligini oshirish.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yashil marketing strategiyalari davlat siyosati bilan uyg‘unlashtirilgan holda amalga oshirilmoqda. Masalan, Germaniyada qayta ishlash sanoati juda rivojlangan bo‘lib, aholining 60 foizdan ortig‘i maishiy chiqindilarni alohida yig‘ishga amal qiladi. Bu jarayon marketingda “yashil brend” imijini kuchaytiradi. Shuningdek, AQShda ham yirik kompaniyalar – Apple, Tesla, Google o‘z brend strategiyalarida ekologik barqarorlikni asosiy tamoyil sifatida belgilagan.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ekologik mahsulotlarga talab ortib bormoqda. Xususan, organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, kimyoviy o‘g‘it va pestitsidlarsiz yetishtirilgan meva-sabzavotlarga ichki bozor bilan birga eksport bozorida ham ehtiyoj katta. Shu bois, yashil marketing nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki eksport salohiyatini kengaytirish uchun ham muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Shuningdek, mintaqaviy integratsiya jarayonlarida qo‘shni davlatlar bilan ekologik standartlarni uyg‘unlashtirish ham yashil marketingni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki ekologik muammolar chegaralarni tan olmaydi va ularni hal etishda umumiy yondashuv talab qilinadi. Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro hamkorlikda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, “yashil” investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro tajribalarni o‘rganishga katta e’tibor qaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yashil marketingni rivojlantirishning milliy va mintaqaviy xususiyatlari bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlar bo‘lib, ular barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va iste’molchilarning ijtimoiy ongini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda davlat siyosati, biznes subyektlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yosh avlodda ekologik madaniyatni oshirish va ta’lim tizimida barqaror rivojlanish g‘oyalarini keng targ‘ib etish yashil marketingning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kotler P., Keller K. Marketing Management. – Pearson, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha qarori. – Toshkent, 2019.
3. UNDP Central Asia. Green Economy and Sustainable Development Reports. – 2023.
4. Peattie K. Green Marketing. – London: Pitman Publishing, 1995.
5. OECD. Green Growth Indicators 2022. – Paris: OECD Publishing, 2022.

ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ЕГО АСПЕКТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Абдуллаева Дилора Куйсуновна,
к.э.н., доцент кафедры эконометрики,
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация

В статье рассмотрен международный опыт в сфере зелёной экономики и его адаптация в Узбекистане. Анализируются подходы ЕС, Японии и Китая по снижению загрязнений, внедрению возобновляемых источников энергии и цифровой трансформации. Особое внимание уделено законодательным инициативам, углеродным сертификатам, устойчивому финансированию и поддержке «зелёного» бизнеса. В рамках стратегии «Узбекистан–2030» предложены шаги по усилению национальной экологической политики и инвестиционной инфраструктуры.

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning xalqaro tajribalari hamda ularni O‘zbekistonda joriy etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Xitoy tajribasi asosida atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni qayta ishlash, "yashil" sertifikatlar, karbon bozoriga integratsiya kabi mexanizmlar ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonda "Uzbekistan–2030" strategiyasi doirasida yashil iqtisodiyot uchun raqamli transformatsiya, qonunchilik islohoti va "yashil" biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, atrof-muhit, raqamli transformatsiya, karbon birjalari, xalqaro tajriba, O‘zbekiston–2030, qayta ishlash.

Ключевые слова: зелёная экономика, Узбекистан, устойчивое развитие, цифровизация, международный опыт, выбросы, переработка.

Abstract

This thesis analyzes the global experience in green economy and its potential implementation in Uzbekistan. It explores EU, Japan, and China practices in waste reduction, renewable energy, and policy reforms. Key elements include carbon certification, investment incentives, circular economy, and public awareness. Within the framework of the “Uzbekistan–2030” strategy, recommendations are made for regulatory development, digital transition, and boosting green business initiatives.

Keywords: green economy, Uzbekistan, sustainability, digital transformation, carbon markets, international experience, circular economy.

Сегодня мировая экономика стоит на пороге новой эры перемен. Это призывает все страны, идущие по пути устойчивого развития, к сотрудничеству по переходу к модели “зелёной” экономики.

На сегодняшний день многие развитые страны уже внедрили механизмы регулирования, направленные на развитие “зелёной” экономики. Это позволяет им эффективно управлять ресурсами, минимизировать отходы и сокращать негативное воздействие на окружающую среду.

Об этом свидетельствуют материалы Международной организации труда, которая прогнозирует создание 18 миллионов “зеленых” рабочих мест к 2030 году, в том числе 4 миллиона в обрабатывающей промышленности и 9 миллионов в секторах возобновляемых источников энергии и строительства - во всех этих секторах переход к многооборотному мышлению будет стимулировать рост[1].

Зеленая экономика в Узбекистане - это стратегический курс развития, направленный на повышение энергоэффективности, внедрение возобновляемых источников энергии, сокращение выбросов парниковых газов и рациональное использование природных ресурсов. Основные направления включают развитие "зеленых" технологий, внедрение специальных тарифов на "зеленую" энергию.

Зелёная экономики стала одним из актуальных элементов устойчивого развития на глобальном уровне. Для её успешного внедрения требуется комплексный подход, включающий в себя законодательные инициативы и государственную поддержку.

Узбекистан, обладая богатыми природными ресурсами, также заинтересован в применении принципов зелёной экономики.

„Зелёная“ экономика Узбекистана основана на трех принципах:

• Сокращение отходов и загрязнения.

• Эффективное использование ресурсов.

• Восстановление природных систем.

Эти принципы включают использование возобновляемых источников энергии и переработку вторичного сырья, результатом которого должно быть одновременное увеличение экономического, природного и социального капитала.

И тем не менее, появляется все больше свидетельств того, что зеленная экономика не решает проблем, связанных с токсичными химическими веществами в продуктах, особенно предназначенных для детей. Доклад Фонда Эллен Макартур показывает, что с учетом прогнозируемого роста потребления при сохранении сценария “бизнес как обычно”, ожидается, что к 2050 году океаны будут по весу содержать больше пластика, чем рыбы, а вся полимерная промышленность будет потреблять 20% от общего объема добычи нефти и 15% от годового глобального углеродного бюджета [2].

Поэтому всем странам, в том числе Узбекистану, необходимо разработать эффективную законодательную базу и обеспечить поддержку на уровне государственных институтов.

Цель этого исследования - изучить опыт других стран в сфере „зелёной“ экономики, определить успешные методы и разработать рекомендации по их внедрению в Узбекистане.

Для решения поставленных задач была применена следующая методика:

1. Анализ документации: изучение международных нормативных актов и стратегий, а также узбекского законодательства в области экологии и экономики.

2. Сравнительный анализ: сравнение методов и механизмов, используемых в разных странах, и возможность их применения к ситуации в Узбекистане.

3. Тематические исследования: анализ успешных примеров внедрения „зелёной“ экономики в странах ЕС, Японии и Китае.

Результаты исследования

1. Мировая практика зеленой экономики

Опыт как отечественной, так и мировой нефтегазовой индустрии показывает, что увеличение мощностей нефтегазового оборудования приносит новые экономические вызовы, связанные с особенностями применяемых технологий. Когда происходят сбои в работе нефтегазового оборудования, это может вызвать гораздо более серьезные последствия для производственного процесса, чем выход из строя оборудования с меньшей мощностью.

Зеленая экономика и цифровая экономика тесно взаимосвязаны, поскольку технологии позволяют снизить нагрузку на окружающую среду и создать более устойчивую промышленность. Развитие «зеленых» инноваций в нефтегазовой промышленности способствует формированию устойчивого будущего, а цифровизация дает возможность управлять экологическими и экономическими процессами более эффективно.

В государствах Европейского союза одним из ключевых инструментов регулирования зеленой экономики является пакет мер ЕС по нефтегазовой индустрии. Он включает в себя директивы, направленные на сокращение отходов, увеличение объёмов переработки и минимизацию использования первичных ресурсов. Германия - это пример страны, которая успешно внедрила принципы зеленой экономики. В этой стране действуют экологические стандарты, а также развита система восстановления и переработки материалов нефтегазовой индустрии.

В Японии государство поддерживает зеленую экономику, создавая законы, которые направлены на сокращение отходов и их переработку на всех этапах производства и потребления. В Японии активно применяют передовые технологии для переработки отходов, что позволяет уменьшить негативное воздействие на окружающую среду [2].

В Китае ключевыми аспектами государственной политики являются создание «экологически чистых» регионов и внедрение концепции «экоцивилизованного общества», которая предполагает принятие экологических стандартов и системе управления нефтегазовой индустрией. [3].

2. В Узбекистане есть множество возможностей для развития зеленой экономики, но есть и сложности:

Следует выделить два ключевых аспекта: цифровизации и зеленой экономики Узбекистана. Цифровизация представляет собой сложный и многоуровневый процесс, который включает преобразование производственных и управленческих технологий, а также информационных ресурсов, чтобы они стали совместимыми с современными цифровыми устройствами и технологиями.

Основные цели этого процесса в Узбекистане заключаются в следующем: первое, это удешевление и повышение надежности сбора, систематизации, передачи и анализа данных, что достигается благодаря использованию таких технологий, как Интернет вещей и первое - это использование RFID-меток, которые обеспечивают эффективное отслеживание и управление активами.

Второе - снижение затрат и упрощение коммуникационных процессов как в экономике, так и в обществе. Это включает в себя цифровизацию контента и оптимизацию каналов связи, что делает взаимодействие более быстрым и удобным.

Третье - разработка системы, которая позволит наладить многосторонние взаимодействия между людьми и бизнес-процессами, что способствует более эффективному сотрудничеству и обмену информацией, как внутри организаций, так и между ними через межорганизационные цифровые платформы.

В последнее время правительством Узбекистана предприняты шаги для устойчивого развития зеленой экономики. Так, 7 февраля 2025 года принят Указ Президента Республики Узбекистан «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан - 2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики». Целью указа является осуществление комплексной «зеленой трансформации» отраслей и сфер при выполнении обязательств страны, взятых на себя перед глобальным обществом в рамках Киотского протокола к Рамочной конвенции Организации объединённых наций об изменении климата и Парижского соглашения, обеспечения их конкурентоспособности и ресурсосбережения, а также смягчения последствий изменения климата и адаптации к нему, улучшения качества жизни населения и перехода экономического роста на новую «зеленую» модель развития. Это первые шаги к тому, чтобы зеленая экономика Узбекистана стала реальностью.

3. Возможности и рекомендации для Узбекистана

Для эффективного внедрения зеленой экономики в Узбекистане необходимо:

3.1. разработать комплексную законодательную базу для поддержки устойчивого финансирования проектов, направленных на широкое внедрение принципов «зеленой экономики», охрана, воспроизводство и сохранение для будущего поколения растительного и животного мира, сохранение биоразнообразия, адаптация экономики к изменению климата.

3.2. разработать национальные программы по поддержке инноваций в области восстановления и повторного использования материалов, в рамках которой долю "зеленой" энергетики в Узбекистане увеличат до 26%.

3.3. ввести экономические стимулы для «зеленого» бизнеса, такие как налоговые льготы и субсидии для компаний, занимающихся переработкой и утилизацией отходов.

3.4. запуск в Узбекистане продаж «зелёных сертификатов» и углеродных единиц в связи с присоединением к глобальным углеродным рынкам и созданием платформы для климатических инвестиций „Зелёный Узбекистан“.

3.5. разработать закон «Об альтернативных инвестиционных фондах». В следующие пять лет планируется довести объём венчуров и других альтернативных инвестиций до 1 млрд долларов.

4. Просвещение и повышение уровня информированности о принципах зеленой экономики среди широкой аудитории и представителей бизнес-сообщества через образовательные программы и мероприятия.

Стратегии зеленой экономики Узбекистана должны сконцентрировать внимание на оценке и проверке химического состава материалов, чтобы избежать неудачных замен и снизить токсичность материалов, которые будут находиться в коммерческом обороте. Такие химические вещества уже регулируются во всем мире, например, в рамках Стокгольмской конвенции, или на региональном уровне в соответствии со списком предложенных для регулирования веществ в Европейском союзе.

Узбекистан уже предпринял шаги в этом направлении, но необходимо развивать нормативно-законодательную базу и стимулировать бизнес к активному внедрению экологически чистых технологий. Например, создание Национального инвестиционного фонда, объединившего государственную собственность в 18 компаниях и банках на сумму около два млрд долларов. Управление фондом передано международной компании Franklin Templeton. Использование лучших мировых практик может значительно ускорить этот процесс и тем самым улучшить экологическую ситуацию в Узбекистане.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. European Commission. (2015). Circular Economy Package. https://ec.europa.eu/environment/circular-economy/index_en.htm

2. https://www.newplasticseconomy.org/

3. Zhang, X., & Zhao, X. (2020). The Role of the Government in China's Circular Economy Transition. *Environmental Policy and Governance*, 30(3), 183-195. https://doi.org/10.1002/eet.1892.

4. https://theconversation.com/we-need-a-legally-binding-treaty-to-make-plastic-pollution-history-113351

MODA SANOATIDA YASHIL MARKETINGNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Xalilova Nafisa Komilovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Marketing” kafedrasi assistenti
ORCID:0009-0005-2738-0095
E-mail: nafisaxalilova470@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada moda sanoatida yashil marketingning shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi. Asosiy e’tibor barqaror materiallardan foydalanish, iste’molchi ongining o‘zgarishi, shaffoflik, texnologik innovatsiyalar va greenwashing xavflariga qaratilgan. Tadqiqotda nazariy manbalar tahlili va amaliy misollar orqali yashil marketingning moda sanoatidagi dolzarbligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yashil marketing, moda sanoati, barqarorlik, iste’molchi ishonchi, texnologik innovatsiyalar, shaffoflik, greenwashing

Аннотация

В статье рассматриваются тенденции развития зелёного маркетинга в индустрии моды. Основное внимание уделяется использованию устойчивых материалов, изменению потребительского сознания, прозрачности, технологическим инновациям и рискам greenwashing. На основе анализа теоретических источников и практических примеров показана актуальность зелёного маркетинга в модной индустрии.

Ключевые слова: зелёный маркетинг, индустрия моды, устойчивость, доверие потребителей, технологические инновации, прозрачность, greenwashing

Abstract

This article explores the trends of green marketing in the fashion industry. The focus is on the use of sustainable materials, the transformation of consumer awareness, transparency, technological innovations, and the risks of greenwashing. By analyzing theoretical sources and practical examples, the paper highlights the relevance of green marketing in modern fashion.

Keywords: green marketing, fashion industry, sustainability, consumer trust, technological innovations, transparency, greenwashing

KIRISH

So‘nggi yillarda moda sanoati global iqtisodiyotning eng dinamik tarmoqlaridan biri sifatida jadal rivojlanib kelmoqda. Biroq, ushbu rivojlanish jarayoni ekologik va ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Xususan, “fast fashion” deb ataluvchi tezkor moda oqimi ishlab chiqarish hajmining ortishi, chiqindilar miqdorining keskin ko‘payishi, suv va energiya resurslarining ortiqcha sarflanishi hamda ishlab chiqarish zanjirida inson mehnat huquqlarining buzilishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda[1]. Natijada, moda sanoati global miqyosda eng ko‘p ifloslantiruvchi sohalardan biri sifatida tilga olinmoqda.

Shu sharoitda yashil marketing tushunchasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yashil marketing – bu mahsulot va xizmatlarni atrof-muhitga zarar keltirmasdan ishlab chiqish, taqdim etish va iste'molchiga yetkazish bo'yicha strategik faoliyatdir. Bu yondashuv nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iste'molchilar ongida brendga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi moda brendlari barqaror materiallardan foydalanish, qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish, shaffof ishlab chiqarish zanjirini yo'lga qo'yish va iste'molchiga ekologik ongni targ'ib qilish orqali yashil marketing strategiyalarini faol qo'llamoqda[2]. Shu bilan birga, greenwashing muammosi ham dolzarbligicha qolmoqda, ya'ni ayrim kompaniyalar o'z faoliyatini ekologik deb targ'ib qilsa-da, amalda bunday natija kuzatilmaydi.

Shunday qilib, ushbu maqola moda sanoatida yashil marketing tendensiyalarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, mavjud muammolar va imkoniyatlarni yoritishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil marketing konsepsiyasi ilmiy adabiyotlarda 1990-yillardan boshlab keng qo'llanila boshlagan. Kotler va Zaltman kabi marketing nazariyachilari bu tushunchani korxonalar uchun faqat ekologik mas'uliyat emas, balki iqtisodiy raqobat ustunligi sifatida ham talqin qilgan[3]. Ularning fikricha, yashil marketing iste'molchining ongida barqaror qadriyatlarni shakllantiradi va kompaniya obro'sini mustahkamlaydi. Pol Polman va boshqa global biznes rahbarlari esa yashil marketingni korporativ ijtimoiy mas'uliyat strategiyasining muhim elementi sifatida ko'rsatadilar.

Moda sanoati kontekstida esa "slow fashion" va "circular economy" tushunchalari muhim o'rin tutadi[4]. Fletcher hamda Niinimäki o'z tadqiqotlarida barqaror moda iste'molchilarning ekologik ongini rivojlantirish va ishlab chiqarishda chiqindilarni kamaytirishning asosiy mexanizmlaridan biri ekanini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, ilmiy maqolalarda greenwashing hodisasi keng muhokama qilinadi[5]. TerraChoice kompaniyasining hisobotlariga ko'ra, moda brendlarining katta qismi o'zini "eko" deb ko'rsatsa-da, real faoliyat ko'rsatkichlari bilan buni tasdiqlay olmaydi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar yashil marketingni nafaqat ekologik muammolarga javob, balki iste'molchilar ishonchini oshirish va raqobat ustunligi manbai sifatida ko'rsatadi. Bu esa moda sanoatida uning tadqiq etilishini yanada dolzarb qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot sifatli tahlil yondashuvi asosida amalga oshirildi. Avvalo, yashil marketing va moda sanoati bo'yicha mavjud ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganildi. Shuningdek, global miqyosda faoliyat yuritayotgan brendlarning amaliy tajribasi tahlil qilindi. Tadqiqotda sotsiologik so'rovlar va iste'molchilarning yashil marketingga munosabatlari haqidagi ikkilamchi ma'lumotlar ham ko'rib chiqildi. Metodologik asos sifatida qiyosiy tahlil, kontent tahlili va deduktiv yondashuvdan foydalanildi. Bu yondashuvlar orqali moda sanoatida yashil marketingning dolzarb tendensiyalari aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan nazariy tahlil va amaliy misollar asosida moda sanoatida yashil marketingning bir nechta muhim tendensiyalari aniqlangan. Bu tendensiyalar moda bozorining rivojlanish sur’atlari, iste’molchilar ongining o‘zgarishi va brendlarning marketing strategiyalariga bo‘lgan yondashuvlari orqali shakllanmoqda.

Birinchi tendensiya sifatida barqaror materiallardan foydalanishni keltirish mumkin. Ilmiy manbalar va brendlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, organik paxta, qayta ishlangan polyester, bambuk tolasi va boshqa ekologik toza materiallarga talab ortib bormoqda. Masalan, H&M, Zara kabi yirik brendlar ekologik kolleksiyalarini ishlab chiqmoqda[6]. Biroq, bu tashabbuslar ko‘pincha chegaralangan bo‘lib, asosiy ishlab chiqarish hajmida “fast fashion” tamoyillari ustunlik qilmoqda. Shu sababli, bu yo‘nalishning asosiy muammosi – ekologik tashabbuslarning amaliy ko‘lamini kengaytirish zaruriyatidir.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – shaffoflik va izlanuvchanlik (traceability). Tadqiqotda ko‘rib chiqilgan adabiyotlar va amaliy tajribalar brendlarning ishlab chiqarish jarayonida shaffoflikni ta’minlash orqali iste’molchilarning ishonchini oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi[7]. Masalan, ba’zi kompaniyalar mahsulot yorlig‘iga QR-kod joylashtirib, iste’molchiga kiyimning qayerda, qanday sharoitda ishlab chiqarilgani haqida ma’lumot bermoqda. Bu marketing vositasi iste’molchilar uchun qo‘shimcha qadriyat yaratadi va yashil marketing strategiyasining samaradorligini oshiradi.

Uchinchi tendensiya sifatida iste’molchilarning yashil ongini shakllantirish jarayonini alohida ta’kidlash mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yosh avlod (millennials va Gen Z) ekologik mas’uliyatli brendlarga ko‘proq e’tibor qaratmoqda[8]. Ular nafaqat mahsulotni xarid qilishda, balki brendning ijtimoiy va ekologik qadriyatlariga ham baho bermoqda. Shu sababli, kompaniyalar reklama va kommunikatsiya strategiyalarida ekologik qadriyatlarni targ‘ib qilishga alohida urg‘u bermoqda.

To‘rtinchi yo‘nalish – texnologik innovatsiyalar. Raqamli texnologiyalar moda sanoatida chiqindilarni kamaytirishda va ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Masalan, 3D dizayn va virtual fitting texnologiyalari yordamida mahsulotlar sinovdan o‘tkaziladi, bu esa ortiqcha ishlab chiqarishni kamaytiradi[9]. Shuningdek, “on-demand production” modeli orqali mahsulot faqat buyurtmaga binoan ishlab chiqariladi. Bu amaliyot chiqindi va ortiqcha zaxira muammosini sezilarli darajada kamaytiradi.

Beshinchi tendensiya sifatida greenwashing xavfi aniqlandi. Tadqiqotda tahlil qilingan adabiyotlar va amaliy misollar ko‘rsatadiki, ko‘plab kompaniyalar “eko” yoki “barqaror” degan shiorlar bilan iste’molchini chalg‘itadi. TerraChoice hisobotlariga ko‘ra, moda brendlarining katta qismi yashil marketingni faqat reklama vositasi sifatida ishlatadi, amalda esa ekologik natija juda kam seziladi[10]. Bu esa iste’molchilarda ishonchning pasayishiga va bozorning salbiy imijga ega bo‘lishiga olib keladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari moda sanoatida yashil marketingning dolzarbligini tasdiqlaydi. Yashil marketing strategiyalarining muvaffaqiyati bir necha omillarga bog‘liq: barqaror materiallardan keng foydalanish, ishlab chiqarish zanjirida shaffoflikni ta’minlash, iste’molchi ongini ekologik qadriyatlarga yo‘naltirish, innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish va eng muhimi, marketingda halollikka amal qilish. Shuningdek, kompaniyalar yashil marketingni faqat imij vositasi sifatida emas, balki uzoq muddatli strategik rivojlanish modeli sifatida ko‘rishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari moda sanoatida yashil marketingning dolzarbligi va ahamiyatini tasdiqlaydi. Bugungi kunda moda brendlari uchun barqarorlik faqat ijtimoiy mas’uliyat emas, balki iste’molchi ishonchini mustahkamlash va raqobat ustunligini qo‘lga kiritishning muhim omilidir. Barqaror materiallardan foydalanish, ishlab chiqarishda shaffoflikni ta’minlash, ekologik qadriyatlarni targ‘ib qilish va texnologik innovatsiyalarni joriy etish yashil marketingning asosiy tendensiyalari sifatida ajralib chiqdi. Shu bilan birga, greenwashing xavfi brendlarning uzoq muddatli obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi.

Umuman olganda, yashil marketing moda sanoatini barqaror rivojlanishga olib boruvchi muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Kelgusida kompaniyalar ushbu yondashuvni amaliyotda keng qo‘llash orqali nafaqat ekologik muammolarga yechim topishi, balki iqtisodiy samaradorlikka ham erishishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing management (15th ed.). Pearson Education.
2. Polman, P. (2014). Sustainability and business growth. Unilever Sustainability Report.
3. Fletcher, K. (2008). Sustainable fashion and textiles: Design journeys. Earthscan.
4. Niinimäki, K. (2011). From disposable to sustainable: The complex interplay between design and consumption of textiles and clothing. Journal of Cleaner Production, 19(16), 1876–1883. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2011.01.020
5. TerraChoice. (2010). The sins of greenwashing: Home and family edition. TerraChoice Environmental Marketing Inc.
6. Hethorn, J., & Ulasewicz, C. (Eds.). (2015). Sustainable fashion: What’s next? A conversation about issues, practices, and possibilities (2nd ed.). Fairchild Books.
7. Shen, B. (2014). Sustainable fashion supply chain: Lessons from H&M. Sustainability, 6(9), 6236–6249. https://doi.org/10.3390/su6096236
8. Caniato, F., Caridi, M., Crippa, L., & Moretto, A. (2012). Environmental sustainability in fashion supply chains: An exploratory case based research. International Journal of Production Economics, 135(2), 659–670. https://doi.org/10.1016/j.ijpe.2011.06.001

9. Joy, A., Sherry, J. F., Venkatesh, A., Wang, J., & Chan, R. (2012). Fast fashion, sustainability, and the ethical appeal of luxury brands. Fashion Theory, 16(3), 273–295. https://doi.org/10.2752/175174112X13340749707123

10. Ellen MacArthur Foundation. (2017). A new textiles economy: Redesigning fashion's future. Ellen MacArthur Foundation. https://ellenmacarthurfoundation.org

BARQAROR IMIJ YARATISHDA YASHIL MARKETINGNING ROLI

I.T. Jo‘raboyev
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti i.f.n dotsent
E-mail: ibrohimzuraboev710@gmail.com

R.U Roziqov
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
E-mail: rozikov.ravshan79@gmail.com

N.Sh. Shokirova
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
E-mail: nasrullyeva24111992@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola zamonaviy biznes muhitida dolzarb bo‘lib kelayotgan yashil brending konsepsiyasini va uning barqaror korporativ imij yaratishdagi rolini tahlil qilingan. Yashil brendingning mohiyati, marketing strategiyalarida ekologik mas’uliyatni integratsiya qilish usullari va turli kompaniyalarda amalga oshirilayotgan tajribalar ko‘rib chiqildi. Patagonia, Unilever, Tesla, IKEA va Interface kabi global brendlar misolida yashil brending strategiyalarining institutsional modellari va natijalari o‘rganiladi. Marketing kommunikatsiyalarining ahamiyati va yashil brendingning afzalliklari, masalan, iste’molchi sodiqligini oshirish, bozor ulushini kengaytirish va investitsiyalarni jalb qilish kabi jihatlar ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: yashil brending, barqaror marketing, ekologik mas’uliyat, korporativ imij, marketing strategiyasi, iste’molchi xatti-harakati, greenwashing, sirkulyar iqtisodiyot, barqaror rivojlanish maqsadlari.

Аннотация

В статье анализируется концепция зелёного брендинга и её роль в формировании устойчивого корпоративного имиджа в условиях современного бизнеса. Рассмотрены методы интеграции экологической ответственности в маркетинговые стратегии и практический опыт компаний Patagonia, Unilever, Tesla, IKEA и Interface. Особое внимание уделено институциональным моделям, коммуникационной стратегии и преимуществам зелёного брендинга, включая рост лояльности потребителей, увеличение рыночной доли и привлечение инвестиций.

Ключевые слова: зелёный брендинг, устойчивый маркетинг, экологическая ответственность, корпоративный имидж, маркетинговая стратегия, поведение потребителей, зелёный камуфляж, циркулярная экономика, цели устойчивого развития.

Abstract

This article analyzes the concept of green branding and its role in building a sustainable corporate image in today’s business environment. It explores how ecological responsibility is integrated into marketing strategies, using cases from Patagonia, Unilever, Tesla, IKEA, and Interface. Institutional models, communication

strategies, and the benefits of green branding—such as increased consumer loyalty, market share growth, and attracting investment—are examined.

Keywords: green branding, sustainable marketing, ecological responsibility, corporate image, marketing strategy, consumer behavior, greenwashing, circular economy, sustainable development goals.

So‘nggi o‘n besh yil ichida yashil brending tendensiyasi global miqyosda korporativ strategiyaning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Yashil brending kompaniya yoki mahsulotning ekologik jihatdan mas’ul xususiyatlarini ta’kidlab, barqaror biznes amaliyotlarini marketing kommunikatsiyalarining markaziga qo‘yadigan strategik yondashuvni anglatadi. U qayta tiklanuvchi materiallardan foydalanish, karbon izini kamaytirish, sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari, ekologik sertifikatlash, shaffof ta’minot zanjiri va ijtimoiy mas’uliyat kabi sohalarni qamrab oladi. Ushbu jarayon nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan, balki uzoq muddatli raqobat ustunligini yaratish va brend qiymatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Yashil brendingning asosiy maqsadi - biznes muvaffaqiyatini ta’minlash bilan birga, ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasida muvozanatni yaratishdir. Bu jarayon marketing mutaxassislari, korporativ rahbariyat, dizaynerlar va kommunikatsiya ekspertlaridan keng ko‘lamli hamkorlikni talab qiladi. Ushbu maqola yashil brendingning nazariy asoslari, marketing strategiyalaridagi roli va turli kompaniyalarda amalga oshirilayotgan eng yaxshi amaliyotlarni tahlil qiladi. Shu bilan birga, marketing kommunikatsiyalarining samaradorligi va yashil brendingning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik afzalliklari ko‘rib chiqiladi.

Zamonaviy iste’molchilarning ekologik ongi keskin o‘sib bormoqda. Nielsen global tadqiqotiga ko‘ra, dunyo bo‘ylab iste’molchilarning 73 foizi barqaror brendlar uchun qo‘shimcha to‘lashga tayyor, bu ko‘rsatkich millennial avlod orasida 81 foizga yetadi. Bu o‘zgarishlar kompaniyalarni o‘z marketing strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishga va ekologik mas’uliyatni brend identifikatsiyasining markaziy elementi sifatida qabul qilishga majbur qilmoqda. Harvard Business Review ma’lumotlariga ko‘ra, yashil brending strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirgan kompaniyalar o‘rtacha 20 foizga yuqori bozor baholashiga ega bo‘lmoqda.

Shuni ta’kidlash joizki, yashil brending nafaqat ekologik tashabbuslar haqida kommunikatsiya qilish, balki kompaniya faoliyatining barcha jihatlarida haqiqiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab qiladi. McKinsey tadqiqotiga ko‘ra, iste’molchilarning 78 foizi kompaniyalardan autentik ekologik harakatlarni kutadi va greenwashing holatlariga keskin salbiy munosabat bildiradi. Bunga kompaniyaning mahsulot dizayni, ishlab chiqarish jarayonlari, ta’minot zanjiri boshqaruvi, xodimlar siyosati va jamiyat bilan munosabatlari kiradi. Shu sababli, yashil brending kompleks va uzoq muddatli strategiya sifatida qaralishi kerak.

Marketing funksiyasi yashil brending jarayonida katalizator rolini o‘ynaydi, chunki u kompaniyaning ekologik qadriyatlarini iste’molchilarga yetkazish va ularning xatti-harakatini o‘zgartirishda asosiy vosita hisoblanadi. Kotler va Keller ta’kidlaganidek, zamonaviy marketing nafaqat mijozlar ehtiyojlarini qondirish, balki jamiyat farovonligini ta’minlashga ham qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu kontekstda yashil

brending marketing 3.0 va 4.0 konsepsiyalarining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo‘lmoqda. 2023-yilda o‘tkazilgan Edelman Trust Barometer tadqiqotiga ko‘ra, iste’molchilarning 64 foizi brendlardan iqlim o‘zgarishi bo‘yicha faol pozitsiya egallashni kutadi.

Yashil brending BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs) bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, korporativ sektorning global muammolarni hal qilishdagi rolini kuchaytiradi. 17 ta SDG orasida 12-maqsad (Mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish) va 13-maqsad (Iqlim harakatlari) bevosita yashil brending amaliyotlari bilan bog‘liq. PwC tadqiqotiga ko‘ra, SDG-larni o‘z strategiyalariga integratsiya qilgan kompaniyalarning 72 foizi yangi biznes imkoniyatlarini aniqlagan. Yashil brendingning SDGs bilan bog‘liqligi shundaki, u korporativ maqsadlarni global barqarorlik maqsadlari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Masalan, Unilever’ning Sustainable Living Plan dasturi SDG-larning 15 tasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hissa qo‘shadi va kompaniyaning barqaror brendlari boshqa brendlardan 69 foiz tezroq o‘sadi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari yashil brending strategiyalarini ishlab chiqish uchun aniq yo‘l-xaritani ta’minlaydi. Kompaniyalar SDG-larni o‘z brending strategiyalariga kiritish orqali nafaqat global muammolarni hal qilishga hissa qo‘shadi, balki o‘z brendlarining relevantligini va qiymatini oshiradi. Masalan, Patagonia kompaniyasi SDG 13 (Iqlim harakatlari) ga sodiqligini "1% for the Planet" tashabbusi orqali namoyish etib, daromadining 1 foizini ekologik tashkilotlarga xayriya qiladi. Bu strategiya kompaniyaning brend sodiqligini 89 foizga yetkazgan, bu sanoat o‘rtacha ko‘rsatkichidan ikki baravar yuqori. Yashil brendingda muvaffaqiyat qozonish uchun marketing mutaxassislari bir qator strategik yondashuvlarni qo‘llaydilar. Quyida asosiy strategiyalar batafsil tahlil qilinadi:

- Autentiklik va shaffoflik strategiyasi: Zamonaviy iste’molchilar kompaniyalardan to‘liq shaffoflikni talab qiladi. Everlane kompaniyasi "Radical Transparency" strategiyasi orqali har bir mahsulotning tannarxi, ishlab chiqarish jarayoni va ekologik ta’sirini ochiq e’lon qiladi. Bu yondashuv kompaniyaning brend ishonchini 92 foizga yetkazgan. Patagonia o‘zining "Footprint Chronicles" platformasi orqali ta’minot zanjirining har bir bosqichini kuzatish imkonini beradi. 2023-yilda blockchain texnologiyasini qo‘llash orqali 47 foiz kompaniyalar o‘z ta’minot zanjiri shaffofligini oshirgan.
- Sirkulyar iqtisodiyot modeli: Ellen MacArthur Foundation ma’lumotlariga ko‘ra, sirkulyar biznes modellari 2030-yilga kelib 4.5 trillion dollar iqtisodiy qiymat yaratishi kutilmoqda. IKEA kompaniyasi 2030-yilga kelib to‘liq sirkulyar biznesga aylanish maqsadini qo‘ygan va "Buy Back" dasturi orqali eski mebellarni qaytarib oladi. H&M’ning "Conscious Collection" liniyasi 100% qayta ishlangan yoki barqaror materiallardan tayyorlanadi. Interface Inc. kompaniyasi "Mission Zero" dasturi doirasida 2020-yilda karbon neytrallikka erishdi va hozirda "Climate Take Back" tashabbusi orqali karbon-negativ bo‘lishga intilmoqda.
- Storytelling va emotsional bog‘lanish: Yashil brendlar o‘z ekologik missiyalarini kuchli hikoyalar orqali yetkazadi. Ben & Jerry’s kompaniyasi har bir muzqaymoq ta’mi orqasida ijtimoiy yoki ekologik hikoya yaratadi. National

Geographic’ning "Planet or Plastic?" kampaniyasi 1 milliarddan ortiq taassurot to‘pladi va plastik iste’molini kamaytirish harakatini global miqyosda kuchaytirdi. Dove’ning "Real Beauty" kampaniyasi barqarorlik va inklyuzivlikni birlashtirib, 20 milliard dollarlik brend qiymatiga erishdi.

- Ko-kreatsiya va mijozlarni jalb qilish: Zamonaviy iste’molchilar passiv kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishni xohlaydi. LEGO Ideas platformasi mijozlarga yangi mahsulot g‘oyalarini taklif qilish imkonini beradi va eng yaxshi g‘oyalar ishlab chiqarishga kiritiladi. Starbucks’ning "Greener Stores" dasturi mijozlar takliflari asosida 10,000 ta ekologik do‘kon ochishni rejalashtirgan. Nike’ning "Move to Zero" kampaniyasi sportchilarni karbon va chiqindisiz kelajak yaratishda ishtirok etishga undaydi.

Turli kompaniyalarning yashil brending bo‘yicha muvaffaqiyatli tajribalari qimmatli saboqlar beradi:

- Patagonia: "We’re in business to save our home planet" missiyasi bilan tanilgan Patagonia yashil brendingning etaloniga aylangan. Kompaniyaning "Don’t Buy This Jacket" paradoksal reklama kampaniyasi iste’molchilarni ongli xarid qilishga undadi va sotuvlarni 30% oshirdi. 2022-yilda kompaniya egasi Yvon Chouinard 3 milliard dollarlik kompaniyani ekologik maqsadlarga bag‘ishladi. Patagonia’ning "Worn Wear" dasturi eski mahsulotlarni ta’mirlash va qayta sotish orqali sirkulyar iqtisodiyotni amalda ko‘rsatadi. Kompaniyaning B Corporation sertifikati va "1% for the Planet" a’zoligi uning ekologik majburiyatlarini tasdiqlaydi.
- Unilever: Unilever’ning Sustainable Living Plan dasturi 2010-2020 yillarda kompaniyaning ekologik izini 50% kamaytirdi va daromadni ikki baravar oshirdi. Kompaniyaning 400 dan ortiq brendidan 28 tasi "Sustainable Living Brands" sifatida tanilgan va ular umumiy o‘sishning 75% ni ta’minlaydi. Dove, Lifebuoy, Ben & Jerry’s kabi brendlar barqarorlikni o‘z DNK’lariga singdirgan. 2023-yilda Unilever "Climate Transition Action Plan" ni e’lon qilib, 2039-yilga kelib net-zero emissiyaga erishish maqsadini qo‘ydi.
- Tesla: Tesla nafaqat elektromobillar ishlab chiqaruvchisi, balki barqaror energiya kompaniyasi sifatida o‘zini joylashtirdi. Elon Musk’ning "Master Plan" strategiyasi luxury segmentdan boshlab, ommaviy bozorga o‘tishni ko‘zda tutgan. Model 3 dunyodagi eng ko‘p sotiladigan elektromobilga aylandi. Tesla’ning Supercharger tarmog‘i 45,000 dan ortiq zaryadlash stansiyasini o‘z ichiga oladi. Kompaniyaning energiya saqlash tizimlari va quyosh panellari biznesini ham rivojlantirishi uning kompleks yashil brending strategiyasini ko‘rsatadi.
- IKEA: IKEA 2030-yilga kelib "climate positive" bo‘lish maqsadini qo‘ygan. Kompaniyaning barcha paxta mahsulotlari Better Cotton Initiative standartlariga mos keladi. 370 ta IKEA do‘koni tom panellarida quyosh batareyalari o‘rnatgan. "IWAY" ta’minotchilar kodi 1,600 ta ta’minotchining ekologik standartlarga rioya qilishini ta’minlaydi. IKEA’ning "Democratic Design" falsafasi barqarorlikni besh asosiy dizayn tamoyilidan biri sifatida belgilaydi.

O‘zbekistonda yashil brending hali rivojlanishning boshlang‘ich bosqichida bo‘lsa-da, katta potentsialga ega:

- Makroiqtisodiy muhit: "O‘zbekiston-2030" strategiyasi doirasida yashil iqtisodiyotga o‘tish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. 2030-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya ulushini 25% ga yetkazish rejalashtirilgan. Toshkent Stock Exchange’da yashil obligatsiyalar emissiyasi 2023-yilda boshlangan.
- Mahalliy brendlar tajribasi: Artel kompaniyasi A++ energiya samaradorligi standartiga mos keluvchi maishiy texnika ishlab chiqarmoqda va bu mahsulotlarni "EcoSmart" brendi ostida bozorga chiqarmoqda. Coca-Cola Uzbekistan "World Without Waste" global dasturi doirasida 2025-yilga kelib 100% qayta ishlanuvchi qadoqlashga o‘tishni rejalashtirgan. UzAuto Motors elektromobillar ishlab chiqarishni boshladi va 2030-yilga kelib ishlab chiqarishning 30% ni elektromobillarga o‘tkazishni rejalashtirmoqda.
- Tekstil sektorida imkoniyatlar: O‘zbekiston tekstil sanoatida 35 ta kompaniya Better Cotton Initiative’ga a’zo bo‘lgan. Organik paxta eksporti yillik 15% o‘sish sur’atiga ega. "Made in Uzbekistan" brendi ekologik toza mahsulotlar uchun alohida sertifikatlash tizimini joriy qilmoqda.

Yashil brending - bu zamonaviy biznesda uzoq muddatli muvaffaqiyatning kaliti. Har bir kompaniya o‘ziga xos sharoitlariga mos ravishda yashil brending strategiyasini ishlab chiqishi mumkin. Marketing mutaxassislari bu jarayonda asosiy rol o‘ynab, kompaniyaning ekologik qadriyatlarini iste’molchilarga samarali yetkazish va ularning xatti-harakatini o‘zgartirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Autentiklik, shaffoflik va haqiqiy ekologik ta’sir yashil brendingning asosiy tamoyillari bo‘lib qoladi. Shu sababli, yashil brending yo‘nalishida davom etayotgan sa’y-harakatlar nafaqat korporativ muvaffaqiyatga, balki global barqarorlik maqsadlariga erishishga ham xizmat qilishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nielsen Global Survey. (2023). The Sustainability Imperative: Consumer Attitudes Towards Environmental Responsibility. Nielsen Holdings.
2. Harvard Business Review. (2023). The Business Value of Purpose: How Green Brands Outperform. HBR Press.
3. McKinsey & Company. (2023). Beyond Greenwashing: Building Authentic Sustainable Brands. McKinsey Global Institute.
4. Kotler, P., & Keller, K. L. (2022). Marketing Management: Building Sustainable Brand Value. 16th Edition. Pearson.
5. Edelman Trust Barometer. (2023). Special Report: Trust and Climate Change. Edelman Intelligence.
6. PwC. (2023). SDG Reporting Challenge 2023: Creating Value Through Sustainability. PricewaterhouseCoopers.
7. Ellen MacArthur Foundation. (2023). The Circular Economy: A Transformative Approach to Business. EMF Publications.
8. Patagonia. (2022). Annual Benefit Corporation Report. Patagonia, Inc.
9. Unilever. (2023). Sustainable Living Report: A Decade of Action. Unilever PLC.

10. World Business Council for Sustainable Development. (2023). Vision 2050: Time to Transform. WBCSD.
11. Boston Consulting Group. (2023). The Green Premium: Turning Sustainability into Competitive Advantage. BCG.
12. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi. (2023). Yashil iqtisodiyotga o‘tish milliy strategiyasi. Toshkent.
13. Better Cotton Initiative. (2023). Annual Report: Sustainable Cotton Production in Central Asia. BCI.

ADVANCING GREEN MARKETING THROUGH GLOBAL CHALLENGES AND NEW HORIZONS

Dr. Aajaz Ahmad Hajam
Professor and Head of the Department
Tashkent International University of Education
ORCID ID: 0000-0002-5811-4698
E-mail: aajaznazir@gmail.com

Dr. Alphonsa S John
Assistant Professor
ORCID ID: 0009-0008-9102-9672
E-mail: alphonsasherlyjohn@gmail.com

Abstract

Green marketing has emerged as a critical strategic domain as organizations increasingly integrate environmental sustainability into business operations. This paper examines the contemporary challenges confronting global green marketing, including greenwashing, regulatory heterogeneity, limited measurement standards, and the persistent disparity between consumer attitudes and actual behavior. Drawing on theoretical frameworks such as the Theory of Planned Behavior, Resource Based View, and Institutional Theory, the study evaluates emerging strategies including technology-enabled transparency, circular economy integration, consumer co-creation, and cross-cultural adaptation. Evidence-based recommendations are provided for enhancing credibility, operational efficiency, and consumer engagement. The analysis underscores the need for rigorous longitudinal research to inform sustainable marketing practice and policy formulation.

Keywords: Green Marketing, Sustainable Development, Eco-friendly Products, Green Technology, Corporate Social Responsibility.

Annotatsiya

Yashil marketing korxonalar tobora ko‘proq ekologik barqarorlikni biznes faoliyatiga integratsiyalashar ekan, muhim strategik yo‘nalishga aylanmoqda. Ushbu maqola global yashil marketing oldida turgan zamonaviy muammolarni, jumladan, “yashil yuvish” (greenwashing), tartibga solishdagi xilma-xillik, cheklangan o‘lchov standartlari va iste’molchilar qarashlari bilan ularning haqiqiy xatti-harakatlari o‘rtasidagi uzilishlarni tahlil qiladi. Rejalashtirilgan xatti-harakatlar nazariyasi, resurslar asosidagi yondashuv va institutlar nazariyasi kabi nazariy asoslar orqali texnologiyalarga asoslangan shaffoflik, aylanma iqtisodiyot integratsiyasi, iste’molchilar bilan hamkorlikda yaratilish va madaniyatlararo moslashuv kabi yangi strategiyalar baholanadi. Ishonchlilikni, operatsion samaradorlikni va iste’molchilarni jalb qilishni oshirish bo‘yicha dalillarga asoslangan tavsiyalar keltirilgan. Tahlil barqaror marketing amaliyoti va siyosatini shakllantirish uchun chuqur, vaqt bo‘yicha uzluksiz tadqiqotlar zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: yashil marketing, barqaror rivojlanish, ekologik toza mahsulotlar, yashil texnologiya, korporativ ijtimoiy mas’uliyat.

Аннотация

Зелёный маркетинг становится ключевой стратегической областью по мере того, как организации всё активнее интегрируют экологическую устойчивость в свою хозяйственную деятельность. В статье рассматриваются современные проблемы глобального зелёного маркетинга, включая гринвошинг, регуляторную неоднородность, ограниченные стандарты измерения и сохраняющееся расхождение между потребительскими установками и реальным поведением. На основе таких теоретических подходов, как теория запланированного поведения, ресурсная теория и институциональная теория, оцениваются новые стратегии: прозрачность, обеспечиваемая технологиями, интеграция циркулярной экономики, совместное создание ценности с потребителями и межкультурная адаптация. Приводятся основанные на доказательствах рекомендации по повышению доверия, эффективности и вовлечённости потребителей. Анализ подчёркивает необходимость проведения строгих лонгитюдных исследований для развития устойчивой маркетинговой практики и формирования политики.

Ключевые слова: зелёный маркетинг, устойчивое развитие, экологически чистая продукция, зелёные технологии, корпоративная социальная ответственность.

INTRODUCTION

Green marketing represents a strategic orientation wherein organizations align product development, communication, and corporate practices with environmental sustainability objectives. Over the past decade, the field has gained increasing attention due to heightened consumer awareness, regulatory pressures, and global sustainability imperatives. Recent empirical studies indicate that brands perceived as environmentally responsible achieve higher levels of consumer trust, loyalty, and brand equity, highlighting the strategic significance of credible green marketing initiatives [1][2].

The theoretical foundation for contemporary green marketing is anchored in the Triple Bottom Line framework, which posits that sustainable organizational performance must integrate environmental, social, and economic outcomes [3]. Despite the proliferation of green marketing initiatives, a significant credibility gap persists; global surveys reveal that while seventy-three percent of consumers prefer environmentally friendly products, only thirty-six percent trust the claims made by companies [4]. This discrepancy highlights the imperative for organizations to adopt evidence-based, transparent, and verifiable green marketing strategies.

LITERATURE REVIEW

2.1 Greenwashing and Credibility

Greenwashing continues to be a pervasive challenge that undermines consumer trust and diminishes the effectiveness of authentic sustainability initiatives. Delmas and Burbano [5] identify organizational motivations for greenwashing, noting that firms often exaggerate environmental performance to meet consumer expectations or

regulatory compliance. Empirical research demonstrates that exposure to misleading environmental claims reduces purchase intention and brand loyalty, emphasizing the necessity of third-party certification, independent verification, and transparent reporting mechanisms [5][7].

2.2 Regulatory Heterogeneity

The absence of standardized international regulations presents a substantial challenge for multinational organizations. While the European Union's Green Claims Directive enforces rigorous verification standards, other regions lack consistent regulatory frameworks, leading to variability in compliance, labeling, and marketing practices [6]. This heterogeneity complicates global strategy formulation and necessitates region-specific adaptations.

2.3 Measurement and Evaluation Limitations

Quantitative assessment of environmental impact remains constrained by methodological inconsistencies. Lifecycle assessment, carbon footprint calculations, and eco-labeling differ across industries and geographies, undermining comparability and consumer confidence [7]. Standardization of measurement frameworks is essential to enhance transparency, facilitate informed consumer decisions, and enable credible cross-market comparisons.

2.4 Consumer Attitude-Behavior Gap

Despite increasing environmental awareness, consumers often fail to translate attitudes into sustainable purchasing behaviors. Correia et al. [7] report that although seventy percent of consumers indicate a preference for environmentally friendly products, only forty percent consistently engage in green purchasing. Socio-economic constraints, perceived product efficacy, and social norms act as moderating factors in this behavioral gap, underscoring the need for strategies that bridge intention and action.

2.5 Cultural and Socioeconomic Influences

Consumer responses to green marketing are mediated by cultural values, socioeconomic status, and normative beliefs. Mehraj et al. [8] emphasize that education and income positively correlate with sustainable consumption, while regional cultural norms influence the perception of environmental responsibility. Consequently, cross-cultural marketing strategies that incorporate local values, behavioral expectations, and environmental priorities are critical for global efficacy.

THEORETICAL FRAMEWORKS

3.1 Theory of Planned Behavior

The Theory of Planned Behavior posits that attitudes, subjective norms, and perceived behavioral control predict behavioral intentions [10]. Within the green marketing context, this framework elucidates the mechanisms by which trust in sustainability claims moderates the translation of intention into actual purchasing behavior. Firms can leverage this insight to design interventions, such as educational campaigns or participatory initiatives, that reinforce sustainable consumption.

3.2 Resource Based View

The Resource Based View asserts that organizations with unique, valuable, and inimitable resources achieve sustained competitive advantage [11]. Applied to green marketing, this perspective emphasizes the strategic importance of eco-certifications, green supply chain competencies, and innovation in sustainable product design as differentiators that enhance market positioning.

3.3 Institutional Theory

Institutional Theory provides a lens for understanding the influence of regulatory frameworks, industry norms, and societal expectations on organizational behavior [14]. Firms that align marketing practices with international sustainability standards and policies not only achieve compliance but also enhance legitimacy and consumer trust.

EMERGING STRATEGIC HORIZONS

4.1 Technology-Enabled Transparency

Advancements in blockchain, artificial intelligence, and IoT facilitate the provision of verifiable, real-time information on product lifecycle and environmental impact [10]. Such transparency addresses consumer skepticism and strengthens credibility in green marketing communications.

4.2 Consumer Co-Creation

Involving consumers in product design and sustainability initiatives fosters engagement, ownership, and loyalty [11]. Co-creation strategies enable firms to tailor products to consumer values while reinforcing perceptions of corporate responsibility.

4.3 Circular Economy Integration

Circular economy practices, emphasizing resource efficiency, product lifecycle management, and waste reduction, are increasingly central to sustainable marketing strategies [12]. Companies implementing these practices benefit from operational efficiency, reduced environmental impact, and enhanced consumer perception of responsibility.

4.4 Innovation and Product Development

Sustainable innovation, including eco-friendly materials, renewable energy integration, and efficient packaging, remains a critical driver of differentiation [13]. Firms investing in these capabilities position themselves competitively in an environmentally conscious market.

4.5 Cross-Cultural and Global Adaptation

Understanding regional environmental priorities, cultural values, and communication norms is crucial for designing globally relevant green marketing strategies [15]. Contextual adaptation enhances engagement, mitigates cultural misalignment, and fosters adoption of sustainable products.

DISCUSSION

The trajectory of green marketing is characterized by the intersection of consumer expectations, regulatory requirements, technological innovation, and strategic organizational behavior. Evidence suggests that successful future-oriented green marketing strategies integrate technology-enabled transparency, consumer engagement through co-creation, circular economy principles, and cross-cultural adaptation. Firms

that strategically combine these dimensions with rigorous measurement standards and adherence to institutional frameworks are more likely to achieve sustainable competitive advantage.

The literature highlights that bridging the consumer attitude-behavior gap requires targeted interventions, including educational initiatives, participatory marketing, and verification of environmental claims. Moreover, organizations must anticipate evolving regulatory landscapes and technological developments to maintain credibility and market relevance.

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

Green marketing is evolving from a peripheral marketing approach to a core strategic imperative. Organizations that adopt transparent, evidence-based practices, leverage technological innovations, engage consumers in co-creation, and integrate circular economy principles are poised to achieve competitive advantage and contribute meaningfully to sustainability objectives. Future research should focus on longitudinal, cross-cultural, and multi-industry studies to validate strategies, standardize measurement frameworks, and advance theory and practice in global green marketing.

REFERENCES

1. Ottman JA. The New Rules of Green Marketing Strategies Tools and Inspiration for Sustainable Branding. Routledge 2017.
2. Peattie K, Crane A. Green marketing legend myth farce or prophesy. Qualitative Market Research: An International Journal 2005;8(4):357-370.
3. Elkington J. Cannibals with Forks The Triple Bottom Line of 21st Century Business. Capstone 1998.
4. NielsenIQ. Green Gauge Global Sustainability Report 2023. https://nielseniq.com
5. Delmas M, Burbano VC. The drivers of greenwashing. California Management Review 2011;54(1):64-87.
6. European Commission. EU Green Claims Directive 2023. https://ec.europa.eu/environment/green-claims
7. Correia E, Sousa S, Viseu C, Larguinho M. Analysing the influence of green marketing communication in consumers green purchase behaviour. International Journal of Environmental Research and Public Health 2023;20(2):1356.
8. Mehraj D, Qureshi IH, Singh G, Nazir N. Demographic influences on green consumer behavior in emerging economies. Business Strategy and Development 2023;6(2):89-102.
9. Chen YS. Green innovation and sustainable competitive advantage. Management Decision 2008;46(2):268-289.
10. Lim M, Lee J, Kim H. Technology-enabled transparency in sustainable consumption. Journal of Cleaner Production 2023;398:136482.
11. Ranjbari M, Shafiee S, Rana P, Luthra S. Future perspectives of consumer co-creation in sustainable marketing. Journal of Cleaner Production 2022;367:132938.

12. Geissdoerfer M, Savaget P, Bocken NMP, Hultink EJ. The Circular Economy A new sustainability paradigm. Journal of Cleaner Production 2017;143:757-768.

13. Ottman JA. Innovation in green product design and competitive advantage. Journal of Marketing Development and Competitiveness 2018;12(2):45-55.

14. Scott WR. Institutions and Organizations Ideas Interests and Identities. Sage Publications 2013.

15. Mehraj D, Singh G, Qureshi IH. Cross-cultural perspectives on green marketing. International Journal of Consumer Studies 2022;46(5):789-803.

YASHIL MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH KONTEKSTIDA EKOLOGIK STANDARTLARNING JAHON SAVDOSIGA TA’SIRI

Muratova Shohista Nimatullayevna
kafedra boshlig‘i, i.f.d., professor,
O‘zR Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti

Annotatsiya

Ushbu tezisda ekologik standartlarning xalqaro savdo va bojxona tartibotlariga ta’siri, “yashil” marketing siyosati va bojlar tizimi orqali barqaror iqtisodiyotga o‘tish masalalari yoritilgan. CBAM, uglerod soliqlari, yashil tariflar va ekologik subsidiyalar kabi vositalar misolida ekologik talablar global savdo siyosatida muhim o‘rin tutayotgani ko‘rsatilgan. O‘zbekiston uchun bu tendensiyalar yangi imkoniyatlar bilan birga, muvofiqlik va moslashuv talablarini ham yuzaga chiqaradi.

Kalit so‘zlar: yashil marketing, ekologik standartlar, uglerod boji, yashil tarif, xalqaro savdo, CBAM, ekologik bojxona siyosati.

Аннотация

В тезисе рассматривается влияние экологических стандартов на международную торговлю и таможенные процедуры в контексте развития «зелёного» маркетинга. Освещены механизмы — CBAM, углеродные пошлины, зелёные тарифы, экологические субсидии — как инструменты устойчивого перехода. Подчёркивается, что интеграция таких мер требует от стран адаптации к новым условиям мировой торговли и открывает перспективы для экологически ориентированного экспорта.

Ключевые слова: зелёный маркетинг, экологические стандарты, углеродный сбор, зелёные тарифы, CBAM, внешняя торговля, экотаможня.

Abstract

This thesis explores the impact of environmental standards on international trade and customs procedures through the lens of green marketing development. It highlights policy tools such as CBAM, carbon taxes, green tariffs, and subsidies as key instruments for enabling sustainable trade. The study notes that these mechanisms both challenge and create new opportunities for countries like Uzbekistan to align with global eco-regulatory trends.

Keywords: green marketing, environmental standards, carbon border tax, green tariffs, international trade, CBAM, green customs policy.

Yashil iqtisodiyotni amalga oshirishning asosiy jihatlaridan biri bu ekologik standartlar tobora muhim rol o‘ynaydigan xalqaro savdo va bojxona tartibotlari sohasidagi yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishdir. Hozirgi vaqtda biznes amaliyotiga haqiqiy “yashil” marketingni joriy etish usullari kun tartibiga qo‘yilmoqda.

K.Peattie ta’kidlashicha, “yashil” marketing atrof-muhitga salbiy ta’sirni minimallashtiradigan va odamlar uchun sog‘lom turmush tarzini ta’minlaydigan biznesni rivojlantirishga yordam berishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, “yashil” marketing bir tomondan barqaror iqtisodiy o‘sishga va eng yangi texnologiyalarni joriy

etishga, boshqa tomondan ekologik ong, mas’uliyat va xavfsizlikni oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak [1].

Bojxona tartibotlari tashqi savdoning muhim qismi sifatida ekologik talablarni hisobga olish zarurligiga duch kelmoqda va bu bir qator omillarga bog‘liq. Bir tomondan, ekologik toza tovarlarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi mamlakatlar va kompaniyalar uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratmoqda. Boshqa tomondan, karbonat angidrid emissiyasi, qayta ishlash, sertifikatlash va qadoqlash standartlariga qo‘yiladigan talablar kabi ekologik standartlar ularga rioya qilish uchun qo‘shimcha to‘siqlar va xarajatlarni keltirib chiqaradi. Ekologik mezonlar bojxona tartib-taomillarining muhim qismiga aylanib bormoqda, bu esa mamlakatlar va korxonalarni yangi sharoitlarga moslashishni talab qiladi.

Bojxona tartibotlarini ekologik talablarga moslashtirish hamda ekologik bojlar va tariflarni joriy etish davlatlarga tashqi savdoning atrof-muhitga ta’sirini tartibga solish va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirishga yordam beradigan muhim vositalardir. Bojxona tartib-taomillari tovarlarni import va eksport qilishda ekologik standartlar va talablarni hisobga oladigan tarzda moslashtirilishi mumkin.

Ekologik boj va tariflar ekologik toza tovarlar va texnologiyalarni rag‘batlantirishga, shuningdek, atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan tovarlarga nisbatan sanksiyalarni qo‘llashga qaratilgan tashqi savdo vositalarini anglatadi. Asosiy jihatlarga quyidagilar kiradi:

1. Ekologik bojlar – atrof-muhitga zarar yetkazadigan tovarlar, masalan, ifloslantiruvchi moddalar, xavfli chiqindilar, plastmassa va atrof-muhit standartlariga javob bermaydigan boshqa tovarlar uchun olinadigan qo‘shimcha to‘lovlardir. Ushbu bojlar ekologik toza alternativalarga o‘tishni rag‘batlantirish uchun kiritilishi mumkin.

2. “Yashil” tariflar – ekologik standartlarga javob beradigan tovarlar uchun pasaytiriladigan yoki bekor qilinadigan tariflar, masalan ekologik toza texnologiyalar, energiya tejaydigan uskunalar, qayta tiklanadigan energiya manbalari (quyosh panellari, shamol generatorlari va boshqalar). Bu ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarni barqaror texnologiyalarga o‘tishga undaydi.

3. Uglerod boji tizimi. Ba’zi mamlakatlarda atrof-muhit standartlari unchalik jiddiy bo‘lmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga uglerod bojlari joriy etilmoqda. Ushbu mexanizm uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan, chunki ishlab chiqarish sezilarli CO_2 emissiyasiga olib keladigan tovarlarga bojlar undiriladi.

4. Ekologik subsidiyalar va soliq imtiyozlari. Ekologik bojlar bilan bir qatorda barqaror texnologiyalar yoki past uglerodli mahsulotlar sohasida ishlaydigan importyorlar yoki ishlab chiqaruvchilar uchun subsidiyalar yoki soliq imtiyozlari berilishi mumkin. Bunga ekologik toza avtomobillar, quyosh panellari, energiya tejaydigan qurilmalar va boshqalarni import qilish uchun subsidiyalar kiradi.

5. “Plastik” tariflar. Plastik qadoqlarni o‘z ichiga olgan yoki parchalanmaydigan materiallardan tayyorlangan tovarlarga tariflar yoki soliqlarni joriy etish ham mashhur amaliyotga aylanmoqda. Bu plastmassadan foydalanishni kamaytirishga yordam beradi va ishlab chiqaruvchilarni muqobil ekologik toza materiallarga o‘tishga undaydi [2].

Shuni ta’kidlash kerakki, 2023-yilda Yevropa Ittifoqi CBAM (Carbon Border Adjustment Mechanism) mexanizmini joriy qildi, u eksport qiluvchi mamlakatda uglerod chiqindilari bo‘yicha o‘xshash standartlarga ega bo‘lmagan taqdirda po‘lat, sement va alyuminiy kabi tovarlarni import qilishga bojlar qo‘yadi. Ushbu mexanizm Yevropa Ittifoqiga o‘z ishlab chiqaruvchilarini himoya qilish va xalqaro yetkazib beruvchilarni CO_2 emissiyasini kamaytirishga undash imkonini beradi [3].

Kanadada ekologik toza texnologiyalar ishlab chiqaradigan kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari joriy etildi. Mamlakatga quyosh panellari, qayta tiklanadigan energiya akkumulyatorlari yoki elektr transport vositalarini yetkazib beradigan importyorlar soliq imtiyozlaridan foydalanishlari mumkin.

Buyuk Britaniyada plastik butilkalar, idishlar va oziq-ovqat qadoqlari kabi bir martalik plastik qadoqlarga ekologik soliq joriy etilgan. Ushbu soliq ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilarga yanada barqaror qadoqlash materiallariga o‘tish uchun ta’sir ko‘rsatadi va plastmassani qayta ishlashga yordam beradi. Plastik qoplarga bojlar ham joriy etildi, bu biologik parchalanadigan sumkalar kabi muqobil materiallardan foydalanishni rag‘batlantiradi.

Energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etishning yorqin vakili hozirda AQSh bo‘lib, u nafaqat energiya tejashga, balki qulay ekologik muhitni saqlashga qaratilgan bir qator dasturlar va texnologiyalarni amalga oshirmoqda. Amaldagi texnologiyalar orasida quyidagilarni ta’kidlash mumkin: qurilish obyektlarining (binolar, inshootlar) energiya samaradorligi texnologiyalari, suv iste’molini samarali boshqarish texnologiyalari, zararli chiqindilarni boshqarish va kamaytirish texnologiyalari va h.k. Texnologiya AQSh hukumatiga ishlab chiqarishning energiya sarfini 49 foizga kamaytirish va 50 milliard dollar tejash imkonini berdi. Atrof-muhit tarkibiy qismiga kelsak, bu atmosferaga chiqadigan chiqindilarning sezilarli darajada pasayishiga olib keldi [4].

Shunday qilib, bojxona tartibotlarini moslashtirish va ekologik bojlarni, shuningdek tariflarni joriy etish ekologik va iqtisodiy maqsadlarni global darajada birlashtirish yo‘lidagi muhim qadamdir, degan xulosaga kelish mumkin. Ular barqaror ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga, ifloslanishni kamaytirishga va xalqaro savdoda ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.

Biroq, ekologik standartlar xalqaro savdoda ham keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin. Uglerod izini kamaytirishga qaratilgan yashil tariflar va ekologik bojlarning joriy etilishi savdo urushlariga olib kelishi mumkin, ayniqsa bunday choralar yashirin proteksionizm sifatida ko‘rilsa.

Savdo aloqalari uchun mumkin bo‘lgan xavflarga qaramay, istiqbolda yashil iqtisodiyotga o‘tish muqarrar va zarurdir. Bu bojxona tartibotlari va soliq siyosatiga yangi yondashuvlarni, shuningdek, adolatli va barqaror savdo mexanizmlarini yaratish uchun mamlakatlar o‘rtasida faol hamkorlikni talab qiladi.

Ekologik standartlarni bojxona va soliq mexanizmlariga samarali integratsiya qilish yashil iqtisodiyot tamoyillarini global darajada muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy jihati hisoblanadi. So‘nggi yillarda xalqaro savdoda ekologik standartlarni joriy etish tendensiyasi o‘sib bormoqda, bu esa soliq tizimlarida ham,

chegaradagi operatsion jarayonlarda ham o‘zgarishlarga olib keladi. Yorqin misol – qishloq xo‘jaligida barqarorlik standartlariga rioya qilish tashabbuslari, masalan, “Fair Trade” standartlari bo‘yicha tovarlarni sertifikatlash yoki organik mahsulotlarni ekologik sertifikatlashdir. Ushbu sertifikatlar ishlab chiqaruvchilardan ekologik va ijtimoiy standartlarga rioya qilishni talab qiladi, bu esa bojxona jarayonlariga bevosita ta’sir qiladi. Ushbu standartlarga javob bermaydigan tovarlarni talab yuqori bo‘lgan bozorlarga yetkazib bo‘lmaydi.

Shunday qilib, bojxona va soliq organlari darajasida ekologik standartlarni qabul qilish mahsulot sifatini yaxshilashga, uglerod chiqindilarini kamaytirishga va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirishga yordam beradi. Uglerod bojlari va “yashil” tovarlarni sertifikatlash kabi xalqaro miqyosda muvofiqlashtirilgan sa’y-harakatlar nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishni, balki biznes uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishni ham rag‘batlantirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Peattie K. Green marketing. The marketing book. Routledge, 2016. – P. 595-619.

2. О Концепции внедрения принципов «зеленой» экономики в Евразийском экономическом союзе: рекомендация Коллегии Евразийской экономической комиссии от 14.11.2023 г. №32. URL: https://www.consultant.ru/law/podborki/zelenayajekonomika.

3. Нехороших И.Н. Перспективы развития экономики Японии. / И.Н.Нехороших, И.Г.Перепелкин // Регион: системы, экономика, управление. — 2021. – №1 (52). – С.51-55.

4. Бабаян О.А. Зеленая экономика и право. / О.А.Бабаян, И.М.Жмурко // Финансовое право. – 2024. – №9. URL: https://www.consultant.ru/law/podborki/zelenaya_jekonomika.

ИННОВАЦИОННЫЕ КОНЦЕПЦИИ УСТОЙЧИВЫХ ФИНАНСОВ: ЦИФРОВЫЕ ВАЛЮТЫ КАК ДРАЙВЕР ЗЕЛЕНОГО РАЗВИТИЯ

Авазов Акобир Акрам угли
Магистрант 2-го курса филиала
Санкт-Петербургского государственного университета
в г. Ташкенте
E-mail: st135763@student.spbu.ru

Нестеров Игорь Олегович
Кандидат экономических наук, доцент
Кафедры мировой экономики
E-mail: i.nesterov@spbu.ru

Аннотация

В тезисе рассматриваются инновационные подходы к устойчивому финансированию через использование цифровых валют как драйвера «зеленого» развития. Проанализированы роль блокчейн-технологий, искусственного интеллекта и цифровых валют центральных банков (CBDC) в повышении прозрачности климатических инвестиций, снижении транзакционных издержек и расширении финансовой инклюзии. Особое внимание уделено энергоэффективности цифровых валют и их влиянию на углеродный след финансовой системы. Отмечено, что при грамотном регулировании и технологическом дизайне цифровые валюты могут стать ключевым инструментом масштабирования «зеленых» финансов и ускорения перехода к низкоуглеродной экономике.

Ключевые слова: устойчивое финансирование, цифровые валюты, CBDC, блокчейн, зеленая экономика, климатические инвестиции, энергетическая эффективность.

Annotatsiya

Mazkur tezisda barqaror moliyalashtirishning innovatsion yondashuvlari — xususan, raqamli valyutalarning “yashil” rivojlanishdagi drayver sifatidagi o‘rni tahlil qilingan. Blokcheyn texnologiyalari, sun’iy intellekt va markaziy banklarning raqamli valyutalari (CBDC) ekologik investitsiyalar shaffofligini oshirish, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamli valyutalarning energiya samaradorligi va moliya tizimi uglerod iziga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari raqamli valyutalar to‘g‘ri me’yoriy va texnologik boshqaruv sharoitida “yashil” moliyalashtirishni kengaytiruvchi va past uglerodli iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtiruvchi asosiy vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: barqaror moliya, raqamli valyuta, CBDC, blokcheyn, yashil iqtisodiyot, ekologik investitsiyalar, energiya samaradorligi.

Abstract

This thesis explores innovative approaches to sustainable finance, focusing on digital currencies as a driver of green development. It analyzes the role of blockchain

technology, artificial intelligence, and central bank digital currencies (CBDCs) in enhancing transparency of climate investments, reducing transaction costs, and improving financial inclusion. Special attention is given to the energy efficiency of digital currencies and their impact on the carbon footprint of financial systems. The study concludes that, under proper regulatory and technological design, digital currencies can serve as a key instrument for scaling up green finance and accelerating the transition toward a low-carbon economy.

Keywords: sustainable finance, digital currencies, CBDC, blockchain, green economy, climate investments, energy efficiency.

В условиях обострения климатических и экономических вызовов концепция устойчивого финансирования становится критической. Как отмечает UNDP, ежегодный разрыв в финансировании Целей устойчивого развития (ЦУР) составляет порядка 4 трлн долл. США [1], что требует перенаправления частного и государственного капитала на экологические проекты. Цифровые технологии в финансовом секторе рассматриваются как катализатор инноваций, способный преодолевать существующие барьеры и открывать новые каналы инвестиций [1]. В частности, такие инструменты как блокчейн и большие данные повышают прозрачность и надежность информации о климатических проектах, укрепляя доверие инвесторов. Так, блокчейн-технологии могут улучшать подотчетность в области климатического финансирования и бороться с коррупцией за счёт возможности в реальном времени отслеживать использование средств [1].

Цифровые валюты, включая криптовалюты и цифровые деньги центральных банков (CBDC), рассматриваются как новая форма «доверенных» денег. Они отличаются программируемостью (смарт-контрактами), что позволяет интегрировать экологические цели непосредственно в финансовые механизмы. IMF указывает, что при проектировании цифровых валют важно учитывать их энергетический след: криптовалюты на основе майнинга (Proof-of-Work) крайне энергоёмки, тогда как альтернативные протоколы могут оказаться значительно более эффективными, чем существующие платежные системы [2]. Одновременно анализ показывает, что устойчивость CBDC зависит от энергопрофиля страны и технических решений: чем «чище» энергетика государства и энергоэффективнее архитектура валюты, тем меньший углеродный след они оставляют [6]. Таким образом, цифровые валюты представляют собой мощный инструмент, который при продуманном дизайне может способствовать «зелёному» развитию, но их эффективность требует комплексного подхода к экологии и регуляции [2;6].

Финансовые инновации для зеленого развития: роль цифровых валют

«Зелёные финансы» включают широкий спектр механизмов инвестирования в экологические проекты (зелёные облигации, кредиты и т.д.), направленных на борьбу с изменением климата и охрану окружающей среды [7]. Цифровые валюты и смарт-контракты открывают новые перспективы в этой сфере. Так, проект BIS Genesis продемонстрировал возможности токенизации «зелёных» государственных облигаций: инвестор мог через мобильное

приложение вкладывать любую сумму в облигации, финансирующие экологические проекты, и в режиме реального времени видеть объём сгенерированной чистой энергии и сниженные выбросы CO_2, связанные с его инвестицией [4]. Это свидетельствует о том, что цифровые платформы могут сделать «зелёные» инструменты более доступными и прозрачными для розничных инвесторов.

Кроме того, цифровые валюты обеспечивают автоматизацию финансовых потоков и объединение смежных процессов. BIS подчёркивает, что появление цифровых валют и смарт-контрактов даёт «ключевые возможности для автоматизации инвестиций», снижая транзакционные издержки и управляя сложностью финансирования распределённых проектов в области чистой энергетики [4]. В частности, посредством цифровых эскроу-аккаунтов можно внедрять модели смешанного финансирования, когда льготный капитал берёт на себя часть рисков проекта. Это расширяет доступ малых и средних предприятий, а также развивающихся стран к климатическим инвестициям, снижая стоимость всего проекта для коммерческих инвесторов [4]. Таким образом, цифровая инфраструктура создаёт «сглаженный» канал привлечения капитала в «зелёную» экономику, включая малообеспеченные и недообслуживаемые сегменты рынка [7].

CBDC могут дополнительно способствовать устойчивому развитию. Помимо повышенной финансовой инклюзии (как отмечает UNDP, CBDC способны дать недоступные ранее услуги широким слоям населения [1]), они открывают возможности для внедрения «зеленых» стимулов в денежную систему. Например, CBDC можно программировать таким образом, чтобы вознаграждать экологичное поведение или ограничивать финансирование «грязных» секторов. Исследования показывают, что страны с большим удельным весом возобновляемой энергетики в сочетании с энергоэффективными протоколами цифровых валют получают наименьший углеродный след от своих CBDC [6].

Совокупность цифровых технологий также повышает прозрачность финансирования. В частности, интеграция искусственного интеллекта и блокчейна позволяет точнее прогнозировать эффективность инвестиций и выявлять основные драйверы роста «зелёных» вложений. Это значительно улучшает подотчетность и устойчивость стратегий инвестирования: как показало исследование, применение AI и блокчейна повышает точность инвестиционных прогнозов, а достижение 98,8% точности в классификации демонстрирует потенциал этих инструментов для поддержки долгосрочной экологической устойчивости [7]. Одновременно «цифровая прозрачность» снижает риски мошенничества и «зелёного камуфляжа» (greenwashing), поскольку инвесторы могут в реальном времени отслеживать расход своих средств [1;7].

Наряду с преимуществами, цифровые валюты несут и риски. Так, энергоёмкость некоторых криптовалют остаётся высокой [2], что может

нивелировать их экологическую пользу. Их высокая волатильность и дефицит доверия требуют усиленного регулирования. Вводя «зелёные» требования к цифровым валютам, регуляторы должны учитывать их дизайн и энергопотребление [6]. В противном случае инновационный потенциал может быть снижен из-за непреднамеренных последствий, таких как рост эмиссии углерода или финансовая нестабильность.

Инновационные цифровые валюты обладают потенциалом стать важным драйвером «зелёного» развития. Их программируемость, возможность интеграции экологических данных и повышение прозрачности финансовых операций создают предпосылки для масштабирования финансирования устойчивых проектов. В то же время эффективное использование этого потенциала требует сочетания технологических и политических решений. Как отмечает BIS, решение проблемы изменения климата предполагает коллективные усилия и координацию всех участников рынка, и «финансы могут быть ключевым фактором перехода к зелёному и устойчивому будущему» [4]. Технологические инновации в «зелёной» политике должны быть частью комплексной стратегии: IMF подчёркивает, что финтех-инструменты лишь частично снимают барьеры и должны дополняться политикой улучшения климатических данных, инфраструктуры и регулятивных стандартов [3]. При соблюдении этих условий цифровые валюты станут эффективным дополнением традиционных механизмов устойчивого финансирования и ускорят переход мировой экономики на низкоуглеродную траекторию.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. UNDP. Digital Sustainable Finance. UNDP Global Centre for Technology, Innovation and Sustainable Development, 2022. URL: https://www.undp.org/policy-centre/singapore/digital-sustainable-finance

2. Agur I., Deodoro J., Lavayssière X., et al. Digital Currencies and Energy Consumption. IMF FinTech Note No. 2022/006, 2022. DOI: 10.5089/9798400208249.063

3. Loukoianova E., Natalucci F., Wang Y.D., Kanada S. Fintech Applications for Boosting Climate Finance. IMF Staff Climate Note No. 2024/008, 2024. DOI: 10.5089/9798400293740.066

4. BIS Innovation Hub Hong Kong Centre. A vision for technology-driven green finance. Project Genesis Report 1, 2021. URL: https://www.bis.org/publ/othp43_report1.pdf

5. BIS Innovation Hub – Hong Kong Monetary Authority. Project Genesis 1.0: Prototype digital platforms for green bond tokenisation. 2021. URL: https://www.bis.org/about/bisih/topics/green_finance/green_bonds.htm

6. Alonso S.L.N. Can Central Bank Digital Currencies be green and sustainable? Green Finance, 2023, Vol.5, No.4, pp.603–623. DOI: 10.3934/GF.2023023

7. Li T., Lau W.T., Dato H.Y. Blockchain Applications in Green Finance for Transparency and Accountability in Sustainable Investments. Sustainability, 2025, Vol.17, No.6, 2520. DOI: 10.3390/su17062520

GREEN MARKETING: ISTE’MOLCHILARDA “EKOLOGIK ONGLILIK” TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH

Bekmurodova Go‘zal Adhamovna
Bank ishi kafedrasi katta o‘qituvchisi, DSc
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: guzal.7@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada iste’molchilarning ekologik ongliligi tushunchasi, uning shakllanish omillari va marketingdagi o‘rni tahlil qilingan. Ekologik xulq-atvor, ongli tanlov, chiqindilarni boshqarish va yashil brendlar bilan bog‘liq yondashuvlar yoritilgan. 4R konsepsiyasi asosida resurslarni tejash va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik tamoyillari asoslanadi. Iste’molchilar xulq-atvori barqaror rivojlanishga xizmat qilishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik ong, yashil marketing, 4R konsepsiyasi, ongli iste’mol, chiqindilar, barqaror rivojlanish, ekologik xulq-atvor.

Аннотация

В статье раскрывается понятие экологического сознания потребителей, анализируются факторы его формирования и влияние на маркетинговую практику. Рассмотрены экологическое поведение, осознанный выбор, управление отходами и роль зелёных брендов. На основе концепции 4R обоснована необходимость рационального потребления и снижения вреда окружающей среде. Подчёркнуто значение потребительского поведения для устойчивого развития.

Ключевые слова: экологическое сознание, зелёный маркетинг, концепция 4R, осознанное потребление, отходы, устойчивое развитие, поведение потребителей.

Abstract

The article explores the concept of consumer environmental awareness, its influencing factors, and its role in marketing. It examines eco-friendly behavior, conscious choice, waste management, and green branding. The 4R framework emphasizes resource efficiency and environmental responsibility. The study highlights how consumer behavior can support sustainable development goals and promote long-term ecological balance.

Keywords: environmental awareness, green marketing, 4R concept, conscious consumption, waste, sustainable development, consumer behavior.

Global ekologik muammolar — iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning tanazzuli, atrof-muhitning ifloslanishi — sharoitida iste’molchilarning ekologik ongliligi fenomeni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, iste’molchi xulq-atvori an’anaviy tanlov mezonlaridan (narx, sifat, funksional xususiyatlar) tashqari tobora ko‘proq ekologik omilni ham o‘z ichiga olmoqda. Ekologik muammolar nafaqat avtomobillar va fabrikalardan chiqadigan chiqindi gazlar bilan cheklanib qolmaydi balki odamlarning o‘zlari tomonidan

kundalik tovarlarni iste’mol qilishning ko‘payishi sayyoramizga juda katta miqdordagi chiqindilar ko‘rinishida katta zarar etkazmoqda [1]. Turli xil tovarlarning mavjudligi hayot sifatini yaxshilagan bo‘lsa-da, ulardan foydalanishdan keyin qolgan chiqindilar bilan nima qilish kerak: eskirgan kiyim, tashlab ketilgan elektronika, qadoqlash va hokazo…

Ushbu maqolaning maqsadi — zamonaviy marketing bozorida iste’molchilarning ekologik ongliligi mohiyatini tahlil qilish, uning shakllanish omillarini aniqlash va bozor jarayonlariga ta’sirini ko‘rib chiqish.

Iste’molchilarning ekologik ongliligi — bu atrof-muhitga zararni minimallashtiruvchi tovar va xizmatlarni tanlashga qaratilgan bilimlar, qadriyatlar va amaliy harakatlar majmuasidir. Bu fenomen ***barqaror iste’mol*** konsepsiyasi doirasida qaraladi va u resurslarni oqilona ishlatish hamda ifloslanish darajasini kamaytirishni nazarda tutadi.

1-jadval.

Ekologik ongli likning shakllanish omillari [2]

Omil	Mazmuni	Namunalar
Axborot omillari	OAV, internet va ta’lim orqali ekologik bilimlarga ega bo‘lish	Hujjatli filmlar ko‘rish, eko-aksiyalarda qatnashish
Ijtimoiy-madaniy omillar	“Eko-turmush tarzi” qadriyatlarining shakllanishi, jamoatchilik fikri ta’siri	Yoshlar orasida ko‘p martalik idishlar va sumkalarning ommalashishi
Iqtisodiy omillar	Narh va resurslar mavjudligi bilan bog‘liq rag‘bat va cheklovlar	Energiya tejovchi texnologiyalarga tariflarni pasaytirish
Normativ-huquqiy omillar	Davlat siyosati, ekologik standartlar va sertifikatlash	“eco” va “organic” yorliqlari
Shaxsiy omillar	Individual qadriyatlar va e’tiqodlar	Plastik paketlardan o‘z ixtiyori bilan voz kechish

Bugungi kunda zamonaviy istemolchilarga tovarlar, mahsulotlar va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni o‘rgatibgina qolmay balki, ularni o‘z ehtiyojlarini qondirishda atrof-muhitga zarar bermaslikka harakat qilishlari shart ekanligi borasida ham tashviqot ishlarini olib borish zarur. Mahsulotni qadoqlanishi iste’molchining xarid qilish xatti-harakatlarida muhim rol o‘ynaydi, chunki u xaridorning mahsulotga birinchi ta’siri bo‘lib, sotib olish va iste’mol qilish vaqtida doimiy taassurot qoldiradi. Qadoqlash mahsulot uchun idishni loyihalash va ishlab chiqarish sifatida aniqlanadi [3]. Shu sababli har bir istemolchi keraksiz xaridlardan qochishi va qayta ishlatiladigan mahsulotlarni tanlashlari lozimligi borasida maslahatlar berish lozim. Buning uchun alohida 4R konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra konsepsiyaning to‘rtta R manosi quyidagilarni anglatadi [4]:

**Refuse* - keraksiz narsadan voz kechish;

**Reduce* - iste’molni kamaytirish uchun;

**Reuse* - qayta ishlatish uchun;

**Recycle* - qayta ishlash.

Ushbu qoidadan kelib chiqib bizga shu malum bo‘ladiki, istemolchilarning haqiqatda kerak bo‘lganidanda ortiqcha iste’mol qilishlari atrof-muhitga salbiy ta’sir qiladi. Tovarlarni xaddan ziyod ishlab chiqarilishi tejash mumkin bo‘lgan tabiiy

resurslarni iste’mol qiladi. Axir, har bir mahsulot o‘ziga xos uglerod iziga ega va butun hayotiy sikli davomida - ishlab chiqarishdan foydalanish va utilizatsiya qilishgacha bo‘lgan davrda atrof-muhitga ta’sir qiladi.

2-jadval.

Iste’molchilarning ekologik ongliligi namoyon bo‘lish shakllari [5]

Namoyon bo‘lish shakli	Mazmuni	Namuna
Ongli tovar tanlovi	Ekologik toza, qayta ishlangan yoki biologik parchalanuvchi mahsulotlarni tanlash	“Hayvonlarda sinovsiz” belgisiga ega kosmetika sotib olish
Iste’molni qisqartirish	Ortiqcha xarid va ehtiyojsiz iste’moldan voz kechish	Faqat zarur kiyim-kechak sotib olish
Chiqindilarni ajratish	Qayta ishlash va chiqindilarni saralash dasturlarida ishtirok etish	Plastik va qog‘ozni maxsus punktlarga topshirish
Alternativadan foydalanish	Ekologikroq analoglardan foydalanish	Avtomobil o‘rniga elektrosamokat ishlatish
«Yashil» brendlarni qo‘llash	Barqaror amaliyotlarni joriy etgan kompaniyalarni tanlash	Quyosh yoki shamol energiyasidan foydalanuvchi brendlarga ustunlik berish
Shaxsiy ishtirok	Tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan jamoatchilik tashabbuslarida qatnashish	Daraxt ekish, eko-volontyorlik

Ekologik onglilikning biznes va bozorga ta’siri sifatida iste’molchilarning ekologik ongliligining ortishi iqtisodiyot va biznes jarayonlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi [6]:

- ishlab chiqarishda «yashil» texnologiyalarga o‘tishni rag‘batlantiradi;
- ekologik brending va biznes shaffofligining ahamiyatini oshiradi;
- korporativ ijtimoiy mas’uliyat rolini kuchaytiradi;
- eko-mahsulotlarga yo‘naltirilgan yangi bozor segmentlarini shakllantiradi.

Muammolar va takliflar sifatida shuni keltirishimiz mumkinki pozitiv tendensiyalarga qaramay, ekologik onglilikning rivojlanishi qator to‘siqlarga duch keladi:

- greenwashing — kompaniyalar tomonidan amaliy choralarsiz deklarativ “ekologiklik”;
- narh to‘sig‘i, ekologik toza tovarlarni ommaviy tarqalishiga to‘sqinlik qiladi;
- iste’molchilarning yetarli ma’lumotga ega emasligi va sertifikatlarga past ishonchi.

O‘rnida shuni takidlashimiz kerakki, iste’molchilarning ekologik ongliligi jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. U yangi iste’mol standartlarini shakllantiradi, biznesni ekologik innovatsiyalar joriy etishga undaydi va iqtisodiyotni ekologik mas’uliyat tamoyillari asosida rivojlanishiga yordam beradi.

Yaqin kelajakda aholi ongliligining o‘sishi iqtisodiy taraqqiyot va tabiiy resurslarni asrab qolish o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydigan asosiy omil bo‘lishi mumkin. Mas’uliyatli, ongli iste’molning asosiy maqsadi ham davlat, ham shaxsiy

darajada global ekologik vaziyatni yaxshilashdir. Atrof-muhit bilan oqilona o‘zaro munosabat zamonaviy dunyoda yetishmayotgan narsa va shu bilan birga, ongli shaxslar orasida o‘sib borayotgan tendensiyadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bobылyov S.N. Barqaror rivojlanish: kelajak uchun paradigma. — M.: Nauka, 2020.
2. Kiselyova S.V. Ekologik marketing: nazariya va amaliyot. — SPb.: Piter, 2019.
3. Kotler P., Keller K.L. Marketing Management. — Pearson Education, 2016.
4. https://plastikvokrug.ru/articles/chto-takoe-osoznannoe-potreblenie/
5. Peattie K., Crane A. Green Marketing: Legend, Myth, Farce or Prophesy? // Qualitative Market Research. — 2005.
6. OECD. Policies to Promote Sustainable Consumption. — OECD Publishing, 2018.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALARNING RAQOBAT MUHITINI TAHLIL ETISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH

Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Marketing”kafedrasi dotsenti, PhD
Yoqubjonova Dildora Timur qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Marketing”kafedrasi magistranti

Annotatsiya

Ushbu tezisda yashil iqtisodiyot sharoitida korxonalarning raqobat muhiti tahlil etilgan va tahlil natijalariga asoslangan holda korxonalarda marketing strategiyasini tanlash yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Marketing strategiyasini to‘g‘ri tanlash korxonalarning bozor sharoitida samarali faoliyat yuritishi, raqobatbardoshligini oshirishi hamda barqaror rivojlanishini ta’minlashi, xalqaro tajribalar va O‘zbekiston sharoitidagi o‘zgarishlar asosida raqobat muhitini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari batafsil bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: raqobat, raqobat muhiti, raqobat tahlili, raqobatbardoshlik, marketing strategiyasi, iste’molchilar xulq- atvori, raqamli marketing.

Аннотация

В данной тезисной работе проведён анализ конкурентной среды предприятий в условиях «зелёной» экономики. На основе результатов анализа представлены пути выбора маркетинговой стратегии для предприятий. Правильный выбор маркетинговой стратегии способствует эффективной деятельности компаний в рыночных условиях, повышению их конкурентоспособности и обеспечению устойчивого развития. В работе подробно изложены приоритетные направления формирования конкурентной среды с учётом международного опыта и изменений, происходящих в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: конкуренция, конкурентная среда, анализ конкуренции, конкурентоспособность, маркетинговая стратегия, потребительское поведение, цифровой маркетинг.

Abstract

This thesis analyzes the competitive environment of enterprises within the framework of the green economy. Based on the results of this analysis, it outlines approaches to selecting effective marketing strategies for businesses. Choosing the right marketing strategy enables companies to operate efficiently in market conditions, enhance their competitiveness, and ensure sustainable development. The paper provides a detailed overview of the key directions for shaping the competitive landscape, drawing on international experience and the evolving context of Uzbekistan.

Keywords: competition, competitive environment, competition analysis, competitiveness, marketing strategy, consumer behavior, digital marketing.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning muvaffaqiyati ularning raqobatbardoshligiga bevosita bog‘liq. Raqobat muhiti o‘zgaruvchan, iste’molchilarning talabi dinamik va bozor segmentlari keskin almashinib turadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham raqobat muhitini yaxshilash va bozor tamoyillarini rivojlantirishga qaratilgan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida milliy iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari belgilangan bo‘lsa, ‘O‘zbekiston – 2030’ strategiyasida korxonalar faoliyatida shaffoflikni kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va investitsion muhitni yaxshilash vazifalari ko‘zda tutilgan [7;8]. Ushbu hujjatlar marketing strategiyalarini ishlab chiqishda milliy korxonalar uchun muhim yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Raqobat muhiti – bu korxonaning faoliyat yuritayotgan bozorida mavjud bo‘lgan raqiblar, iste’molchilar, davlatning tartibga solish mexanizmlari va tashqi iqtisodiy omillari yig‘indisidir [2].

Raqobat muhiti tahlili quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Bozor hajmi va ulushini aniqlash;
2. Asosiy raqiblarning kuchli va zaif tomonlarini o‘rganish;
3. Mahsulot differensiallash imkoniyatlarini baholash;
4. Iste’molchilar talabi va xulqidagi o‘zgarishlarni aniqlash;
5. Narx siyosati va qo‘shimcha xizmatlar samaradorligini tahlil qilish [3].

Raqobat sharoitida korxonalar quyidagi marketing strategiyalaridan samarali foydalanishlari mumkin:

Differensiatsiyalash strategiyasi. Mahsulotni raqobatchilarnikidan sifat, dizayn, xizmat yoki imijini ajratib ko‘rsatish orqali bozorda ustunlikka erishish strategiyasidir.

Narx strategiyasi. Korxonaning mahsulot yoki xizmat narxini belgilash orqali bozor pozitsiyasini aniqlash va raqobatda ustunlikka erishish usuli. Segmentga qarab “arzon narx – katta hajm” yoki “premium narx – yuqori sifat” modelidan foydalanish mumkin.

Brending strategiyasi. Korxona imijini mustahkamlash, iste’molchilar orasida ishonchni shakllantirish, mijozlar ongida esda qolarli qilish uchun ishlab chiqilgan reja va usullar.

Raqamli marketing. Onlayn platformalarda faol bo‘lish, ijtimoiy tarmoqlar va elektron savdo orqali mijozlarni jalb etish, an’anaviy marketingdan farqli ravishda interaktiv, tezkor va aniq maqsadli auditoriyaga yo‘naltirilgan, mijozlar bilan bevosita aloqa [4].

Innovatsion strategiya. Yangi texnologiyalar asosida mahsulot yaratish va “yashil marketing” elementlarini joriy etish.

Hozirgi davrda raqobatbardoshlikni ta’minlashda raqamli transformatsiya va elektron tijoratning roli ham sezilarli darajada ortib bormoqda. Onlayn platformalar orqali sotuvni tashkil etish, mijozlar xatti-harakatini Big Data texnologiyalari yordamida tahlil qilish, sun’iy intellekt asosida tavsiyalar ishlab chiqish korxonalar

uchun yangi strategik ustunliklarni yaratmoqda [4]. Shu bois, marketing strategiyasini tanlashda an’anaviy uslublar bilan bir qatorda innovatsion raqamli strategiyalardan ham samarali foydalanish zarur.

Global bozor sharoitida raqobat kuchlari tobora keskinlashib bormoqda. Masalan, yoritish texnikasi va iste’mol tovarlari bozorida Xitoy kompaniyalari narx ustunligi orqali ulkan segmentni egallagan bo‘lsa, Turkiya va Yevropa ishlab chiqaruvchilari dizayn va sifat orqali yuqori bozor ulushiga ega bo‘lmoqda [5]. Bu tendensiyalar O‘zbekiston korxonalari uchun ham dolzarb, chunki ular import oqimlari bilan raqobatlashish yoki hamkorlik qilish orqali o‘z marketing strategiyasini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lmoqda.

Xalqaro kompaniyalar raqobat muhiti tahlili va marketing strategiyasini tanlashda quyidagilarga asoslanadi [5]:

Yevropa Ittifoqi korxonalari ekologik talablarni inobatga olib, yashil brend yaratishga urg‘u beradi ;

AQSH kompaniyalari marketingni korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) dasturlari bilan birlashtiradi;

Osiyo mamlakatlari (Xitoy, Koreya, Yaponiya davlatlari) esa narx ustunligi va raqamli savdo kanallaridan keng foydalanadi [6].

Xulosa qilib aytganda, korxonalarning raqobat holatini tahlil qilish va marketing strategiyasini to‘g‘ri tanlash zamonaviy sharoitda ularning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi eng muhim omillardandir. Raqobat muhiti tahlili asosida differensiallash, narx siyosati, raqamli marketing va brending strategiyalarini uyg‘unlashtirgan korxonalar bozor sharoitida raqobatbardoshlikka erishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. Macmillan, 1990.
2. Kotler P., Keller K. Marketing Management. Pearson, 2016.
3. Aaker D. Strategic Market Management. Wiley, 2012.
4. Chen Y. Customer Loyalty and Marketing Strategy. Journal of Business Research, 2010.
5. OECD, Green Growth Indicators. Paris, 2023.
6. UNCTAD, World Trade Report. Geneva, 2022.

AI-DRIVEN DEMAND FORECASTING AS A TOOL FOR SUSTAINABLE FMCG DISTRIBUTION

F. Sh. Jamoliddinov
PhD Student
Tashkent State University of Economics

Abstract

This thesis explores AI-driven demand forecasting as a strategic tool for sustainable FMCG distribution. It shows how AI enhances inventory accuracy, reduces waste, and optimizes logistics. Global best practices (Unilever, P&G) illustrate real-world applications, while the case for Uzbekistan emphasizes digital integration to align with green economy goals.

Keywords: AI, demand forecasting, FMCG, sustainable distribution, green economy, logistics, Uzbekistan.

Annotatsiya

Tezisda tez aylanadigan iste'mol tovarlari (FMCG) taqsimotida barqarorlikni ta'minlashda sun'iy intellekt (AI) asosidagi talab prognozlash texnologiyalarining roli yoritilgan. AI yordamida logistika, ombor va yetkazib berish jarayonlari aniq prognozlar asosida optimallashtiriladi, ortiqcha zahira va chiqindilar kamayadi. Misollar global kompaniyalar tajribasini aks ettirib, O'zbekiston sharoitida ham bunday texnologiyalarni joriy etish istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: AI, talab prognozi, FMCG, barqaror taqsimot, yashil iqtisodiyot, logistika, O'zbekiston.

Аннотация

В тезисе рассматривается применение прогнозирования спроса на основе искусственного интеллекта (ИИ) для устойчивого распределения товаров повседневного спроса (FMCG). ИИ позволяет оптимизировать запасы, снизить издержки и выбросы CO_2, а также повысить точность поставок. Представлены успешные кейсы глобальных компаний и возможности внедрения данных решений в Узбекистане с целью поддержки «зелёной» экономики.

Ключевые слова: ИИ, прогноз спроса, FMCG, устойчивое распределение, зелёная экономика, логистика, Узбекистан.

Sustainability is becoming one of the key priorities for fast-moving consumer goods (FMCG) companies worldwide [1]. Distribution inefficiencies, such as stockouts, overstock, and unnecessary transportation, increase costs and environmental impact [2]. In this context, artificial intelligence (AI)-driven demand forecasting emerges as a transformative solution to support sustainable distribution practices [3]. AI-based forecasting systems analyze vast amounts of structured and unstructured data, including historical sales figures, seasonal trends, consumer preferences, and even external variables such as weather or macroeconomic conditions [4].

By integrating these diverse data sources, machine learning models can generate more precise demand predictions than traditional statistical methods [5]. This higher level of accuracy not only reduces product waste but also allows distributors to

optimize warehouse operations, streamline transportation routes, and allocate resources more effectively [6]. Furthermore, AI enables real-time adjustments to demand forecasts, making it possible for FMCG companies to quickly respond to unexpected market changes [7]. Ultimately, AI-driven forecasting enhances both economic efficiency and ecological responsibility, contributing to a more sustainable distribution ecosystem [8].

AI forecasting relies on machine learning models that analyze historical sales, consumer trends, and external factors such as seasonality or macroeconomic conditions [4]. Compared to traditional statistical models, AI offers higher accuracy, flexibility, and adaptability to dynamic FMCG markets [5]. Demand forecasting has traditionally relied on statistical and econometric models, such as moving averages, exponential smoothing, and regression analysis [2]. While these methods provide useful insights, they often fail to capture the complexity and volatility of modern FMCG markets [1]. In contrast, artificial intelligence introduces advanced techniques such as machine learning, neural networks, and natural language processing that allow for the identification of hidden patterns in large and diverse datasets [3].

Machine learning models are capable of continuously improving their accuracy as new data is introduced, making them particularly suited for dynamic distribution environments [4]. For example, recurrent neural networks (RNNs) and long short-term memory (LSTM) models have been shown to outperform traditional approaches in predicting demand across multiple product categories [5]. Moreover, AI-based forecasting systems can incorporate non-traditional data sources, including social media trends, weather patterns, and competitor activities, which enhances their predictive capacity [6]. From a sustainability perspective, the theoretical contribution of AI lies in its ability to balance supply with actual market demand, thereby minimizing resource waste [7]. By shifting from reactive to proactive distribution planning, AI establishes a framework where operational efficiency and environmental responsibility reinforce each other [8].

FMCG distributors face challenges related to inventory planning, warehouse optimization, and last-mile delivery [1]. AI algorithms can forecast demand more precisely, reduce overproduction, and align logistics with real consumer needs [3]. This minimizes both product waste and transportation costs [6]. In the context of FMCG distribution, demand forecasting plays a decisive role in ensuring product availability while minimizing waste across the supply chain. Distributors often manage thousands of stock-keeping units (SKUs) across multiple regions, making accurate prediction of demand highly challenging. Traditional forecasting systems, which rely heavily on past sales alone, are insufficient in such complex environments. Artificial intelligence provides a practical solution by combining sales histories with external factors such as promotions, consumer sentiment, holidays, and even mobility data to generate more reliable forecasts.

For distributors, AI-driven forecasting directly influences critical operational areas [5]. Inventory management becomes more efficient, with reduced risk of overstocking perishable goods such as dairy products or beverages [6]. Warehouse

operations benefit from improved allocation of space, while logistics teams can design more sustainable delivery routes by anticipating order volumes with greater precision [7]. Moreover, by enabling just-in-time replenishment, AI reduces the need for safety stock, lowering both storage costs and carbon emissions from excess transportation [8]. A growing number of global FMCG firms, including Unilever and Nestlé, have already reported success in implementing AI-based forecasting solutions, resulting in measurable reductions in waste and cost [9]. For emerging markets like Uzbekistan, adopting similar tools offers an opportunity to leapfrog traditional inefficiencies and align distribution practices with green economy priorities [10].




Figure 1. Key components and external factors in AI-driven demand forecasting for FMCG distribution (CPG = Consumer Packaged Goods).

Global FMCG leaders such as Unilever and Procter & Gamble have already implemented AI forecasting systems to cut waste and improve efficiency [9]. In Uzbekistan, FMCG distribution companies can integrate AI forecasting into their digital platforms to optimize stock levels in regional warehouses [10]. Global experience demonstrates that artificial intelligence in demand forecasting is not only feasible but also highly effective in FMCG distribution. For instance, Unilever employs AI algorithms to process real-time sales and climate data, which helps the company predict demand for seasonal products such as ice cream [9]. Similarly, Procter & Gamble uses machine learning to integrate retailer and distributor data, improving accuracy in replenishment cycles and reducing waste in its supply chain [11]. These cases show how large multinational corporations have successfully embedded AI tools into their daily operations, gaining both economic and environmental benefits. In addition to multinational players, regional FMCG companies in markets such as India and Brazil have also implemented AI-driven solutions, often through partnerships with

technology startups [12]. These initiatives reveal that AI is not limited to global giants but can be scaled for developing markets with resource constraints [13].

For Uzbekistan, where distribution networks are rapidly modernizing, the introduction of AI forecasting could address chronic inefficiencies such as uneven stock levels between urban and rural outlets [10]. By collaborating with local universities and technology providers, FMCG distributors can pilot AI-based demand planning systems [14]. This would not only improve profitability but also support national goals for sustainable economic growth and integration into the global green economy [15].

AI reduces excess inventory, lowers fuel consumption through better logistics planning, and decreases carbon emissions [7]. By aligning business goals with sustainability, FMCG distributors contribute directly to green economy objectives [8]. The integration of AI-driven demand forecasting into FMCG distribution extends beyond operational efficiency to broader contributions to the green economy [10]. By aligning production and distribution with actual consumer demand, companies can significantly reduce product losses, particularly in categories with short shelf lives such as dairy, bakery, and beverages [6]. This reduction in waste directly supports environmental sustainability, as fewer resources are consumed in manufacturing and less waste ends up in landfills. AI-enhanced forecasting also contributes to energy efficiency and lower emissions [7]. Optimized transportation schedules minimize unnecessary trips, thereby reducing fuel consumption and carbon output [8]. In addition, smarter inventory planning lowers the need for excessive warehousing, decreasing electricity usage for refrigeration and lighting [5]. Collectively, these effects reduce the ecological footprint of FMCG distribution networks.

From a marketing perspective, positioning AI-enabled distribution as part of a company's green strategy enhances corporate reputation and builds stronger relationships with environmentally conscious consumers and business partners [12]. In countries like Uzbekistan, where sustainable development is becoming a government priority, such practices can serve as a competitive advantage [15]. Thus, AI-driven demand forecasting becomes not only a tool for efficiency but also a driver of sustainable innovation, reinforcing the transition to a green economy.

From a marketing perspective, positioning AI-enabled distribution as part of a company's green strategy enhances corporate reputation and builds stronger relationships with environmentally conscious consumers and business partners [12]. In countries like Uzbekistan, where sustainable development is becoming a government priority, such practices can serve as a competitive advantage [15]. Artificial intelligence-driven demand forecasting is emerging as a transformative tool for achieving both operational efficiency and sustainability in FMCG distribution [5]. By leveraging advanced algorithms and real-time data, companies can anticipate demand with greater accuracy, reduce waste, and align logistics with actual consumer needs [7]. This dual impact—improving profitability while minimizing environmental harm—makes AI forecasting a strategic priority for modern distribution networks.

For FMCG distributors in Uzbekistan and other developing markets, the implementation of AI forecasting represents a timely opportunity to overcome long-standing inefficiencies [10]. To achieve this, several steps are recommended. First, companies should invest in digital infrastructure and establish partnerships with technology providers capable of delivering customized AI solutions [14]. Second, staff training is essential to ensure that decision-makers can effectively interpret AI-generated insights [13]. Third, collaboration with academic institutions and government agencies can accelerate adoption, providing both knowledge and policy support [15].

Ultimately, AI-driven demand forecasting strengthens the resilience of supply chains, supports national goals for sustainable development, and enhances corporate competitiveness [8]. Its integration into FMCG distribution not only addresses immediate business challenges but also contributes to the global transition toward a green economy.

REFERENCES

1. Christopher, M. (2016). Logistics & Supply Chain Management. 5th ed. Pearson Education Limited.
2. Chopra, S., & Meindl, P. (2021). Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. Pearson Education.
3. Ivanov, D., Tsipoulanidis, A., & Schönberger, J. (2021). Global Supply Chain and Operations Management. Springer.
4. Waller, M. A., & Fawcett, S. E. (2013). Data science, predictive analytics, and big data: A revolution that will transform supply chain design and management. Journal of Business Logistics, 34(2), 77–84.
5. Makridakis, S., Spiliotis, E., & Assimakopoulos, V. (2018). Statistical and Machine Learning forecasting methods: Concerns and ways forward. PLOS ONE, 13(3), e0194889.
6. Choi, T.-M., Wallace, S. W., & Wang, Y. (2018). Big data analytics in operations management. Production and Operations Management, 27(10), 1868–1888.
7. Kietzmann, J., Paschen, J., & Treen, E. (2018). Artificial intelligence in advertising: How marketers can leverage artificial intelligence along the consumer journey. Journal of Advertising Research, 58(3), 263–267.
8. Ghosh, A. (2022). AI and sustainability: The future of green supply chains. Journal of Cleaner Production, 356, 131805.
9. Unilever. (2022). Sustainability Progress Report. Unilever Global.
10. Asian Development Bank. (2021). Green Economy Transition in Central Asia. ADB Publications.
11. Procter & Gamble. (2023). Annual Report 2023. P&G.
12. Deloitte. (2020). AI-powered supply chains: Smart forecasting for a better future. Deloitte Insights.
13. McKinsey & Company. (2019). Smart operations: The rise of AI in emerging markets. McKinsey Global Institute.

14. World Bank. (2022). Digital Transformation of Supply Chains in Developing Countries. World Bank Reports.
15. OECD. (2021). Sustainable Development and Green Growth in Emerging Economies. OECD Publishing.

TASHQI BOZORLARDA TOVAR VA XIZMATLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Meliqulov Abduhalil Norinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu tezisda tashqi bozorlarda mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketing texnologiyalarining o‘rni tahlil qilingan. AI, CRM, Big Data, SMM, AR/VR va boshqa vositalarning strategik qo‘llanilishi marketing jarayonlarini avtomatlashtirish, mijoz ehtiyojlarini oldindan aniqlash va individual takliflar orqali savdoni oshirishga xizmat qilishi ko‘rsatilgan. Tashqi bozorlarda ustunlik innovatsion yondashuvga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy marketing, raqamli texnologiyalar, tashqi bozor, sun’iy intellekt, Big Data, CRM, raqobatbardoshlik.

Аннотация

В тезисе рассматривается значение современных маркетинговых технологий для повышения конкурентоспособности товаров и услуг на внешних рынках. Показано, как инструменты AI, CRM, Big Data, SMM и AR/VR способствуют автоматизации процессов, предугадыванию потребительских запросов и росту продаж за счёт персонализированных предложений. Делается вывод о необходимости создания интегрированной маркетинговой экосистемы для устойчивого успеха в глобальной среде.

Ключевые слова: современный маркетинг, цифровые технологии, внешний рынок, искусственный интеллект, Big Data, CRM, конкурентоспособность.

Abstract

This thesis analyzes the role of modern marketing technologies in enhancing the competitiveness of goods and services in foreign markets. It highlights how tools such as AI, CRM, Big Data, SMM, and AR/VR facilitate automation, customer behavior prediction, and sales growth through personalized offers. The study concludes that creating an integrated marketing-tech ecosystem is key to success in the global market.

Keywords: modern marketing, digital technologies, foreign market, artificial intelligence, Big Data, CRM, competitiveness.

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, iqtisodiy munosabatlarning erkinlashuvi hamda raqobat muhitining tobora keskinlashuvi sharoitida, mamlakatlar uchun tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, tovar va xizmatlar eksportini kengaytirish strategik ustuvor yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Global bozordagi integratsiya jarayonlari nafaqat davlatlar o‘rtasidagi savdo aloqalarini mustahkamlashga, balki milliy iqtisodiyotlarning innovatsion salohiyatini oshirishga ham xizmat qilmoqda.


Raqobatbardoshlik, iqtisodiy kategoriya sifatida mahsulot yoki xizmatning bozordagi o‘xshash analoglariga nisbatan afzallik darajasini ifodalaydi. Uning mohiyati shundaki, har bir tovar yoki xizmat iste’molchi ehtiyojlarini boshqalarga

nisbatan samaraliroq va qoniqarliroq qondirish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Raqobatbardoshlik korxonaning iqtisodiy, texnologik, marketing va innovatsion salohiyatining majmuaviy ko‘rsatkichi bo‘lib, u bozordagi barqaror mavqe va rentabellikni belgilab beradi.

XXI asrda raqobatbardosh korxonalar faqat mahsulot sifati yoki narxi bilan emas, balki marketing texnologiyalaridan qay darajada samarali foydalana olishi bilan ajralib turadi. Raqamli muhitda mijoz xulqini to‘g‘ri tahlil qilish, ularning ehtiyojlarini oldindan sezish va individual takliflar berish marketingning asosiy ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Zamonaviy marketing texnologiyalari - raqamli ma’lumotlar, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish va platformalar yordamida mijozni jalb qilish, saqlash va ularga qimmatli tajriba taqdim etishga imkoniyat beradi. Ular biznesga personalizatsiyani masshtablashtirish, reklama sarfini optimallashtirish va yangi bozorlarga tez kirish kabi afzalliklar beradi.

McKinsey (2024) hisobotiga ko‘ra, zamonaviy marketing texnologiyalaridan samarali foydalangan kompaniyalar daromadini 15-25% gacha oshirishga, xarid konversiyasini esa 30-50% gacha yaxshilashga erishgan.



1-rasm. Hozirgi kunda keng qo‘llanilayotgan zamonaviy marketing texnologiyalari.[1]

1-rasmda ko‘rsatilgan hozirgi kunda keng qo‘llanilayotgan asosiy 8 ta zamonaviy marketing texnologiyalarini batafsil ko‘rib chiqamiz:

1. AI (Artificial Intelligence) va Generative AI (Sun’iy intellekt orqali kontent yaratish) — marketingda ma’lumotlarni tahlil qilish, kontent yaratish va auditoriya xulqini oldindan bashorat qilish uchun ishlatiladi. Bu texnologiyani qo‘llash orqali,

[1] Muallif tomonidan tuzilgan

kontent yaratish (matn, banner, video ssenariy), a/b test avtomatizatsiyasi, mijoz xulqini tahlil qilish, personallashtirilgan reklama yaratish, chatbotlar va virtual yordamchilardan samarali foydalanish mumkin bo‘ladi.

Coca-Cola 2023 yilda “Create Real Magic” AI-kampaniyasini ishga tushirib, DALL·E va GPT yordamida iste’molchilarga o‘z bannerlarini yaratish imkonini berdi. Bu orqali 2,4 million foydalanuvchi ishtirok etdi va brendning yanada muvaffaqiyatli ommalashuviga erishdi.

2. CRM (Customer Relationship Management) — mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimi bo‘lib, u foydalanuvchilarning ma’lumotlarini to‘plash, tahlil qilish va avtomatik ravishda foydalanish imkonini beradi. Bu texnologiya, mijoz ma’lumotlarini markazlashtirish, loyallik dasturlarini boshqarish, email-marketing va avtomatlashtirilgan xabarlarni yo‘lga qo‘yish, mijoz faoliyatini kuzatish va prognoz qilish imkonini beradi.

2023 yilda Nike CRM yordamida “NikePlus” ilovasi orqali mijozlar faoliyatini tahlil qilishni yo‘lga qo‘ydi. Natijada, shaxsiylashtirilgan takliflar va ilova ichidagi kontent orqali ilova foydalanuvchilari faolligi (“engagement” ko‘rsatkichi) 1,5 barobar oshganligi qayd etildi.

3. CDP (Customer Data Platform) va Big Data. CDP — turli manbalardan (veb-sayt, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar, CRM) kelgan mijozlar ma’lumotlarini birlashtirib, yagona profil yaratish texnologiyasidir. Bu texnologiya Real-time (ayni vaqtda) ma’lumot yig‘ish va filtrlash, segmentatsiya va prognozli analitikani amalga oshirish, mijozlar xulqini modellashtirish, avtomatlashtirilgan marketing tizimlariga ma’lumot uzatish vazifalarini bajaradi.

4. Big Data va analitika - bu marketing qarorlarini qo‘llab-quvvatlash uchun turli manbalardan (saytlar, mobil foydalanuvchi ma’lumotlari, CRM, tranzaksiyalar, reklama, ijtimoiy tarmoqlar, va h.k.) katta hajmdagi, turli va yuqori tezlikda keladigan ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, ishlash va tahlil qilish tizimidir. Bu ma’lumotlarga asoslangan modellar marketologlarga shaxslashtirilgan tajriba, prognozlar, optimal, kreativ va real vaqt ichida mukammal qarorlarni qabul qilish imkonini beradi.

Misollarda ko‘radigan bo‘lsak, Amazon kompaniyasi mijozni avvaldan o‘rganib, unga mos bo‘lgan tovar va xizmatlarni tavsiya qilishi orqali savdo hajmini ancha oshganligini, Netflix har yili yuzlab A/B testlar o‘tkazishini va ma’lumotlar asosida foydalanuvchiga mos mahsulot yoki kontentni tavsiya qilish jarayonlar zanjirini amalga oshirayotganligini, natijada uning daromadlari ham oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

5. SEO va SEM (Search Engine Optimization / Marketing). Bu texnologiya SEO – organik izlash tizimlarida veb-sayt pozitsiyasini oshirishga, SEM – to‘lovli (PPC, Google Ads va b.) orqali reklama joylashga xizmat qiladi.

Bu texnologiya, kalit so‘zlar tahlilini amalga oshirish va kontentni optimallashtirish, veb-sayt strukturasi va yuklanish tezligini yaxshilash, PPC kampaniyalar (Pay-Per-Click) — bu raqamli marketingning eng keng qo‘llaniladigan texnologiyalaridan biri bo‘lib, unda reklama beruvchi har bir foydalanuvchi reklamani bosgani uchungina to‘lov amalga oshiradi) orqali tez trafik jalb qilish, Google

Analytics orqali konversiya foizini (Conversion Rate — bu belgilangan harakatni masalan, sotib olish, ro‘yxatdan o‘tish, forma to‘ldirish, obuna bo‘lish va h.k. bajargan foydalanuvchilar ulushi) tahlil qilish kabi vazifalarni amalag oshirish mumkin.

6. SMM (Social Media Marketing) texnologiyasi bu tovar, xizmat yoki brendni ijtimoiy tarmoqlar orqali ilgari surish, mijozlar bilan muloqot o‘rnatish va brend atrofida faol onlayn jamoa shakllantirishdir. SMM — raqamli marketingning asosiy qismi bo‘lib, u brend tanilishi, mijozlar loyalligi va sotuvni oshirish uchun eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Influencer Marketing, esa ijtimoiy tarmoqlarda katta auditoriyaga ega, ta’sir doirasi yuqori bo‘lgan shaxslar (influencerlar) orqali mahsulot yoki xizmatni targ‘ib qilishdir. Bu shaxslar blogerlar, jurnalistlar, ekspertlar yoki muayyan sohadagi ijtimoiy yetakchilar bo‘lishi mumkin. Ular orqali kompaniyalar mijozlarga ishonchli va tabiiy tarzda axborotalarning yetib borishga erishadi.

Bu texnologiyalar orqali, muvaffaqiyatli kontent reja va vizual obrazni yaratish, target reklamalarni (Facebook Ads, Instagram, TikTok) amalga oshirish, inflyuenser tanlash va ROI monitoringini amalga oshirish, UGC (User Generated Content) orqali tovar yoki xizmatga bo‘lgan ishonchni oshirish mumkin. Misol tariqasida ko‘radigan bo‘lsak IKEA kompaniyasi “Place App” AR texnologiyasi orqali mijozlarga o‘z uylariga mahsulotni “joylashtirib” ko‘rishni taklif qildi, natijada shu ilova orqali sotuv hajmi 30%ga oshdi.

7. Programmatic Advertising – bu onlayn reklama joylarini avtomatik ravishda sotib olish va sotish jarayoni, ya’ni reklama platformalarida inson aralashuvisiz AI (sun’iy intellekt) va mashinaviy o‘qish (machine learning) yordamida amalga oshiriladigan tizimdir. Agar target reklamada, reklama beruvchi auditoriyani o‘zi tanlasa, Programmatic Advertisingda buni algoritmlar real vaqtda avtomatik bajaradi.

8. AR (Augmented Reality) va VR (Virtual Reality) texnologiyalari mijozlarga mahsulotni virtual tajribada ko‘rsatish imkonini beradi. Immersive Marketing esa AR, VR va interaktiv texnologiyalarni birlashtirib, mijozni faqat kuzatuvchi emas, balki tajriba ishtirokchisiga aylantiradi.

Bu texnologiyani qo‘llash, virtual ko‘rgazmalar va savdo shoularini tashkil qilish, “avval sinab ko‘r, keyin sotib ol” degan marketing strategiyasini keng qo‘llash, mahsulot dizaynini 3D formatda ko‘rish kabi imkoniyatlarni yaratadi. Misollarda ko‘radigan bo‘lsak, Amazon “Prime Wardrobe” mijozga 6 tagacha kiyimni tanlab olib, uyda sinab ko‘rish, keyin faqat yoqmaganlarini qaytarish imkonini taqdim qildi. Natijada, qaytarish darajasi 30% ga kamaydi, Amazonga bo‘lgan mijozlarning ishonchi oshdi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi global raqobat sharoitida tashqi bozorlarda muvaffaqiyat qozonishning asosiy omili raqamli texnologiyalar va zamonaviy marketing instrumentlarini strategik qo‘llash hisoblanadi. Jahon bozorida raqobat darajasi yil sayin ortib borayotgani sababli, kompaniyalar faqat an’anaviy reklama va sotuv usullari bilan emas, balki ma’lumotga asoslangan va mijoz markazli yondashuvlar orqali ustunlikka erishmoqda. Shu nuqtai nazardan, Big Data, Artificial Intelligence, Programmatic Advertising, AR/VR texnologiyalari va Recommendation

Systems kabi vositalar tashqi bozorlardagi raqobat afzalliklarini belgilaydi. Tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun kompaniyalar integratsiyalashgan marketing-texnologik ekotizimini yaratishi zarur. Bu tizim ma’lumot yig‘ish, tahlil qilish, avtomatlashtirilgan reklama va personalizatsiya kabi elementlarini qamrab olishi kerak. Shuningdek, marketingdagi innovatsiyalarning samaradorligi faqat texnologiya emas, balki strategik fikrlash, ma’lumot madaniyati va kadrlar salohiyati bilan ham ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bekmurodov A.Sh. — Marketing nazariyasi va amaliyoti, Toshkent, 2021.
2. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Yusupov M. Marketing. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot — matbaa uyi”, 2024, 372 bet.
3. McKinsey & Company. The State of AI in Marketing. 2023.
qilishlari mumkin.[3] Kompaniyalar mijozlarning yashil ehtiyojlarini aniqlash, yashil mahsulotlarni ishga tushirish, yashil bozorni turli segmentlarga bo‘lish, bir yoki bir nechta segmentlarni maqsadga yo‘naltirish, yashil joylashish strategiyalarini shakllantirish va yashil marketing aralashmasi dasturini amalga oshirish uchun yashil marketing strategiyalarini amalga oshirishlari kerak. Jamiyat atrof-muhit haqida ko‘proq qayg‘urganligi sababli, atrof-muhitga kamroq zararli ta’sir ko‘rsatadigan yashil mahsulotlarni sotib olishga ko‘proq tayyor bo‘lgan ekologik e’tiqodga ega mijozlar ko‘proq. Kompaniyalar bugungi kunda ekologik davrda raqobatbardosh afzalliklarni olish uchun yashil marketing strategiyalarini ishlab chiqishlari kerak. Iste’molchilar mahsulot atributlari va mahsulotning yashilligi o‘rtasida savdolashishga majbur bo‘lganligi sababli, iste’molchilarning aksariyati yashil bo‘lish uchun o‘z ehtiyojlarini qurbon qilmaydilar [4].

Yashil marketing konsepsiyasining hozirgi joriy etilishi strategik marketing boshqaruvining quyidagi harakatlariga asoslanadi; yashil bozorlarning salohiyatini tahlil qilish, yashil bozor ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan harakatlar va raqobatchilarning yashil xatti-harakatlarini tahlil qilish. Ushbu uchta harakat marketing strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonidagi asosiy qadamlardir. Bundan tashqari, yashil iste’molchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish kiritilgan, chunki u sanoat siyosatida hal qiluvchi omil bo‘lib, tovarlarga iste’mol talabi oxir-oqibat ekologik muammolarga olib keladi. Marketingni boshqarishning operativ darajasida yashil marketing konsepsiyasi quyidagi marketing aralashmasi harakatlari yordamida amaliyotga kiritildi; yashil mahsulot dizayni siyosati, yashil mezonlar bilan tarqatish, yashil mahsulotlarni narxlash va yashil ommaviylik va yashil homiylik.

O‘zbekistonda yirik to‘qimachilik va kiyim-kechak sohasida faoliyat yuritadigan va asosiy mahsulotlarini eksport qilayotgan korxonalar raqobatbardoshligini himoya qilish uchun an’anaviy marketing strategiyalari natijadorligi kamayib bormoqda. Barcha korxonalar yashil marketing faoliyati o‘z maqsadlariga erishish, ijtimoiy majburiyatlarni bajarish, korporativ imijni oshirish va mahsulot va brend qadriyatlarini oshirish maqsadida keng foydalanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://unric.org/en/textile-industry-how-can-we-make-it-more-sustainable/

2. Akehurst G., Afonso C., Gonçalves Martins H., 2012, Re-examining green purchase behaviour and the green consumer profile: new evidences, Management Decision, Vol:50, Iss:5, p:972-988

3. Kirchoff J.F., Koch C., Nichols B.S., 2011, Stakeholder perceptions of green marketing: the effect of demand and supply integration, International Journal of Physical Distribution & Logistics Management, Vol:41, Iss:7, p:684-696

4. Chen Y.S. and Chang C.H., 2012, Enhance green purchase intentions: the roles of green perceived value, green perceived risk and green trust, Management Decision, Vol:50, Iss:3, p:502-520

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

To‘xtabayev Abdurashid Tursunovich
iqtisod fanlari nomzodi, Andijon davlat texnika instituti “Buxgalteriya hisobi va menejment” kafedrasi professori

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida marketingning ijtimoiy-etik mas’uliyati, ekologik iste’mol madaniyati va barqaror rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi. Yashil marketing tamoyillari, global kompaniyalar tajribasi va milliy siyosatga integratsiyalangan ekologik yondashuvlar asosida konseptual qarashlar bayon etilgan. Iste’molchilarda ongli xarid va ekologik brendga sodiqlikni shakllantirish asosiy yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: yashil marketing, ijtimoiy-etik yondashuv, barqaror rivojlanish, ekologik iste’mol, resurslar samaradorligi.

Аннотация

В статье рассматриваются аспекты развития маркетинга в условиях «зелёной экономики» с акцентом на социальную ответственность, экологическую осведомлённость потребителей и устойчивое развитие. На основе глобального и национального опыта проанализированы принципы экологического маркетинга и стратегическое значение этичного потребления. Показано, как формируется лояльность к экологичным брендам.

Ключевые слова: зелёный маркетинг, социальная ответственность, устойчивое развитие, экологичное потребление, эффективность ресурсов.

Abstract

This article analyzes the role of marketing in the context of the green economy, focusing on social responsibility, sustainable consumption, and ethical brand behavior. It highlights global and national best practices in green marketing, showcasing how consumer awareness and responsible communication can promote environmental sustainability and long-term brand loyalty.

Keywords: green marketing, social responsibility, sustainable development, eco-consumption, resource efficiency.

Koreya Respublikasining Seul shahrida 2021 yil 30–31 maya kunlari bo‘lib o‘tgan “Yashil o‘sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030” (P4G) ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bugungi kunda ona tabiatning o‘zi bizga yo‘llayotgan ogohlik qo‘ng‘irog‘iga beparvo bo‘lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so‘nggi 30 yilda o‘rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko‘tarildi. Mintaqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Bug‘lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda “yashil taraqqiyot”

borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo‘lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo‘q”[1],

Darhaqiqat, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) prognozlariga ko‘ra, zamonaviy ishlab chiqarish usullari va iste’mol darajasi bilan 2050-yilga kelib, 2000-yilga nisbatan dunyo o‘simlik va hayvonot dunyosining 61 foizdan 72 foizgacha qismini yo‘qotadi, 7,5 million kvadrat metr maydonda esa tabiiy hududlarning xavfsizligi qaytarilmas darajada buziladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ekspertlari “yashil” iqtisodiyotni “inson farovonligini yaxshilaydigan va ijtimoiy adolatni ta’minlaydigan, shu bilan birga atrof-muhit uchun xavflarni sezilarli darajada kamaytiradigan” iqtisodiy faoliyat sifatida e’tirof etmoqda[5].

Shu tufayli mamlakatimizda “Yashil taraqqiyot”ga erishish uchun “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishimiz va uni rivojlantirishimiz lozim bo‘lmoqda. Bu esa inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolish asosida iqtisodiyotning barcha sohalarini yanada rivojlantirishni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishlari va mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

"Yashil" iqtisodiyotning asosiy maqsadi atrof muhitni asrab-avaylagan holda insoniyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga erishishdir. Bu konsepsiya inson farovonligini oshirish va ijtimoiy adolatni kafolatlash bilan birga, ekologik xavf-xatarlar va atrof-muhit holatining yomonlashishini kamaytirishga yordam beradigan ijtimoiy-iqtisodiy modelni nazarda tutadi. Bunda yashil iqtisodiyotning asosiy vazifasi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdan iborat bo‘lib, ushbu muvozanatga jamiyat va bozor ehtiyojlariga javob beradigan, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan resurslardan foydalanish hamda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish orqali, ya’ni zamonaviy marketingni ilg‘or usullaridan keng foydalanish asosida erishiladi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida marketingning ijtimoiy mas’uliyati etik amaliyotlarni ilgari surishni o‘z ichiga oladi, jumladan adolatli va halol savdo, mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash, mehnat qilish uchun xavfsiz sharoitlarni ta’minlash va barcha steykxolderlar – iste’molchilar, jamiyat va atrof-muhit manfaatlarini himoya qilish. Asosiy vazifa iste’molchilar ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo‘lib, bu jarayonda ijtimoiy va ekologik samaraga urg‘u beriladi. Bu esa odobli iste’molni shakllantiradi va milliy brendga nisbatan sodiqlikni oshiradi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida marketingda ijtimoiy mas’uliyatning asosiy masalalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *Etik va ijtimoiy jihatlar:* Mahsulotning o‘ziga emas, balki uning etik va ijtimoiy foydaligiga e’tibor qaratish, adolatli mehnat shart-sharoitlarini yaratish va mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash.
- *Ehtiyojlarni qondirish:* Nafaqat iste’molchi, balki jamiyat ehtiyojlarini ham hisobga olish, shu bilan birga ishlab chiqaruvchi va iste’molchi manfaatlarini hamda atrof-muhit muhofazasini uyg‘unlashtirish.

- *Atrof-muhitni himoya qilish:* Ekologik toza mahsulotlar va texnologiyalarni ommalashtirish, bu esa foydalanuvchilarda iste'mol va atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi.
- *Barqaror iste'mol:* Foydalanuvchilar o'rtasida mas'uliyatli iste'mol madaniyatini shakllantirish — yashil iqtisodiyot va ekologik marketingning ajralmas qismi hisoblanadi.
- *Uzoq muddatli istiqbol:* Faoliyatni faqat qisqa muddatli foyda uchun emas, balki uzoq muddatli tamoyillar asosida olib borish zarur. Bu tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekotizimning barcha elementlari o'zaro bog'liq ekanini hisobga oladi.

Binobarin, o'tgan asrning oxirida ekologik marketing ijtimoiy-etik marketingning bir qismi sifatida rivojlana boshladi. Ijtimoiy-etik marketingning asosiy mohiyati — bu maqsadli bozorlarning ehtiyojlari va manfaatlarini aniqlash, iste'molchilar ehtiyojlarini ularning va jamiyat manfaatlarini inobatga olgan holda eng yaxshi va samarali usullar bilan qondirishdir.

Marketing mijozlarning ehtiyojlarini o'rganish, tushunish va qondirishga yo'naltirilgan bo'lsa, ijtimoiy-etik marketing bulardan tashqari, jamiyatning strategik manfaatlarini ham e'tiborga oladi. Bugungi kunda iste'molchi mahsulotni sotib olishda uning atrof-muhitga ta'siri (hatto bilvosita ta'siri), shuningdek, ishlab chiqarish shart-sharoitlari bilan qiziqmoqda. Shu boisdan, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida bu qiziqishni hisobga olish talab etilmoqda.

Natijada, ekologik jihatdan asoslangan bozorni boshqarish va nazorat qilish tizimini, shuningdek, tabiat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni yaratishga ehtiyoj tug'ilmoqda.

Ekologik marketingni muvaffaqiyatli qo'llashga misol sifatida Tesla kabi kompaniyalarni keltirish mumkin — elektromobillar ishlab chiqaradigan va issiqxona gazlari chiqindisini sezilarli darajada kamaytiradigan kompaniya; Unilever — iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi va barqaror rivojlanish, chiqindilarni qisqartirish hamda atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirishga intiladigan kompaniya; yoki Patagonia — faol dam olish uchun kiyim va jihozlar ishlab chiqaruvchi kompaniya bo'lib, ekologik barqaror ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratadi, qayta ishlangan va tabiatni avaylaydigan materiallardan foydalanadi[3].

Shuni ta'kidlash joizki, bunday texnologiyalarni faol qo'llayotgan kompaniyalar o'z obro'-e'tiborini yaxshilashi va shu orqali ehtimoliy raqobatchilarga nisbatan ustunlikka ega bo'lishi mumkin — va ular bu imkoniyatdan faol foydalanmoqda.

Bugungi yashil iqtisodiyot sharoitida marketing tendensiyalari muntazam rivojlanib bormoqda, chunki kompaniyalar o'zlarining ekologik va ijtimoiy-etik mas'uliyatini oshirishga intilishmoqda. Quyida marketingni rivojlantirishning ayrim tendensiyalarini ko'rib chiqamiz va turli nuqtai nazardan takliflarni taqdim etamiz.

1. *Etik ta'minotchilarni tanlash*. Bugun iste'molchilar xarid qilayotgan mahsulotlarining ijtimoiy va ekologik ta'siridan tobora xabardor bo'lmoqdalar. Shu sababli, korxonalar adolatli savdo va mas'uliyatli ta'minot zanjirini boshqarish kabi etik ta'minot amaliyotlariga ustuvorlik berishi lozim bo'lmoqda.

2. *Yangi energiya manbalaridan foydalanish*. Quyosh yoki shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish yashil iqtisodiyot sharoitida tobora ommalashib bormoqda. Demak, kompaniyalar o‘z faoliyatini ta’minlash va amaldagi yoqilg‘idan bog‘liqlikni kamaytirish maqsadida qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasiga sarmoyani ko‘paytirishga intilishlari zarur.

3. *Yopiq sikli iqtisodiyotga o‘tish*. Chiqindilarni minimallashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini maksimal oshirishni maqsad qilgan yopiq siklli iqtisodiyot konsepsiyasi marketingda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tendensiyaga moslashish uchun korxonalar mahsulotlarni qayta ishlash, ikkinchi marta foydalanish va chiqindilarni kamaytirish kabi strategiyalarni joriy qilishi kerak.

4. *Ochiqlik va haqqoniylik*. Barqaror rivojlanishga oid bayonotlarga kelganda, iste’molchilar taqdim etilayotgan mahsulotlardan ochiqlik va haqqoniylikni kutadilar. Bir qadam oldinda bo‘lish uchun korxonalar marketing faoliyatida ekologik va ijtimoiy-etik tashabbuslari haqida aniq va tekshirib bo‘ladigan ma’lumotlarni taqdim etishlari lozim, bu esa maqsadli auditoriya ishonchini qozonishga yordam beradi.

Yana bir muhim masala bu ijtimoiy-etik marketing konsepsiyasini keng joriy etish masalasidir. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, kompaniyaning butun faoliyati mijoz yoki jamiyat ehtiyojlarini qondirish va ularning farovonligini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ijtimoiy-etik marketing, yoki boshqacha aytganda zamonaviylashgan marketing, jamiyatdagi dolzarb muammolarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularga mos yechimlarni taklif etadi. Konsepsiya uchta omil o‘rtasidagi muvozanatga asoslanadi: kompaniya foydasi, mijoz ehtiyojlari va jamiyat manfaatlari. Ushbu masalalarni hal etish orqali jamiyat rivojiga turtki berish va kompaniya mahsulotlariga bo‘lgan ishonchni oshirish mumkin bo‘ladi.

Boshqa tomondan, ijtimoiy-etik va ekologik marketing iste’molchilarning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatib, tovar va xizmatlarni tanlashda ongli va mas’uliyatli yondashuvni shakllantirmoqda. Yangi avlod iste’molchisi mahsulotning ekologik jihatlariga tobora ko‘proq e’tibor qarata boshlamoqda — ular uchun do‘kondan sotib olingan narsa atrof-muhitga zarar yetkazmasligi muhim hisoblanadi.

Bu esa, o‘z navbatida, kompaniyalarni zamonaviy jamiyatning ekologik va ijtimoiy talablariga javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va taklif etishga undaydi.

Bunday iste’molchi qiziqishining paydo bo‘lishi, va natijada ijtimoiy-etik marketing konsepsiyasining yuzaga kelishi, ekologiya holatining yomonlashishi, aholi sonining o‘sishi va tabiiy resurslar yetishmovchiligi bilan bog‘liq. Ijtimoiy-etik marketing doirasida kompaniya iste’molchi bilan munosabatlarini ikki tomon va jamiyat uchun uzoq muddatli qiymat yaratish asosida qurishga intiladi.

2000-yilning oxirida ommaviy tus olgan ekologik iste’mol — ekologik marketing rivojining navbatdagi bosqichi deb hisoblanadi. Bu — mahsulot va xizmatlarning butun hayot sikli davomida atrof-muhitga minimal zarar yetkazuvchi shaklda iste’mol qilinishi demakdir.

Shu tariqa, ekologik va ijtimoiy-etik marketing «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish, ichki va tashqi bozorlarda mahsulotning sifat jihatdan yangi imijini

shakllantirish hamda raqobatbardosh ishlab chiqarishni yaratish uchun zarur vositalardan biri hisoblanadi. Ekologik va ijtimoiy-etik marketingning rivojlanishi jamiyatning ekologik jihatdan barqaror va sog‘lom mahsulot hamda xizmatlarga bo‘lgan qiziqishi ortishi natijasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021-y.
2. Azlarova M.M., Xo‘djamuratova G. Y. "Menejment va marketing asoslari": (O‘quv qo‘llanma). — T.: TDIU, 2012-y. -258 b.
3. Братенкова, Т. М. Место и роль экологического маркетинга в реализатсии принципов «Зеленой» экономики // Труды БГТУ. Церийа 5: Экономика и управление. 2015. №7. – С. 65-68.
4. Ergashxodjayeva Sh.D. Strategik marketing. T.- “Sano-standart”. 2010
5. To‘xtaboyev A.T. Tashkiliy xatti-harakatlar. Darslik. –T.: “Universitet”, 2021y. 260 bet.

INNOVATSION MENEJMENTNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Yuldashev Giyos Turabekovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali PhD, dotsent v.b.,
E-mail: yuldashev.giyos@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada innovatsion menejmentning nazariy asoslari va korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Radikal, evolyutsion hamda kombinatsiyalashgan innovatsiya turlari, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri va raqobatbardoshlikni oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada texnologiyaning hayotiy davri modeli, innovatsiya jarayonining vazifalari va bosqichlari izohlangan holda, korxonalarda innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etishning muhim shartlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, innovatsion menejment, radikal innovatsiya, evolyutsion innovatsiya, hayotiy davri, innovatsion jarayon.

Аннотация

В статье рассмотрены теоретические основы инновационного менеджмента и особенности организации инновационной деятельности на предприятиях. Раскрываются типы инноваций — радикальные, эволюционные и комбинированные, а также их влияние на повышение экономической эффективности и конкурентоспособности. Описаны модель жизненного цикла технологии, этапы инновационного процесса и ключевые условия успешного внедрения инноваций в деятельность предприятий.

Ключевые слова: инновация, инновационный менеджмент, радикальная инновация, эволюционная инновация, жизненный цикл, инновационный процесс.

Abstract

The article analyzes the theoretical foundations of innovation management and the specific aspects of organizing innovation activities in enterprises. It discusses radical, evolutionary, and combined types of innovation, their impact on economic efficiency, and their role in enhancing competitiveness. The paper also explains the technology life cycle model, stages of the innovation process, and key conditions for successfully implementing innovation in business operations.

Keywords: innovation, innovation management, radical innovation, evolutionary innovation, life cycle, innovation process.

Hozirgi davrda innovatsiya iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e’tirof etilmoqda. Innovatsion jarayonlar korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlash, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois, innovatsion menejment nazariyasi va amaliy mexanizmlarini o‘rganish, ularning rivojlanish bosqichlari hamda

iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini tahlil qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy innovatsiya quyidagilar hisobiga iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash imkonini beradi: sanoat va ekologik xavfsizlikni ta’minlash, mehnatni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, ish sharoitini yaxshilash va boshqalar.

Radikal innovatsiya — korxonaning uzoq muddatga mo‘ljallangan raqobatbardoshlik qobiliyatini saqlab qolishni ta’minlaydi va bozordagi mavqeyini mustahkamlaydi. Radikal yangilik texnologik va tijorat innovatsiyalar singari aksariyat holatlarda xavf-xatar va noaniqlik darajasi yuqori bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Evolyutsion innovatsiya — mahsulotning iste’mol qiymatini oshirishni ta’minlaydi, minimal xavf-xatar bilan ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Kombinatsiyalashgan innovatsiya — turfa xil innovatsiyalar majmuini o‘zida aks ettirib, xavf-xatarni oldindan ko‘ra bilishi bilan ajralib turadi. Kombinatsiyalashgan innovatsiya barcha muhim yangiliklarning kirib kelishi, korxonalarda keng miqyosda qo‘llanilishi, ishlab chiqarishni bozorga moslashishini ko‘ra bilishi bilan alohida ahamiyatlidir.

- mavjud ishlab chiqarish quvvatidan to‘la foydalanish tufayli sotish hajmini oshiradi hamda xaridorlarga xizmat ko‘rsatish texnologiyasini takomillashtirish hisobiga ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini yaxshilaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy innovatsiya quyidagilar hisobiga iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash imkonini beradi: sanoat va ekologik xavfsizlikni ta’minlash, mehnatni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, ish sharoitini yaxshilash va boshqalar.

Radikal innovatsiya — korxonaning uzoq muddatga mo‘ljallangan raqobatbardoshlik qobiliyatini saqlab qolishni ta’minlaydi va bozordagi mavqeyini mustahkamlaydi. Radikal yangilik texnologik va tijorat innovatsiyalar singari aksariyat holatlarda xavf-xatar va noaniqlik darajasi yuqori bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Evolyutsion innovatsiya — mahsulotning iste’mol qiymatini oshirishni ta’minlaydi, minimal xavf-xatar bilan ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Kombinatsiyalashgan innovatsiya — turfa xil innovatsiyalar majmuini o‘zida aks ettirib, xavf-xatarni oldindan ko‘ra bilishi bilan ajralib turadi. Kombinatsiyalashgan innovatsiya barcha muhim yangiliklarning kirib kelishi, korxonalarda keng miqyosda qo‘llanilishi, ishlab chiqarishni bozorga moslashishini ko‘ra bilishi bilan alohida ahamiyatlidir.

Korxonalarda innovatsiya faoliyatining davriy dinamik o‘sishi iqtisodiy yuksalishning manbai sifatida qaralmog‘i lozim. Ushbu holat korxonalar innovatsiya faoliyatining ma’lum tartibda davriy takrorlanishi bilan ajralib turadigan tebranishning o‘ziga xos bo‘lgan turi sifatida iqtisodiy o‘sishning mavjudligidan dalolat beradi.

Davriy nazariyaning asosiy natijalari N.D.Kondrattev nomi bilan bog‘liq. Ushbu olim tomonidan taklif etilgan uzun to‘lqin (katta davr) iqtisodiy konyunkturasi ilmiy texnik taraqqiyot va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasida aloqadorlik mavjudligini isbotladi.

Olim fikriga koʻra, har bir mazkur iqtisodiy konyunkturaning oldingisiga nisbatan oʻzgarishini korxona faoliyati elementlari yigʻindisining oʻzgarish darajasi va rivojlanish yoʻnalishi hisoblanadi. Eng muhimi, innovatsiyaning katta davr tabiatini aniqlashdagi tutgan oʻrni ahamiyatga molik ekanligi ilmiy asoslab berilgan.

Har xil vaqt davomida konyunktura tebranishi konsepsiyasini ishlab chiqishga katta hissa qoʻshgan avstriyalik olim Y.A.Shumpeter («Ish davri», 1939 yil) boʻlib, mazkur tadqiqotchi tomonidan oʻzaro bir- biri bilan bogʻliq uchta toʻlqin alohida ajratib koʻrsatilgan. Birinchisi — qisqa toʻlqin (3-3,5 yil); ikkinchisi — oʻrta toʻlqin (7-11 yil); uchinchisi — uzun toʻlqin (N.D.Kondrattev toʻlqini 48-55 yil).

Y.A.Shumpeter tomonidan uzoq davrlar uchun innovatsiya toʻlqinining tadbirkorlar innovatsiya faoliyatini faollashtirishdagi tutgan oʻrni va ahamiyati ilmiy asoslab berilgan. Innovatsiya iqtisodiy tizimning mutanosibligini buzadi, ishlab chiqarish — tijorat davri, innovatsion dinamika va uning iqtisodiy oqibatlari bilan belgilanadi.

Olim ilgari surgan gʻoya yoki nazariya endogen mexanizmi boʻlib, innovatsion jarayonlar korxonaning rivojlanish davri bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Iqtisodiy dinamik davrning yangilanishi va uning iqtisodiy tizim mutanosibligini buzishi, bevosita tadbirkorlarning texnologik kombinatsiyalarni joriy etishi tufayli roʻy beradi.

Har bir uzoq davr shaklga ega (toʻlqinga emas) boʻlib, S-egri chizigʻi koʻrinishidagi (logistikali) texnologiyani ishlab chiqishning maʼlum hayotiy davri trayektoriyasini oʻzida aks ettiradi. Bunda dastlabki texnik bazisning oxirgi bosqichida yangi bazis paydo boʻladi va S-egri chizigʻi boʻylab texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlar oʻz ifodasini topadi.

Korxonalarda modernizatsiya innovatsiya samaradorligini oshirish va uni boshqarish koʻp qirrali funksional soha boʻlib, har xil malakani va kasbiy mahoratni talab etadi. Korxona menejerlari innovatsiya sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun oʻzaro bir-biri bilan bogʻliq toʻrtta sohaning integratsiyasini bilishi va undan amalda oqilona foydalanilmogʻi lozim.

Innovatsiya jarayoni texnologik diffuziyani (ishlab chiqish, oʻzlashtirish, qoʻllash, ishlab chiqarishdan chiqib ketish) oʻzida aks ettiradi. Innovatsion jarayon mahsulotlarni, texnika, texnologiyani va xizmatni yangilashga, iqtisodiy oʻsish hamda ilmiy-texnik taraqqiyotga xizmat qiladi.

Korxonalardagi innovatsion faoliyat oʻzining evolyutsion faoliyati davrida maʼlum oʻzgarishlarni boshidan kechirdi va hozirgi davrda murakkab koʻp qirrali jarayonga aylandi. Innovatsiya faoliyati oʻzgarishlar majmui boʻlib, xususan korxonaning maqsadi, sharoiti, ishlab chiqarish va tijoratni tashkil etish shakllarini, boshqaruv faoliyati, usul va vositalarini oʻzida mujassamlashtirib, qisqa muddat davrida samaradorlikni oshirish salohiyatini va yangiliklarni joriy etishni taʼminlaydi, istiqbolda esa korxonaning barqaror yuksalishiga va uning raqobatbardoshlik qobiliyatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Innovatsion jarayonning yadrosini texnologiya mulkdorlari va ilmiy-tadqiqot ishlari hamda tajriba konstruktorlik byurolari va boshqa ilmiy tadqiqot bilan shugʻullanuvchi tashkilotlar tashkil etadi.

Ushbu o‘zaro aloqadorlikning pirovard natijalari foydaning o‘sib borishiga erishish, yo‘qotish va xarajatlarni kamaytirish, texnik vositalar, uskuna va jihozlardan foydalanish samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni, mahsulotlar va xizmat turlarini yaratish, mehnat, moliya va boshqa resurslardan samarali foydalanish, yangi texnik xizmatlarni ko‘rsatish imkonini beradi.

Xarajatlarning o‘sishi sharoitida har bir navbatdagi bosqichda istiqbolli g‘oyani topish uni to‘g‘ri baholash alohida ahamiyatga egadir.

Innovatsiya jarayonlarini tashkil etishning istiqbolli texnologiyasi, harakatlarni va qabul qilinadigan qarorlarning mavjud nazorat nuqtasi bir vaqtda bo‘lishini taqozo etadi. Zamonaviy axborotlar va kommunikatsion texnologiya bunga ko‘mak beradi. Bundan tashqari korxona- larda innovatsion jarayonning muvaffaqiyatli borishi funksiyalar-aro aloqalarni o‘rnatishga bog‘liq. Shuni unutmaslik lozimki, korxonalarda innovatsiya samaradorligiga, innovatsiya jarayonini oqilona boshqarishga asoslangan ilmiy-tadqiqot, injiring, ishlab chiqarish, marketing faoliyatini muvofiqlashtirmasdan erishib bo‘lmaydi.

Innovatsion menejment bugungi kunda iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylangan. Uning samarali tashkil etilishi korxonalar va davlatlar raqobatbardoshligini oshiradi. O‘zbekiston sharoitida innovatsion menejmentni kuchaytirish uchun quyidagilarni taklif qilish mumkin:

1) Innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;
2) Xalqaro tajribalarni keng o‘rganish va joriy etish;
3) Raqamli texnologiyalardan keng foydalanish;
4) Yosh mutaxassislarni innovatsion faoliyatga jalb qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gilbert R. Looking for Mr. Schumpeter: where are we in the competition--innovation debate? //Innovation policy and the economy. – 2006. – T. 6. – C. 159-215.

2. Tzeng C. H. A review of contemporary innovation literature: A Schumpeterian perspective //Innovation. – 2009. – T. 11. – №. 3. – C. 373-394.

3. Taraxtiyeva G. Innovatsion menejment //O‘quv qo‘llanma. T.:“Fan va texnologiya. – 2013. – T. 208.

4. Ibragimov G.A. et al. HISTORICAL-THEORETICAL BASIS OF WATER RESOURCES MANAGEMENT //The Role of Green Technologies and Sustainable Development in Advancing Regional Economies. – 2025. – T. 1.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINING EKSPORT FAOLIYATIGA TA’SIRI

Tursunxo‘jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi
Alfraganus universiteti
"Menejment va marketing" kafedrasi
loyiha Kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalarining roli tahlil qilingan. Ilmiy manbalar asosida SWOT tahlil, konseptual model va tizimli yondashuvlar orqali raqamli vositalarning eksport samaradorligiga ta’siri o‘rganiladi. Natijalar raqamli texnologiyalarni kompleks strategiya sifatida qo‘llash kichik biznesga xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlik va barqarorlikni ta’minlashini ko‘rsatadi. Tavsiyalar texnologik tayyorgarlik va marketing strategiyalarining uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli marketing, kichik biznes, eksport, transformatsiya, SWOT, strategiya, xalqaro bozor, innovatsion yondashuv

Аннотация

В данной статье проанализирована роль цифровых маркетинговых технологий в развитии экспортной деятельности субъектов малого бизнеса. На основе научных источников исследуется влияние цифровых инструментов на эффективность экспорта с использованием SWOT-анализа, концептуальной модели и системного подхода. Результаты показывают, что комплексное применение цифровых технологий позволяет малому бизнесу обеспечить конкурентоспособность и устойчивость на международных рынках. Рекомендации направлены на обеспечение технологической готовности и согласованности маркетинговых стратегий.

Ключевые слова: цифровой маркетинг, малый бизнес, экспорт, трансформация, SWOT, стратегия, международный рынок, инновационный подход

Abstract

This article analyzes the role of digital marketing technologies in enhancing the export activities of small business enterprises. Based on academic sources, the study explores the impact of digital tools on export performance using SWOT analysis, a conceptual model, and a systematic approach. Findings indicate that the strategic integration of digital technologies enables small businesses to achieve competitiveness and sustainability in international markets. The recommendations focus on ensuring technological readiness and alignment of marketing strategies.

Keywords: digital marketing, small business, export, transformation, SWOT, strategy, international market, innovative approach

KIRISH

Kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi. Ular yangi ish o‘rinlarini yaratadi, bozorlar orasida moslashuvchanlikni ta’minlaydi va hududiy

iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Bunday biznes shakllarining rivojlanishida texnologiyalar, xususan raqamli marketing vositalari, o‘ziga xos strategik ahamiyat kasb etmoqda. Tashqi bozorlarga chiqishda samarali kommunikatsiya kanallariga ega bo‘lish, mahsulot va xizmatlar haqidagi axborotni tez yetkazish, xaridorlar bilan interaktiv aloqani yo‘lga qo‘yish raqamli texnologiyalar yordamida sezilarli darajada soddalashdi.

Marketing sohasi doirasida raqamli yondashuvlar kichik biznesga yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Qidiruv tizimlari optimallashtirishidan tortib, ijtimoiy tarmoqlardagi reklama kampaniyalarigacha bo‘lgan vositalar orqali mahsulotlar xalqaro auditoriyaga tezkor yetkazilmoqda. Bu esa eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, raqamli vositalar orqali marketing natijalarini real vaqtda kuzatish, xarajatlarni nazorat qilish va mijozlar ehtiyojlariga mos strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyati yaratilmoqda.

Kichik korxonalar eksport jarayonida raqamli transformatsiyani bosqichma-bosqich amalga oshirib, nafaqat tashqi aloqa sifatini oshirmoqda, balki ichki boshqaruv mexanizmlarini ham optimallashtirmoqda. Shu sababli, raqamli marketing texnologiyalarining eksportga ko‘rsatgan ta’sirini chuqur o‘rganish zarur bo‘lmoqda. Tadqiqotda aynan shu yo‘nalishda mavjud ilmiy qarashlar, amaliy yondashuvlar va tahliliy natijalar o‘rganilib, kichik biznes subyektlari uchun samarali strategiyalar aniqlanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarining xalqaro bozorlarga chiqishida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning o‘sib borayotgan roli ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilgan. Bu texnologiyalar eksport faoliyatini kengaytirishda, mijozlarga yetib borishda va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Avvalo, raqamli marketingning eksportga bevosita ta’siri masalasida bir qator tadqiqotchilar kichik va o‘rta bizneslar uchun raqamli vositalar orqali yangi bozorlarga chiqish imkoniyati keskin oshishini ta’kidlaydi [2]. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari va elektron tijorat platformalari kompaniyalarga geografik chegaralarsiz auditoriyaga chiqishga xizmat qiladi. Bu vositalar marketing strategiyalarini moslashtirish va tezkor tahlil qilish imkoniyatini ham yaratadi.

Raqamli texnologiyalar eksportdagi transformatsion vosita sifatida ham ko‘rilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes raqamli infratuzilma orqali nafaqat mahsulotlarni targ‘ib qiladi, balki butun biznes jarayonlarini raqamlashtirishga intiladi [5]. CRM tizimlari, onlayn to‘lovlar, sun’iy intellekt asosidagi mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish kabi vositalar eksport faoliyatining samaradorligini oshiradi va resurslardan yanada oqilona foydalanishga zamin yaratadi [9].

Eksport natijalarining samaradorligiga raqamli marketingning strategik yondashuvi ham ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, kichik kompaniyalar raqamli vositalarni oddiy reklama vositasi sifatida emas, balki umumiy biznes strategiyasining muhim elementi sifatida ko‘rganda yanada barqaror natijalarga erishadi [10]. Shuningdek, marketing kampaniyalarining onlayn tahlili orqali

kompaniyalar real vaqtda qarorlar qabul qilishi, bozordagi o‘zgarishlarga moslashishi va konversiya darajasini oshirishi mumkin [6].

SWOT tahliliga asoslangan ilmiy yondashuvlar ham so‘nggi yillarda keng qo‘llanilmoqda. Tadqiqotchilar kuchli tomonlar sifatida raqamli vositalarning arzonligi, qamrovi va moslashuvchanligini, zaif jihatlar sifatida esa texnik bilim yetishmasligi va noto‘g‘ri foydalanish xavfini qayd etadilar [3]. Bundan tashqari, kiberxavfsizlik masalalari va doimiy o‘zgarib borayotgan raqamli algoritmlar ham kichik biznes uchun muhim tahdidlar sirasiga kiradi [7].

Ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli marketing vositalarining eksportga ijobiy ta’siri ularni qanday darajada kompleks strategiya sifatida qo‘llashga bog‘liq. Ya’ni, faqat texnologiyani joriy etish emas, balki uni ichki va tashqi strategiyalar bilan uyg‘unlashtirish natijadorlikni ta’minlaydi [1], [4]. Bu esa raqamli transformatsiyaning faqat operatsion emas, balki boshqaruv va strategik darajada ham amalga oshirilishini talab qiladi.

Umuman olganda, adabiyotlar shuni tasdiqlaydiki, kichik biznes subyektlari raqamli marketing vositalaridan foydalanishda aniq yondashuv, texnik tayyorgarlik va barqaror strategik qarorlar orqali eksport hajmini oshirishlari mumkin. Bu fikrlar asosida shakllangan tahliliy qarashlar maqolaning keyingi bo‘limlarida empirik tahlillar bilan boyitiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatida raqamli marketing texnologiyalarining ta’sirini chuqur tahlil qilish maqsad qilingan. Ilmiy asoslangan yondashuv sifatida tizimli tahlil, SWOT modeli va ilgari chop etilgan ilmiy maqolalarning mazmuniy taqqoslanishi qo‘llanildi. Metodologik yondashuv eksport faoliyatining samaradorligi, transformatsion jarayonlar va strategik yutuqlar orasidagi bog‘liqlikni ochib berishga qaratildi. Tahlil asosida kuchli va zaif jihatlar, imkoniyatlar va tahdidlar aniqlanib, ular orqali konseptual model shakllantirildi. Tanlangan metodologiya “Tahlil va natijalar” bo‘limida berilgan natijalarni asoslashda hamda ularni ilmiy jihatdan mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli marketing texnologiyalarining eksport jarayoniga ko‘rsatgan ta’sirini tahlil qilishda, birinchi navbatda ularning bevosita samarasini ko‘rsatish zarur. Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarda raqamli platformalarning mavjudligi va ularning samarali integratsiyasi kichik biznes subyektlarining xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirganligi aniqlangan [2]. Elektron tijorat, qidiruv tizimlari uchun optimallashtirilgan veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borilgan marketing faoliyati mahsulot va xizmatlarni global darajada tanitishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, moslashtirilgan kontent va analitik platformalardan foydalanish mijozlarning ehtiyojlarini aniqlash va ularga tezkor moslashishni ta’minlash imkonini beradi. Shu orqali kompaniyalar nisbatan kam resurslar evaziga yuqori samaradorlikka erishmoqda.

Kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan raqamli transformatsiya faqat texnologik joriy etish bilan chegaralanmaydi, balki bu o‘zgarishlar eksport faoliyatining ichki mexanizmlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun, CRM tizimlaridan foydalanish, onlayn mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni avtomatlashtirish, elektron to‘lov tizimlari integratsiyasi va mijozlarga xizmat ko‘rsatish platformalari biznes modelini raqamlashtirishda muhim komponentlar hisoblanadi. Bu holat kichik biznes subyektlarining eksport strategiyalarini yanada kompleks yondashuvga o‘tkazishga xizmat qilmoqda [2]. Bundan tashqari, transformatsion jarayonlar eksport faoliyatining holati va yo‘nalishini oldindan taxmin qilish imkonini yaratadi.

Raqamli marketing vositalarining ta’sirchanligi nafaqat savdo hajmida, balki tashqi bozorlarda kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishda ham namoyon bo‘ladi. Kichik biznes subyektlari uchun raqamli vositalar orqali xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni kengaytirish va mijozlarga tezkor xizmat ko‘rsatish bo‘yicha imkoniyatlar sezilarli darajada oshgan [2]. Bunday marketing vositalaridan foydalanish mahsulotlar yoki xizmatlarning tan olinishi va mijozlar orasida brendga sodiqlik darajasining oshishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, eksport samaradorligining barqaror va o‘suvchi ko‘rinish kasb etishiga xizmat qiladi.

Ushbu omillarni tahlil qilishda SWOT metodologiyasi asosida raqamli marketing vositalarining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlab chiqildi. Bu yondashuv kichik biznes eksport faoliyatining qaysi jihatlari strategik ustunlik berishini, qaysilari esa e’tibor va resurs talab qilishini aniqlash imkonini beradi. Quyida SWOT tahlili natijasi jadval shaklida keltirilgan:

1-jadval.

Kichik biznes subyektlarida raqamli marketingning eksport faoliyatiga ta’sirini baholash bo‘yicha SWOT tahlili[1]

Kategoriya	**Tavsif**
Kuchli tomonlar (Strengths)	Raqamli marketing xarajatlarining nisbatan pastligi[6]
	Xalqaro auditoriyaga tezkor va keng qamrovli chiqish imkoniyati[2]
	Mijozlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shaxsiylashtirilgan muloqot imkoniyati[8]
	Marketing kampaniyalarini real vaqtda tahlil qilish va moslashtirish imkoniyati[10]
Zaif tomonlar (Weaknesses)	Texnologik bilim va malaka yetishmasligi[3]
	Raqamli platformalardan noto‘g‘ri yoki samarasiz foydalanish xavfi[4]
	Mahalliy bozorlarga moslashtirilgan strategiyaning yetishmasligi[9]
	Marketing samaradorligini baholashda mezonlar noaniqligi[10]
Imkoniyatlar (Opportunities)	Yangi bozorlarga kirish uchun kengaygan imkoniyatlar[5]
	Onlayn reklama vositalari orqali brend tanilishining oshishi[8]
	Big data va sun’iy intellekt asosida maqsadli marketing imkoniyatlari[4]

[1] Muallif ishlanmasi

	Global mijozlar ehtiyojlariga tez moslashish va segmentatsiyani optimallashtirish[1]
Tahdidlar (Threats)	Kiberxavfsizlik tahdidlari va onlayn firibgarlik xavfi[7]
	Raqobatchilarning ilg‘or texnologiyalarni tez o‘zlashtirish salohiyati[5]
	Xalqaro marketing qonunlari va reglamentlarining murakkabligi[10]
	Platforma algoritmlarining doimiy o‘zgarishi (masalan, Google yoki Meta) [9]

SWOT tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli marketing texnologiyalari kichik biznes subyektlari uchun eksport samaradorligini oshirishda kuchli salohiyatga ega. Ayniqsa, xarajatlarning nisbatan pastligi va xalqaro auditoriyaga tezkor chiqish imkoniyati strategik ustunlikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, texnologik tayyorgarlik darajasining pastligi va raqamli xavfsizlikka oid xavflar ehtiyotkorlikni talab qiladi. Rivojlanayotgan texnologik muhitdan to‘laqonli foydalanish uchun biznes subyektlari raqamli marketing strategiyalarini chuqur tahlil qilishi va o‘z faoliyatiga moslashtirilgan yondashuvlar ishlab chiqishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli marketing texnologiyalarining eksport faoliyatiga integratsiyasi kichik biznes subyektlari uchun samarali strategik vositaga aylanishi mumkin. Raqamli vositalarning qulayligi, moslashuvchanligi va keng imkoniyatlari mahsulot va xizmatlarni xalqaro bozorlarga chiqarishda sezilarli afzalliklar yaratmoqda. Ayniqsa, real vaqt rejimida ma’lumotlarni tahlil qilish, mijozlar bilan bevosita muloqot o‘rnatish va xarajatlarni optimallashtirish orqali eksport jarayonlari samaradorligini oshirish mumkinligi isbotlandi.

SWOT tahlili orqali aniqlangan kuchli tomonlar mavjud resurslardan to‘g‘ri foydalanish imkonini ochib bersa, zaif jihatlar raqamli savodxonlik va texnologik tayyorgarlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Imkoniyatlar segmentatsiyalangan va interaktiv yondashuvlarni kuchaytirishga zamin yaratadi, tahdidlar esa raqamli xavfsizlik va global algoritmik o‘zgarishlarga tayyor bo‘lish zarurligini eslatadi.

Tahlil va natijalardan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Kichik biznes uchun raqamli marketing bo‘yicha amaliy o‘quv dasturlarini kengaytirish va texnologik tayyorgarlik darajasini oshirish zarur.

2. Eksport strategiyalariga raqamli vositalarni tizimli integratsiya qilish va ularni faqat reklama emas, balki tahlil, rejalashtirish va brend boshqaruvi vositasi sifatida ishlatish tavsiya etiladi.

3. Mahalliy va xalqaro miqyosda mavjud raqamli platformalardan foydalanishda samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish va ularni doimiy tahlil qilish foydalidir.

4. Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar asosidagi marketing yondashuvlarining eksport jarayonlariga mos modellarini ishlab chiqish va qo‘llash muhim hisoblanadi.

5. Raqamli transformatsiyani kichik biznesning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg‘unlashtirish orqali uzoq muddatli barqarorlikka erishish mumkin.

Yakuniy xulosa sifatida aytish joizki, raqamli marketing vositalarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kichik biznes subyektlariga nafaqat xorijiy bozorlarda raqobatbardosh bo‘lish, balki o‘z ichki boshqaruv va operatsion faoliyatini ham zamonaviy va samarali yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Huang, Q., & Kumarasinghe, P. J. (2024). Unleashing global opportunities: Exploring the digitalization journey of SMEs in China and Sri Lanka’s thriving E-commerce landscapes. Heliyon, 10, e36621. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2024.e36621

2. Hervé, A., Schmitt, C., & Baldegger, R. (2023). Digitalization, entrepreneurial orientation and internationalization of MSMEs. Technology Innovation Management Review, 13(4), 32–44. http://timreview.ca/article/1657

3. Yang, M., Gabrielsson, P., & Andersson, S. (2023). Entrepreneurs’ social ties and international digital entrepreneurial marketing in SME internationalization. Journal of International Marketing, 31(4), 1–22. https://doi.org/10.1177/1069031X231178220

4. Tolstoy, D., Nordman, E. R., & Vu, U. (2022). The indirect effect of online marketing capabilities on the international performance of e-commerce SMEs. International Business Review, 31, 101946. https://doi.org/10.1016/j.ibusrev.2021.101946

5. Yordanova, D., Dana, L.-P., Manolova, T. S., & Pergelova, A. (2024). Digital technologies and the internationalization of small and medium-sized enterprises. Sustainability, 16(2660). https://doi.org/10.3390/su16072660

6. Erum, H., Rafique, H., & Others. (2017). Effect of E-Marketing Adoption Strategy on Export Performance of SMEs. International Journal of Management Excellence, 9(2). https://www.researchgate.net/publication/346077771

7. Mehdipour, H., & Shirini, N. (2021). Investigating the Impact of Digital Marketing and Its Effectiveness on Career Growth through Export Performance. International Journal of Innovation in Marketing Elements, 1(1), 37–48. https://doi.org/10.59615/ijime.1.1.37

8. Deku, W. A., Wang, J., & Preko, A. K. (2024). Digital marketing and small and medium-sized enterprises’ business performance in emerging markets. Asia Pacific Journal of Innovation and Entrepreneurship, 18(3), 251–269. https://doi.org/10.1108/APJIE-07-2022-0069

9. Rosyidah, U., Sudarmiatin, S., & Sumarsono, H. (2023). Digitalization and internationalization of SMEs: A Systematic Literature Review. Journal of Enterprise and Development, 5(3), 479–499. https://creativecommons.org/licenses/by-sa/4.0/

10. Steinhäuser, V. P. S., Paula, F. O., & Macedo-Soares, T. D. L. A. (2020). Internationalization of SMEs: A systematic review of 20 years of research. Journal of International Entrepreneurship, 19, 164–195. https://doi.org/10.1007/s10843-020-00271-7

TIKUV TRIKOTAJ KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILARNI MOTIVATSIYALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jalilov Jamshid G'anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Marketing" kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya

Ushbu tezisda tikuv-trikotaj korxonalari iste'molchilarini motivatsiyalash yo'nalishlari yoritilgan. Iste'molchilarni xaridga yo'naltiruvchi motivatsiya usullarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: iste'molchilar xulq-atvori, ehtiyoj, rag'bat, motiv, xaridga yo'naltirilgan motivatsiya.

Аннотация

В данной тезисной работе раскрыты направления мотивации потребителей швейно-трикотажных предприятий и их характерные особенности. Исследование посвящено анализу факторов, формирующих интерес потребителей к покупке, эффективности методов стимулирования и мотивации, а также психологических и экономических мотивов, влияющих на поведение покупателей. Мотивация потребителей рассматривается как важный элемент маркетинговой стратегии предприятий швейно-трикотажной отрасли.

Ключевые слова: поведение потребителей, потребность, стимул, мотив, мотивация, направленная на покупку.

Abstract

This thesis explores the directions and specific features of consumer motivation in sewing and knitwear enterprises. The study analyzes the factors shaping consumer interest in purchasing, the effectiveness of motivational and incentive methods, as well as the psychological and economic motives influencing buying behavior. Consumer motivation in the knitwear market is examined as an essential component of marketing strategy for textile enterprises.

Keywords: consumer behavior, need, incentive, motive, purchase-oriented motivation.

Kuchli raqobat sharoitida mamlakatimizda iste'molchilarni xaridga yo'naltirilgan motivatsiyalarini tadqiq etish masalalari tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Korxonaning marketologlari o'z faoliyatida iste'molchilar xatti-harakatini, ehtiyojlari, xarid motivlarini o'rganish, ularning talabini shakllantirish va qo'llab-quvvatlashga muhim e'tibor qaratishi lozim.

Iste'molchi va sotuvchi o'rtasidagi munosabatlar muammosi nafaqat muayyan korxonalar, balki butun jamiyat uchun ham muhim hisoblanadi. Iste'molchilarning mahsulotni tanlash xatti-harakatlarini o'rganish va tushunish asosida ularning kompaniyaga va uning tovarlari va xizmatlariga sodiqligini saqlab qolish, shuningdek yangi mijozlarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

Iste'molchilar xulq-atvorini iste'molchilarning shaxsiy tajriba va uning ijtimoiy muhitining fikrlari, shuningdek, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga

olgan holda, iqtisodiy naf olish asosida ma’lum bir mahsulot yoki xizmat bozorida xarid qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishdan iborat bo‘lgan harakatlari majmui sifatida namoyon bo‘ladi. 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasidagi [1] yettita ustuvor yo‘nalishlarda ko‘zda tutilgan iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta’minlash kabi vazifalar belgilangan bo‘lib, bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘p jihatdan mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining birlamchi bo‘g‘ini hisoblangan kompaniyalar marketing faoliyati, iste’molchilar xatti-harakati tahlil qilish, ularni motivatsiyalarda samarali motivatsiya usullaridan foydalanishni o‘rganish kabi jarayonlarni tadqiq qilishga chambarchas bog‘liq bo‘ladi[2].

Potensial xaridorlar uchun bozor qatnashchilari o‘rtasidagi kuchli raqobat muhitida ularning xulq-atvorni o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoladi. Dinamik o‘zgaruvchan va murakkablashtiruvchi bozorda xarid qilish xatti-harakatlari turli xil o‘zaro bog‘liq omillar tufayli yuzaga keladigan murakkab jarayondir. Olingan ma’lumotlar iste’molchilarning xulq-atvoriga ta’sir yo‘nalishlarini aniqlashga imkon beradi. Shu munosabat bilan «iste’molchi xulq-atvori» tushunchasining mazmunini tahlil qilish lozim bo‘ladi [3].

Iste’molchi xulq-atvori ta’rifiga yondashuvlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadi. Marjinal foyda va talabning elastikligi nazariyasi vakillari iste’molchilarning xatti-harakatlarini iqtisodiy yondashuv nuqtai nazaridan baholashganlar. U. Djevans, L. Valras, E. Bem-Bevarklar tomonidan iste’mol xulq-atvorini moddiy ne’matlarni sotib olishda eng katta naflilikka intilish deb hisoblashgan. Bozorda sotib olingan tovarlarning narxi tovarlarning iste’molchi uchun ham, xaridor uchun ham foydaliligini baholashga bog‘liq bo‘ladi[4]. P. Samuelson iste’molchi xulq-atvorini iqtisodiy omillar, ya’ni daromad va narx ta’siriga bog‘liq qilib izohlagan[5].

Iste’molchilar xulq-atvori V. Mayer, S. Strumilinlar tomonidan oqilona deb hisoblangan, bu holda maqsadlar fiziologik ehtiyojlar, ijtimoiy talablar, shuningdek, kundalik hayotni tashkil etish funksiyalari bilan bog‘liq jarayonlar sifatida e’tirof etganlar [6].

Bizning fikrimizcha, iste’molchi xulq-atvorining eng maqbul talqini iqtisodiy xulq-atvor, ijtimoiy ta’sir va shaxsning psixologik xususiyatlari jihatlarini o‘z ichida mujassamlashtirgan majmuadir.

To‘liq strukturaviy invariantsiyani rad etgan bo‘lsak-da, zona-spetsifik modifikatsiyalarni joriy etish orqali shartli ekvivalentlik tomonlarini belgiladik, bu esa tumanlararo solishtirishlarni asoslaydi (Yulchieva & Burenin, 2024). Normalizatsiya qilingan qiymatlar maksimal ishonch deviasi nuqtasida CEI va normalizatsiyalangan nisbiy ishonch (NT) qiymati 1 ga teng bo‘lgan, maksimal muvofiqsizlik nuqtasida esa normalizatsiyalangan axborot bevoshligi 0.95 ga teng bo‘ladi.

Barcha kirish va bog‘liq o‘zgaruvchilar ro‘yxati bilan ularning tavsifiy statistikasi B jadvalda (Ilova B) mavjud. Asosiy bog‘liq o‘zgaruvchi — kanal samaradorligi hisoblanadi. Ramazonovma (2022) yondashuviga muvofiq, 248 ta ro‘yxatga olingan firmalarning marketing moliyalash modellari uchun qisman eng kichik kvadratlardagi statistik metod ishlab chiqilgan.

Besh o‘zgaruvchining regressiya koeffitsiyentlari 0.01 darajadagi statistik ahamiyatlilikda sezilarli, va modelning umumiy ahamiyatliligi ham statistika testidan

o‘tgan. Δβ — choraklik ortiqcha koeffitsiyent (1.45 faktori), PT — prediktor, CEI — maqsad o‘zgaruvchi (DV). Biz o‘zgaruvchilarga qiymat biriktirdik. Bozor buzilishi, siyosiy shovqin va media saturatsiyasi CEI bilan salbiy bog‘liq prediktorlar sifatida, shaffoflik va innovatsiya esa CEI bilan ijobiy bog‘lanadi, deb taxmin qilinadi.

Ishonch metrikasi bilan strategik indeks o‘rtasidagi moslikni baholash uchun uch asosiy interaksiya talqin qilindi:

a) korrelyatsiya trayektoriyasi;

b) boshlang‘ich muvofiqsizlikda tusha turadigan pasayish (dip);

c) inertsiya ta’siridagi tiklanish (rebound) — Saidov va boshq. (2021)da ham qayd qilingan. CEI ning uch faktori firmalar-aro o‘lchov invariantsiyasi nuqtai nazaridan tekshirildi va konfiguratsion barqarorlik o‘rnatildi (jadval 4, Panel B). Klasterlar zarba hodisa ostida darhol yuzaga kelgan va tashqariga tarqalgan signalarning o‘ziga xos fazoviy ifodalari orqali aniqlangan.

Biz ushbu tadqiqotda AHP (Saaty, 1980), SEM (Hair va boshq., 2020) va regressiya (Ergashxodjaeva & Yulchieva, 2023–2024) yondashuvlarini triangulatsiya maqsadida birlashtirgan aralash tahliliy metodologiyani qo‘lladik. Hayitboyeva va boshq. (2021) tomonidan olib borilgan kanal tahlili Popova va boshq. (2021)ning innovatsion to‘lqinlarini integratsiyalash orqali kengaytirildi. PCA natijalari uch faktorni aniqladi (eigen >1.8) — bu raw va rotatsiyalangan yechimlarda mos ravishda 24.2 % va 38.4 lik dispersiyalarni izohlaydi, va oblique rotatsiya ergashuvlar o‘zaro bog‘liq bo‘lgan konstruksiyalar uchun eng mos yondashuv sanaladi.

Ushbu izohlovchi o‘zgaruvchilarning marginal ta’sirlari baholandi va bashorat qiluvchi indeks ifodasi olinadi. Yakunda, PT, CEI, MI, LR va INH ning haqiqiy qiymatlari bashoratli modelga qo‘yilib, korxonaning modelga muvofiqlik ko‘rsatkichi hisoblab chiqiladi — bu tahlilning asosiy bashorat maqsadidir.

To‘liq strukturaviy invariantsiyani inkor etgan holda, zona-spetsifik modifikatsiyalar orqali shartli solishtirish tuzilmalarini o‘rnatdik va bu tumanlararo taqqoslashlarni asoslaydi (Popova & Zhehus, 2023). Bu taxmin va o‘tish tizimlarida aralash jarayonli modeling qo‘llanishining mosligi bizning munozaralarimizda qayta ko‘rib chiqiladi (Yulchieva, 2024). Tabiiy tizimlardagi ma’lumotlarning dinamik jihatlari tufayli, ishtirok oqimlarining stabilizatsiya qobiliyati hanuz noma’lumdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, har bir hududiy klasterda barcha ishtirokchi guruhlar oz miqdorda ijobiy tomonga siljigan (ya’ni, ular taklif etilgan muvofiqlashtirishga nisbatan biroz ko‘proq rozi bo‘lganlar; $p < 0.01$, AHP–regressiya taqqoslash natijalariga ko‘ra). Model A doirasida umumiy ustuvorlik og‘irligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich 0.6708 bo‘lib, bu “Ishonchga asoslangan kommunikatsiya strategiyasi” muqobilining eng katta ustuvorlik darajasi sifatida qayd etilgan.

1-jadval.

Chiziqli Regressiya

O‘zgaruvchi	Koef.	St. xatolik	t-qiymat	p-qiymat	[95% Ishonch Oralig‘i]	Ahamiyat
Innovatsiya holati (INH)	-0.771	0.146	-5.29	0.000	-1.065 — -0.477	***

O‘zgaruvchi	Koef.	St. xatolik	t-qiymat	p-qiymat	[95% Ishonch Oralig‘i]	Ahamiyat
Leverage nisbati (LR)	0.347	0.106	3.26	0.002	0.132 — 0.562	***
Media ta’siri (MI)	-0.441	0.065	-6.81	0.000	-0.572 — -0.311	***
Kanal elastikligi (CE)	-0.250	0.070	-3.60	0.001	-0.390 — -0.110	***
Ishonch tebranishi (TV)	0.760	0.114	6.65	0.000	0.529 — 0.990	***
Diffuziya koeffitsiyenti (DFC)	-0.421	0.090	-4.66	0.000	-0.603 — -0.239	***
Iste’molchi ishtiroki indeksi (CEI)	0.660	0.100	6.60	0.000	0.458 — 0.863	***
Konstanta	0.130	0.106	1.23	0.227	-0.084 — 0.345	

Manba: muallif ishlanmasi

O‘rtacha bog‘liq o‘zgaruvchi: 0.568
Standart og‘ish: 0.173
R^2: 0.558
Kuzatuvlar soni: 50
F-testi: 7.583
P > F: 0.000
Akaike mezoni (AIC): -59.224
Bayes mezoni (BIC): -43.928
*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

Ushbu tadqiqotning eng muhim topilmasi — iste’molchi ishtiroki (CEI) ning ishonch tebranishi (TV) bilan kuchli korrelyatsiyalanganidir; bu regressiya koeffitsiyenti 0.66 ($p < 0.01$) bilan tasdiqlangan. Aksincha, tashqi o‘zgaruvchilarning natijalari siyosiy shaffoflik va media ta’siridagi struktura asimmetriyalarining kattaligi, hamda gibrid modellar natijalari o‘rtasidagi sezilarli o‘zgaruvchanlik bilan chegaralangan.

2-jadval.

AHP–Regressiya Modelida Ishlatilgan O‘zgaruvchilarning Tavsifiy Statistikasi

O‘zgaruvchi nomi	Kuzatuvlar	O‘rtacha	Standart og‘ish	Min	Maks
Siyosiy shaffoflik (PT)	50	0.5676	0.1733	0.3124	0.8819
Innovatsiya holati (INH)	50	0.5956	0.2455	0.2044	0.9895
Leverage nisbati (LR)	50	0.4348	0.2083	0.1049	0.7802
Media ta’siri (MI)	50	–0.0073	0.9529	–1.6075	2.1905
Kanal elastikligi (CE)	50	1.3546	0.4407	0.5232	1.9851
Ishonch tebranishi (TV)	50	0.0730	0.5704	–1.0126	1.9264
Diffuziya koeffitsiyenti (DFC)	50	0.8635	0.3268	0.4158	1.4573
Iste’molchi ishtiroki indeksi (CEI)	50	2.1029	1.0470	–0.7604	3.9252

Manba: muallif ishlanmasi

1-jadval faqat nazorat o‘zgaruvchilari bo‘yicha regressiya tahlil natijalarini ko‘rsatadi. Kuzatilishicha, innovatsiya holati guruhiga qaraganda boshqa o‘zgaruvchilar (masalan, leverage nisbati, diffuziya koeffitsiyenti yoki kanal elastikligi) bozor shaffofligiga kamroq hissa qo‘shadi — bu esa ularning bashorat qilish salohiyati past ekanligini bildiradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, siyosiy shaffoflik va innovatsiya holati o‘rtasida kanal samaradorligi bo‘yicha sezilarli farq yo‘q, ammo ishonchning turli toifalari bo‘yicha — xususan, tebranish, diffuziya va ishtirok nuqtai nazaridan — sezilarli farqlar mavjud.

3-jadval.

Ahp juft taqqoslash matritsasi va strategik muqobillar uchun ustuvor og‘irliklar

Mezon / Muqobillar	**Siyosiy shaffoflik**	**Transformatsion kanal innovatsiyasi**	**Ishonchga asoslangan kommunikatsiya strategiyasi**	**Iste’molchi ishtiroki (CEI)**	**Innovatsiya holati (INH)**	**Media ta’siri (MI)**	**Siyosiy mos marketing modeli**	**Maqsad**
Siyosiy shaffoflik	0.00000	0.00000	0.00000	0.33322	0.32551	0.35313	0.25596	0.15848
Transformatsion kanal innovatsiyasi	0.00000	0.00000	0.00000	0.07506	0.07013	0.06079	0.07325	0.03490
Ishonchga asoslangan kommunikatsiya strategiyasi	0.00000	0.00000	0.00000	0.59173	0.60436	0.58608	0.67080	0.30662
Iste’molchi ishtiroki (CEI)	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.12500
Innovatsiya holati (INH)	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.12500
Media ta’siri (MI)	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.12500
Siyosiy mos marketing modeli	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.12500
Maqsad	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	

Manba: muallif ishlanmasi

2-jadvaldagi interaksiya koeffitsiyenti va elastiklik baholari shuni ko‘rsatadiki, ishtirokchilar soni va korxonalar soni nuqtai nazaridan siyosiy shovqin va media saturatsiyasi kanal samaradorligini 0.01 darajadagi statistik ahamiyat bilan to‘sadi. Siyosatdagi zarbali (shock) o‘zgarishlar va diffuziya tizimidagi muvofiqlashuvdagi

maksimal buzilishlar va minimal barqarorlik namunalarida kanal yo‘nalishining muayyan segmentlari bilan aniq ustma-ust kelish mavjud; bular tashqi regressorlarning variativligiga bog‘liq vaqt kechikishlarining kuchaygan distorsiyalarini ifodalaydi.

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, ishonch tebranishining iste’molchi ishtiroki indeksiga (CEI) ta’siri boshqa ishonchga bog‘liq bo‘lmagan prediktorlarga nisbatan kattaroqdir, bu esa ikki turdagi korxonalarning turlicha xulqiy sezgirligi bilan bog‘liq. Ushbu xulosa ilgari o‘tkazilgan O‘zbekiston asosidagi marketing tadqiqotlari bilan mos keladi.

4-jadval.

Yangi Iqtisodiy Muhitda Strategik Muqobillar bo‘yicha AHP Natijalari

Strategik muqobillar	Ideal	Normal	Xom (Raw)
Siyosiy mos marketing modeli	0.516852	0.316954	0.158477
Transformatsion kanal innovatsiyasi	0.113833	0.069807	0.034904
Ishonchga asoslangan kommunikatsiya strategiyasi	1.000000	0.613239	0.306619

Manba: muallif ishlanmasi

Mazkur natijalar bizning gipotezamizni qo‘llab-quvvatlaydi: ishonch — iste’molchi ishtirokiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, va siyosiy shaffoflik strategik muvofiqlikni aniqlovchi muhim omil sifatida o‘z tasdig‘ini topdi. Biroq, doimiy tebranishlar va muntazam resetlar vaqtinchalik muvozanat holatlarini yuzaga keltirishi mumkin; bu holatda, paradoksal tarzda, yuqori darajadagi ishtirok odamlar uchun harakatni kamaytirish xavfsiz his qilinishiga olib kelishi mumkin — jarima riski yo‘qdek tuyuladi. Bunga sabab — bu ikkita ko‘rsatkich (CEI va TV) nisbatan kichik dispersiyaga ega va tasodifiy xatolardan kamroq ta’sirlanadi.

Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, innovatsiya holati (INH) va leverage nisbati (LR) o‘rtasida kanal samaradorligi bo‘yicha sezilarli farq yo‘q, biroq ishonch toifalari o‘rtasida — xususan, tebranish, diffuziya va ishtirok nuqtai nazaridan — sezilarli tafovutlar mavjud. Shunga qaramay, media ta’siri (MI) umumiy tendensiyalardan sezilarli darajada chetga chiqdi — uning koeffitsiyentlari kutilgan standart qiymatlardan past bo‘lib chiqdi.

Panel regressiyaning fiksirlangan effekt (fixed effect) yoki tasodifiy effekt (random effect) ekanligini aniqlash uchun Hausman testi o‘tkazildi. Natijalar p-qiymatning 0.05 dan kichik ekanligini ko‘rsatdi — bu esa tasodifiy effekt gipotezasini qat’iy rad etadi. O‘zgaruvchan koeffitsientli panel model natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘tarilishlar mavjud, lekin bu ko‘tarilishlar unchalik keskin emas: ishonch tebranishida maksimal qiymat 0.76, va diffuziya koeffitsiyenti bilan iste’molchi ishtiroki orasida o‘rtacha o‘sish kuzatilgan.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonning o‘tish iqtisodiyotida marketing sohasi doirasida ishonch asoslangan kommunikatsiya strategiyasi eng yuqori o‘rinda ekanligi umumiy tasavvurga aylangan (Popova va boshq., 2021; Ergashxodjaeva & Kurpayanidi, 2022). 1-jadval interaksiya (interaction) va diffuziya koeffitsienti (diffusion coefficient) yordamisiz va yordamida olinadigan model natijalarini ko‘rsatadi. Prognozator o‘zgaruvchilar regressiya modeli bilan solishtirganda ham

xuddi shunday ahamiyatli, faqat media ta’siri chegaraga yaqin (Ramazonovma, 2022; Mustafakulov, 2021).

Ishonch tebranishining odds nisbati 0.76 bo‘lib, bu har bir birlik ishonch tebranishi oshganda iste’molchi ishtirokida 66% oshish ro‘y berishini bildiradi (Yulchieva, 2024). Shuningdek, gipoteza tasdiqlandi: siyosiy shaffoflik O‘zbekiston korxonalari rivojlanishiga moslashuvni rag‘batlantiradi — bu institutlararo va shaxslar-aro ishonch mexanizmlarini va kommunikatsiya tizimini qamrab oladi, ya’ni bozor transformatsiyasi yo‘lida rivojlangan barcha marketing kanallariga yo‘naltiriladi (Akhmedov, 2023; Kurpayanidi, 2022). 2-jadvaldagi regressiya koeffitsiyentlari media ta’sirining iste’molchi ishtiroki bilan salbiy korrelyatsiyani ko‘rsatadi (Hayitboyeva, 2021; Zhehus, 2023).

Bu topilmalar innovatsion marketing korxona o‘sishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini kuchli dalillar bilan tasdiqlaydi — bu gibrid model regressiya koeffitsiyentlarida aks etgan (Popova va boshq., 2021). 2-jadvaldagi stratifikatsiyalangan natijalar shuni ko‘rsatadiki, siyosat–bozor bog‘liqligi past bo‘lgan korxonalar namunalarida media ta’sirining kanal samaradorligiga salbiy ta’siri sezilarli emas (Narinbaeva va boshq., 2021). Bu natijalar o‘tish davridagi sharoitlarda AHP–regressiya metodologiyasi orqali struktural muvofiqlik naqshlarini baholash jarayonida olingan (Tulagan-Ugli, 2021). Aslida, Ergashxodjaeva va boshq. (2023) hamda Burenin (2021) shuni aniqladilarki, past shaffoflik, rag‘batlarning yo‘qligi, kichik korxona o‘lchami ishonchsizlikka olib keladi — bu esa tebranishlar noaniqlikli ta’sirlarni kuchaytiradi. Biz ham misalignment (muvofiqsizlik) sababi sifatida ishonch-diffuziya yo‘li va ma’lumot oqimidagi assimetriya — geografik masofa oshib borishi bilan oqim tezligi va obro‘ga zarar yetishi — kombinatsiyasini taklif qilamiz.

Xususan, diffuziya koeffitsiyenti oshganda, siyosiy ta’sirga ishonch tebranishi ta’sirining marjinal effekti kamayadi. Natijalar shuni ko‘rsatadi: iste’molchi ishtiroki adaptiv marketingni yaxshilash uchun muhim bo‘lib, bu barqaror korxona o‘sishida foydali bo‘lishi mumkin (Toshboev va boshq., 2021). Siyosiy noaniqlik ortganda, strategik muvofiqlik yo‘qolishi kuzatiladi — avg‘engagement barqarorligiga nisbatan (Yulchieva, 2024). Ushbu topilmalar innovatsion marketing tarqalishi haqida yangi tushunchalar beradi va o‘tish iqtisodiyotlari sharoitida korxonalarning moslashuvchanligi haqidagi mavjud taxminlarni qayta shakllantirishda yordam beradi (Popova va boshq., 2021; Akhmedov, 2023). Leverage nisbatining odds nisbati 0.35 bo‘lib, bu har bir birlik leverage nisbati oshganda kanal elastikligida 34% oshish ro‘y berishini anglatadi (Mustafakulov, 2021).

Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki: ishonch asosidagi ishtirok kuchli va ba’zan noto‘g‘ri ishonch orqali kommunikatsiya assimetriyalaridan foydalangan holda shakllangan tasavvurlarga qarshi kurashishda foydali bo‘lishi mumkin (Burenin, 2021; Zhehus, 2023). Ishonch tebranishining iste’molchi ishtirokiga ta’siri 0.01 ahamiyatlilik darajasida sezilarli. P–qiymat 0.000 bo‘lib, ma’lumotlar ishonchliligiga yuqori darajada ishonchni bildiradi.

Siyosiy sohalarda oshib borayotgan shaffoflik marketing innovatsiyasiga yaxshiroq imkoniyatlar yaratadi. Bu natijalar xalqaro investorlar uchun muhim bo‘lishi

mumkin, chunki ularni muvofiqlashtirish yaxshilangan korxona natijalariga olib kelishi ko‘rsatildi (Akhmedov, 2023). Biroq, turizm va qishloq xo‘jaligi klasterlarida (innovatsion g‘oyalar eng yuqori bo‘lgan sektorlar) bularning ta’siri ishonch obyekti bo‘lgan vakolatli nazorat va institut tizimlari uchun sezilarli emas edi (Ramazonovma, 2022; Narinbaeva va boshq., 2021). Natijalar shuni ko‘rsatdiki: kanal siyosatdagi muvofiqsizlikka respond berish yo‘li asta-sekin ishonch sezgirligini oshirish va iste’molchi diffuziyasini bosqichma–bosqich oshirish orqali amalga oshadi, vaqt o‘tishi bilan siyosiy noaniqlikka taalluqli tebranishlar struktural va xulq-atvor natijalarini qayta shakllantiradi (Ergashxodjaeva va boshq., 2023).

Bu xulosa Popova va boshq. (2021) natijalari bilan mos keladi, u innovatsion marketing amaliyotlari korxona darajasida sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Bizning natijalarimiz Hayitboyeva (2021) topilmalaridan farq qiladi — u matbaa sanoati natijalarini nomuvofiq deb topgan, shuni ta’kidlaganki, oldindan o‘ylanganidan ko‘ra ishonch mexanizmlari adaptiv marketingga katta ta’sir qilishining ehtimoli bor. Bunga sabab — bu ikki o‘zgaruvchi nisbatan kichik dispersiyaga ega bo‘lib, tasodifiy buzilishlardan kamroq ta’sirlanadi. Saidov (2021) bilan bizning natijalarimizdagi tafovut esa soha tarkibidagi farqlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bizning namunalar hajmimiz nisbatan kichik bo‘lgani sababli, faqat juda kuchli ta’sirlarni aniqlash imkonimiz bor — bu esa xulosalarimizni juda mustahkam qiladi.

Hududiy ishtirok tahlillarida nojo‘ya holatlar (outlier) olib tashlanishi samarali bo‘lar edi, chunki bu uzoq profillarni silliqlash va diffuziya koeffitsiyentlarini tizimli o‘rtachaga yaqinlashtiradi (Kurpayanidi, 2022). Delist qilingan firmalar soni kichik bo‘lganligi sababli, ular sektor bo‘yicha alohida tahlil qilinmadi. Ushbu tadqiqotning cheklovlaridan biri — mahalliy ma’lumotlarning etishmasligi bo‘lib, bu natijalarni norasmiy iqtisodiyotlarga umuman qo‘llashda cheklov yaratishi mumkin. Muayyan kichik sub-sektorlardagi ma’lumot hajmining cheklangani natijalarning barqarorligiga ta’sir qilishi ehtimoli mavjud. Shu cheklovlarga qaramay, natijalar innovatsion marketing muvofiqligi haqida qimmatli ma’lumot beradi, biroq kelajakdagi tadqiqotlar natijalarni mustahkamlash uchun tarmoqaro farqlarni hisobga olishi kerak (Yulchieva, 2024; Toshboev va boshq., 2021).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning natijalarimiz shuni ko‘rsatadi: regressiya asosidagi modellar o‘tish iqtisodiyotida, turli institut kontekstlarida shakllangan struktural dinamikani izohlash uchun foydali bo‘lishi mumkin — bu trayektoriyalar siyosat–marketing sohasidagi strategik muvofiqlik muammolarini hal qilishda muhim bo‘lishi mumkin.

Biz ko‘rsatdikki, korxonaning marketing rivojiga hissa qo‘shishidagi asosiy mexanizmlar innovatsion kanal rivojlanishida ham muhim omil bo‘lib, shuningdek, ayrim qiziqarli farqlarni ham aniqlab, amaliy marketing strukturasi rivojiga, o‘tish jarayonining yaxshiroq tushunchasiga hissa qo‘shganmiz. Nihoyat, AHP–regressiya gibrid modellarini kanal samaradorligi va iste’molchi afzalliklarini taqsimlashda qaynoq masalani — kompleks muammoni yechishda samarali vosita sifatida tatbiq etishning katta potensialiga ega ekanligini ko‘rsatdik.

Bizning hissa qo‘shiqlarimiz marketing o‘zgarishlarining asosida yotgan insonlarning xulq-atvor persepsiyalarini aniqlashga qaratilgan birinchi urinishdir — bu keyingi rejalashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarida inobatga olinishi kerak. Korxona yetkazib beruvchilar tomoni moslashuvchanligini rag‘batlantirish, kommunikatsiya resurslarini samarali taqsimlashni yaxshilash va tebranish risklarini kamaytirish ham e’tiborda bo‘lishi lozim.

Ko‘plab muhim savollar hanuz ochiq qolmoqda va biz umid qilamizki, mazkur ish kelajakdagi tadqiqotlarni — xususan, ishonch tebranishining diffuziya ta’sirlarini o‘rganish va iste’molchi e’tiqodlariga ta’sir qiladigan tizimli assimetriyalarni hisobga olish bo‘yicha — rag‘batlantiradi. O‘tish bozorlarida o‘lchash doimiy ravishda umumiy muammo bo‘lib qolmoqda, shuning uchun empirik ishonchlilikda sinovdan o‘tkazilgan alternativ variantlar ba’zan taqqoslama sahnada yuqori chidamliligini ham ko‘rsatishi zarur. Ishtirok profillarining uzluksiz kuzatuvi shuni ko‘rsatadiki, kanal tizimlari hali to‘liq barqarorlik holatiga erishmagani, reformalar boshlangan paytda vaqtinchalik holatda bo‘lgan.

Biz bu hodisani ko‘rsatkichlarimiz qanday shakllantirilganiga moslashtirishga harakat qildik. Aslida, biz bevosita natijalarni o‘lchamaymiz, balki korxona rivojiga yanada muvofiq natija uchun kutilgan muvofiqlikni so‘raymiz. Kanal rivojlanishidagi yuqori tebranish qanday qilib natijalardagi barqarorlikni sezilarli darajada oshirishi tasavvur qilish ancha qiyin. Tizimli nazorat ostidagi ishonch o‘zgaruvchilari va elastiklikning butun takrorlash–javob zanjirlari bo‘yicha differensial tahlili mavjud siyosat–bozor o‘zaro ta’sirining modeli takomillashtirish imkonini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Popova, N., et al. (2021). Marketing aspects of innovative development of business organizations in the sphere of production, trade, transport, and logistics in VUCA conditions.
2. Akhmedov, K. A. (2023). Development strategy of New Uzbekistan for 2022–2026. The American Journal of Social Science and Education Innovations.
3. Narinbaeva, G., et al. (2021). Application of innovative technologies in agriculture of Uzbekistan. E3S Web of Conferences.
4. Ramazonovma, M. D. (2022). Development of marketing in the context of a tourism pandemic in Uzbekistan. Research Trend in Technology and Management.
5. Mustafakulov, Y. B. (2021). The role of innovation in the modern concept of economic development of Uzbekistan.
6. Hayitboyeva, N. (2021). Innovative marketing strategy in the development of the textile industry.
7. Jamoliddinova, M. D. (2022). Strategy for the development of innovative tourism services in the field of marketing in Uzbekistan. Information Technologies and Management in Higher Education and Sciences. Part 1.
8. Zhehus, O. (2023). Marketing of opportunities as a modern concept for business development under the conditions of global challenges. Business Inform.

9. Ergashxodjaeva, S., et al. (2023). Improving distribution channel relationships in marketing through data mining and database applications. International Conference on Future Networks and Distributed Systems.

10. Kurpayanidi, K. (2022). Institutional conditions for the development of entrepreneurship in the context of the transformation of the national economy. Economic Innovations.

11. Tulagan-Ugli, J. J. (2021). Analysis of new technologies of business in the digital economy and their effectiveness in Uzbekistan. The American Journal of Management and Economics Innovations.

12. Yulchieva, K. (2024). The impact of marketing mix on indigenous business development in Uzbekistan: A regression analysis. Journal of Intelligent Communication.

13. Burenin, V. A. (2021). Features of innovative marketing in modern international chaordic business environment. Mezhdunarodnaja jekonomika (The World Economics).

14. Saidov, M. (2021). Increasing management efficiency in the electricity sector of Uzbekistan. International Conference on Future Networks and Distributed Systems.

15. Unknown author. (2022). New opportunities on economic development of Uzbekistan.

16. Toshboev, A., et al. (2021). Efficiency of agrobusiness development in agriculture. E3S Web of Conferences.

“YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETINGNING INNOVATSION KONSEPSIYALARI”

Aripov Abdulaziz Sakijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Yashil iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Annotatsiya

Mazkur ishda yashil iqtisodiyot sharoitida marketing faoliyatining innovatsion konsepsiyalari yoritilgan. Unda ekologik tamoyillarga asoslangan marketing strategiyalari, iste’molchilarning ekologik ongini oshirish usullari va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi yangicha yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari korxonalarda ekologik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, innovatsion marketing, barqaror rivojlanish, ekologik marketing, ekologik samaradorlik, iste’molchi xulq-atvori, innovatsion konsepsiyalar.

Аннотация

В данной работе освещены инновационные концепции маркетинговой деятельности в условиях «зелёной» экономики. Рассмотрены маркетинговые стратегии, основанные на экологических принципах, способы повышения экологического сознания потребителей и новые подходы, способствующие устойчивому развитию. Результаты исследования помогают повысить экологическую и экономическую эффективность деятельности предприятий.

Ключевые слова: зелёная экономика, инновационный маркетинг, устойчивое развитие, экологический маркетинг, экологическая эффективность, поведение потребителей, инновационные концепции.

Abstract

This paper highlights the innovative concepts of marketing activities under the conditions of the green economy. It examines marketing strategies based on ecological principles, methods of increasing consumers’ environmental awareness, and new approaches that contribute to sustainable development. The results of the study help improve both ecological and economic efficiency in enterprises.

Keywords: green economy, innovative marketing, sustainable development, ecological marketing, environmental efficiency, consumer behavior, innovative concepts.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi uning muhit muhofazasiga bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan bog‘liq. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi kengayib borayotgan ekologik muammolar va tabiiy resurslarning cheklanganligi bilan bog‘liq holda, marketing sohasidagi yangi yondashuvlarni ilgari suradi. Ular, bir tomondan, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan mahsulot va xizmatlarni targ‘ib qilishni nazarda tutadi, boshqa tomondan esa, ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga asoslanadi. Bu esa, o‘z navbatida, raqobatchilarga o‘zaro mag‘lubiyatlar uchun kuchli asos yaratadi. Mavzuning nazariy asoslari, ayniqsa,

barqaror rivojlanish va atrof-muhitga mos keladigan marketing xususiyatlariga e’tibor qaratadi. Innovatsion konsepsiyalar esa, o‘z ichiga, kooperativ va ochiq innovatsiyalar, hamda bosh talabga yo‘naltirilgan yangi texnologik yondashuvlar kabi metodlarni oladi. Ushbu yondashuvlar, iqtisodiy va ekologik maqsadlarni uyg‘unlashtirish orqali, yashil mahsulotlar va xizmatlar marketingida yangi imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, mavzuning muhim yo‘nalishlaridan biri raqobatbardosh narxlar va qiymat taklifi. Toza energiya va resurslarni tejash masalalari, uzoq muddatli foydani ta’minlaydigan prinsip sifatida har tomonlama muhim hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli marketing, yashil kontent va ta’limiy aksiyalar orqali, auditoriya xabardorligini oshirish va ijtimoiy manfaatlarni ko‘zlash xarakterga ega. Shu bilan birga, me’yoriy tartiblar va risklarni boshqarish masalalari, ekologik sertifikatlar va standartlarga amal qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot sharoitida marketing sohasida innovatsion konsepsiyalarni rivojlantirish uchun amaliy tadqiqotlar va strategiyalarni ishlab chiqish, kelajakda toza va barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot sharoitida marketingning innovatsion konsepsiyalarining dolzarbligi uning zamonaviy global muhitda iqtisodiy va ekologik muvozanatni ta’minlashdagi ortib borayotgan ehtiyoj bilan bog‘liq. Dunyo miqyosidagi ekologik muammolar, resurslarning cheklanganligi va iqlim o‘zgarishining ta’siri, ayniqsa, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilardan yangi yondashuvlar va strategiyalarni joriy qilishni talab qilmoqda. Ayniqsa, yashil iqtisodiyot tushunchasi bilan bog‘liq holda, iqtisodiy faoliyatlarning ekologik tozalanishi, energetika sohasida resurs tejamkorligi, atrof-muhitga minimal ta’sir ko‘rsatadigan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa marketing sohasi uchun yangi imkoniyatlar va innovatsion konsepsiyalarni ishlab chiqish, qo‘llash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Yashil iqtisodiyotda marketingning dolzarbligi uning biznes jarayonlarida ekologik va iqtisodiy ehtiyojlarni muvofiqlashtirish imkoniyatlarida namoyon bo‘ladi. Korxonalar uchun ekologik jihatdan barqaror mahsulotlar va xizmatlar bozorda muvaffaqiyat qozonishi, brendga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Shu bilan birga, iste’molchilarning ekologik tamoyillarga ega bo‘lishi va yashil mahsulotlarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqishining ortishi, ular uchun yangi bozor segmentlarini ochmoqda. Boshqa tomondan, yashil iqtisodiyotda innovatsion marketing konsepsiyalari kooperativ va ochiq innovatsiyalar, talabga yo‘naltirilgan yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqishga turtki berib, raqobatbardoshlikni kuchaytiradi va istiqbolli bozorlarni rivojlantirishga imkon yaratadi.

So‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish g‘oyalari marketing nazariyasida muhim o‘rin egallamoqda. Ko‘plab tadqiqotchilar Porter M, Kramer M, Kotler P., marketing strategiyalarida ekologik yondashuvni joriy etish zarurligini ta’kidlaydilar [1]. Shuningdek, Porter va Kramer (2011) o‘z tadqiqotlarida korxonalar uchun ekologik mas’uliyat va foyda olish o‘rtasidagi muvozanatni izlash muhimligini qayd etadi [2]. Ularning fikricha, innovatsion marketing konsepsiyalari nafaqat foyda

olish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va iste'molchilarda ekologik mas'uliyatni shakllantirishga qaratilishi kerak.

O'zbekiston olimlaridan A. Jo'rayev, M. Xudoyqulov va boshqalar o'z ishlarida O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish va ekologik marketingni rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratganlar [6;7]. Ularning tadqiqotlarida innovatsion texnologiyalar, ekologik mahsulotlarni targ'ib qilish va iste'molchilarning yashil xatti-harakatlarini shakllantirish usullari tahlil etilgan [3; 8].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, marketingning innovatsion konsepsiyalari yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslanishi zarur bo'lib, bu korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, barqaror rivojlanishga ham xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda ilmiy izlanishlar nazariy va amaliy yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqotning metodologik asosini yashil iqtisodiyot nazariyasi, barqaror rivojlanish konsepsiyasi hamda innovatsion marketing tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

Tahlilvasintezmavjudilmiymanbalar, xalqarotajribalarvaamaliymisollarnio'rganishuchun;

Taqqoslash usuli an'anaviy va innovatsion marketing yondashuvlarini solishtirish uchun;

Induksiya va deduksiya umumiy nazariy qarashlardan aniq amaliy xulosalar chiqarish uchun;

Statistik va grafik tahlil yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari va marketing faoliyati samaradorligini baholash uchun.

1-rasm. Maqolada foydalanilgan tadqiqot usullari[1]

Tadqiqot natijalari marketingda ekologik va innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida marketing faoliyatini tashkil etishning afzalliklari va amaliy jihatlari o'rganildi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik omillarni hisobga olgan marketing strategiyalari korxonalar uchun nafaqat ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi, balki ularning bozordagi raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston

sharoitida korxonalar hali to‘liq “yashil” marketing modeliga o‘tmagan bo‘lsada, ayrim sohalarda (masalan, oziq-ovqat, to‘qimachilik, energiya tejamkor texnologiyalar) ekologik yondashuvlar joriy etila boshlagan. Bunda innovatsion texnologiyalar, raqamli marketing vositalari va ekologik sertifikatlash tizimining ahamiyati ortib bormoqda. Natijalar asosida aniqlanishicha, korxonalar tomonidan yashil marketing konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish:



2-rasm. Yashil marketing konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish[1]

Shuningdek, tahlillar natijasida marketing strategiyalarini ekologik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi muhim omil ekani isbotlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyot sharoitida marketingning innovatsion konsepsiyalari muhim o‘rin tutadi, chunki ular atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Ushbu yondashuvda ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirish uchun innovatsiyalarni tatbiq etish muhimdir. Innovatsion konsepsiyalar, jumladan, kooperativ hamda ochiq innovatsiyalar metodlari, kompaniyalarga yangi texnologiyalar va bozor imkoniyatlarini o‘zlashtirishda yordam beradi. Bosh talabga yo‘naltirilgan innovatsiyalar yordamida, mahsulot yoki xizmatlarning asosiy xaridorlar ehtiyojlariga mos kelishi ta’minlanadi, bu esa ularning qabul qilinishini kuchaytiradi. Yashil mahsulotlar va xizmatlar marketingini rivojlantirishda ekologik tamoyillar asosiy o‘rin tutadi, masalan, energiya tejamkorlik va qayta ishlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, yangi biznes modellari joriy etilmoqda. Raqobatbardosh narxlar va qiymat takliflari, ayniqsa, toza energiya va resurslarni tejashga qaratilgan bo‘lib, uzoq muddatli foyda olish imkonini beradi. Rivojlanayotgan bozorlar uchun moslashtirilgan marketing strategiyalari, mahalliy ehtiyojlar va ijtimoiy mas’uliyatni inobatga olgan holda ishlab chiqiladi. Me’yoriy tartiblar va standartlar, jumladan, yashil sertifikatlar, hamda risk menejment tizimlari iqlimga mos keladigan xavflarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot sharoitida marketingning innovatsion konsepsiyalari, rivojlanishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi, ular bilan birga,

istiqbolli strategiyalar va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiyot va ekologiya o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlashga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kotler, F., Keller K. L. Marketing menejment. 15-nashr. Nyu-York: Pearson Education, 2016.
2. Porter M., Kramer M. Creating Shared Value: How to Reinvent Capitalism and Unleash a Wave of Innovation and Growth. Harvard Business Review, 2011.
3. Peattie K. Green Marketing. London: Routledge, 1995.
4. OECD. Towards Green Growth. Paris: OECD Publishing, 2011.
5. UNEP. Green Economy Report: Towards a Green Economy. Nairobi: United Nations Environment Programme, 2011.
6. Xudoyqulov M. Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik masalalari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
7. Jo‘rayev A. Marketingda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim, 2021.Karimov N. Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot asoslari. Toshkent: TDIU nashriyoti, 2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 4-oktabr PQ-4477 sonli “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/docs/-4539502 . .

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA MARKETING KONSYEPSIYALARINI QO‘LLASHDA XORIJIY TAJRIBANING AHAMIYATI

Ruziyeva Dilobar Isomjonovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Yashil” iqtisodiyot kafedrasi professori

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarida marketing konsepsiyalarini shakllantirish va ularni amalga oshirish jarayonida xalqaro tajribaning ahamiyati yoritilgan. Dunyo amaliyotida kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli, innovatsiyalar va raqobat muhitini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, AQSH, Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston misolida kichik biznesda marketingning zamonaviy yondashuvlari — “4R” va “4S” tizimlari, o‘zaro aloqalar marketingi va raqamli marketingning ahamiyati ko‘rsatilgan. Maqolada kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va tashqi bozorlarga chiqishda marketing konsepsiyalarini samarali qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, marketing konsepsiyasi, xalqaro tajriba, raqamli marketing, mijozlarga yo‘naltirilganlik, raqobatbardoshlik.

Аннотация

В данной статье рассматривается значение международного опыта в формировании и реализации маркетинговых концепций в деятельности субъектов малого бизнеса. Анализируется роль малого предпринимательства в экономике, его вклад в развитие инноваций и конкурентной среды. На примере США, Европейского союза и Узбекистана раскрываются современные подходы маркетинга — модели “4P” и “4C”, концепции маркетинга взаимодействия и цифрового маркетинга. В исследовании предложены рекомендации по повышению конкурентоспособности малых предприятий и их выходу на внешние рынки через эффективное применение маркетинговых стратегий.

Ключевые слова: малый бизнес, маркетинговая концепция, международный опыт, цифровой маркетинг, клиенториентированность, конкурентоспособность.

Abstract

This article examines the importance of international experience in developing and implementing marketing concepts in small business activities. The study analyzes the role of small enterprises in the economy, their contribution to innovation and competition. Based on the experience of the USA, the European Union, and Uzbekistan, modern marketing approaches such as the “4P” and “4C” models, relationship marketing, and digital marketing are discussed. The research provides recommendations for enhancing the competitiveness of small businesses and facilitating their integration into global markets through effective marketing strategies.

Keywords: small business, marketing concept, international experience, digital marketing, customer orientation, competitiveness.

KIRISH

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda dunyo bo‘yicha kichik korxonalar barcha korxonalarning 90%ini tashkil etib, YAIMning taxminan 50%iga hissasi to‘g‘ri keladi. Rivojlangan davlatlarda kichik biznes ulushi YAIMning yarmiga teng bo‘lib, iqtisodiy o‘sish va bandlikka katta hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich hali past – kichik biznes YAIMning atigi 25–30%ini tashkil etadi. Binobarin, kichik biznesda zamonaviy marketing konsepsiyalarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo amaliyotidan ma’lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘imi hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (United Nations) ma’lumotlariga ko‘ra,

dunyo bo‘yicha mikrofirma, kichik va o‘rta korxonalar barcha biznes subyektlarining 90%ini tashkil etib, umumiy bandlikning 60–70%iga va yalpi ichki mahsulotning (YAIM) 50%iga yaqin ulushini beradi[1]. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes ulushi juda yuqori bo‘lib, masalan, AQSH va Yevropa Ittifoqida xususiy sektorning qariyb 99%i kichik va o‘rta korxonalarni tashkil qiladi va ular YAIMning taxminan yarmini ta’minlaydi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlari faoliyatining rivojlanishi yangi ish o‘rinlari yaratilishida, innovatsion mahsulotlarni iqtisodiyotga joriy etishda va raqobat muhitini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kichik biznes subyektlari raqobat muhitini shakllantirish orqali mintaqalar investitsion jozibadorligini oshirishga va davlatning moliya-kredit tizimini takomillashtirishga katta hissa qo‘shadi. Kichik biznes subyektlari faoliyatining rivojlanishi ilmiy-texnika taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarini jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi va ularning iqtisodiy, antimonopol, innovatsion va ijtimoiy rolini yanada kuchaytiradi.

O‘zbekiston respublikasida so‘nggi yillarda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi tutgan o‘rni ortib borayotganligini mamlakat iqtisodiyotida qator imkoniyatlar yaratilayotganligidan ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida mamlakatda xususiy tadbirkorlik uchun yaratilgan shart-sharoitlar va uni qo‘llab-quvvatlash choralari alohida ta’kidlanganligi fikrimiz isbotidir. Mamlakat iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyati keng sur’atlar bilan rivojlanib, u iqtisodiyotning o‘sishi uchun qulay muhit indikatoriga aylandi, investitsiyalarni jalb qilish hamda faoliyat ko‘lamlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda, raqobatning kuchayishi esa tadbirkorlikda yangi ishlab chiqarish va texnologiyalarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Shunga qaramay, milliy iqtisodiyotda kichik biznes ulushi hali yetarli darajada emasligi va uni rivojlantirishda marketing marketing konsepsiyalarini qo‘llash o‘rganilayotgan mavzuning dolzarbligini kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Amerikalik olim Leonard Berri ilk bor 1983-yilda o‘zaro aloqalar marketingi konsepsiyasi an’anaviy tranzaksion (bitimlarga asoslangan) marketingdan farqli o‘laroq, mijozlar bilan uzoq muddatli, barqaror munosabatlar o‘rnatishga qaratilgan yondashuvni ya’ni har bir mijoz bilan bevosita va uzluksiz aloqalar o‘rnatishga qaratilgan fikrni bildirdi. Berrining ta’rifida “o‘zaro aloqalar marketingi – har bir mijoz bilan mustahkam, davomli munosabatlar o‘rnatish” demakdir[2]. Keyinchalik bu tushuncha nafaqat mijozlar, balki yetkazib beruvchilar, pudratchilar va bozorning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikni o‘z ichiga oladigan keng doirali konsepsiyaga aylandi. G‘arb mamlakatlarida 1980-yillardan boshlab keng qo‘llanila boshlagan o‘zaro aloqalar marketingi an’anaviy marketing tamoyillaridan strategik jihatdan farq qiladi va mijozlarni saqlab qolish hamda ularning umrboqiy qiymatini oshirishni maqsad qiladi.

F. Kotler o‘zining 2022-yildagi Marketing Management asarining 16 nashrida *k*ichik biznesda marketing — bu faqat reklama emas, balki bozorni o‘rganish, segmentatsiya, pozitsiyalash va integral mijoz qiymati yaratish tizimi deb ta’kidlab o‘tdi[3]. Filip Kotler o‘z kitoblarida marketingdagi asosiy strategik vosita, u orqali kompaniya o‘z mahsulot yoki xizmati bilan bozorga chiqish strategiyasi “4R” modelini ommalashtirdi va dunyo bo‘yicha marketing fanining asosiy tushunchasiga aylantirdi.

Amerikalik marketolog Robert Lauterbornning fikriga ko‘ra**,** (u 1990-yillarda “4P” tizimini mijoz nuqtai nazaridan qayta ta’riflagan) O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari faoliyatiga qo‘llanilishi kichik tadbirkorlar uchun “4R” emas balkim, “4S” (Customer, Cost, Convenience, Communication) tizimi uchun imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunda mahsulot emas, balki u mijozga u qanday qiymat berishi, nafaqat narx, balki mijozning mahsulotni sotib olish, foydalanish, yetkazib berish uchun sarflaydigan barcha xarajatlarni, mahsulotni sotib olishda mijoz

[1] https://www.un.org/en/observances/micro-small-medium-businesses-day#:~:text=MSMEs%20account%20for%2090,of%20societies%20everywhere%20they

[2] Berry, L. L. (1983). Relationship marketing. In L. L. Berry, G. L. Shostack, & G. D. Upah (Eds.), Emerging Perspectives on Services Marketing (pp. 25–28). Chicago: American Marketing Association.

[3] Kotler, P., & Keller, K. L. (2022). Marketing Management (16th ed.). Pearson Education.

uchun qulaylik darajasi — onlayn, oflayn, yetkazib berish xizmati va bir tomonlama reklama emas, balki ikki tomonlama muloqot — mijoz bilan fikr almashish, munosabat qurish imkonini berishini isbotlab bergan.

T. Levittning Marketing Myopia asarida mahsulot sotish emas, mijoz muammosini hal qilish zarur deb ta'kidlagan. U "Aksariyat kompaniyalar o'z faoliyatini mahsulot ishlab chiqarish deb o'ylaydi, lekin aslida ular mijoz ehtiyojini qondirish bilan shug'ullanishi kerak" degan fikrni ilgari suradi[1].

Sh.Dj.Ergashxodjayeva o'zining darsligida "har bir mintaqa va mamlakat o'ziga xos bozor xususiyatlariga ega va kichik biznesda marketing strategiyasini ishlab chiqishda bu xususiyatlarni inobatga olish zarur"ligini uqtirib o'tgan[2].

D.N.Muxammedova tomonining "Kichik biznes subyektlari faoliyatida marketing strategiyalarini takomillashtirish yo'nalishlari"mavzusida olib borgan ilmiy tadqiqot ishidan ko'rish mumkinki, O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish uchun oddiy reklama yoki sotuv emas, balki zamonaviy marketing strategiyalarini joriy etish talab etiladi, ya'ni, kichik korxona faqat mahsulot ishlab chiqarish bilan cheklanmasdan, bozorni o'rganishi, mijoz ehtiyojini tahlil qilishi va raqobatchilardan farqlanishi kerak deb ta'kidlanadi[3]. Muxammedovaning fikricha, kichik biznes o'z raqobatchilaridan sifatli va tez xizmat ko'rsatishi, mahsulot ishlab chiqarishdagi individual yondashuv, arzon narxda yuqori qiymat yaratish va mijozlar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishi bilan o'z ustunligiga ega bo'lishi ko'rsatib o'tilgan.

A.U. Burxanov **"**Innovatsion iqtisodiyotda kichik tadbirkorlik rivojlanishida marketingning roli" nomli maqolasida *"*Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznes faqat mahsulot ishlab chiqish bilan cheklanib qolmasdan, texnologik yangiliklarni bozor ehtiyojlariga moslashtirishi kerak" deb ta'kidlaydi[4] Burxanovning fikriga ko'ra, kichik tadbirkorlikda marketing faqat sotuv vositasi emas, balki innovatsiyalarni bozorga olib chiquvchi "ko'prik" hisoblanishi kerak.

Sh.Qurbonov va A.Rahimovlarning **«**Kichik biznesda raqamli marketing va onlayn savdo tizimlari" nomli maqolasida[5] raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes raqamli marketing vositalarisiz samarali faoliyat yurita olmasligi va bugungi kunda kichik biznes uchun Instagram, Telegram va Facebook orqali onlayn savdo - eng arzon va tez foyda beruvchi kanal hisoblanishini inobatga olib, ijtimoiy tarmoqlarda marketing, onlayn to'lov va yetkazib berish tizimlari, targeting va analitikalar marketing xarajatlarini kamaytirishi va natijani tez ko'rsatishi bilan alohida xususiyat kasb etishini ochib berganlar. Qurbonov va Rahimovlarning tadqiqotiga ko'ra, raqamli marketing joriy etilgan kichik bizneslarda sotuv hajmi o'rtacha 25–30% ga oshishi, mijoz bazasining esa ikki barobarga kengayyishini isbotlab berganlar.

METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida xalqaro va milliy manbalarga asoslangan adabiyotlar sharhi hamda qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Jumladan, AQSH, Yevropa Ittifoqi, Rossiya, O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda chop etilgan ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari hamda rasmiy tadqiqot hisobotlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda, kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishni cheklovchi omillar orasida moliyaviy resurslar yetishmovchiligi va investitsiyalarni jalb etish qiyinchiliklari mavjud bo'lib, bunda, bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi, yuqori raqobat darajasi va boshqa omillar salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini ko'rish mumkin. Jumladan, kichik biznes subyektlari faoliyati qo'llab-

---

[1] Levitt, T. (1960). Marketing myopia. Harvard Business Review, 38(4), 45–56.

[2] Ergashxo'jayeva, Sh. (2014). Marketing: darslik. Toshkent: Iqtisodiyot.

[3] Muxammedova D.N. (2021). Kichik biznes subyektlari faoliyatida marketing strategiyalarini takomillashtirish yo'nalishlari. Toshkent: TDIU.

[4] Burxanov A.U. (2022). Iqtisodiyot va ta'lim, №3, 25–31.


[5] Qurbonov Sh., Rahimov A. (2021). Marketing va menejment amaliyoti, №2, 40–48.

quvvatlash infratuzilmasining yetarli shakllanmagani muhim muammo bo‘lib, bu boradagi kamchiliklar kichik korxonalarning professional bilim va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Bizga ma’lumki, kichik biznes subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasi bu ushbu soha subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi va ularga ta’lim, konsalting hamda boshqa zarur xizmatlarni ko‘rsatuvchi davlat va nodavlat, ta’lim va tijorat tashkilotlari majmuasi demakdir.

Xalqaro tajribalardan shuni ko‘rish mumkinki, davlat va mahalliy hokimiyat organlarining har tomonlama sohani qo‘llab-quvvatlamas ekan, bunday infratuzilmani kompleks va samarali tarzda shakllantirib bo‘lmaydi. Shu bois, kichik biznesni yuksaltirish uchun uni boshqarishning zamonaviy uslub va konsepsiyalarini o‘zlashtirish, xususan, marketingga doir ilg‘or yondashuvlarni amaliyotga joriy etish o‘ta muhim hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatida marketingcha konseptual yondashuvlarni qo‘llashda beshta asosiy konsepsiyani keltirib o‘tish mumkin.



1-rasm. Marketingcha konseptual yondashuvlarning besh konsepsiyasi[1].

Sohaga ishlab chiqarish konsepsiyasini qo‘llashda bozordagi talab taklifdan ustunlik holatini tanlab olishimiz va bunda korxonaning asosiy e’tiborini mahsulotning ko‘proq va arzonroq ishlab chiqarilishiga qaratish lozim. Kichik biznes subyektlari faoliyatida bu yondashuvdan foydalanish orqali iste’molchilar arzon va keng tarqalgan tovarlarni ko‘proq xarid qilishga ega bo‘ladi. Mahsulot konsepsiyasida esa xaridorlar yuqori sifati va xususiyatlarga ega mahsulotlarni afzal ko‘rishini inobatga olib, kompaniyalar uzluksiz mahsulot takomillashtirishga e’tiborni qaratish lozim. Sotish konsepsiyasida esa, yoki“agressiv marketing konsepsiyasi”da kichik biznes subyektlari faoliyatida reklama va sotuvni rag‘batlantirish orqali iste’molchilarda mahsulotga bo‘lgan talabini uyg‘otishga e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarni kuzatish natijasida marketing konsepsiyasining zamiri yaratiladi va bunda kichik biznes subyektlari avvalo bozorni o‘rganadi, maqsadli segmentlarni tanlaydi va o‘sha segment mijozlarining ehtiyojlarini raqiblardan afzalroq tarzda qondirishga intiladi[2]. Ijtimoiy-marketing konsepsiyasida esa, kichik biznes subyektlarining marketing strategiyasi nafaqat mijoz talabini qondirish balki, o‘z foydasini maksimallashtirish, balki jamiyat manfaatlariga xizmat qilish tamoyiliga asoslanadi. Bugungi ekologik muammolar va ijtimoiy mas’uliyat trendlari sharoitida kichik korxonalar ham o‘z faoliyatida barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya etishi, atrof-muhitni muhofaza qilish, mahalliy jamiyat farovonligiga hissa qo‘shish kabilarni inobatga olishi

[1] Kotler, P. (1991). Marketing Management: Analysis, Planning, Implementation, and Control (7th ed.). Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.

[2] Kotler, P. (1991). Marketing Management: Analysis, Planning, Implementation, and Control (7th ed.). Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.


lozim. Bunda, kichik biznes subyektlarining faoliyatida inson va jamiyat oldidagi mas'uliyati tobora ortib boradi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatida marketing konsepsiyasini amalga oshirish samaradorligi uning zamonaviy tamoyillar asosida yuritilishiga bog‘liq.

Jahon amaliyotida kichik korxonalar mijozlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan “bozorga yo‘nalgan” marketing konsepsiyasini joriy etib, o‘z raqobatbardoshligini oshirishga erishmoqda[1]. 1980-yillarda G‘arb mamlakatlarida shakllangan “o‘zaro aloqalar marketingi” (relationship marketing) konsepsiyasi mijozlar bilan bir martalik savdodan ko‘ra uzoq muddatli aloqani qadrlaydi; unda xaridorni jalb qilish bilan birga, uni saqlab qolish va kompaniyaga sodiq mijozga aylantirish maqsad qilinadi.

The convergence of artificial intelligence and digital transformation technologies presents unprecedented opportunities to reshape consumer behavior toward sustainability. This article examines how AI-driven solutions enable personalized environmental impact tracking, optimize resource allocation, and facilitate transparent supply chains. Through analysis of current implementations and empirical evidence, this research demonstrates that Industry 4.0 technologies serve as powerful catalysts for the transition toward a circular economy and responsible consumption paradigm, while acknowledging critical challenges including digital divides, rebound effects, and energy consumption concerns.

Keywords: Artificial Intelligence, Digital Transformation, Sustainable Consumption, Industry 4.0, Circular Economy, Green Marketing

Annotatsiya

Sun’iy intellekt va raqamli transformatsiya texnologiyalarining uyg‘unlashuvi barqaror iste’mol madaniyatini shakllantirishda misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada sun’iy intellekt asosidagi yechimlar yordamida shaxsiylashtirilgan ekologik ta’sirni monitoring qilish, resurslardan samarali foydalanishni optimallashtirish va ta’minot zanjirlarida shaffoflikni ta’minlash yo‘llari tahlil qilinadi. Amaliy misollar va empirik dalillar asosida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Industry 4.0 texnologiyalari aylanish iqtisodiyoti va mas’uliyatli iste’mol modeliga o‘tishda kuchli katalizator bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli tafovutlar, qayta iste’mol ta’siri va energiya sarfini oshirish kabi muhim muammolar ham yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli transformatsiya, barqaror iste’mol, Industry 4.0, aylanish iqtisodiyoti, yashil marketing.

Аннотация

Слияние искусственного интеллекта и технологий цифровой трансформации открывает беспрецедентные возможности для изменения потребительского поведения в сторону устойчивости. В данной статье исследуется, как решения на основе ИИ способствуют персонализированному отслеживанию экологического воздействия, оптимизации распределения ресурсов и обеспечению прозрачности цепочек поставок. На основе анализа текущих реализаций и эмпирических данных исследование показывает, что технологии Индустрии 4.0 служат мощным катализатором перехода к

циркулярной экономике и модели ответственного потребления. Вместе с тем

освещаются ключевые вызовы, такие как цифровое неравенство, эффект рикошета и рост энергопотребления.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая трансформация, устойчивое потребление, Индустрия 4.0, циркулярная экономика, зелёный маркетинг.

INTRODUCTION

The Fourth Industrial Revolution has fundamentally altered consumption and production landscapes. As environmental challenges intensify—climate change, resource depletion, and biodiversity loss—sustainable consumption becomes critical. UN Sustainable Development Goal 12 calls for sustainable consumption and production patterns, yet traditional approaches struggle to achieve widespread behavioral change at scale.

AI and digital transformation technologies offer transformative potential through big data analytics, machine learning, IoT sensors, blockchain verification, and predictive algorithms. Jackson's (2005) sustainable consumption model emphasizes efficiency, consistency, and sufficiency—dimensions that digital technologies address through optimization and circular economy enablement. Industry 4.0 technologies create infrastructure necessary for circular economy implementation, transforming linear "take-make-dispose" models into regenerative cycles.

2. AI Applications in Promoting Sustainable Consumption

Personalized Carbon Footprint Tracking: AI-powered applications enable real-time environmental impact monitoring. Machine learning algorithms analyze purchasing patterns, transportation choices, energy consumption, and dietary habits to calculate personalized carbon footprints. Applications like Capture and Joro use bank transaction data and AI categorization for automatic tracking. Research indicates that individuals who track their carbon footprint reduce emissions by 5-15% within the first year.

Intelligent Recommendation Systems: E-commerce platforms deploy AI algorithms prioritizing sustainable alternatives. These systems analyze product attributes—materials, manufacturing processes, transportation distances, certifications—to recommend environmentally preferable choices. Amazon's "Climate Pledge Friendly" program and Google Shopping's sustainability filters exemplify this approach, with neural networks identifying greener alternatives at 90%+ accuracy rates.

Demand Forecasting and Waste Reduction: AI-driven forecasting revolutionizes inventory management. In fashion—responsible for 10% of global carbon emissions—companies like Stitch Fix use AI to optimize production, reducing unsold inventory by 40%. Grocery retailers employ AI systems reducing food waste by 30-50% through dynamic pricing and optimized logistics.

Smart Energy Management: AI-powered systems optimize consumption across settings. Google's DeepMind reduced data center cooling energy by 40% using reinforcement learning. At the grid level, AI coordinates renewable energy integration, predicting solar and wind generation while balancing supply-demand dynamics.

Circular Economy Enablement: AI facilitates circular models through Product-as-a-Service optimization (Rolls-Royce's predictive maintenance on jet engines), material recovery (computer vision systems achieving 95%+ recycling sorting accuracy at facilities like AMP Robotics), and secondary market facilitation (recommendation algorithms on platforms like ThredUp and The RealReal).

Supply Chain Transparency: Blockchain combined with AI creates transparent supply chains. IoT sensors track products from origin to consumer, while machine learning verifies sustainability claims. IBM Food Trust enables consumers to trace product journeys, verifying ethical sourcing and carbon footprints, combating greenwashing.

3. Digital Transformation Strategies and Case Studies

Digital Twins and Virtual Testing: Digital twin technology enables simulation and optimization without physical resource consumption. Manufacturers reduce prototyping waste by 70%. Consumers use augmented reality to visualize products before purchasing, reducing returns and transportation emissions.

Sharing Economy Platforms: Digital platforms maximize asset utilization through AI-driven dynamic pricing and demand prediction. Research suggests comprehensive sharing economy adoption could reduce global resource consumption by 20-30% in key sectors.

Behavioral Nudging and Gamification: AI personalizes nudges based on individual psychology, timing interventions for maximum effectiveness. Gamification elements leverage competitive motivations. Utility companies employ AI-driven home energy reports, driving 2-3% average consumption reductions.

Industry Case Studies: H&M uses AI to optimize inventory levels, reducing overproduction by 20%, while their Garment Collecting initiative employs computer vision and machine learning for optimal recycling pathways. Too Good To Go's platform uses AI to predict surplus food inventory, having saved 350 million meals and prevented 1 million tons of CO2 emissions. Fairphone's AI-powered ecosystem provides predictive maintenance and facilitates secondary markets. Tesla's vehicles use AI to optimize energy efficiency and coordinate vehicle-to-grid integration, potentially reducing transportation emissions by 15-30%.

4. Critical Challenges and Limitations

Digital Divide and Equity: AI-driven sustainability solutions risk exacerbating inequalities. Access to smartphones, internet connectivity, and digital literacy varies significantly across demographics. Sustainable consumption tools may primarily benefit affluent populations while marginalizing vulnerable communities facing disproportionate environmental burdens.

Rebound Effects: Technology efficiency gains may paradoxically increase overall consumption (Jevons paradox). AI-optimized systems reducing costs or increasing convenience might stimulate additional consumption negating environmental benefits. Efficient delivery logistics enabling same-day shipping may increase total shipments despite route optimization.

Energy Consumption of AI Systems: Training large AI models requires substantial computational resources. GPT-3's training reportedly generated approximately 552 tons of CO2. As AI deployment scales, the environmental footprint of data centers, edge computing devices, and network infrastructure demands critical attention. Without renewable energy integration, AI's net environmental impact remains ambiguous.

Data Privacy, Algorithmic Bias, and Greenwashing: Effective personalization requires extensive data collection, raising privacy concerns. Black-box algorithms lack transparency, making verification of environmental claims difficult. Companies may deploy AI-powered sustainability features primarily for marketing purposes without substantive environmental commitment, creating illusions of sustainable consumption while fundamental business models remain extractive.

5. Recommendations and Future Directions

For Technology Developers: Prioritize energy efficiency through lightweight AI models optimized for edge computing. Enhance transparency through explainable AI systems allowing users to understand recommendation logic. Design for inclusivity, ensuring tools function across diverse technological contexts including low-bandwidth environments.

For Businesses: Integrate AI holistically as part of comprehensive circular economy strategies connecting design, production, consumption, and end-of-life phases. Move beyond vanity metrics to rigorous life cycle assessments tracking rebound effects and ensuring net environmental benefits. Foster collaboration by sharing data and insights across industry consortia.

For Policymakers: Establish digital infrastructure through universal broadband access and digital literacy programs ensuring equitable access. Regulate algorithmic transparency, requiring disclosure of AI decision-making processes regarding environmental claims. Incentivize sustainable AI through tax incentives and regulatory frameworks. Address rebound effects through policies like carbon pricing ensuring efficiency gains translate to absolute consumption reductions.

For Researchers: Bridge computer science, environmental science, psychology, and economics to develop holistic understanding. Conduct longitudinal studies tracking behavioral changes, rebound effects, and net environmental impacts across diverse populations. Establish ethical guidelines addressing privacy, equity, transparency, and accountability concerns.

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

AI and digital transformation technologies represent powerful tools for promoting sustainable consumption, offering unprecedented capabilities for personalization, optimization, transparency, and behavioral change at scale. However, technology alone cannot solve consumption sustainability challenges. AI must be embedded within broader systemic changes through economic incentives, regulatory frameworks, cultural shifts, and values transformation.

The path forward requires collaborative effort among technology developers, businesses, policymakers, civil society, and researchers. By prioritizing transparency,

equity, measurable impact, and holistic systems thinking, AI and digital transformation can genuinely contribute to the urgent transition toward sustainable consumption patterns respecting planetary boundaries while enhancing human wellbeing. As we stand at the intersection of technological capability and environmental necessity, the question is not whether AI can promote sustainable consumption, but whether we will deploy these tools with the wisdom, ethics, and systemic vision required to realize their transformative potential.

REFERENCES

1. Belk, R. (2014). "You Are What You Can Access: Sharing and Collaborative Consumption Online." Journal of Business Research, 67(8), 1595-1600.
2. Ellen MacArthur Foundation. (2019). "Artificial Intelligence and the Circular Economy: AI as a Tool to Accelerate the Transition." Foundation Report.
3. European Environment Agency. (2021). "Circular Economy and the Bioeconomy—Partners in Sustainability." EEA Report No. 8/2018.
4. Geissdoerfer, M., Savaget, P., Bocken, N. M., & Hultink, E. J. (2017). "The Circular Economy–A New Sustainability Paradigm?" Journal of Cleaner Production, 143, 757-768.
5. Jackson, T. (2005). "Motivating Sustainable Consumption: A Review of Evidence on Consumer Behaviour and Behavioural Change." Sustainable Development Research Network, 29, 30-40.
6. Strubell, E., Ganesh, A., & McCallum, A. (2019). "Energy and Policy Considerations for Deep Learning in NLP." Proceedings of the 57th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics, 3645-3650.
7. Verhoef, P. C., Stephen, A. T., Kannan, P. K., et al. (2017). "Consumer Connectivity in a Complex, Technology-enabled, and Mobile-oriented World with Smart Products." Journal of Interactive Marketing, 40, 1-8.
8. Vinuesa, R., Azizpour, H., Leite, I., et al. (2020). "The Role of Artificial Intelligence in Achieving the Sustainable Development Goals." Nature Communications, 11(1), 1-10.
9. World Economic Forum. (2020). "Harnessing Artificial Intelligence for the Earth." White Paper, January 2020.
10. United Nations Environment Programme. (2020). "Emissions Gap Report 2020." UNEP, Nairobi.

ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA TAKAFUL SUG‘URTASI: AHAMIYATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Gadayev Jahongir Muhammadi o‘g‘li
assistent,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy iqtisodiyotda takaful sug‘urtasining o‘rni, ahamiyati va uni rivojlantirish istiqbollari yoritilgan. O‘zbekiston misolida, islomiy moliya infratuzilmasini kengaytirish, aholining ushbu sohadagi xabardorligini oshirish va huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish takaful sug‘urtasini rivojlantirishning asosiy omillari sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Takaful sug‘urtasi, islomiy moliya, o‘zaro yordam, iqtisodiy barqarorlik, sug‘urta bozori, investitsion imkoniyatlar, islomiy tamoyillar, huquqiy-me’yoriy baza, raqamli texnologiyalar, O‘zbekiston tajribasi, rivojlantirish istiqbollari.

Аннотация

В статье рассматриваются роль, значение и перспективы такафул-страхования в современной экономике. На примере Узбекистана в качестве основных факторов развития такафул-страхования обозначены расширение инфраструктуры исламского финансирования, повышение осведомленности населения в этой сфере и совершенствование нормативно-правовой базы.

Ключевые слова:Такафул-страхование, исламское финансирование, взаимопомощь, экономическая стабильность, страховой рынок, инвестиционные возможности, исламские принципы, нормативно-правовая база, цифровые технологии, опыт Узбекистана, перспективы развития.

Abstract

The article discusses the role, importance and prospects of takaful insurance in the modern economy. In the case of Uzbekistan, expanding the infrastructure of Islamic finance, raising the awareness of the population in this area and improving the legal and regulatory framework are indicated as the main factors for the development of takaful insurance.

Keywords: Takaful insurance, Islamic finance, mutual assistance, economic stability, insurance market, investment opportunities, Islamic principles, legal and regulatory framework, digital technologies, Uzbek experience, development prospects.

Takoful sug‘urtasi – bu islomiy sug‘urta shakli bo‘lib, u shariat qoidalariga muvofiq holda biznesdagi xavf va moliyaviy mablag‘larning sug‘urtalovchi hamda sug‘urtalanuvchi o‘rtasida o‘zaro taqsimlanishini nazarda tutadi. “Takaful” atamasi arab tilidagi *“kafala”* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘zaro kafolat”, “bir-birini qo‘llab-quvvatlash” yoki “ehtiyojni kafolatlash” ma’nolarini anglatadi. Ushbu sug‘urta tizimining markazida xavfni o‘zaro bo‘lishish tamoyili turadi. U hamkorlik (ta’awun)**,** birodarlik va birdamlik g‘oyalari asosida shakllanadi. Olimlarning ta’kidlashicha, takafulning qabul qilinishi asosan sug‘urta ishtirokchilarining umumiy manfaat yo‘lida hamkorligi va xavfni bo‘lishish sxemasi bilan izohlanadi. Bu jarayonda tabarru’

jamg‘armasi tashkil etilib, unga ishtirokchilar ixtiyoriy badallar kiritadilar. Natijada, takaful sug‘urtasi an’anaviy sug‘urtadan farqli ravishda kooperativ sug‘urta mexanizmini ifodalaydi va bunda sug‘urtalovchi zarar ko‘rgan ishtirokchilarga moddiy yordam ko‘rsatish orqali ularning o‘zaro himoyasini ta’minlab beradi.

An’anaviy sug‘urta tizimi bilan takaful sug‘urtasi o‘rtasida bir qator prinsipial farqlar mavjud bo‘lib, ular asosan ularning mazmuniy konsepsiyalari va tuziladigan shartnomalarida aks etadi.

Birinchidan, mablag‘larning ajratilishi tamoyili: an’anaviy sug‘urtada kompaniya yig‘ilgan mukofot (premiya)larni o‘z balansiga kiritib, ularni o‘z nomidan boshqaradi. Takaful tizimida esa ishtirokchilar (polis egalari) badallari bilan aksiyadorlar mablag‘lari qat’iy ajratib qo‘yiladi. Kompaniyaning roli bu yerda vositachilikdan iborat bo‘lib, u faqatgina ishtirokchilarning mablag‘larini ular nomidan boshqaradi. Shu sababli, jamg‘armadagi mablag‘larning haqiqiy egalari — bu bevosita ishtirokchilarning o‘zlari hisoblanadi.

Ikkinchidan, badallarning huquqiy mohiyati: an’anaviy sug‘urtada mijoz to‘laydigan mukofot (premiya) tijorat shartnomasi xarakteriga ega bo‘lib, u sug‘urtalovchi zimmasiga ma’lum majburiyatlar yuklaydi. Takafulda esa mijozlarning badallari ehson (tabarru’) sifatida kiritiladi. Bu mablag‘lar jamg‘arma fondiga yig‘ilib, umumiy manfaat yo‘lida ishlatiladi. Shu bilan birga, ushbu mablag‘lar mudaraba tamoyiliga asoslanib, foyda va zararlarni ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlash mexanizmini ham ta’minlaydi.

Uchinchidan, operatorning roli: an’anaviy sug‘urtada kompaniya mablag‘larni to‘liq nazorat qiladi va ulardan o‘z manfaatlariga ko‘ra foydalanadi. Takafulda esa operator faqatgina ishtirokchilar tomonidan vakil etilgan agent bo‘lib, u jamg‘arma mablag‘larini ularning nomidan boshqaradi. Operatorning vazifasi xizmat ko‘rsatish va ishtirokchilar manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

To‘rtinchidan, shariat nuqtayi nazaridan muvofiqlik: an’anaviy sug‘urtada noaniqlik (gharar), foiz (ribo) va ayrim hollarda qimor (maysir) elementlari mavjudligi sababli, u islom huquqi talablariga to‘liq mos kelmaydi. Takaful esa bu unsurlarni bartaraf etib, shariat tamoyillariga to‘liq muvofiq holda tashkil etiladi.

Natijada, takaful sug‘urtasi nafaqat diniy talablarni qondiradi, balki sug‘urtaning mohiyatini ham o‘zaro birdamlik va hamkorlikka asoslaydi. Bu tizimda asosiy g‘oya shaxsiy manfaat emas, balki jamoaviy himoya va birdamlik tamoyilini amalda ro‘yobga chiqarishdir [1].

An’anaviy sug‘urta va takaful sug‘urtasi o‘rtasidagi asosiy farqlar ularning shartnoma munosabatlari va moliyaviy oqimlarni boshqarish mexanizmlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, an’anaviy sug‘urta tizimida mijozlar tomonidan to‘lanadigan mukofot (premiya) sug‘urtalovchining zimmasiga ma’lum majburiyatlarni yuklaydi. Bu munosabat tijorat bitimi – sotib olish va sotish shaklida qaraladi. Ya’ni, mijoz mukofot to‘laydi, buning evaziga sug‘urtalovchi kelgusida ehtimoliy zarar yuz berganda uni qoplash majburiyatini oladi. Bunday tizimda polis egalari (mijozlar) badallarning miqdori yoki ulardan olinadigan foyda ustidan hech qanday huquqqa ega

emaslar. Sug‘urta kompaniyasi yig‘ilgan mablag‘larni o‘z siyosati va manfaatlariga muvofiq ravishda taqsimlaydi va bu jarayonda to‘liq nazoratni qo‘lida ushlab turadi. Shariat nuqtayi nazaridan, bunday yondashuvda noaniqlik (gharar), foiz (ribo) yoki ayrim hollarda qimor (maysir) elementlari mavjudligi sababli, bu tamoyillar muhim muammoli masalalar sifatida baholanadi [2].

Ikkinchidan, takaful sug‘urtasi an’anaviy sug‘urtadan tubdan farq qiladi. Bu tizimning asosini tabarru’ prinsipi tashkil etadi. Unda ishtirokchilar (polis egalari) o‘z mablag‘larini ixtiyoriy ravishda jamg‘arma fondiga qo‘shadilar. Ushbu mablag‘lar shaxsiy manfaat emas, balki umumiy manfaat yo‘lida ishlatiladi. Jamg‘armada to‘plangan mablag‘lar o‘zaro birdamlik va hamkorlik asosida boshqariladi.

Natijada, takaful tizimida ishtirokchilar o‘zaro kelishuv asosida birlashib, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy yo‘qotishlardan bir-birlarini himoya qilishni kafolatlaydilar. Bu esa sug‘urtaning mohiyatini diniy jihatdan shariat talablariga muvofiqlashtirish bilan birga, ijtimoiy birdamlik va iqtisodiy adolat tamoyillariga asoslaydi [3].

Shu tariqa, takaful sug‘urtasi an’anaviy sug‘urtaga nisbatan nafaqat huquqiy va moliyaviy jihatdan, balki falsafiy-axloqiy tamoyillari bilan ham farqlanadi. U ijtimoiy mas’uliyat, adolat va o‘zaro yordam tamoyillarini ilgari surib, musulmon iste’molchilarning ehtiyojlariga mos keluvchi muqobil sug‘urta modeli sifatida shakllangan.

Takaful sug‘urtasi o‘z mohiyatiga ko‘ra zamonaviy tushuncha emas, balki qadimdan shakllanib, islom dini tarixi davomida turli shakllarda amaliyotda qo‘llanib kelgan tizimdir. Uning asosiy tamoyillari shaxsiy manfaat bilan bir qatorda jamiyat farovonligini ham ko‘zlovchi ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlarga tayanadi.

Bugungi globallashuv jarayonida musulmon investorlar moliyaviy faoliyatda shariat tamoyillariga qat’iy amal qilishga intilmoqdalar. Ayniqsa, pul mablag‘larini qarzga berish yoki olish jarayonida foiz (ribo) olish va to‘lash qat’iyan taqiqlangani sababli, an’anaviy moliya vositalaridan foydalanish ularning e’tiqodiy qarashlariga mos kelmaydi. Shu bois, musulmon iste’molchilar uchun islomiy moliya mahsulotlari muqobil va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Empirik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatlar kesimida takaful kompaniyalarining samaradorlik darajasi turlicha namoyon bo‘ladi. Xuddi shunday tahlilni O‘zbekiston misolida ham qo‘llash mumkin. Masalan, agar mamlakatimizda takaful sug‘urta kompaniyalari faoliyat olib borsa, ularning samaradorligini resurslardan foydalanish samarasi hamda ishlab chiqarilgan natijalar (output) asosida baholash mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida resurslardan oqilona foydalanish orqali yuqori texnik samaradorlikka erishish muhim omil hisoblanadi. Agar kompaniyalar mavjud mablag‘ va imkoniyatlarni samarali boshqara olsalar, ular moliyaviy xizmatlar sifatini oshirib, mijozlar ehtiyojini qondirishda raqobatbardosh bo‘lishlari mumkin. Aksincha, samaradorlik past bo‘lgan kompaniyalar resurslarni tejash yoki mavjud resurslar asosida ko‘proq natija yaratish orqali o‘z faoliyatini yaxshilashi lozim.

Bu esa O‘zbekistonda takaful sug‘urtasini rivojlantirish uchun ikki tomonlama xulosa beradi: birinchidan, kompaniyalar samaradorlikni oshirishga qaratilgan ichki boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishi zarur; ikkinchidan, davlat va nazorat organlari tomonidan ushbu soha uchun qulay huquqiy va institutsional muhit yaratilishi lozim.

O‘zbekiston sharoitida takaful kompaniyalari faoliyat olib boradigan bo‘lsa, samaradorlikning pasayishiga bir nechta omillar sabab bo‘lishi mumkin. Jumladan, sug‘urta da’volarining (to‘lovlarning) ortib borishi, operatsion xarajatlarning yuqoriligi va ehtiyot zaxiralarining ko‘pligi, shuningdek, badallar va investitsion daromadlarning yetarli darajada shakllanmasligi samaradorlikni pasaytiruvchi omillar sifatida qaraladi.

Shu bois, mamlakatimizda takaful sug‘urtasi tizimini rivojlantirishda resurslardan oqilona foydalanish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish hamda investitsion faoliyatni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, badallarni jamlash va ularni samarali investitsiyalash orqali qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish, operatsion xarajatlarni optimallashtirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshirish mumkin.

Natijalardan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekistonda takaful sug‘urtasini joriy etish istiqbollari ijobiy bo‘lishi mumkin. Chunki resurslardan foydalanishda ortiqcha sarflanishni kamaytirish va ishlab chiqarilayotgan natijalarni (outputlarni) ko‘paytirish orqali bu sohada samaradorlikni barqaror oshirish imkoniyatlari mavjud.

Ushbu xulosalarga asoslanib, tadqiqot bir qator amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Birinchidan, siyosatchilar va tartibga soluvchi organlar takaful hamda boshqa islomiy moliyaviy mahsulotlar uchun huquqiy asos va maxsus tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonini jadallashtirishlari lozim. Chunki hukumat islomiy moliyaga katta qiziqish bildirganiga bir necha yil bo‘lgan bo‘lsa-da, hanuzgacha kompleks me’yoriy-huquqiy baza shakllantirilmagan.

Ikkinchidan, Takaful operatorlari va sohaga aloqador manfaatdor tomonlar aholining xabardorligini oshirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqishda faol rol o‘ynashlari zarur. Bunday tashabbuslarsiz mijozlarni jalb etishda an’anaviy sug‘urta kompaniyalari bilan samarali raqobatlashish deyarli imkonsizdir.

Uchinchidan, ilmiy muassasalar va tadqiqotchilar iste’molchilarning xulq-atvori, bozor bo‘shliqlari va operatsion modellarga oid imkon qadar ko‘proq empirik tadqiqotlar o‘tkazishlari lozim. Chunki takaful sohasining rivojlanishi uchun sanoat va siyosiy qarorlarni shakllantirishda ilg‘or bozorlar tajribasiga tayangan holda izchil, samarali va dalillarga asoslangan ilmiy xulosalar zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Coskun A., Habibniya H., Keceli Y. An efficiency analysis of takaful insurance industry: A comparative study //The Journal of Asian Finance, Economics and Business. – 2021. – T. 8. – №. 7. – p. 111-120.

2. Swartz, N. P., & Coetzer, P. (2010). Takaful: An Islamic insurance instrument. Journal of Development and Agricultural Economics, 2(10). – p. 333–339

3. Muhammedi S., Cheumar M., Haji-Othman Y. Insurance industry in Uganda: analysing Islamic insurance opportunities and challenges on developing the industry //Journal of Islamic Finance. – 2023. – Т. 12. – №. 2. – p. 33-47.

СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ КАК СРЕДСТВО ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ

М.М. Зияева
Профессор кафедры маркетинга, ТГЭУ
М.К. Аллаярова
Магистрантка 2го курса MRT-15R, ТГЭУ

Аннотация

В тезисе раскрыта роль социальных сетей как эффективного инструмента управления маркетинговой деятельностью в условиях цифровизации экономики. Рассмотрены функции социальных платформ в продвижении брендов, формировании имиджа и взаимодействии с клиентами. Особое внимание уделено аналитическим инструментам, контент-маркетингу и таргетированной рекламе как способам повышения эффективности коммуникаций. Показано, что социальные сети трансформируют традиционные подходы к маркетингу, обеспечивая прямую обратную связь и укрепляя конкурентные позиции компаний.

Ключевые слова: социальные сети, маркетинг, цифровая экономика, контент-маркетинг, бренд, коммуникации.

Abstract

Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy tarmoqlarning marketing faoliyatini boshqarishdagi samarali vosita sifatidagi o‘rni yoritilgan. Brend imijini shakllantirish, mijozlar bilan muloqotni kuchaytirish va kontent marketing, tahlil hamda reklama strategiyalarini takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Natijalar ijtimoiy tarmoqlar marketing boshqaruvini transformatsiya qilib, korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, marketing, raqamli iqtisodiyot, brend, kontent marketing, kommunikatsiya.

Abstract

This thesis examines the role of social networks as an effective tool for managing marketing activities in the digital economy. It highlights their functions in brand promotion, image building, and customer engagement. Analytical tools, content marketing, and targeted advertising are analyzed as key methods for improving communication efficiency. The study shows that social networks transform traditional marketing approaches by enabling real-time interaction and strengthening companies’ competitive positions.

Keywords: social networks, marketing, digital economy, brand, content marketing, communication.

Социальные сети никогда не были более плодотворными, чем сегодня. Компании инвестируют миллионы долларов в технологии и стратегии, которые помогут им управлять своим взаимодействием в социальных сетях в стремлении улучшить отношения и укрепить свою репутацию, среди других результатов. Социальное СМИ представляют собой проблему с множеством развивающихся

платформ. По вкусам заинтересованных сторон изменения или платформы развиваются, чтобы «лучше» удовлетворять потребности заинтересованных сторон, организации должны постоянно адаптироваться. Принимая во внимание платные, заработанные и принадлежащие СМИ, организации должны понять, как интеграция социальных сетей вписывается в стратегию их организации.

В условиях цифровизации экономики социальные сети становятся одним из ключевых инструментов маркетинга. Они обеспечивают прямую связь с целевой аудиторией, позволяют продвигать товары и услуги, изучать потребности клиентов и управлять репутацией. Компании различных масштабов — от малого бизнеса до крупных корпораций — активно используют социальные платформы для продвижения брендов, повышения узнаваемости и стимулирования продаж. Эффективное управление маркетинговой деятельностью через социальные сети требует понимания их функционала, особенностей взаимодействия с пользователями и методов оптимизации контента.[1]

Социальные сети (Facebook, Instagram, TikTok, YouTube, Telegram и др.) являются массовыми каналами коммуникации, где пользователи ежедневно обмениваются информацией, формируют предпочтения и взаимодействуют с брендами. Они заменяют традиционные каналы рекламы, предлагая интерактивность, персонификацию и быструю обратную связь. Маркетинговые коммуникации в социальных сетях направлены на информирование, вовлечение, удержание и лояльность клиентов. Компании используют публикации, сторис, прямые эфиры, рекламные посты и инфлюенсер-маркетинг для продвижения товаров и услуг в целевых сегментах рынка. Благодаря широкому охвату и возможностям таргетирования социальные сети создают условия для точной и гибкой коммуникации.

Социальные сети трансформировали подходы к управлению маркетинговой деятельностью, превратившись из вспомогательного канала коммуникации в стратегический инструмент. Их роль выходит далеко за рамки публикации рекламных сообщений — они позволяют формировать спрос, анализировать потребности аудитории, управлять брендом и оперативно реагировать на изменения рыночной среды.

Во-первых, социальные сети обеспечивают сбор и анализ данных о поведении пользователей. Инструменты аналитики (Meta Business Suite, TikTok Analytics, YouTube Studio и др.) помогают оценивать вовлечённость, демографический состав аудитории, реакцию на контент и эффективность рекламных кампаний. Это позволяет корректировать стратегию маркетинга на основе фактических результатов, а не предположений.

Во-вторых, социальные сети являются площадкой для формирования и поддержания имиджа бренда. Компании могут транслировать ценности, миссию, визуальный стиль, выстраивать индивидуальный тон общения с подписчиками. Репутационный маркетинг становится частью общего управления: негативные комментарии можно быстро нейтрализовать, а позитивные — усилить через репосты, отзывы и взаимодействие с лидерами мнений.

В-третьих, социальные сети способствуют прямой коммуникации с клиентами. Комментарии, личные сообщения, опросы, сторис и прямые эфиры создают эффект диалога. Это повышает доверие к компании, помогает выявлять потребности и оперативно получать обратную связь. Такой формат взаимодействия снижает дистанцию между брендом и потребителем. [2]

Эффективность маркетинговой деятельности в социальных сетях зависит от грамотного выбора инструментов и методов. К основным методам относятся:

1. Контент-маркетинг.

Создание уникального, полезного и визуально привлекательного контента способствует вовлечению аудитории и укреплению доверия к бренду.

2. Таргетированная реклама.

Использование механизмов точечной рекламы позволяет показывать объявления пользователям по возрасту, интересам, географии и поведению.

3. Интерактивное взаимодействие.

Проведение опросов, конкурсов, прямых эфиров, использование сторителлинга создают вовлечённость и стимулируют активность подписчиков.

4. Инфлюенсер-маркетинг.

Сотрудничество с блогерами и лидерами мнений помогает расширить охват и привлечь доверие аудитории.[3]

Социальные сети занимают центральное место в системе современных маркетинговых коммуникаций. Они позволяют не только продвигать товары и услуги, но и эффективно управлять маркетинговой деятельностью компании. Успех продвижения в социальных сетях зависит от грамотной стратегии, качественного контента, использования аналитики и взаимодействия с аудиторией. Несмотря на существующие ограничения, социальные сети предоставляют уникальные возможности для повышения конкурентоспособности, укрепления бренда и увеличения продаж. Их интеграция в маркетинговое управление становится обязательным элементом цифровой стратегии бизнеса. [4]

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Котлер Ф., Армстронг Г. Основы маркетинга. — М.: Вильямс, 2021.

2. Чубукова О.И. Социальные сети в маркетинговых коммуникациях. — М.: Юрайт, 2022.

3. Hollensen S. Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice. — Pearson, 2020.

4. Багиев Г.Л., Тарасевич В.М., Анн Х. Маркетинг: учебник. — СПб.: Питер, 2020.

YASHIL BIZNES MODELIDA REKLAMA INNOVATSIYALARINING ROLI

Karimova Nafisabonu Djamshidovna
TDIU Marketing kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: nafisabonukarimova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida shakllanayotgan biznes modellarda reklama innovatsiyalarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi reklama strategiyalarining shakllanishi, ekologik qadriyatlarni aks ettiruvchi kommunikatsion yondashuvlar hamda raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan innovatsion reklama vositalarining samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, yashil biznes konsepsiyasi doirasida chakana savdo korxonalarining ekologik imijini mustahkamlash, iste’molchilarda mas’uliyatli xarid xulqini shakllantirish va brend raqobatbardoshligini oshirishdagi reklama faoliyatining strategik ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: yashil biznes, yashil marketing, reklama innovatsiyalari, barqaror rivojlanish, ekologik imij, raqamli reklama, iste’molchi xulqi, chakana savdo, ekologik mas’uliyat, yashil iqtisodiyot.

Аннотация

В статье анализируется роль и значение рекламных инноваций в бизнес-моделях, формирующихся на принципах «зелёной экономики». Рассматриваются процессы формирования стратегий устойчивой рекламы, коммуникационные подходы, отражающие экологические ценности, и эффективность инновационных рекламных инструментов, основанных на цифровых технологиях. Особое внимание уделено укреплению экологического имиджа розничных предприятий, формированию ответственного потребительского поведения и повышению конкурентоспособности бренда в рамках концепции «зелёного бизнеса».

Ключевые слова: зелёный бизнес, зелёный маркетинг, рекламные инновации, устойчивое развитие, экологический имидж, цифровая реклама, поведение потребителей, розничная торговля, экологическая ответственность, зелёная экономика.

Abstract

This article analyzes the role and importance of advertising innovations within business models built on the principles of the green economy. The study explores the development of sustainable advertising strategies, communication approaches that reflect environmental values, and the effectiveness of innovative digital advertising tools. Particular attention is paid to strengthening the ecological image of retail enterprises, promoting responsible consumer behavior, and enhancing brand competitiveness within the green business framework.

Keywords: green business, green marketing, advertising innovations, sustainable development, ecological image, digital advertising, consumer behavior, retail trade, environmental responsibility, green economy.

So‘nggi yillarda butun dunyoda yashil iqtisodiyotga o‘tish tushunchasi strategik majburiyatga aylanmoqda. Iqlim o‘zgarishi, resurslar cheklanganligi, atrof-muhit ifloslanishi va ijtimoiy bosim oldida iqtisodiyotlar barqarorlik tamoyillarini hisobga olmagan holda rivojlanishi qiyinlashmoqda. Shu sababli ko‘plab davlatlar va korxonalar “kam karbonli”, resurslarni tejovchi va ekologik ta’sirlarni minimallashtiruvchi biznes modellarni ishlab chiqishga intilmoqda.

Chakana savdo sohasida reklama va marketing faoliyati ayniqsa katta rol o‘ynaydi: iste’molchilarning ongiga ekologik qadriyatlarni singdirish, brendni barqaror imij bilan bog‘lash va raqobat afzalligini yaratish mumkinligi katta ehtimolga ega. Shu bilan birga, reklama innovatsiyalari — masalan, raqamli platformalar, ma’lumotga asoslangan personalizatsiya, ekologik belgilar va sertifikatlar — bu yo‘nalishda muhim vosita bo‘lishi mumkin.

Ammo, reklama faoliyatida “yashil” shakllar qo‘llanilayotganda bir qator xatarlar ham paydo bo‘ladi: greenwashing, ya’ni “ekologik da’vo”larning haqiqatga mos kelmasligi, noto‘g‘ri targ‘ibot, iste’molchilarning chalg‘itilishi va qonunchilik jihatidan javobgarliklar. Masalan, AQShdagi FTC Green Guides reklamda ekologik da’volar foydalanishda halollik va haqiqatga moslik prinsiplari qo‘llanishini tavsiya qiladi. Shuningdek, global darajada greenwashingga qarshi qonunchilik va tartibga solish tendensiyalari tez o‘smoqda[1].

O‘zbekiston Respublikasi ham yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha jadal chora-tadbirlar ishlab chiqmoqda. Masalan:

- 2019-yil 4-oktabrda PQ-4477-sonli qaror bilan 2019–2030-yillar uchun “yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil o‘sishni ta’minlash” dasturi qabul qilingan[2].
- Davlat strategiyasida 2022–2026-yillar uchun mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejalari hamda konsepsiyalar tasdiqlangan.
- 2023-yil 12-mayda Prezidentning PQ-156 qarori bilan “yashil iqtisodiyot platformasi”ga oid hujjatlar ishlab chiqilishi nazarda tutilgan.
- Shuningdek, hukumat O‘zbekistonda milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini joriy etish qarorini qabul qilgan[3].
- 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilingan.

Mazkur hujjatlar va tashabbuslar mamlakatda ekologik qadriyatlar va barqarorlik tamoyillarini iqtisodiyotga integratsiyalashga yo‘l ochmoqda. Biroq, asl muammo – bu chora-tadbirlarga korxona darajasida tatbiq — reklama va marketing sohasida yashil innovatsiyalarni samarali joriy etishdir.

Shu munosabat bilan, quyidagilarga urg‘u berish o‘rinlidir:

1. Yashil biznes model konsepsiyasi va uning reklama faoliyatiga ta’siri;

---

[1] Alexander B. Simkin , Eileen M. Falk. Greenwashing Legislation Trends: Key Takeaways for Businesses. Viewpoints. September 2, 2025.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ–4477-son qarori. “O‘zbekiston Respublikasida 2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/docs/-4539502

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.10.2023 yildagi 561-son

2. Reklama innovatsiyalarining shakllanishi va reklama vositalarida ekologik yondashuvlar;

3. Reklama innovatsiyalari orqali yashil imij yaratish va iste'molchilarning ekologik ongini rag'batlantirish;

4. Greenwashing xatarlari va qonunchilik talablariga rioya qilish muammolari.

Yashil biznes modeli — bu iqtisodiy faoliyatni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan boshqaruv konsepsiyasidir. Bunday modelning markazida foyda olish bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unlashtirish tamoyili yotadi.

An'anaviy biznes modellardan farqli ravishda, yashil biznesda kompaniyalar o'z mahsulotlari, ishlab chiqarish jarayoni, logistika, marketing va reklama siyosatini ekologik mezonlarga moslashtiradi. Masalan, barqaror ishlab chiqarish zanjiri, energiya tejamkor texnologiyalar, qayta ishlanadigan qadoqlash va yashil reklama kampaniyalari orqali korxonalar nafaqat raqobat ustunligini qo'lga kiritadi, balki ijtimoiy ishonchni ham oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, reklama yashil biznes modelining eng muhim elementlaridan biri sanaladi. Chunki aynan reklama vositasida korxonaning ekologik qadriyatlari, ijtimoiy mas'uliyati va barqaror yondashuvi keng jamoatchilikka yetkaziladi. Reklama iste'molchilarning ongini shakllantiruvchi va ularning xarid qarorlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy kommunikatsiya vositasidir.

So'nggi yillarda reklama sohasi raqamli texnologiyalar ta'sirida tubdan o'zgarib bormoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni bu o'zgarishlarni yanada jadallashtirmoqda. Innovatsion reklama texnologiyalari — bu sun'iy intellekt (AI), ma'lumotlar tahlili (Big Data), kengaytirilgan reallik (AR/VR), shuningdek, blokcheyn asosidagi kuzatuv tizimlari — reklama jarayonlarini yanada shaffof, maqsadli va ekologik jihatdan samarali qiladi.

Masalan, kompaniyalar raqamli platformalar orqali qog'ozli reklama materiallari hajmini kamaytirib, ekologik izni qisqartirmoqda. Shuningdek, onlayn reklama kampaniyalari orqali aniq auditoriyani qamrab olish imkoniyati ortmoqda, bu esa ortiqcha resurs sarfini kamaytiradi.

O'zbekistonda ham ayrim yirik chakana savdo tarmoqlari (masalan, "Korzinka", "Makro", "Havas" brendlari) o'z reklama siyosatida ekologik mas'uliyatni namoyon etmoqda. Ular qayta ishlanadigan mahsulot qadoqlarini targ'ib etuvchi, plastikdan voz kechishga undovchi aksiyalarni ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda faol qo'llamoqda.

Bundan tashqari, veb-brauzer reklama bannerlarida energiya sarfini kamaytiruvchi kodlash texnologiyalari yoki kam ma'lumotli videoroliklar orqali ekologik izni minimallashtirish bo'yicha xalqaro tajriba kengaymoqda. Masalan, Google Ads "Sustainable Marketing" tashabbusi orqali reklamachilarga ekologik mezonlarga asoslangan strategiyalarni joriy etishni taklif qilmoqda.

Yashil reklama nafaqat mahsulotni targ'ib qiladi, balki iste'molchining qadriyat tizimini o'zgartiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iste'molchilar tobora ko'proq "mas'uliyatli brendlar"ga e'tibor qaratmoqda. Xususan, 2024-yilgi "NielsenIQ

Sustainability Report” ma’lumotlariga ko‘ra, global xaridorlarning 73 foizi ekologik jihatdan mas’uliyatli mahsulot uchun yuqoriroq narx to‘lashga tayyorligini bildirgan.

Shu bois, reklama orqali ekologik qadriyatlarni ilgari surish — bu nafaqat ijtimoiy missiya, balki iqtisodiy foyda keltiruvchi strategiyadir. O‘zbekiston sharoitida ham bu tendensiya kuchayib bormoqda: yosh avlod, xususan, Z-avlod vakillari ekologik ongli xaridni afzal ko‘rmoqda.

Shunday ekan, korxonalar o‘z reklama mazmunini nafaqat mahsulot xususiyatlarini, balki ularning atrof-muhitga ta’sirini, energiya tejamkorligini va ijtimoiy foydasini yoritishga yo‘naltirishi lozim.

Bu jarayonlarda Yashil marketing bilan bog‘liq muhim muammo — bu “greenwashing”, ya’ni kompaniyalarning o‘zini ekologik mas’uliyatli sifatida ko‘rsatib, aslida bunday talablarga javob bermasligi. Bu holat nafaqat iste’molchilar ishonchini pasaytiradi, balki reklama sohasining axloqiy mezonlariga ham ziddir.

O‘zbekiston Respublikasi “Reklama to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasida noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi axborot tarqatish man etilgan. Shu asosda, yashil da’volarni asossiz keltirish (masalan, “100% ekologik” yoki “atmosferaga zarar yetkazmaydi” degan, ammo ilmiy isbotlanmagan iboralar) qonunbuzarlik sifatida baholanadi.

Xalqaro amaliyotda esa, Yevropa Ittifoqining 2024-yilgi “Green Claims Directive” loyihasi greenwashingga qarshi qat’iy me’yorlarni belgilab, kompaniyalardan ekologik da’volarni ilmiy asoslar bilan tasdiqlashni talab qilmoqda. Shu kabi yondashuvlarning joriy etilishi O‘zbekiston reklama bozorida ham shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi.

Demak, bulardan anglashiladiki, kelajakda yashil reklama sohasi texnologik va madaniy transformatsiya bilan yanada rivojlanadi. Raqamli platformalarda uglerod izini kuzatish tizimlari, AR (kengaytirilgan reallik) asosida ekologik ta’sirni vizual tarzda ko‘rsatish, va sun’iy intellekt yordamida ekologik xulqni tahlil qilish kabi yechimlar keng qo‘llaniladi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot yili” doirasida chakana sektorni qo‘llab-quvvatlash uchun reklama va marketingda ekologik innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlari, grant dasturlari va imtiyozlar joriy etilishi istiqboli mavjud. Bu esa milliy biznesni xalqaro “barqaror brendlar” darajasiga ko‘tarishga yordam beradi.

Shunday qilib, yashil biznes modeli doirasida reklama innovatsiyalarining qo‘llanilishi nafaqat korxona raqobatbardoshligini oshiradi, balki jamiyatda ekologik ongni shakllantirish, barqaror iste’mol madaniyatini rivojlantirish va iqtisodiyotni ekologik izdan chiqmasdan o‘sishini ta’minlaydi.

Hozirgi davrda yashil iqtisodiyotga o‘tish masalasi nafaqat ekologik, balki strategik-iqtisodiy zarurat sifatida qaralar ekan, bunday sharoitda reklama faoliyati faqatgina mahsulotni targ‘ib etish vositasi bo‘lib qolmay, balki barqaror rivojlanish madaniyatini shakllantiruvchi muhim kommunikatsiya mexanizmiga aylanmoqda.

O‘rganish va izlanishlar natijasida qilingan tahlillarga binoan xulosa qilib aytish mumkinki:

1. Yashil biznes modeli — bu foyda, ekologik mas’uliyat va ijtimoiy manfaatlar muvozanatini ta’minlovchi boshqaruv konsepsiyasi bo‘lib, reklama uning amaliy qismi sifatida ekologik qadriyatlarni jamiyatga yetkazishda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

2. Reklama innovatsiyalari — raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, AR/VR, data-tahlil, ekologik dizayn va qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish kabi yechimlar orqali reklama jarayonlarini resurs tejovchi, ekologik xavfsiz va maqsadli qiladi.

3. Greenwashing xavfi — reklama sohasida dolzarb muammo bo‘lib, korxonalar tomonidan asossiz ekologik da’volar bildirilishi ishonchni pasaytiradi. Shu bois reklama siyosatini milliy qonunchilik va xalqaro me’yorlarga muvofiqlashtirish zarur.

4. O‘zbekiston sharoitida yashil reklama innovatsiyalarini keng joriy etish uchun “Yashil iqtisodiyot strategiyasi” va “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” (2025-yil) doirasidagi davlat dasturlari muhim huquqiy va iqtisodiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur mulohazalarga tayangan holda, an’anaviy reklama va yashil reklama innovatsiyalari o‘rtasidagi farqlarni qiyosiy tahlil qilish imkoni tug‘iladi:

1-jadval

An’anaviy reklama va yashil reklama innovatsiyalari o‘rtasidagi farqlarning qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	An’anaviy reklama modeli	Yashil reklama innovatsion modeli
Asosiy maqsad	Mahsulotni sotish va daromad olish	Barqaror iste’molni rag‘batlantirish, ekologik ongni oshirish
Reklama vositalari	Televizion roliklar, plakatlar, bannerlar	Raqamli platformalar, ekologik dizayn, AR/VR, interaktiv eko-kontent
Resurs sarfi	Yuqori (qog‘oz, siyoh, energiya)	Past (raqamli, qayta ishlanadigan materiallar)
Xabar mazmuni	Tijorat maqsadiga yo‘naltirilgan	Ijtimoiy-axloqiy va ekologik qadriyatlarni o‘z ichiga olgan
Iste’molchi ishonchi	Vaqtinchalik e’tibor	Uzoq muddatli brend sodiqligi va ishonch
Monitoring va baholash	An’anaviy ko‘rsatkichlar (sotuv hajmi)	Ekologik ta’sir, barqarorlik indeksi, yashil reputatsiya
Normativ asos	“Reklama to‘g‘risida”gi Qonun, tijorat qoidalari	“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi, ekologik sertifikatlash talablari

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha taklif va tavsiyalarni keltirish o‘rinli deb topildi:

1. Milliy reklama siyosatida “yashil reklama kodeksi”ni ishlab chiqish va unda ekologik da’volar uchun aniq mezonlarni belgilash.

2. Chakana savdo korxonalari uchun “eko-brending” standartlarini joriy etish — mahsulot, qadoqlash, reklama dizayni va axborot mazmunining ekologik mosligini sertifikatlash.

3. Universitet va tadbirkorlik markazlarida “yashil marketing” fanini keng joriy etish, reklama mutaxassislari uchun ekologik kommunikatsiya bo‘yicha trening dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

4. Raqamli reklama platformalarida uglerod izini kamaytirish mexanizmlari (masalan, energiya tejamkor formatlar, ma’lumotni optimallashtirish)ni ishlab chiqish va joriy etish.

5. Davlat-xususiy sheriklik asosida yashil reklama innovatsiyalarini moliyalashtirish uchun grant va soliq imtiyozlarini yaratish.

Umuman olganda, yashil biznes modelida reklama innovatsiyalari iqtisodiy samaradorlikni ekologik mas’uliyat bilan uyg‘unlashtiradi. U nafaqat korxonaning brend imijini mustahkamlaydi, balki jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish, mas’uliyatli iste’molni shakllantirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILDAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ–4477-son qarori. “O‘zbekiston Respublikasida 2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/docs/-4539502

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi PQ–156-son qarori. “Yashil iqtisodiyot platformasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qonuni https://lex.uz/docs/-6464655 .

3. O‘zbekiston Respublikasi “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-6052631 (Yangi tahriri, 2022-yil 30-iyul).

4. European Commission. (2024). Directive on Green Claims: Empowering consumers for the green transition. – Brussels: Official Journal of the European Union.

5. Federal Trade Commission (FTC). (2023). Green Guides for the Use of Environmental Marketing Claims. – Washington D.C.: U.S. Government Publishing Office.

6. Ginsberg, J. M., & Bloom, P. N. (2004). Choosing the right green marketing strategy. // MIT Sloan Management Review, 46(1), 79–88.

7. Kotler, P., & Keller, K. L. (2022). Marketing Management (16th ed.). – Pearson Education. – 832 p.

8. Leonidou, C. N., Katsikeas, C. S., & Morgan, N. A. (2013). “Greening” the marketing mix: Do firms do it and does it pay off? // Journal of the Academy of Marketing Science, 41(2), 151–170.

9. NielsenIQ. (2024). Sustainability Report: Global consumer trends toward eco-friendly brands.
10. OECD. (2023). Green Innovation and Sustainable Growth. – Paris: OECD Publishing. – 174 p.
11. World Bank. (2023). Green Growth and Sustainable Development in Central Asia. – Washington, D.C.: World Bank Group. – 118 p.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING STRATEGIYALARI VA KORPORATIV MADANIYATNING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI

Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Marketing"kafedrasi dotsenti, PhD

Mirzayeva Mohinur G'ulom qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Marketing"kafedrasi magistranti

Annotatsiya

Ushbu tezisda yashil iqtisodiyot sharoitida marketing strategiyalari va korporativ madaniyatning korxonalar raqobatbardoshligiga ta'siri tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar asosida yashil marketing konsepsiyalari, innovatsion yondashuvlar va iste'molchilar xulqidagi transformatsiyalar o'rganilgan. O'zbekiston sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda marketing strategiyalari va korporativ qadriyatlarning uyg'unligi asosiy ustuvor yo'nalish ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil marketing, korporativ madaniyat, raqobatbardoshlik, marketing strategiyasi, innovatsiya, boshqaruv samaradorligi

Аннотация

В данной диссертации проанализировано влияние маркетинговых стратегий и корпоративной культуры на конкурентоспособность предприятий в условиях «зеленой» экономики. На основе международного опыта изучены концепции «зеленого» маркетинга, инновационные подходы и трансформация поведения потребителей. Показано, что для промышленных предприятий Узбекистана согласование маркетинговых стратегий с корпоративными ценностями является ключевым приоритетом в развитии «зеленой» экономики.

Ключевые слова: зелёная экономика, зелёный маркетинг, корпоративная культура, конкурентоспособность, маркетинговая стратегия, инновации, эффективность управления.

Abstract

This thesis analyzes the impact of marketing strategies and corporate culture on the competitiveness of enterprises in the context of the green economy. Based on international experience, green marketing concepts, innovative approaches, and transformations in consumer behavior have been examined. It is demonstrated that, for industrial enterprises in Uzbekistan, the alignment of marketing strategies with corporate values is a key priority in advancing the green economy.

Keywords: green economy, green marketing, corporate culture, competitiveness, marketing strategy, innovation, management efficiency

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ham ta'minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDGs) yashil iqtisodiyotga

o‘tish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, bu jarayonda korxonalarning marketing strategiyalari iste’molchilar xulqini shakllantirishda, innovatsion mahsulotlarni targ‘ib qilishda va ekologik qadriyatlarni keng yoyishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

Jahon xo‘jalik tizimida barqaror rivojlanish tamoyillari tobora dolzarb bo‘lib, iqtisodiyotning turli sohalarida yashil konsepsiyalarning ustuvorligi oshmoqda [1]. Yashil iqtisodiyot sanoat korxonalaridan chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash, qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashni talab qiladi [2]. Shu jarayonda marketing strategiyalari korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi [3].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki Markaziy Osiyo davlatlari tajribasida ham yashil iqtisodiyot va marketing strategiyalarining uyg‘unligi sezilarli ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, Qozog‘istonda qayta tiklanadigan energiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash doirasida mahsulotlarni eko-markirovka qilish jarayonlari yo‘lga qo‘yilmoqda. Rossiya Federatsiyasida esa ekologik sertifikatlash tizimi va iste’molchilar orasida “eko-brend” tushunchasi shakllanmoqda. Bu tajribalar O‘zbekiston uchun ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali mexanizmlarni ko‘rsatib beradi.Yevropa Ittifoqida ekologik mahsulotlarni sertifikatlash va eko-markirovka iste’molchilar ishonchini oshirish vositasi sifatida keng qo‘llanmoqda [4]. AQSHda yashil marketing ko‘plab kompaniyalar tomonidan korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) dasturlari bilan integratsiya qilinib, korxonalarga uzoq muddatli imij va brend qiymatini oshirish imkonini bermoqda [5]. Sharqiy Osiyo mamlakatlari - Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoyda esa energiya samarador mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bir qatorda raqamli marketing vositalari orqali yashil qadriyatlarni keng auditoriyaga yetkazish mexanizmlari samarali yo‘lga qo‘yilgan [6].

O‘zbekiston sanoat korxonalari uchun marketing strategiyalarini takomillashtirish uch asosiy ustunlikni beradi:

1. Mahsulotlarni global bozor talablari asosida eko-sertifikatlash va eko-brendlash[7].

2. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun innovatsion marketing yondashuvlarini (raqamli platformalar, yashil reklama, ijtimoiy marketing) qo‘llash[8].

3. Iste’molchilarda ekologik qadriyatlar va mas’uliyatli iste’molchilik xulqini shakllantirish[9].

Sanoat korxonalarida boshqaruv samaradorligi bevosita ichki madaniyat bilan bog‘liq. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, korporativ madaniyatga yashil qadriyatlarni singdirgan korxonalar resurslardan samaraliroq foydalanadi va bozorda barqaror imijga ega bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston sement sanoatida energiya tejamkor pechlar joriy etilishi ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish bilan birga xodimlarda ekologik mas’uliyatni oshirdi. Shu kabi misollar yashil marketing va korporativ qadriyatlar uyg‘unligi sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Yashil qadriyatlarga asoslangan korporativ madaniyat:

- xodimlar motivatsiyasini oshiradi,

- innovatsion tashabbuslarni rag‘batlantiradi,
- resurslardan oqilona foydalanishga undaydi,
- uzoq muddatli barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan strategiyasi sanoat tarmoqlarida innovatsion marketing, ekologik standartlarga mos boshqaruv mexanizmlari va korporativ qadriyatlarni uyg‘unlashtirishni ko‘zda tutadi. Shu nuqtai nazardan, milliy sanoat korxonalari uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- marketing strategiyalarini xalqaro tajribaga moslashtirish;
- korporativ boshqaruvda ekologik qadriyatlarni singdirish;
- barqaror innovatsiyalarni milliy sharoitga tatbiq etish.

Kelgusida yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng tatbiq etish sanoat korxonalarining nafaqat ichki samaradorligini, balki eksport salohiyatini ham oshiradi. Ekologik standartlarga mos marketing strategiyalari xorijiy bozorlar talabiga javob beradigan mahsulotlarni ilgari surish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, yosh iste’molchilar orasida ekologik mas’uliyatli brendlar ustuvor tanlovga aylanib borayotgani O‘zbekiston korxonalari uchun yangi raqobat afzalliklarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda yashil iqtisodiyot sharoitida marketing strategiyalari va korporativ madaniyat uyg‘unligi sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omilidir. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil marketing vositalaridan foydalanish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ijtimoiy mas’uliyat va ekologik barqarorlikni ham ta’minlaydi. O‘zbekiston sharoitida esa marketing strategiyalarini takomillashtirish va korporativ madaniyatni ekologik qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish sanoatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. OECD. *Green Growth Indicators*. Paris, 2023.
2. Ottman, J. *The New Rules of Green Marketing*. Berrett-Koehler, 2011.
3. Denison, D. *Organizational Culture and Effectiveness*. IMD, 2000
4. Porter, M. *The Competitive Advantage of Nations*. Macmillan, 1990.
5. Kotler, P., Keller, K. *Marketing Management*. Pearson, 2016.
6. Peattie, K., Crane, A. *Green Marketing: Legend, Myth, Farce or Prophesy?* Qualitative Market Research Journal, 2005.
7. Schein, E. *Organizational Culture and Leadership*. Jossey-Bass, 2010.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5853-son, 2020-yil 6-oktyabr - “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Qarori
9. “Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi bo‘yicha milliy hisobot”, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2023.

TASHQI BOZORLARDA ZAMONAVIY MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Meliqulov Abduhalil Norinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tashqi bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish imkoniyatlari, ularning afzalliklari va korxonalarga ta’siri tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarga asoslangan vositalar – SMM, CRM, kontent-marketing, targeting reklama, AI-assistentlar orqali korxonalar xalqaro bozorda brendini mustahkamlashi, mijozlar ehtiyojini aniq tahlil qilib, daromadni oshirishi mumkin. Tahliliy yondashuv asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy marketing, raqamli reklama, CRM, xalqaro savdo, SMM, targeting, analitika.

Аннотация

В статье рассматриваются современные маркетинговые инструменты для выхода на внешние рынки. Проанализированы возможности и преимущества SMM, CRM, таргетированной рекламы, контент-маркетинга и цифровых платформ. Показано, что их поэтапное внедрение способствует укреплению бренда, повышению конкурентоспособности и устойчивому росту продаж. На основе анализа предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: цифровой маркетинг, CRM, внешние рынки, таргетинг, аналитика, продвижение, стратегия.

Abstract

This article analyzes the use of modern marketing tools in international markets. It highlights how digital solutions—such as SMM, CRM, targeted advertising, and content marketing—enhance brand visibility, customer engagement, and competitiveness. The study offers practical recommendations for businesses seeking to grow through strategic digital marketing integration.

Keywords: digital marketing, CRM, international trade, SMM, targeting, analytics, brand strategy.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste’molchilar talabi markaziy o‘rinni egallaydi va barcha ishlab chiqarish, sotish, reklama va xizmat ko‘rsatish jarayonlari aynan mijozlarning ehtiyojlariga muvofiq yo‘naltiriladi. Bunday sharoitda an’anaviy marketing usullari yetarli samara bermasligi mumkin. Shu boisdan ham, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, raqamli tahlilga suyangan va tezkor muloqotni ta’minlaydigan marketing hamda kommunikatsiya vositalari bugungi talabga javob beradigan asosiy qurolga aylanmoqda.

Zamonaviy marketing vositalariga kontent marketing, elektron pochta marketingi (email marketing), ijtimoiy tarmoqlar marketingi (SMM), axborotni qidirishga mo‘ljallangan tizimlar optimallashuvi (SEO), internet-reklama (Google Ads, YouTube Ads, tizimli targetinglar), CRM (customer relationship management) platformalari, chat-botlar, inflyuenser marketingi, reklama avtomatizatsiyasi va boshqa usullar kiradi.

Ushbu vositalar orqali korxonalar mijozlar bazasini aniq belgilashi, ular bilan individual munosabatlarni yo‘lga qo‘yishi, ehtiyojlarini baholash va raqobat muhitida o‘z o‘rnini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda iqtisodiyotni raqamlashtirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, marketing va reklama sohalarida yangi huquqiy-me’yoriy hujjatlarni qabul qilish orqali ushbu yo‘nalishlarda rivojlanish kuzatilmoqda. Ayniqsa, xususiy sektorda kichik va o‘rta biznes subyektlarining raqamli marketing platformalariga qiziqishi ortib, “target reklama”, “bloger orqali marketing”, “videokontent marketingi” kabi vositalar keng qo‘llanmoqda.

Bugungi global raqobat sharoitida har qanday korxona marketing faoliyatini raqamlashtirish va samaradorlikni oshirish maqsadida zamonaviy marketing vositalaridan keng foydalanishi shart. Zamonaviy marketing vositalari an’anaviy reklama, fokus-gruppalar va sotuvni rag‘batlantirish bilan cheklanib qolmay, balki raqamli platformalar, ma’lumotlar tahlili, CRM tizimlari va ijtimoiy tarmoqlar marketingi kabi texnik imkoniyatlar orqali bozordagi pozitsiyani mustahkamlashni nazarda tutadi.

Quyidagi jadvalda zamonaviy marketing vositalari ularning paydo bo‘lgan vaqti, asosiy vazifalari, afzalliklari va qo‘llanish sohalarini batafsil ko‘rib chiqamiz.

1-jadval

Zamonaviy marketing vositalari va ularning rivojlanishi[1]

№	Vosita nomi	Paydo bo‘lgan yili	Asosiy vazifasi	Afzalliklari	Qo‘llanish sohasi
1	TV va radio reklama	1930-1950 y.	Katta auditoriyaga keng qamrovli ta’sir qilish	Imij yaratish, yuqori ta’sir, taniqlilik	Brend yaratish, savdo, bank, avtosanoat
2	BTL targ‘ibot	1960-y.	Oflayn shaxsiy aloqa– degustatsiya, namoyishlar, taqdimot	Jonli taassurot, brending, mahalliy ishonch	FMCG, ichiluvchi mahsulotlar, kosmetika
3	Email-marketing	1978 y.	Elektron pochta orqali axborot va takliflarni yuborish	Arzon, avtomatlashtirish oson, shaxsiylashtirish mumkin	B2B va B2C, servislar, onlayn savdo, ta’lim
4	CRM	1990-y.	Mijozlar bilan munosabatni saqlash va tahlil qilish	Mijoz sodiqligi oshadi, ma’lumotlar tizimlashtiriladi	Avtomobil, bank, sug‘urta, e-commerce
5	SEO	1997 y.	Veb-saytni qidiruv tizimlarida yuqori o‘ringa chiqarish	Tabiiy trafik, uzoq muddatli foyda, ishonch uyg‘otadi	Veb-saytlar, internet do‘konlar, bloglar
6	Google Analytics	2005 y.	Veb-sayt trafigini kuzatish, tahlil qilish	Real vaqtda tahlil, kanal samaradorligini o‘lchaydi	Barcha veb-saytlar, kontent platformalar

[1] Muallif tomonidan tuzilgan.

№	Vosita nomi	Paydo bo‘lgan yili	Asosiy vazifasi	Afzalliklari	Qo‘llanish sohasi
7	Mobile Marketing	2007 y. (iPhone)	Smartfonlar orqali push-xabar, SMS, mobil ilova orqali reklama yuborish	Joyida va real vaqtda aloqa, geo-targeting imkoni	Retail, xizmat ko‘rsatish, yetkizib berish xizmatlari
8	PPC (Google Ads)	2000 y.	Klik uchun pul to‘lab, maqsadli auditoriyaga reklama yetkazish	Tez natija, targetlash imkoni, ROI aniq hisoblanadi	Internet do‘konlar, xizmatlar, startaplar
9	Kontent marketing	2000-y.	Foydali, qiziqarli materiallar orqali mijozni jalb qilish	Uzoq muddatli ishonch, SEOni qo‘llab-quvvatlaydi, bilimli brend imiji	Barcha sohalar: ta’lim, savdo, xizmat ko‘rsatish
10	SMM	2004 y. (Facebook)	Ijtimoiy tarmoqlarda brendni targ‘ib qilish va auditoriya bilan aloqa o‘rnatish	Aniq targeting, interaktiv aloqa, virusli tarqalish imkoni	Instagram, Facebook, TikTok, Telegram, YouTube
11	Marketing Automation	2006 y.	Marketing jarayonlarini avtomatik ravishda boshqarish	Sog‘lom A/B testlash, vaqt tejash, integratsiya imkonlari	Onlayn do‘konlar, yirik mijoz bazalari
12	Influencer Marketing	2010 y.	Mashhur shaxslar orqali mahsulot yoki brendni targ‘ib qilish	Ishonch uyg‘otadi, virusli targ‘ibot, personal ta’sir	Moda, kosmetika, turizm, texnologiyalar
13	QR-kodli bukletlar	2010 y.	Offlayn reklamaga raqamli kanalni qo‘shish	Tez o‘tish, tezkor faoliyat, AR va mobil integratsiya	Turizm, ko‘rgazma, ta’lim, restoran va h.k.
14	Growth Hacking	2010 y.	Kreativ va arzon usullar bilan auditoriyani tez kengaytirish	Startaplar uchun samarali, tez ta’sir	“Software as a Service”, ya’ni “Xizmat sifatida taqdim etiladigan dasturiy ta’minot”, tech-startup, mobil ilovalar
15	Omni-channel Marketing	2012 y.	Barcha kanallarda uyg‘un tajriba yaratish	Barqarorlik, mijozda yaxshi taassurot qoldiradi	Retail, kafelar, onlayn, offlayn xizmatlar
16	Gamification	2013 y.	O‘yin elementlari orqali qiziqish uyg‘otish va ishtirokni oshirish	Interfaollik, motivatsiya, fidbek oshadi	Til o‘rganish, ta’lim, sog‘liq, mobil ilovalar
17	Personalization	2014 y.	Mijozga shaxsiy taklif va kontent taqdim etish	Ishonchni oshiradi, smodiqlikni kuchaytiradi	Onlayn savdo, striming, bilim, xizmat ko‘rsatish
18	Hotjar, Heatmaps	2014 y.	Foydalanuvchi qaysi sahifada, qaerda ko‘proq klik qilganini ko‘rish	Foydalanuvchi tajribasini tahlili, sayt dizaynini optimallashtirishda yordam beradi	Veb-dizayn, internet do‘konlar

№	Vosita nomi	Paydo bo‘lgan yili	Asosiy vazifasi	Afzalliklari	Qo‘llanish sohasi
19	Chatbot’lar	2016 y.	24/7 avtomatik javob berish va xizmat ko‘rsatish	Xizmat tezligi, inson resursini tejaydi, har doim ishlaydi	E-commerce, bank, ta’lim, xizmatlar
20	AI-assistentlar (ChatGPT)	2020 y.	Kontent yaratish, savollarga avtomatik javob berish	Samaradorlik, vaqt tejamkorlik, shaxsiylashtirish imkoni	Ta’lim, marketing, xizmat ko‘rsatish, veb-saytlar

Korxonada xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanishni quyidagi yo‘llar orqali amalga oshirish mumkin:

1. Marketing strategiyasini raqamlashtirish. Birinchi navbatda korxonada marketing strategiyasi raqamli dunyo talablariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Bu — maqsadli auditoriyani aniqlash, raqobatchilarni o‘rganish va raqamli kanallar orqali brend strategiyasini ishlab chiqishdan iborat. Misol uchun, B2C sektorda faoliyat yuritayotgan korxonalar Instagram va TikTok kabi vizual platformalarda faol bo‘lishi kerak, B2B kompaniyalar esa LinkedIn va elektron pochta marketingiga e’tibor qaratishi kerak.

2. CRM tizimlarini joriy etish. Korxona o‘z mijozlari bilan munosabatlarini yaxshilash va shaxsiylashtirilgan marketingni tashkil etish uchun CRM tizimlarini joriy etishi zarur. CRM orqali mijozlarning xarid tarixi, qiziqishlari va aloqa ma’lumotlari yig‘iladi. Bu sotuv hajmini 25-40% gacha oshirishi mumkin.

3. Kontent-marketingni rivojlantirish. Kontent-marketing zamonaviy marketingning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bu vosita orqali korxona o‘z mijozlariga bilim, qiymat va ishonch yetkazadi. Bloglar, videoroliklar, infografikalar, podkastlar — barchasi auditoriya bilan barqaror munosabat o‘rnatish vositasi hisoblanadi.

4. Ijtimoiy tarmoqlar marketingi (SMM). Korxona o‘z mahsuloti va xizmatlarini keng auditoriyaga yetkazish uchun Facebook, Instagram, Telegram va TikTok tarmoqlaridan faol foydalanishi kerak. SMM orqali mijozlar bilan bevosita muloqot, fikr-mulohazalar yig‘ish, tanlovlar va aksiyalar o‘tkazish mumkin.

5. Raqamli reklama kanallaridan foydalanish. Google Ads, Meta Ads (Facebook/Instagram), YouTube va Telegram botlari orqali maqsadli reklama joylashtirish imkonini beradi. Bu orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid qilishga tayyor auditoriyani jalb qilish mumkin. Raqamli reklamada targeting, retargeting, A/B testlash, klik va konversiya tahlili kabi vositalar orqali natijadorlikni oshirish mumkin.

6. Email marketing va avtomatlashtirilgan aloqa tizimlari. Email marketing — arzon, tez va yuqori ROI (Return on Investment) beradigan kanallardan biri. Korxona mijozlarga yangiliklar, maxsus takliflar, tavsiyalar va hisobotlarni avtomatik ravishda yuborishi mumkin.

7. Analitika va marketing samaradorligini baholash. Zamonaviy marketing vositalaridan foydalanishda natijalarni baholash juda muhim. Google Analytics, Facebook Insights, Yandex Metrica kabi platformalar orqali har bir marketing

harakatining oxirgi samarasi, trafik manbalari, mijozlarning quyi oqimi tahlil qilinadi. Bu asosda strategik qarorlar qabul qilinadi va mablag‘lar samarali kanallarga yo‘naltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy marketing vositalaridan amalda samarali foydalanish — bu raqobatdoshlikni ta’minlash, mijozlarga yaqinlashish va daromadni oshirishning asosiy omilidir. Bunday vositalarni korxonaga bosqichma-bosqich, aniq strategiya asosida joriy etish lozim. Ularning har biri nafaqat mahsulotni reklama qiladi, balki mijozlarning ehtiyojlarini chuqur o‘rganish, shaxsiylashtirish va uzoq muddatli munosabatlar o‘rnatishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

11. Bekmurodov A.Sh. — Marketing nazariyasi va amaliyoti, Toshkent, 2021.

12. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Yusupov M. Marketing. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot — matbaa uyi”, 2024, 372 bet.

13. Philip Kotler, Hermawan Kartajaya, Iwan Setiawan Marketing 6.0: AI for Human Wellbeing Wiley Publishing, 2024.

14. Chaffey, Dave Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice, 9th Edition Pearson Education, 2024.

15. Lemon, Katherine N. & Verhoef, Peter C. Customer Experience Management in the Age of AI Harvard Business Review Press, 2025 (expected).

16. Kannan, P. K., & Li, Hongshuang (Alice) AI-Driven Marketing in Global Contexts Springer, 2024.

XARAJATLAR USULIDAN NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHGA O‘TISH SHAROITIDA MARKETINGDAN FOYDALANISH

N.I. Primova
TDIU Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasi dotsenti,
ORCID:0000-0003-1423-1013
E-mail: n.primova@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada xarajatlar usulidan natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish tizimiga o‘tish jarayonida marketing yondashuvining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda byudjet jarayonining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda davlat xizmatlari sifatini yaxshilashda marketingning tadqiqot, kommunikatsiya va sodiqlikni boshqarish funksiyalari ochib beriladi. Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish davlat boshqaruvida strategik yondashuv sifatida talqin etilib, marketing uning samarali tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: natijaga yo‘naltirilgan byudjet, xarajat modeli, marketing, samaradorlik, davlat boshqaruvi, KPI.

Аннотация

В статье рассматривается роль маркетинга в переходе от затратного метода бюджетирования к бюджетированию, ориентированному на результат. Раскрываются функции маркетинга в повышении эффективности бюджетного процесса, рациональном использовании ресурсов и улучшении качества государственных услуг. Подчеркивается, что маркетинг становится стратегическим инструментом управления, направленным на достижение измеримых целей и повышение прозрачности деятельности государственных органов.

Ключевые слова: бюджетирование по результатам, затратная модель, маркетинг, эффективность, государственное управление, KPI.

Abstract

This article examines the role of marketing in the transition from cost-based to results-oriented budgeting. The study highlights how marketing functions—such as research, communication, and loyalty management—enhance public sector efficiency, optimize resource allocation, and improve service quality. Results-oriented budgeting is viewed as a strategic management approach, where marketing acts as an essential tool to ensure accountability, transparency, and measurable performance outcomes.

Keywords: results-oriented budgeting, cost model, marketing, efficiency, public management, KPI.

Zamonaviy iqtisodiy voqelik davlat va mahalliy moliyadan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligini taqozo etmoqda. Byudjetlashtirishning mablag‘lar sarflanishini rejalashtirish va nazorat qilishga asoslangan an’anaviy, xarajatli modeli o‘zining cheklanganligini tobora ko‘proq ko‘rsatmoqda. U asosiy savolga javob

bermaydi: ajratilgan mablag‘lar hisobidan qanday aniq ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarga erishildi?

Ushbu chaqiriqqa javob aniq, o‘lchanadigan maqsadlarga erishish va ma’lum sifatdagi ommaviy xizmatlarni taqdim etishga qaratilgan natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirishga (NYB) o‘tish bo‘ldi. Ushbu o‘tish nafaqat moliyaviy sohada, balki marketing kabi tegishli sohalarda ham boshqaruv paradigmasini tubdan o‘zgartiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, 46-maqsadida “Fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish” belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun 5 ta samaradorlik ko‘rsatkichlaridan biri 2030-yilgacha “Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish” amaliyotiga to‘liq o‘tish ko‘zda tutilgan [1].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri bu o‘rta muddatli byudjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik byudjetni shakllantirishning yangi “natijaga yo‘naltirilgan byudjet” (Dasturiy byudjetlashtirish) tizimini joriy etish hisoblanib, mazkur maqsad bo‘yicha quyidagilar amalga oshirildi [2].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, marketing bozorni boshqarish falsafasi va vositasi sifatida NYB tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim element bo‘lib xizmat qiladi. Agar ilgari byudjet tashkilotlarida marketing ko‘pincha rasmiy yoki bilinar-bilinmas xususiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, endi u jamiyat (xizmatlar iste’molchilari) talablarini tashkilot faoliyati natijalari bilan bog‘laydigan zaruriy bo‘g‘inga aylanmoqda.

Byudjetlashtirishga yangi yondashuvlarni joriy etish davlat sektorini boshqarish tizimini isloh qilishning ajralmas elementi bo‘lib, boshqaruv biznes-texnologiyalarini davlat apparati faoliyatiga yoyishga qaratilgan. Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish (NYB) — bu davlat xizmatlarining samaradorligi va samarasini oshirishga qaratilgan byudjet jarayonidagi zamonaviy yondashuvdir. AQSHda natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab amaliyotga joriy etila boshlangan. AQSHlik iqtisodchi Allen Shik (Allen Schick) o‘z ishlarida NYBning amaliyotiga doir muhim tahlillarni taqdim etgan. U 2003-yilda chop etgan “The Performing State: Reflection on an Idea Whose Time Has Come but Whose Implementation Has Not” maqolasida NYBning nazariya va amaliyotdagi muammolarini yoritib bergan [3]. Rossiyalik iqtisodchi V.V. Klimanov 2010-yilda e’lon qilgan “Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish: nazariya va amaliyot” nomli maqolasida [4] Rossiyada NYBning rivojlanishi va muammolarini yoritib bergan. O‘zbekistonlik iqtisodchilardan Sh.T. Hojiyeva 2020-yilda e’lon qilgan “Byudjet tashkilotlari faoliyatini natijalar bo‘yicha baholash metodikasi” nomli tadqiqotida [5] NYBning amaliyotida qo‘llaniladiki baholash kriteriylarini ishlab chiqqan.

Bizning tadqiqotlarimizda “natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish” texnologiyasini byudjetni shakllantirish va ijro qilishning zamonaviy shakli deb aytish mumkin. Mazkur texnologiya byudjet xarajatlari va mazkur xarajatlardan kutilayotgan

samara o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, byudjet xizmatlarini ko‘rsatish bilan erishilgan natijani va ularning ijtimoiy, iqtisodiy samaradorligini va natijadorligini ifodalaydi[6].

Xarajatlarni byudjetlashtirish: Rejalashtirish va nazorat qilishning asosiy obyekti — xarajat moddalari (ish haqi, kommunal xizmatlar, asbob-uskunalar sotib olish). Muvaffaqiyat mezoni — mablag‘larni to‘liq hajmda va smetaga muvofiq o‘zlashtirish. Bunday tizimda marketing noishlab chiqarish xarajatlarining moddalaridan biri sifatida qabul qilinadi, agar kerak bo‘lsa, uni qisqartirish mumkin. Uning samaradorligi yoki o‘lchanmaydi, yoki miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan baholanadi, ammo sifat ko‘rsatkichlari bilan emas (masalan, fuqarolarning qoniqish darajasi emas, balki joylashtirilgan yangiliklar soni).

Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish: E’tibor maqsadlar va natijalarga qaratiladi. Byudjet strategik maqsadlardan kelib chiqqan holda shakllantiriladi, ular o‘z navbatida aniq vazifalar va ularga erishish ko‘rsatkichlariga (KPI — Key Performance Indicators) bo‘linadi. Xarajatlar samaradorligi “xarajat-natija” nisbati orqali baholanadi. Bu tizimda marketing xarajatlar markazidan maqsadga erishish vositasiga aylanadi.

Ilgari iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilgan tizimi mavjud bo‘lgan mamlakatlar, shuningdek, ko‘plab G‘arb mamlakatlari byudjetni tuzishda xarajatli yondashuvdan (input budgeting) foydalanadilar. Ushbu yondashuv resurslarni rejalashtirish va taqsimlashning shunday usuli bilan tavsiflanadiki, unda resurslar va ulardan foydalanishning bevosita natijalari, shu jumladan davlat muassasalari faoliyati natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik juda zaif, ya’ni xarajatlarni byudjetlashtirish birinchi navbatda mavjud resurslarga yo‘naltirilgan (1-rasm).

O‘z navbatida, natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish davlat tashkilotlari (vazirlik va idoralar) faoliyatining strategik maqsadlari va taktik vazifalari, kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu tegishli dasturlar orqali resurslarni safarbar qilish orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirishning boshlang‘ich nuqtasi byudjet mablag‘larini sarflashning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yakuniy natijalari hamda ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘lib, ular asosida qo‘yilgan maqsadlarga erishish darajasi haqida fikr yuritish mumkin (1-rasm).

1-jadval

“Xarajat” modeli va NYB modelining qiyosiy tavsifi[1]

Taqqoslash mezoni	**“Xarajatli” model**	**NYB modeli**
Rejalashtirish obyekti	Byudjet xarajatlari	Byudjet xarajatlari va natijalar
Moliyalashtirish uchun “yangi” xarajatlarni tanlashning asosiy tamoyili	Siyosiy qarorlar, o‘zaro kelishuv, tanlov tartibi neprozrachna	Kutilayotgan natija va samaradorlikka qarab
Rejalashtirish faoliyati	Yuqori	Nisbatan past
Rejalashtirish davri	Bir yil	O‘rta muddatli davr (3-5 yil)
Byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchining vakolatlari	Nisbatan tor — mablag‘larni reja va	Kengroq — eng yaxshi natijaga erishish uchun resurslarni, shu

[1] Muallif ishlanmasi

Taqqoslash mezoni	“Xarajatli” model	NYB modeli
	belgilangan tartiblarga muvofiq sarflash	jumladan byudjet mablag‘larini boshqarish
Byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchining ma’suliyati	Byudjet mablag‘laridan belgilangan tartibda maqsadli foydalanish	Faoliyat natijalari
Byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchining iqtisodiy manfaatdorligi	Mavjud emas	Byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchi byudjet resurslarini samarali boshqarishdan manfaatdor
Nazorat obyekti	Byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish	Byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchi faoliyati natijalari, natijadorlik, byudjet mablag‘larini sarflash samaradorligi
Nazorat organlari	Tashqi nazorat organlari	Tashqi nazorat organlari, ichki nazorat

Xorijiy tajriba dasturiy-maqsadli tamoyillar asosida qurilgan byudjet jarayoniga o‘tishning ikkita ehtimoliy varianti mavjudligidan dalolat beradi. Birinchi variant byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari (eng avvalo, vazirlik va idoralar) byudjet jarayoniga dasturiy-maqsadli tamoyillar elementlarini bosqichma-bosqich joriy etishdan iborat. Ikkinchi variant quyidagilarni nazarda tutadi:

1) dasturiy-maqsadli byudjetlashtirishning barcha asosiy elementlari bir vaqtning o‘zida joriy etiladigan bir nechta pilot vazirliklarni tanlash;
2) olingan natijalar tahlili;
3) islohotlarning dastlabki rejalariga tuzatishlar kiritish;
4) tuzatilgan rejalarni boshqa vazirlik va idoralarga tatbiq etish.

NYB sharoitida marketing quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

1. Tadqiqot funksiyasi: Maqsadli auditoriyalarning (fuqarolar, biznes) ehtiyojlari, kutilmalari va qoniqish darajasini tizimli ravishda o‘rganish. Olingan ma’lumotlar o‘lchanadigan maqsadlar va samaradorlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, shunchaki “xizmat haqida xabardorlikni oshirish” emas, balki “maqsadli auditoriyaning 80 foizi yil oxirigacha yangi elektron xizmat haqida xabardor bo‘lishiga erishish”.

2. Pozitsiyalash va kommunikatsiya funksiyasi: Tashkilot va uning xizmatlari haqida aniq va jozibali tasavvurni shakllantirish. Ishning maqsadi, vazifasi va aniq natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamiyatga yetkazish. Bu NYBning asoslaridan biri bo‘lgan shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi.

3. Talab va sodiqlikni boshqarish funksiyasi: Xizmatlarga murojaatlar oqimini optimallashtirish (masalan, elektron xizmatlarni rivojlantirish orqali), fuqarolar uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, xizmatlar sifatini oshirish uchun teskari aloqa bilan ishlash.

4. Byudjetni asoslash funksiyasi: NYB tizimida marketing byudjeti aniq natijalarga erishish rejasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi kerak. Har bir marketing tadbiri aniq asosga ega bo‘lishi kerak: u maqsadli KPIga erishishga qanday ta’sir

koʻrsatadi (masalan, davlat xizmatlari portalidan foydalanuvchilar sonini koʻpaytirish, shikoyatlar sonini kamaytirish va boshqalar).

Bugungi kunda NYB tizimiga marketingni joriy etishda baʼzi bir muammolar mavjud. Ular sarasiga qoʻyidagilarni kiritish mumkin:

- Har qanday yangilik va oʻzgarishlarga qarshilik. Boshqaruv apparatining konservativligi, yangi sharoitlarda ishlashga tayyor emasligi.
- Malakaning yetishmasligi: xodimlarda zamonaviy marketing, maʼlumotlar tahlili va samaradorlikni baholash boʻyicha bilim va koʻnikmalarning yetishmasligi.
- Natijaviylikni oʻlchashning murakkabligi: Barcha ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarni miqdoriy koʻrsatkichlarda osonlikcha oʻlchab boʻlmaydi (masalan, hokimiyatga boʻlgan ishonchning oshishi).
- Rasmiylashtirish xavfi: KPI bilan ishlash haqiqiy boshqaruv vositasiga emas, balki "koʻz boʻyamachilikka" aylanib qolish xavfi mavjud.

NYBga amaliy misol sifatida qoʻyidagilarni koʻrib chiqamiz:

Byudjet jarayonini NYB tamoyillari asosida isloh qilish — bu oʻz-oʻzidan maqsad emas, balki davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularni oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatishga emas, balki kuch-gʻayratni jamiyat uchun ustuvor yoʻnalishlarga qaratishga ragʻbatlantirish vositasidir.

Bu aynan nimani anglatadi? Masalan, 12 yillik taʼlimga oʻtish zarurligi va, binobarin, bunday islohotni moliyalashtirishning maqsadga muvofiqligi toʻgʻrisidagi masalani hal etish:

- taʼlim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan kelib chiqib;
- boshqa sohalardagi, masalan, fan, madaniyat, sogʻliqni saqlash sohasidagi ustuvorliklarning ijtimoiy ahamiyati bilan taqqoslaganda;
- ushbu va muqobil islohotlarning kutilayotgan natijalarini puxta baholash asosida;
- taʼlimning avvalgi islohotlari, eng avvalo, 11 yillik taʼlimga oʻtish boʻyicha islohot qanday samara berganini sinchkovlik bilan har tomonlama baholash asosida. Yaʼni, 11 yillik taʼlimni isloh qilishning haqiqiy natijalarini u rejalashtirilgan davrda kutilgan natijalar va haqiqatda talab qilingan xarajatlar bilan yetarlicha aniqlik bilan oʻlchash imkonini beradigan maʼlumotlar asosida.

Amalda shunday boʻlishi uchun, u yoki bu islohotning (u yoki bu xarajatlarning) samarasizligi oddiy koʻz bilan koʻrinishini kutib oʻtirmasdan, katta miqdordagi byudjet mablagʻlari sarflab boʻlinganidan keyin byudjet jarayonining barcha bosqichlari, shuningdek, uning ishtirokchilari funksiyalari tezkorlik bilan isloh qilinadi.

Xarajatlarga asoslangan byudjetlashtirishdan natijaga yoʻnaltirilgan byudjetlashtirishga oʻtish — bu shunchaki moliyaviy tartib-taomillarni oʻzgartirish emas, balki davlat va munitsipal boshqaruv tizimining tubdan oʻzgarishidir. Bu jarayonda marketing periferik funksiya boʻlmay, tashkilot va jamiyat oʻrtasidagi aloqani taʼminlovchi strategik hamkorga aylanadi.

NYB sharoitida samarali marketing quyidagilarga imkon beradi:

- Byudjet soʻrovlarini aniq ijtimoiy ahamiyatga molik natijalarga bogʻlagan holda asoslash.
- va mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlari xizmatlarning sifati va ommabopligini oshirish.
- Fuqarolarning qoniqish va ishonch darajasini oshirish.
- Hokimiyat organlari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash.

Shunday qilib, natijaga yoʻnaltirilgan byudjetlashtirish tizimiga marketing yondashuvini kiritish ixtiyoriy yaxshilanish emas, balki zamonaviy, samarali va fuqaroga yoʻnaltirilgan boshqaruv tizimini yaratishning zaruriy shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son "Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi toʻgʻrisida"gi Farmoni https://lex.uz/docs/6600413
2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgust 506-son "2020 — 2024-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi Qarori. https://lex.uz/docs/4966572
3. Allen Schick, 2003. "The Performing State: Reflection on an Idea Whose Time Has Come but Whose Implementation Has Not." OECD Journal on Budgeting, OECD Publishing, vol. 3(2), pages 71-103.
4. Климанов В.В. (2010). Бюджетирование, ориентированное на результат: теория и практика. Москва: ИЕПП., 2010 г.
5. Hojiyeva Sh.T. Byudjet tashkilotlari faoliyatini natibalar buyicha baholash metodikasi. Moliya va bozor iqtisodiyoti. 2020-y.
6. Primova N. Oʻzbekistonda natijaga yoʻnaltirilgan byudjetlashtirish mexanizmini rivojlantirish. // "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ilmiy-elektron jurnali. 2024-y. №4-son.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BAHO TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Roziqov Jalil Jalolovich
Audit kafedrasi katta o‘qituvchisi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida baho tizimini shakllantirishning iqtisodiy va ijtimoiy asoslari tahlil qilingan. Baho tizimining bozor mexanizmlariga moslashuvi, ijtimoiy xizmatlar va ekologik ahamiyatli sohalarda narx belgilash tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, markazlashtirilgan va bozor baholari o‘rtasidagi farqlar, narx nazorati va monopoliyaga qarshi vositalar kontekstida baholash mezonlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, baho tizimi, bozor nazorati, ijtimoiy xizmatlar, narx siyosati, mahalliy ishlab chiqaruvchi.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы формирования ценовой системы в условиях «зелёной» экономики. Освещаются аспекты перехода от централизованного ценообразования к рыночным механизмам, а также принципы установления тарифов на социально значимые и экологически важные услуги. Также анализируются меры ценового регулирования, антимонопольные инструменты и поддержка местных производителей.

Ключевые слова: зелёная экономика, ценовая система, рыночный контроль, социальные услуги, ценовая политика, местные производители.

Abstract

This article analyzes the formation of a pricing system within the context of the green economy. It discusses the transition from centralized pricing to market-based mechanisms, particularly in the context of socially important and environmentally sensitive services. The study also reviews state price regulation tools, anti-monopoly mechanisms, and measures to support local producers.

Keywords: green economy, pricing system, market regulation, social services, price policy, local producers.

Yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlikni saqlagan holda ijtimoiy yo‘naltirilgan ishlab chiqarish mahsulotlariga va soha xizmatlariga aholi ehtiyojlarini qondirib borish tushuniladi. Bu vazifalarni baho tizimi orqali amalga oshirish, yashil marketing asosini tashkil qiladi

Ijtimoiy mehnat taqsimoti tufayli iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida tovar almashinuvi va shuningdek, tarmoqlararo xizmat ko‘rsatish amalga oshiriladi. Bu katta iqtisodiy jarayonni boshqarish esa davlat zimmasiga to‘g‘ri keladi. Har bir davlat, iqtisodiyotning direktiv rejalari va ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishda, davlat boshqaruvida shakllantirilgan iqtisodni boshqarish tizimidan foydalanadi. Bularga soliq tizimi, moliya va kredit tizimi va shuningdek, baho tizimi kiradi.

Bu jarayon bozor iqtisodiyoti mezonlarida qanday shakllantirilishi kerak:

- birinchidan, ishlab chiqarish tarmoqlarining ixtisoslashgan sohalari inobatga olinishi kerak;
- ikkinchidan, tarmoqlararo iqtisodiy aloqalarda ustuvor yo‘nalishlarga baho tizimi orqali ta’sir etish; va nihoyat,
- ichki va tashqi bozor munosabatlarini va muvozanatlarini barqarorlashtirib turish nuqtai nazaridan va shuningdek, davlat byudjeti daromadlarining bir maromda byudjetga tushib turishi va dotatsiya bilan ishlaydigan sohalarni yil davomida mablag‘ bilan ta’minlab turish prinsipida baho tizimini vujudga keltirish.

O‘zbekiston Respublikasining hozirgi iqtisodiy rivojlanishi davrida baho tizimining markazlashtirilgan tizimdan bozor iqtisodiyotiga mos baho tizimiga o‘tayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Markazlashtirilgan boshqaruvda qaror topgan baho tizimi yuqorida keltirilgan tamoyillardan tashqari, moddiy va moliyaviy resurslarning markazlashgan usulda taqsimlanishiga va shuningdek, oldindan belgilab qo‘yilgan baho va tariflarga asosan tashkil etilgan edi. Resurslarni markazdan turib taqsimlash va turli mahsulot, ish va xizmatlarga oldindan baho belgilab qo‘yilishi ba’zi iqtisodiy regionlarning ehtiyojlarini to‘liq hisobga olmagan holda moddiy va tabiiy resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga, ya’ni ortiqcha moddiy resurslar to‘plangan regionlarda bu mahsulotlar – qiymat jihatidan qadrsizlanishiga sabab bo‘lardi. Bu mahsulotlarga ehtiyoji katta bo‘lgan boshqa regionlarda esa, haqiqatda bu tovarlar bahosining asossiz o‘sishiga, yoki qog‘ozda belgilangan bahosi turgan holda mahsulot tanqisligiga olib kelardi.

Baho tizimini markazdan turib boshqarishning salbiy oqibatlaridan yana biri shu ediki, oldindan belgilangan baholar davriy xarakterga ega bo‘lib, besh yilliklar, ba’zan esa o‘n yilliklarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Ishlab chiqarish qonuniyatlaridan bizga ma’lumki jamiyatning ehtiyoji turli tovar va xizmatlarga va ularning sifatiga nisbatan tez – tez o‘zgarib turadi, — bu baho darajasiga ta’sir etuvchi birinchi omildir. Ikkinchi omil, — jamiyat ehtiyojini qondirish uchun ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalarini takomillashtirib borish shartidir, jumladan:
- ishlab chiqarish vositalarining eskirib borishi — ularni yangilab borishni;
- ishlovchilar malakasini oshib borish va yangi mehnat resurslariga bo‘lgan talabni qondirib turish esa, doimiy ravishda ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilab borishni talab qiladi. Bular ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatining doimiy ravishda o‘zgarib turishiga olib keladi.

Oldindan, qat’iy belgilangan baholar esa ishlab chiqarishdagi bu tabiiy o‘zgarishlarni o‘zida to‘liq aks ettira olmaydi. Aksincha, iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lgan, biroq oldindan belgilangan baholarda nisbatan kam realizatsiya qiymatiga ega bo‘lgan ishlab chiqarish iste’moliga mo‘ljallangan tovarlar va ilg‘or texnologiyalar xalq xo‘jaligida keng tarqalmasdan omma iste’moli va e’tirofidan chetlashishiga olib keladi.

Bozor iqtisodiyotiga yo‘nalgan baho tizimida esa, talab va taklifdan kelib chiqib, bozor subyektlari orqali tovar mahsulotga ehtiyojlarni qondirish darajasi inobatga olinib, ularning zaxiralari shakllantiriladi. Shu tartibda asosiy tur tovarlar bo‘yicha baho tizimi shakllantiriladi.

Bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan stixiyali baho o‘zgarishlari davlat tomonidan boshqarib turilishi shart. Bunday iqtisodiyot madaniylashtirilgan yoki o‘zlashtirilgan bozor deyiladi. O‘zlashtirilgan bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan baho tizimi shundan iboratki, amal qilib kelgan baho tizimi bozor munosabatlariga moslashtirilib bosqichma – bosqich isloh qilib boriladi.

Hududlarning turli tovarlarga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganish va ta’minotini amalga oshirish ulgurji savdo tarmoqlari zimmasiga yuklanadi. Buning uchun tovarlar ta’minotini yo‘lga qo‘yish, — ulgurji savdo korxonalarini hududlar bo‘yicha joylashishlarini tashkiliy ravishda tartibga solib turishni taqozo qiladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va ulgurji savdoda raqobat muhitini tarkib toptirish uchun, monopol mavqega ega ulgurji savdo tarmoqlarida baho darajasini chegaralovchi mexanizmlarni shakllantirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, “rentabellik — sof foyda miqdorini ishlab chiqariladigan tovarga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish xarajatlari summasiga bo‘lish yo‘li bilan hisoblab chiqiladigan korxona faoliyatining foydalilik nisbiy ko‘rsatkichi” narxlarga faol ta’sir etuvchi omil hisoblanadi. [2]

Narxlarni chegaralash uchun ulgurji savdoda savdo ustamasini yoki tovar ishlab chiqaruvchilarda faoliyat rentabelligini chegaralash, chegaradan yuqori savdo ustamasi va rentabellikni progressiv o‘sib boruvchi soliqlarga tortish, baho darajasini ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar bo‘yicha chegaralash imkonini beradi.

“Agar ish xizmatlari uning o‘rnini bosuvchi ish xizmatlari uchun belgilangan narxlarning o‘rtacha qiymatidan 10%dan ziyodga oshsa, monopol yuqori narx deb hisoblanadi. Xizmatlarning monopol past narxi xizmat ko‘rsatish uchun zarur xarajatlar qiymatini qoplamaydigan va foyda olishni ko‘zda tutmaydigan narx hisoblanadi” [3]. Monopol mavqega ega korxonalar xizmatiga shu ikki mezon o‘rtasida narx belgilash me’yoriy hujjatlarda tavsiya qilinadi.

Har bir hududning ish va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun, xizmat ko‘rsatuvchi sohalar infratuzilmasini shakllantirishni taqozo qiladi va yuqorida keltirilgan tamoyillar bo‘yicha ijtimoiy va ekologik ahamiyat kasb etadigan ta’riflarda aholiga pulli xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish zarur.

Xususan, atrof – muhit tozaligini saqlovchi, obodonlashtiruvchi va ichki yo‘llar ekspluatatsiyasi bilan shug‘ullanuvchi tuzilmalar xizmati jamoatga yoki hududga ko‘rsatilgan xizmat usulida amalga oshiriladi, ya’ni ijtimoiy iste’mol qiymatiga ega xizmat turlariga kiradi. Bunday tuzilmalar odatda mahalliy byudjet yoki maqsadli tushumlar hisobiga moliyalashtiriladi. Korxonalar ko‘rsatgan ish va xizmatlar smeta baholarida yoki xizmat tariflarida baholanib, mahalliy hokimiyat vakolat bergan buyurtmachi tomonidan to‘lovga qabul qilinadi.

Ijtimoiy xizmat turlarining baholarini shakllantirish – ko‘rsatilgan xizmatlar xarajatlarini qoplash va sohani rivojlantirishni moliyalashtirish mezonlarida belgilanishi maqsadga muvofiq. Hududga ijtimoiy (ommaviy) xizmat ko‘rsatish qaysidir ma’noda qat’iy xizmat va qat’iy baho (tarif) muhitini yuzaga keltiradi. Buning orqasida boqimandalik va moliyaviy resurslarni o‘zlashtirish qusurlari yuzaga kelishi mumkin. Bunday salbiy oqibatlarning oldini olish uchun iqtisodiy ta’sir choralarini

ishlab chiqishga to‘g‘ri keladi. Bu mexanizm har bir korxonada va har bir xizmat turini bajarishda o‘ziga xos xususiyatlar bilan joylarda joriy qilinishi lozim. Masalan, obodonlashtiriladigan hududlar qarovini xodimlar javobgarligi ostida taqsimlash, shuningdek texnik xizmat ko‘rsatuvchi texnika va mexanizmlarni javobgarlik mezonlarida hududlar bo‘yicha joylashtirish va h. k.

Chegaralanmagan tovar oqimi sharoitida ichki bozor ishlab chiqaruvchilari va iste’molchilarining davlat tomonidan tashqi savdo intervensiyasidan himoya qilinishi, — ijtimoiy yo‘naltirilgan baho tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda davlat (jamoat) savdo shoxobchalari ichki bozorlarda kamchil tovarlar zaxiralarini va baholarini barqaror saqlab turish tushuniladi. Bunda, qimmat bahoda ichki bozorga kirib keladigan kamchil tovarlarni davlat (jamoat) savdo shoxobchalari orqali pasaytirilgan narxlarda sotish orqali iste’molchilar ijtimoiy himoyaga olinadi. Mavsumiy yoki tabiiy noqulayliklar tufayli kamchillashgan mahalliy tovarlar o‘rniga chetdan kirib kelgan arzon tovarlarni jamoat savdo shoxobchalarida zaxiralab, oshirilgan narxlarda sotish bilan esa, mahalliy ishlab chiqaruvchilar davlat tomonidan baho tizimi orqali qo‘llab – quvvatlanadi. Baho tizimi orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlash shuningdek, me’yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish orqali amalga oshiriladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.08.2020-yildagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4812-son Qarorida “davlat xaridlaridagi ishtiroki vaqtinchalik taqiqlangan va chegaralangan, xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning (xizmatlarning) ro‘yxatiga kiritilmagan mahsulotlar bo‘yicha tender (tanlov) ishtirokchilari takliflarini baholashda xalqaro tajribaga muvofiq mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan import tovarlarining DDP (O‘zbekiston) narxidan 15 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda preferensiya beriladi. Bunda korporativ buyurtmachilar tomonidan tijorat maqsadlarida qayta sotish yoki shu maqsadlarda tovarlardan ishlab chiqarishda foydalanish uchun amalga oshiriladigan davlat xaridlarida preferensiyalar qo‘llanmaydi” [1].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining.2020-yil 21-avgust PQ-4812-son “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori https://lex.uz/docs/-4964633
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabr 722-son “Narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi lozim bo‘lgan tovarlar narxlarining (tariflarining) shakllanishi hamda qo‘llanilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/docs/-6770769
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 01-may 256-son “Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/docs/6907023

THE ROLE OF SOCIAL MEDIA INFLUENCERS IN SHAPING CONSUMER BUYING BEHAVIOR IN THE ELECTRONICS MARKET

Abbos Ruzmamatov
PhD Student at the Department of Marketing,
Tashkent State University of Economics
Email: rozmamatov18@gmail.com

Abstract

This study examines how social media influencers affect consumer buying behavior in the electronics market. It focuses on three main influencer attributes — credibility, attractiveness, and expertise — that shape trust and purchase intention. The findings highlight that social media acts as a key driver of decision-making in the digital economy.

Keywords: social media, influencer, consumer behavior, electronics market

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda ijtimoiy tarmoqdagi inflyuenserlarning elektronika bozorida xaridorlarning xarid xatti-harakatlariga ta’sirini o‘rganadi. Ishonchlilik, jozibadorlik va mutaxassislik kabi uchta asosiy omil iste’molchi ishonchi va xarid niyatini shakllantiradi. Natijalar ijtimoiy tarmoqlarning raqamli iqtisodiyotda qaror qabul qilishning muhim omili ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, inflyuenser, iste’molchi xulqi, elektronika bozori


Аннотация

В исследовании рассматривается влияние социальных медиа-инфлюенсеров на покупательское поведение в сфере электроники. Основное внимание уделено трём атрибутам инфлюенсеров — доверию, привлекательности и экспертности. Результаты показывают, что социальные сети являются важным фактором, формирующим решения потребителей.

Ключевые слова: социальные сети, инфлюенсер, поведение потребителей, рынок электроники

In the digital age, social media has become a central force in shaping consumer behavior, especially in the electronics market. According to Yang and Wong [1], factors such as brand awareness, social media word-of-mouth, social media advertising, and influencers significantly affect consumers’ purchasing behavior, with influencer marketing having the strongest impact. Globally, the number of social media users has surpassed 5 billion as of early 2024 [2], showing how digital platforms have become integral to everyday decision-making. In Uzbekistan, this digital transformation is even more evident. As of January–August 2025, approximately 94.2% of the population uses the Internet [3], and 79.2% of individuals aged 10 and above access the internet from home [4]. Moreover, social media platforms like Instagram and Facebook are highly popular — Instagram alone accounts for about 40% of the country’s population [5]. Additionally, around 40% of internet users in Uzbekistan make online purchases monthly, and electronics products make up

approximately 26% of these purchases [6]. These figures clearly indicate that social media is not just a platform for communication but also a critical driver of purchasing



behavior, particularly in the electronics sector.


Picture 1. Number of social media users worldwide from 2017 to 2028 (in billions) - forecast[7]

Having established the importance of influencer marketing in shaping consumer behavior, it is essential to examine the key dimensions that define an influencer's persuasive power. Among these, credibility, attractiveness, and expertise are widely recognized as the most influential attributes driving followers' trust and purchase intention.

Influencer credibility has a strong influence on consumers' attitudes and purchase intentions, particularly in categories with higher perceived risk such as electronics. For example, a study titled *"From likes to loyalty: Exploring the impact of influencer credibility on purchase intentions in TikTok"* found that influencer credibility significantly enhances purchase intention and recommendation behavior among users, as credible influencers increase trust and reduce uncertainty toward the product or endorsement [8]. Another research, *"The effectiveness of influencer endorsements for smart technology products: the role of follower number, expertise domain and trust propensity"*, demonstrated that perceived credibility mediates the relationship between influencer attributes (like expertise domain) and positive consumer responses to endorsements for smart tech devices [9]. These findings suggest that for electronic

products—which often involve technical specifications and investment—credibility is central to influencing consumers to move from awareness toward actual purchase.

Attractiveness of the influencer, including physical appearance, likability, and how relatable the influencer's style is, also plays an important role in influencing electronics buying behavior. The study *"YouTube 'Unboxing:' An Influencer of Purchase Intent"* found that physical attractiveness as a trait of influencer content contributes positively to engagement and brand attitude among followers, which in turn increases purchase intention [10]. Another article, *"Digital Influencers' Attributes and Perceived Characterizations and Their Impact on Purchase Intentions"*, identifies attractiveness among core influencer attributes that directly affect purchase intention for Gen Z consumers — especially when combined with credibility and expertise [11]. Thus, in electronics markets where appearance and perception can matter (e.g. product design, lifestyle appeal), attractiveness of the influencer enhances not only attention but influences consumers' predisposition to trust or desire products.



Picture 2. Impact of Influencer Attributes on Purchase Intention and Buying Behavior[12]

Expertise refers to how knowledgeable and experienced an influencer is perceived to be in the electronics domain, which helps in reducing perceived risk and boosting trust. In *"The effectiveness of influencer endorsements for smart technology products: the role of follower number, expertise domain and trust propensity"*, it was shown that influencers with domain-specific expertise lead to more favorable attitudes and greater trial intention for smart technology products, especially among consumers with low predisposed trust [9]. Moreover, *"Influencer Marketing and its Effect on Consumer Decision-Making Processes for Electronic Products"* emphasizes that expertise and perceived knowledge have a significant effect on how consumers evaluate endorsements in the electronics sector, enhancing perceived reliability of product information and increasing purchase likelihood [13]. In a market where technical

specifications, performance, and long-term value are important, influencer expertise helps consumers feel more confident about their purchase decisions.

REFERENCES

1. Y. Yang and K. Wong, “Impact of social media marketing on consumer purchase intention,” Journal of Business Research, vol. 145, pp. 123–135, 2022.

2. Kepios, “Global social media users surpass 5 billion in 2024,” DataReportal, Feb. 2024. [Online]. Available: https://datareportal.com/reports/digital-2024-global-overview

3. National Committee of Statistics, “Almost 95% of Uzbekistan’s population uses the Internet (data for January–August 2025),” UzDaily.uz, Sep. 2025. [Online]. Available: https://www.uzdaily.uz/en/post/89517

4. Statistics Agency under the President of Uzbekistan, “Uzbekistan sees surge in home internet users reaching 79.2% by mid-2024,” Kun.uz, Jul. 2024. [Online]. Available: https://ad.kun.uz/en/news/2024/07/16/uzbekistan-sees-surge-in-home-internet-users-reaching-792-by-mid-2024

5. NapoleonCat, “Social media users in Uzbekistan — January 2025,” NapoleonCat Analytics, 2025. [Online]. Available: https://napoleoncat.com/stats/social-media-users-in-uzbekistan/2025

6. Yandex, “Uzbekistan’s media consumption report, Q2 2025,” Pivot.uz, 2025. [Online]. Available: https://pivot.uz/ozbekiston-raqamli-uygonish-yoqasida-2025-yilda-media-istemoli-qanday-ozgarayapti-yandexning-2025-yil-ii-choragiga-oid

7. https://www.statista.com/topics/1164/social-networks/

8. From likes to loyalty: Exploring the impact of influencer credibility on purchase intentions in TikTok, Journal of Retailing and Consumer Services, Vol. 78, May 2024.

9. Kim, T. & Yoon, H.J. (2024). The effectiveness of influencer endorsements for smart technology products: the role of follower number, expertise domain and trust propensity, Journal of Product & Brand Management.

10. YouTube “Unboxing:” An Influencer of Purchase Intent — A Quantitative Study, Bhattacharya & Mathur Dhingra, SAGE Journals, 2023.

11. Digital Influencers’ Attributes and Perceived Characterizations and Their Impact on Purchase Intentions, MDPI Sustainability, 2023

12. Author’s work

13. Raja, T., Arasan, T., Khan, T., Ghosh, S., John, K.T. (2024). Influencer Marketing and its Effect on Consumer Decision-Making Processes for Electronic Products, European Economic Letters (EEL), Vol. 14 No. 3

TA’LIM TURIZMINI TASHKIL ETISHNING BARQAROR STRATEGIYALARINI ANIQLASHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Azimova Vazira Oqiljonovna
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros
xalqaro universitetining mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta’lim turizmini tashkil etish jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati, ularning barqaror turizm strategiyasi bilan integratsiyasi va korporativ hamkorlik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida ta’lim turizmini rivojlantirishning iqtisodiy va madaniy asoslari, xorijiy tajribalar hamda zamonaviy marketing yondashuvlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim turizmi, innovatsiya, barqaror rivojlanish, korporativ strategiya, xalqaro hamkorlik, marketing.

Аннотация

В данной статье проанализированы значение инновационных подходов в процессе организации образовательного туризма, их интеграция со стратегией устойчивого туризма и возможности корпоративного сотрудничества. Также раскрыты экономические и культурные основы развития образовательного туризма в условиях Узбекистана, изучен зарубежный опыт и современные маркетинговые подходы.

Ключевые слова: образовательный туризм, инновации, устойчивое развитие, корпоративная стратегия, международное сотрудничество, маркетинг.

Abstract

This article analyzes the significance of innovative approaches in organizing educational tourism, their integration with sustainable tourism strategies, and the potential for corporate cooperation. It also explores the economic and cultural foundations for the development of educational tourism in Uzbekistan, along with international experiences and modern marketing approaches.

Keywords: educational tourism, innovation, sustainable development, corporate strategy, international cooperation, marketing.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim turizmi nafaqat xalqaro ta’lim almashinuvi shakli, balki barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. UNESCO, OECD va UNWTO ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda ta’lim maqsadida sayohat qilayotgan talabalar soni yiliga 6–7 foizga o‘smoqda. Bu esa ta’lim xizmatlarini innovatsion boshqarish va marketing strategiyalarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda[1].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim va turizm sohalarida olib borayotgan islohotlar ta’lim turizmini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratmoqda. Xususan, 2019-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish konsepsiyasi” va 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston

[1] UNWTO (2023). Tourism and Education for Sustainable Development. Madrid: UNWTO Publications

taraqqiyot strategiyasida xalqaro ta’lim almashinuvi, akademik mobillik va innovatsion turizm turlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Bugungi kunda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand davlat universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va boshqa OTMlar xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma dasturlar, qisqa muddatli “study tour” va “field practice” loyihalarini yo‘lga qo‘ymoqda. Bu tajriba O‘zbekistonni Markaziy Osiyoda ta’lim turizmi markaziga aylantirish istiqbolini kuchaytirmoqda.

Masalan, 2023-yilda Samarqandda o‘tkazilgan I-Global Education Forum doirasida 20 dan ortiq mamlakatdan professor-o‘qituvchilar va talabalar ishtirok etgan xalqaro akademik almashinuv dasturlari taqdim etildi. Shuningdek, “Silk Road University Alliance” doirasida tashkil etilgan qo‘shma dasturlar orqali xorijiy talabalarning O‘zbekistonga qisqa muddatli ta’lim safarlari soni sezilarli oshdi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ta’lim turizmi O‘zbekiston uchun nafaqat ta’lim tizimini xalqaro miqyosda tanitish vositasi, balki madaniy diplomatiya, iqtisodiy diversifikatsiya va barqaror innovatsion marketingni amalga oshirishning samarali vositasiga aylanmoqda. Buning uchun davlat siyosati, xususiy sektor va akademik muassasalar o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni innovatsion yondashuvlar orqali mustahkamlash zarur.

O‘zbekiston uchun ta’lim turizmini rivojlantirish imkoniyatlari keng. Mamlakatdagi boy madaniy meros, qulay logistika va turizm infratuzilmasining modernizatsiyasi xalqaro talabalar va tadqiqotchilarni jalb etishda muhim omil bo‘la oladi.

Innovatsion yondashuvlar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Raqamli marketing platformalari – ta’lim turizmi dasturlarini global onlayn marketing orqali targ‘ib qilish, interaktiv veb-portallar, virtual kampus turlarini tashkil etish.
2. Universitetlar va turizm kompaniyalari o‘rtasida korporativ hamkorlik – “dual branding” modeli orqali qo‘shma dasturlar va qisqa muddatli o‘quv-sayohat loyihalarini amalga oshirish.
3. Barqarorlik tamoyillarini integratsiya qilish – ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan mas’uliyatli ta’lim turizmi turlarini yaratish (masalan, etno-ta’limiy, agro-ta’limiy yoki ekologik o‘quv turlari).

Shuningdek, ta’lim turizmini rivojlantirishda korporativ strategiya sifatida “akademik klasterlar” modelini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu model universitetlar, turizm operatorlari, mehmonxona tarmoqlari va davlat idoralarining o‘zaro manfaatli hamkorligini kuchaytiradi[1].

Ta’lim turizmini innovatsion asosda tashkil etish mamlakatning xalqaro imijini oshirish, iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirish va yoshlarning global raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, O‘zbekistonda ta’lim turizmi marketingi va boshqaruvi sohasida strategik rejalashtirish, raqamli kommunikatsiyalarni keng joriy etish hamda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

[1] OECD (2022). Innovation in Higher Education and Global Mobility. Paris: OECD Publishing

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining №637 2020-yil 23-sentyabr “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – https://lex.uz/docs/5013007

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 163-son qarori: “Kasb-hunar ta’limi muassasalarida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”. – https://lex.uz/docs/5341864

3. Karimov A.H. Dual ta’lim tizimi – kadrlar sifatini oshirishning innovatsion mexanizmi. // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2022. – №2. – B. 44–50.

4. Qo‘chqorov I.M. Dual ta’lim tizimi: milliy xususiyatlar va rivojlanish istiqbollari. // O‘zbekistonda innovatsion ta’lim. – 2023. – №1. – B. 18–22.

5. Sattarov Q.Q., Toshpo‘latov A.A. “Kasb-hunar ta’limi: nazariya va amaliy asoslar”. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2021. – 324 b.

6. Saidov S.A., Umarov A.X. “Pedagogika: umumiy nazariyasi va kasbiy ta’limda qo‘llanilishi”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 280 b.

7. OECD (2020). “Vocational Education and Training in Germany.” OECD Reviews of Vocational Education and Training. – https://www.oecd.org/education/vet

8. CEDEFOP (2022). “The role of employers in dual education systems.” European Centre for the Development of Vocational Training. – https://www.cedefop.europa.eu

9. World Bank (2021). “Skills for a Modern Economy: Dual Education Programs in Practice.” – https://www.worldbank.org

10. UNESCO-UNEVOC (2020). “Promising Practices in TVET: Dual Training in Practice.” – https://unevoc.unesco.org

11. Statista (2023). “Average vocational education cost per student in OECD countries.” – https://www.statista.com

12. UNWTO (2023). Tourism and Education for Sustainable Development. Madrid: UNWTO Publications.

13. Abdullaeva N. (2024). “Ta’lim turizmini rivojlantirishning innovatsion yo‘nalishlari.” Iqtisodiyot va ta’lim jurnali, №3, 45–52-betlar.

O‘ZBEKISTONDA BIZNES MOLIYASI METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Toshpo‘latov Murodulla Sobirjon o‘g‘li
TDIU dotsenti v.b., PhD

Annotatsiya

Tezisda O‘zbekistonda biznes moliyasining metodologik asoslarini takomillashtirish zaruriyati yoritilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruvning samaradorligi, investitsion jozibadorlikni oshirish, kapital tuzilmasini optimallashtirish kabi masalalar tahlil qilingan. Moliyaviy qarorlarni qabul qilishda klassik va zamonaviy nazariy modellarning kombinatsiyasi, raqamli texnologiyalar va ESG yondashuvlarining roli alohida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: biznes moliyasi, kapital tuzilmasi, moliyaviy boshqaruv, investitsion jozibadorlik, ESG, raqamli texnologiyalar.

Аннотация

В тезисе раскрыта необходимость совершенствования методологических основ бизнес-финансов в Узбекистане. Рассмотрены вопросы повышения эффективности финансового управления, оптимизации капитала и инвестиционной привлекательности акционерных обществ. Подчёркивается значимость интеграции классических моделей, цифровых технологий и ESG-подходов в финансовое планирование.

Ключевые слова: бизнес-финансы, структура капитала, финансовое управление, инвестиционная привлекательность, ESG, цифровые технологии.

Abstract

The thesis highlights the need to improve the methodological foundations of business finance in Uzbekistan. It addresses issues such as enhancing financial management efficiency, optimizing capital structure, and increasing the investment appeal of joint-stock companies. The integration of classical models, digital technologies, and ESG approaches is emphasized as key to financial decision-making.

Keywords: business finance, capital structure, financial management, investment attractiveness, ESG, digital technologies.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish jarayonida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligi va barqarorligini ta’minlash dolzarb vazifaga aylandi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati, asosan, korporativ boshqaruv tizimining mukammalligi va moliyaviy barqarorlik darajasiga bog‘liq. Shu bois, biznes moliyasi metodologiyasini takomillashtirish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, kapital tarkibini optimallashtirish va risklarni samarali boshqarish korxonalarning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash ham alohida ahamiyatga ega. Aksiyadorlik jamiyatlari barqarorligining oshishi nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash omili sifatida ham ko‘rilmoqda. Shu

sababli, ushbu tadqiqotda biznes moliyasining metodologik asoslari keng qamrovli tahlil qilinadi.

Globallashuv va xalqaro moliya bozorlariga integratsiya jarayonlari O‘zbekiston iqtisodiyoti oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, xalqaro kapital oqimlarini jalb etish, korporativ sektorning investitsion jozibadorligini oshirish hamda milliy kapital bozorini rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi. Shu nuqtai nazardan, aksiyadorlik jamiyatlarida biznes moliyasini takomillashtirish orqali korxonalarning investitsion salohiyatini oshirish zaruriyati tug‘ildi. O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilinayotgan strategik dasturlar, xususan, “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi” ham bu boradagi islohotlarning muhimligini ta’kidlamoqda[1]. Kapital bozoridagi faoliyatning kengayishi, qimmatli qog‘ozlar bozorida ishtirokchilar sonining ko‘payishi ham moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun muhim sharoit yaratadi. Shu bilan birga, moliyaviy boshqaruvning xalqaro standartlarga moslashtirilishi ham iqtisodiy islohotlarning barqarorligini oshiradi.

Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining barqarorligi va investitsion jozibadorligini ta’minlashda biznes moliyasini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kapitalning erkin aylanishi, moliya resurslaridan samarali foydalanish va ularni investitsion loyihalarga yo‘naltirish aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biznes moliyasi metodologiyasini yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

Biznes moliyasi tushunchasi keng ma’noda korxonalar faoliyatining moliyaviy jihatlarini tartibga soluvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida talqin qilinadi. Uning mazmunida korxonaning ishlab chiqarish, tijorat va xizmat ko‘rsatish faoliyatini moliyaviy jihatdan ta’minlash, foyda olish va kapital qiymatini oshirish vazifalari mujassamdir. Mazkur tushuncha moliyaviy menejment, investitsion tahlil, risklarni boshqarish, dividend siyosati hamda kapital bozorlarida faoliyat yuritishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, biznes moliyasi korporativ boshqaruv bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, aksiyadorlar, menejerlar va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiradi. Moliyaviy qarorlarning oqilona qabul qilinishi korxonaning qiymatini oshiradi, aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qiladi va yangi investorlarni jalb etish imkonini yaratadi. Shu jihatdan biznes moliyasi nafaqat korxona ichki iqtisodiy jarayonlarini, balki milliy kapital bozorlarining barqarorligini ham bevosita shakllantiruvchi mexanizm hisoblanadi.

Moliyaviy boshqaruvning nazariy modellari va biznes moliyasi metodologik asoslarini takomillashtirish bugungi kunda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Klassik va neoklassik modellarda kapitalni jalb qilish va taqsimlashga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlarda risk va rentabellik muvozanatini ta’minlash, manfaatdor tomonlar manfaatlarini uyg‘unlashtirish hamda korporativ qiymatni maksimallashtirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, agentlik nazariyasi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining.2022 yil 28-fevral PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, https://lex.uz/uz/docs/-5841063

doirasida aksiyadorlar va menejerlar manfaatlarini moslashtirish mexanizmlari, stakeholderlar modeli asosida esa barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi. Biznes moliyasining metodologik asoslarini takomillashtirish jarayonida kapital qiymatini baholashning klassik usullari bilan bir qatorda ESG omillarini hisobga oluvchi yangi yondashuvlardan foydalanish zaruriyati ortib bormoqda. Pul oqimlarini boshqarishda NPV va IRR kabi ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmay, ssenariy tahlillari va stress-testlar orqali barqarorlikni chuqurroq aniqlash samarador natijalar beradi. Raqamli texnologiyalar va “fintech” vositalarining keng joriy etilishi esa biznes moliyasida tezkor qarorlar qabul qilish imkonini yaratmoqda. Shu jihatdan, nazariy modellarning amaliyotga moslashtirilishi va metodologik asoslarning modernizatsiya qilinishi biznes moliyasining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

1-Jadval

Moliyaviy boshqaruvning nazariy modellari[1]

Model turi	Asosiy mazmuni	Afzalliklari	Cheklovlari
Klassik model	Moliyaviy resurslarni oddiy boshqarish	Soddaligi, tushunarliligi	Risklarni hisobga olmaydi
Neoklassik model	Kapital tuzilmasi va investitsion qarorlar	Barqarorlik va balansni ta’minlaydi	Amaliy qo‘llash qiyin
Agentlik nazariyasi modeli	Aksiyadorlar va menejerlar manfaatlari uyg‘unligi	Korporativ boshqaruvni mustahkamlaydi	Axborot nomutanosibligi muammosi mavjud
Zamonaviy portfel modeli	Risk va daromad uyg‘unligini optimallashtirish	Diversifikatsiya imkonini beradi	Moliyaviy vositalar rivojini talab qiladi

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, moliyaviy boshqaruv modellari turlicha yondashuvlarga asoslanadi va ularning har biri o‘ziga xos afzallik hamda cheklovlarga ega. Masalan, klassik model oddiy va tushunarli bo‘lsa-da, risklarni inobatga olmaydi, bu esa zamonaviy aksiyadorlik jamiyatlari uchun yetarli emas. Agentlik nazariyasi va zamonaviy portfel modeli esa korporativ boshqaruvda manfaatlar uyg‘unligi hamda diversifikatsiya mexanizmlarini hisobga oladi. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida ushbu modellarning kombinatsiyasidan foydalanish samarali natija berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining.2022 yil 28-fevral PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, https://lex.uz/uz/docs/-5841063

2. Brealey R. A., Myers S. C., Allen F. Principles of Corporate Finance. – 12th ed. – New York: McGraw-Hill, 2017. – 984 p.

[1] Brealey R. A., Myers S. C., Allen F. Principles of Corporate Finance. – 12th ed. – New York: McGraw-Hill, 2017. – 984 p. asosida muallif ishlanmasi

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINING BARQAROR RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDAGI ROLI VA ISTIQBOLLARI

Tursunxo‘jayev Axrorxo‘ja Jamoliddin o‘g‘li
TDIU Biznes boshqaruvi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: tursunxojayevaxrorxoja@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarida yashil marketing strategiyalarining shakllanishi va ularning barqaror rivojlanishga ta’siri tahlil qilingan. Ilmiy manbalar asosida ekologik innovatsiyalar, yashil bilimlar va mijozlar bilan ishonchli aloqalarning strategik ahamiyati aniqlangan. Tadqiqot natijalari kichik korxonalarda yashil yondashuvlar orqali iqtisodiy va ekologik samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Muallif tomonidan konseptual model taklif etilgan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, yashil marketing, barqaror rivojlanish, ekologik innovatsiya, strategik yondashuv, mijoz ishonchi, ekologik samaradorlik

Аннотация

В данной статье рассматривается формирование стратегий зелёного маркетинга в малом бизнесе и их влияние на устойчивое развитие. На основе научных источников определено стратегическое значение экологических инноваций, зелёных знаний и доверительных отношений с клиентами. Результаты исследования показывают, что экологически ориентированный подход способствует повышению экономической и экологической эффективности деятельности малых предприятий. Автором предложена концептуальная модель и практические рекомендации.

Ключевые слова: малый бизнес, зелёный маркетинг, устойчивое развитие, экологические инновации, стратегический подход, доверие клиентов, экологическая эффективность

Abstract

This article analyzes the development of green marketing strategies in small businesses and their impact on sustainable development. Based on scholarly sources, the strategic role of ecological innovations, green knowledge, and trusted customer relationships is identified. The findings reveal that environmentally conscious approaches can enhance both economic and ecological performance in small enterprises. A conceptual model and practical recommendations are proposed by the author.

Keywords: small business, green marketing, sustainable development, ecological innovation, strategic approach, customer trust, environmental efficiency

KIRISH

Atrof-muhitning ifloslanishi, resurslarning cheklanganligi va ekologik xavfsizlik masalalari ko‘plab ishlab chiqaruvchilar uchun yangi yondashuvlarni izlashga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari uchun bu jarayon muhim ahamiyatga

ega, chunki ular o‘z faoliyatida ekologik talablarga moslashish orqali xaridorlar ishonchini qozonishi va barqaror raqobatbardoshlikka erishishi mumkin. Shuning uchun ham ekologik qadriyatlarga asoslangan marketing strategiyalari — ya’ni yashil marketing — tobora ko‘proq e’tibor qozonmoqda.

Yashil marketing mahsulotni ishlab chiqarishdan tortib, uni mijozga yetkazishgacha bo‘lgan jarayonlarda ekologik mas’uliyatni hisobga olishni anglatadi. Bunda faqat atrof-muhitga zarar yetkazmaslik emas, balki mijozlar bilan halol, ochiq va ishonchli munosabat o‘rnatish ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, kichik korxonalar uchun bu yondashuv o‘z faoliyatini samaraliroq tashkil etish, resurslardan tejab-tergab foydalanish va yangi mijozlar qatlamini jalb qilish imkonini beradi.

So‘nggi yillardagi ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, yashil marketing strategiyalari nafaqat ekologik jihatdan foydali, balki iqtisodiy natijalari bilan ham e’tiborga loyiqdir. Ular korxona ichida ekologik ongni mustahkamlash, xodimlarning ushbu yo‘nalishdagi bilimlarini oshirish va rahbariyatning ekologik qarorlar qabul qilishga tayyorligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, tashqi omillar — xaridorlar ehtiyoji, davlat siyosati va ijtimoiy bosimlar — ham bu strategiyalarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Kichik biznes subyektlari o‘z moslashuvchanligi va tez qaror qabul qilish qobiliyati bilan ekologik yondashuvlarni amaliyotda qo‘llashda katta imkoniyatlarga ega. Yashil marketing aynan shu afzalliklardan foydalanish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim vositasiga aylanishi mumkin. Shuning uchun mazkur tadqiqotda kichik bizneslarda yashil marketing strategiyalarining shakllanishi, qo‘llanish yo‘llari va barqaror rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi tahlil qilindi. Ish davomida ilg‘or ilmiy manbalar asosida umumlashtirilgan yondashuv ishlab chiqildi va amaliy qo‘llash uchun model taklif etildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil marketing sohasi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar chuqur tahlil qilinganda, bu yondashuv kichik biznes faoliyatida tobora dolzarb mavzuga aylangani ayon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik korxonalar ekologik mas’uliyatni o‘z strategiyasiga qo‘shish orqali nafaqat atrof-muhitga foyda keltiradi, balki o‘z raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Birinchi navbatda, yashil marketingning nazariy asoslari va konsepsiyasi chuqur o‘rganilgan. Wang va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda yashil bilimlar, ekologik innovatsiyalar va korxonaning o‘zgarishga tayyorlik darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nazariy jihatdan asoslab berilgan [1]. Bu yondashuv, ayniqsa, kichik biznes uchun dolzarb, chunki ular strategik qarorlarni qisqa muddatda va cheklangan resurslar bilan qabul qilishadi.

Shuningdek, Rehman va hamkorlari korxona ichki tizimini ekologik omillarga yo‘naltirish orqali ekologik mahsulot yaratish, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilgan [2]. Ularning fikricha, kichik korxonalar uchun ekologik strategiyalarni joriy etishda oddiy va tejamkor usullar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu, o‘z navbatida, ularning barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

Yashil marketing strategiyalari kichik biznes va mijozlar o‘rtasida barqaror munosabatlarni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Chen va boshqalar yashil brend va ekologik qadriyatlarning iste’molchilar xatti-harakatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini empirik jihatdan asoslab berishgan [10]. Ularning izlanishlari shuni ko‘rsatdiki, ekologik brend imijini shakllantirgan kichik korxonalar mijozlar orasida ishonch va sodiqlikni kuchaytirishga erishadi. Bu esa, o‘z navbatida, barqaror daromad oqimiga xizmat qiladi.

Davis o‘z izlanishlarida korxona ichki madaniyati, rahbariyatning yondashuvi va xodimlarning tayyorligi yashil strategiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda hal qiluvchi omillar ekanini ta’kidlaydi [11]. Bunday yondashuvdan kelib chiqib, kichik bizneslarda strategiya joriy etish faqat tashqi bosim yoki talab bilan emas, balki ichki tayyorgarlik va qadriyatlar orqali yuzaga chiqishi kerakligi aniqlanadi.

Yashil marketing faqat ichki tashkiliy jihatlar bilan cheklanmaydi, balki u ekologik bilimlar oqimi orqali strategik innovatsiyalarga ham asos bo‘ladi. Ismail va boshqalar bu boradagi tadqiqotlarida ekologik innovatsiyalarni joriy etishda bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatining ahamiyatini ochib bergan [9]. Bu esa, korxonada doimiy o‘rganish va bilim aylanishi mavjud bo‘lsa, yashil yondashuvlar muvaffaqiyatli va barqaror tarzda amalga oshirilishini ko‘rsatadi.

Esmaelnezhad va boshqalar tomonidan taqdim etilgan indikatorlar tizimi esa yashil marketing strategiyalarining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarini o‘lchash imkonini beradi [8]. Bu tizim kichik bizneslar uchun strategiyalarni baholash, tahlil qilish va doimiy takomillashtirib borishda amaliy vosita sifatida muhim hisoblanadi.

Materiallar ta’minoti va ishlab chiqarish bosqichida yashil tamoyillarni qo‘llash borasida Dzikriansyah va hamkorlarining tadqiqotlari e’tiborga molikdir. Ular kichik ishlab chiqaruvchilarda yashil ta’minot zanjiri elementlarini qo‘llab, ekologik samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatgan [4]. Ushbu yondashuv ishlab chiqarishdan tortib yetkazib berishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda ekologik yondashuvni talab qiladi.

Nihoyat, Agrawal va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan yashil moliyaviy model kichik bizneslar uchun ekologik investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy asos va yo‘l xaritasi rolini bajaradi [5]. Bu model, aylanma iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda, ekologik barqarorlik va moliyaviy foyda o‘rtasida muvozanat yaratishga yordam beradi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda mavjud yozma manbalarni o‘rganish asosiy usul sifatida tanlandi. Buning uchun so‘nggi yillarda nashr etilgan ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Maqolalar dunyodagi eng yirik ilmiy bazalar — Scopus va Web of Science orqali tanlab olindi. Ular asosan yashil marketing, ekologik texnologiyalar, kichik biznesdagi boshqaruv va barqarorlik mavzulariga oid. Tanlangan adabiyotlar mavzuga aloqadorligi, so‘nggi yillardagi chop etilganligi va amaliy foydasi bo‘yicha saralandi. Har bir maqola mazmunan o‘rganilib, ularning umumiy yo‘nalishlari asosida muhim g‘oyalar ajratib olindi. Shu asosda tadqiqotning asosiy yo‘nalishlari aniqlashtirildi va muallifiy umumlashtirish orqali natijaviy model ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan adabiyot tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil marketing strategiyalari kichik biznes subyektlari uchun raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va barqarorlik tamoyillarini ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlariga tatbiq etishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar asosida yashil marketingning kichik biznesdagi ahamiyati ko‘p qirrali bo‘lib, u faqat ekologik samara emas, balki mijozlar bilan ishonch asosidagi aloqalarni kuchaytirish, brend qadriyatlarini shakllantirish va yangi bozor segmentlarini qamrab olish imkonini beradi.

Ko‘plab manbalar kichik bizneslarning strukturaviy va moliyaviy jihatdan yirik korxonalarga nisbatan cheklangan bo‘lishini e’tirof etadi. Shunga qaramay, ularning moslashuvchanlik darajasi yuqori bo‘lgani sababli yashil marketing strategiyalarini amaliyotga tez va nisbatan kam xarajat bilan joriy etish imkoniyatiga egadirlar [3]. Masalan, Meksikadagi kichik firmalar misolida olib borilgan tadqiqotlarda ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan xizmatlar ko‘rsatish va yashil kommunikatsiya vositalaridan foydalanish samaradorligi aniq qayd etilgan.

Yashil marketing samaradorligining yuqori bo‘lishi uchun marketing strategiyalari va ekologik innovatsiyalar o‘rtasida mustahkam aloqa mavjud bo‘lishi kerakligi alohida ta’kidlangan [1]. Wang va hamkorlari tomonidan taqdim etilgan modelda yashil bilimlarni boshqarish orqali tashkilotda ekologik innovatsion salohiyatni oshirish mumkinligi nazariy asosda bayon etilgan. Bu kabi yondashuv kichik bizneslar uchun dolzarb, chunki ular cheklangan resurslar sharoitida ko‘proq intellektual salohiyatdan foydalanishga majbur bo‘ladi.

Rehman va boshqalar tomonidan o‘rganilgan holatlarda yirik ishlab chiqaruvchilarda yashil innovatsiyalarni tatbiq etish orqali kichik bizneslar uchun amaliy model yaratilgan [2]. Bu modelda chiqindilarni kamaytirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va ekologik dizayn asosida mahsulot yaratish asosiy komponentlar sifatida keltirilgan. Kichik bizneslar bu elementlarni o‘z hajmiga moslashtirish orqali strategik yondashuvni shakllantirishi mumkin.

Yashil marketing strategiyalarining samaradorligini oshirishda iste’molchilarning ekologik ong darajasi ham muhim omil sifatida ajralib turadi. Chen va hamkorlari yashil brend assotsiatsiyalari va mijozlarning xarid qilish niyatlari o‘rtasidagi munosabatni empirik tahlil qilib, mahsulot yoki xizmatga ekologik imij bog‘lash orqali mijozlar ishonchini mustahkamlash mumkinligini aniqlaganlar [10]. Bu kichik biznes uchun foydali xulosa, chunki ular iste’molchilar bilan bevosita va yaqin aloqada bo‘lganligi sababli, bunday kommunikatsion strategiyalarni tezda sinab ko‘rish va moslashtirish imkoniyatiga ega.


Davis tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa kichik bizneslarda yashil marketing strategiyalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi korxonaning ichki qadriyatlari, rahbariyat yondashuvi va xodimlarning tayyorgarlik darajasiga bog‘liq ekani ko‘rsatib o‘tilgan [11]. Bu xulosadan kelib chiqib, strategiyalarni amaliyotga joriy qilishda tashqi omillar bilan bir qatorda ichki madaniyat va korporativ qadriyatlar ham hisobga olinishi zarurligi aniqlanadi.

Ismail va boshqalar ekologik barqarorlik va yashil marketing o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganar ekan, yashil bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati hal qiluvchi omil sifatida ajratib ko‘rsatadilar [9]. Bu esa kichik biznes uchun amaliy xulosa: strategiyani joriy qilishdan avval, xodimlar va rahbariyat ekologik bilimlar va yondashuvlar bilan tanishtirilishi, qisqacha aytganda, ekologik bilimlar transformatsiyasi tashkil etilishi lozim.

Yashil marketing strategiyalarining barqaror rivojlanishga hissa qo‘shish darajasini tizimli ravishda baholashda indikatorlar tizimi katta ahamiyatga ega. Esmaelnezhad va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan tizimda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash uchun mezonlar taklif etilgan bo‘lib, ular kichik bizneslar uchun monitoring va strategik qarorlar qabul qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi [8]. Bu model kichik biznes subyektlarining o‘z resurslarini tahlil qilish, natijalarga asoslangan strategik rejalashtirish olib borishiga yordam beradi.

Dzikriansyah va boshqalar yashil ta’minot zanjiri komponentlarini kichik ishlab chiqaruvchilarda qo‘llash natijasida ekologik samaradorlikka erishish mumkinligini empirik asosda isbotlaganlar [4]. Bu tadqiqotlar kichik bizneslar uchun ekologik mezonlarga mos materiallar tanlovi, tashish va saqlash bosqichlarida energiya tejash, chiqindilarni kamaytirish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar beradi.

Yashil marketing faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlarning mavjudligi kichik bizneslar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Agrawal va hamkorlari yashil moliyalashtirish va yashil innovatsiyalarni uzviy integratsiya qilgan holda, aylanma iqtisodiyot modeli orqali ekologik va iqtisodiy samarani muvozanatli tarzda ta’minlash imkoniyatlarini tahlil qilganlar [5]. Ushbu yondashuv kichik biznesga investitsiyalar jalb qilish, davlat grantlari yoki ekologik kreditlardan samarali foydalanish imkonini beradi.



1-rasm. Yashil marketing strategiyalari va barqaror rivojlanish modeli[1]

[1] Muallif ishlanmasi

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirib, 1-rasmdagi konseptual model ishlab chiqildi. Bu model kichik biznes subyektlari uchun yashil marketing strategiyalarining qanday shakllanishi, qanday omillar ta’sirida rivojlanishi va ularning barqaror rivojlanishga qanday ta’sir qilishini tushuntirildi.

Ushbu model nazariy jihatdan adabiyotlarda aniqlangan asosiy tushunchalarni ifodalaydi. Unga ko‘ra, kichik bizneslar yashil marketing strategiyalarini ichki madaniyat va tashqi talablar asosida shakllantiradi, innovatsiyalarni joriy qiladi va mijozlar bilan ekologik jihatdan ongli aloqani rivojlantiradi. Bu esa ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqarorlikka olib keladi. Model real strategik qarorlar qabul qilishda konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlari yashil marketing strategiyalarini amaliyotga joriy etish orqali o‘z faoliyatini ekologik va iqtisodiy jihatdan foydaliroq yo‘nalishga burish imkoniyatiga ega. Tanlab olingan ilmiy manbalar asosida aniqlanishicha, yashil marketing nafaqat ekologik manfaat keltiradi, balki mijozlar ishonchini mustahkamlash, brend obro‘sini oshirish va yangi bozor imkoniyatlarini ochish vositasi ham hisoblanadi.

Strategiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun, avvalo, korxona ichida ekologik qadriyatlarni shakllantirish, xodimlarni tegishli bilimlar bilan ta’minlash va rahbariyat tomonidan ekologik yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Tashqi omillar — mijozlar talabi, qonunchilik talablariga moslashish va ekologik axborotlardan foydalanish ham asosiy rol o‘ynaydi.

Yashil innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, chiqindilarni kamaytirish va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish kichik bizneslar uchun uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydi. Bunda mijozlar bilan ochiq va ishonchli ekologik aloqa o‘rnatish strategiyaning samaradorligini yanada oshiradi.

Shunga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Ichki madaniyatni mustahkamlash: Kichik bizneslarda yashil qadriyatlarni xodimlar ongiga singdirish va ekologik tafakkurni rivojlantirish maqsadida muntazam trening va targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yish zarur.
2. Yashil bilimlarni oshirish: Ekologik texnologiyalar, qonunchilik va iste’molchilar xatti-harakati haqidagi bilimlarni muntazam yangilab borish, bu borada maxsus o‘quv materiallaridan foydalanish tavsiya etiladi.
3. Moliyaviy va texnik ko‘makni jalb etish: Yashil tashabbuslarni amalda qo‘llash uchun grantlar, ekologik kreditlar yoki davlat dasturlaridan faol foydalanish tavsiya qilinadi.
4. Innovatsiyalarni joriy etish: Energiya tejovchi texnologiyalar, ekologik qadoqlash, qayta ishlanadigan resurslar asosida mahsulot ishlab chiqarish orqali strategik farqlanishga erishish mumkin.
5. Mijozlar bilan aloqani mustahkamlash: Ekologik faoliyat natijalari haqida ochiq ma’lumot berish, yashil sertifikatlar va ramzlardan foydalanish orqali mijozlar ishonchini kuchaytirish mumkin.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, kichik biznes subyektlari uchun yashil marketing strategiyalarini shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish ekologik mas’uliyatni kuchaytirish bilan birga, raqobatbardoshlikni ham oshirishga xizmat qiladi. To‘g‘ri yo‘naltirilgan va asosli strategik yondashuv orqali har bir kichik korxona barqaror taraqqiyot sari dadil qadam qo‘yishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Wang, S., Abbas, J., Sial, M. S., Álvarez-Otero, S., & Cioca, L.-I. (2022). Achieving green innovation and sustainable development goals through green knowledge management. Journal of Innovation & Knowledge, 7, 100272. https://doi.org/10.1016/j.jik.2022.100272

2. Rehman, S. U., Kraus, S., Shah, S. A., Khanin, D., & Mahto, R. V. (2021). Analyzing the relationship between green innovation and environmental performance in large manufacturing firms. Technological Forecasting and Social Change, 163, 120481. https://doi.org/10.1016/j.techfore.2020.120481

3. Cuevas-Vargas, H., Esparza-Durón, M. R., & González-Acolt, R. (2022). Sustainable marketing orientation and sustainability performance of Mexican small firms. Procedia Computer Science, 214, 1237–1245. https://doi.org/10.1016/j.procs.2022.11.188

4. Dzikriansyah, M. A., Masudin, I., Zulfikarijah, F., Jihadi, M., & Jatmiko, R. D. (2023). The role of green supply chain management practices on environmental performance. Cleaner Logistics and Supply Chain, 6, 100100. https://doi.org/10.1016/j.clscn.2023.100100

5. Agrawal, R., Agrawal, S., Samadhiya, A., Kumar, A., Luthra, S., & Jain, V. (2024). Adoption of green finance and green innovation for achieving circularity. Geoscience Frontiers, 15, 101669. https://doi.org/10.1016/j.gsf.2023.101669

6. Firdiansyah, R., Mohamed, M., Yusliza, M. Y., Saputra, J., & Muhammad, Z. (2021). A review of green marketing strategy literature: Mini-review approach. 11th Annual Int. Conf. on Industrial Engineering and Operations Management. http://ieomsociety.org

7. Sugandini, D., Muafi, M., Susilowati, C., Siswanti, Y., & Syafri, W. (2020). Green supply management and green marketing strategy on green purchase intention: SMEs cases. Journal of Industrial Engineering and Management, 13(1), 78–95. https://doi.org/10.3926/jiem.2795

8. Esmaelnezhad, D., Lagz i, M. D., Antucheviciene, J., Hashemi, S. S., & Khorshidi, S. (2023). Evaluation of green marketing strategies by considering sustainability criteria. Sustainability, 15, 7874. https://doi.org/10.3390/su15107874

9. Ismail, I. J., Amani, D., & Changalima, I. A. (2023). Strategic green marketing orientation and environmental sustainability in sub-Saharan Africa: Does green absorptive capacity moderate? Heliyon, 9, e18373. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e18373

10. Chen, Y.-S., Chang, T.-W., Li, H.-X., & Chen, Y.-R. (2020). The influence of green brand affect on green purchase intentions: The mediation effects of green brand

associations and green brand attitude. International Journal of Environmental Research and Public Health, 17(11), 4089. https://doi.org/10.3390/ijerph17114089

11. Davis, J. (2020). Successful marketing strategies for small business sustainability (Doctoral dissertation, Walden University). ProQuest Dissertations Publishing.

12. Tien, N. H., Hiep, P. M., Dai, N. Q., Duc, N. M., & Hong, T. T. K. (2020). Green entrepreneurship understanding in Vietnam. International Journal of Entrepreneurship, 24(2). https://www.researchgate.net/publication/340903536

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA JAHON TENDENSIYALARINING O‘RNI

важнейших инструментов, позволяющих организациям принимать обоснованные управленческие решения, формировать эффективные стратегии продвижения, повышать уровень удовлетворённости клиентов и прогнозировать их поведение. Однако качество и достоверность данных, полученных из исследований, зависят от множества факторов, в том числе от искажений ответов респондентов.

На сегодняшний день, проблема искажений в ответах респондентов занимает особое место в практике маркетинговых исследований. Искажения могут возникать по разным причинам – от сознательных попыток респондентов скрыть свою настоящую позицию (например, из-за страха быть осуждённым или социального давления), до незаметных для самого респондента когнитивных ошибок, таких как усталость или ошибочная интерпретация вопросов. Поскольку полученные результаты не всегда отражают реальное положение дел, это влечет за собой риск ошибочных выводов и неэффективных управленческих решений.

Таким образом, актуальность выбранной темы определяется важностью минимизации искажений в ответах респондентов не только для повышения точности и надежности данных, но и для улучшения прогнозируемости поведения потребителей в условиях развивающихся рынков.

Исходя из этого, целью данной работы является выявить факторы и методы, позволяющие снизить искажения ответов респондентов и тем самым повысить достоверность результатов маркетинговых исследований на рынке услуг.

Для достижения цели были поставлены следующие задачи:

1) Классифицировать основные виды искажений, которые возникают в ответах респондентов при проведении маркетинговых исследований;
2) Рассмотреть методы минимизации искажений на разных этапах исследования (подготовка, проведение, анализ);
3) Оценить влияние применения этих методов на достоверность исследований и их эффективность для принятия управленческих решений на рынке услуг.

Под искажением ответов респондентов понимается отклонение предоставляемой информации от реального мнения, опыта или поведения человека. Они могут возникать по объективным и субъективным причинам и подразделяются на три основные группы.

1. Когнитивные искажения – связаны с ошибками восприятия, обработки и запоминания информации [1]. Они включают в себя:

1.1. Эффект социальной желательности – стремление дать «правильный» ответ, который воспринимается приемлемо или положительно обществом. Это может проявляться, например, в стремлении показать себя в более выгодном свете или соответствовать социальным нормам, что особенно выражено в ответах на чувствительные вопросы, связанные с личными убеждениями, поведением или образом жизни;

1.2. Ошибки памяти – респондент не может точно вспомнить свои прошлые действия, дату и детали своего поведения, события или частоту использования продуктов и услуг.

1.3. Эффект ореола – общее впечатление или оценка одного признака объекта (бренда, продукта, компании, человека) влияет на восприятие и оценку других, не связанных напрямую характеристик. Подразумевает склонность человека переносить положительное или отрицательное впечатление об одной стороне объекта на все остальные его характеристики.

2. Поведенческие искажения – те, что связаны с поведением респондента непосредственно в момент опроса.

2.1. Усталость респондента (respondent fatigue) – при длинных анкетах ответы становятся случайными или формальными [2].

2.2. Эффект интервьюера – респондент подстраивает ответы под стиль, пол, возраст или выражения лица интервьюера [3].

3. Технические и инструментальные искажения – возникают из-за особенностей инструментария (анкеты, гайда, шкал измерения, формулировок вопросов) и технических условий проведения опроса (способов сбора данных: онлайн, телефон, face-to-face).

3.1. Формулировка вопросов (question wording bias) – двусмысленные или сложные формулировки приводят к разным интерпретациям или направляют респондента на определенный ответ [4].

3.2. Закрытые варианты ответа (response options bias) – предлагаемые варианты могут ограничивать выбор или подталкивать к определённым ответам [3].

Стоит отметить, что особенность рынка услуг состоит в том, что восприятие здесь во многом строится на субъективных факторах: эмоциях, доверии, ощущении качества обслуживания. Это существенно усложняет измерение нематериальных характеристик и делает получаемые данные особенно уязвимыми к искажениям. В связи с этим важно рассмотреть факторы, которые непосредственно влияют на возникновение подобных искажений.

Их также можно условно разделить на три группы. Во-первых, личностные особенности самих респондентов: социально-демографический фон, уровень финансовой или цифровой грамотности, а также степень доверия к исследователю или бренду. Эти характеристики определяют готовность человека отвечать откровенно и точно. Во-вторых, значимую роль играют методологические аспекты: конструкция анкеты, сложность формулировок, порядок вопросов, тип применяемых шкал, а также канал проведения опроса – будь то онлайн, офлайн, телефон или личное интервью. Каждый из этих методов имеет свои сильные и слабые стороны, которые могут усиливать или ослаблять искажения. И наконец, немаловажными являются организационные факторы: уровень подготовки интервьюеров, продолжительность интервью, условия проведения (место, время, степень конфиденциальности). Всё это влияет на концентрацию внимания респондента и его готовность давать правдивые ответы.

Методы минимизации искажений в маркетинговых исследованиях охватывают все этапы – от подготовки инструментария до анализа полученных данных. На этапе подготовки особенно важно уделять внимание качеству анкеты. Формулировки вопросов должны быть ясными и нейтральными, исключающими двусмысленность и наводящий характер. Это помогает избежать ситуаций, когда респондент отвечает не столько по своему опыту, сколько под влиянием формы вопроса. Эффективным является использование контрольных и фильтрующих вопросов, позволяющих выявлять незаинтересованных участников или тех, кто отвечает невнимательно. Баланс позитивных и негативных формулировок снижает эффект согласия и тенденцию давать социально-желательные ответы. Важным аспектом также выступает оптимизация длины анкеты, так как чрезмерно длинные опросы приводят к усталости и формальным откликам. Для выявления слабых мест инструментария применяется пилотажное исследование, которое позволяет скорректировать структуру и формулировки до запуска основной выборки [5].

На этапе проведения акцент делается на создании условий, способствующих откровенным ответам. Анонимность и конфиденциальность позволяют респондентам чувствовать себя свободнее и отвечать честнее, не опасаясь оценки со стороны интервьюера или организаторов. Использование смешанных методов сбора данных – например, сочетание онлайн и офлайн опросов – помогает сгладить недостатки каждого формата и обеспечить большую репрезентативность. Важной методикой является ротация порядка вопросов и вариантов ответа, что уменьшает эффект последовательности и снижает риск того, что один вопрос будет задавать рамку для следующего. Существенную роль играет подготовка интервьюеров: нейтральное поведение, контроль интонации и невербальных сигналов позволяют минимизировать влияние личности опрашивающего на ответы. Контроль длительности интервью и создание комфортных условий проведения также оказывают прямое воздействие на качество данных, так как предотвращают усталость респондентов и их желание отвечать формально.

Даже при тщательно выстроенной подготовке и корректно организованном процессе часть искажений всё же возникает, поэтому на аналитическом этапе применяются специальные методы для их выявления и коррекции. Одним из ключевых инструментов становится анализ аномальных и противоречивых ответов: например, если респондент заявляет, что не пользуется банковскими картами, но при этом оценивает удобство их использования, это сигнал о низкой достоверности его данных. Кроме того, анализ паттернов пропусков или повторяющихся однотипных ответов позволяет исключить данные от невнимательных респондентов. Важным элементом является кросс-валидация, то есть сопоставление результатов опроса с другими источниками информации, например данными CRM, статистикой транзакций или рыночными показателями.

На практике проблема искажений особенно заметна в исследованиях рынка услуг. В банковской сфере респонденты часто завышают уровень доверия к бренду или скрывают негативный опыт взаимодействия. В медицинских исследованиях влияют социальные и этические барьеры, когда пациенты не готовы откровенно сообщать о проблемах. В образовательных и консалтинговых услугах респонденты склонны давать «ответы ради приличия», чтобы не задеть репутацию преподавателя или консультанта. Для повышения достоверности в таких условиях используются специализированные инструменты: онлайн-панели с профилированием участников, нейтральные форматы анкет, а также обязательное тестирование вопросов до запуска исследования, что позволяет заранее выявить слабые места инструментария и снизить риск искажений.

Таким образом, искажения в ответах респондентов являются неизбежным элементом маркетинговых исследований, однако их влияние можно существенно снизить с помощью комплексного подхода, включающего грамотную методологию, правильную организацию процесса и тщательный анализ данных. Минимизация подобных ошибок напрямую повышает достоверность результатов и качество аналитических выводов, что особенно важно для рынка услуг, где ключевым фактором конкурентного преимущества выступают восприятие клиентов, их доверие и эмоциональный опыт взаимодействия.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Sönnichsen S., Mertes A., Reisch L. Cognitive bias and how to improve sustainable decision making // Frontiers in Psychology. – 2023. – Vol. 14. – Article 1127361. – DOI: 10.3389/fpsyg.2023.1127361.

2. Ghafourifard M. Survey Fatigue in Questionnaire Based Research: The Issues and Solutions // Journal of Caring Sciences. – 2024. – Vol. 13, No. 1. – P. 45–52. – DOI: 10.34172/jcs.2024.123.

3. Bogner K., Landrock U. Response Biases in Standardised Surveys. GESIS Survey Guidelines. – 2016. – Version 2.0. Mannheim, Germany: GESIS – Leibniz Institute for the Social Sciences. – DOI: 10.15465/gesis-sg_en_016.

4. Kalton G., Schuman H. The Effect of the Question on Survey Responses: A Review // Journal of the Royal Statistical Society. Series A (General). – 1982. – Vol. 145, № 1. – P. 42–73. – DOI: 10.2307/2981421.

5. Taherdoost H. Designing a Questionnaire for a Research Paper: A Comprehensive Guide to Design and Develop an Effective Questionnaire // Asian Journal of Managerial Science. – 2022. – Vol. 11, No. 1. – P. 8–16. – DOI: 10.51983/ajms-2022.11.1.3087

ОПТИМИЗАЦИЯ ИНТЕРНЕТ-МАРКЕТИНГА КАК ИНСТРУМЕНТ РОСТА МАЛОГО БИЗНЕСА

М.М. Зияева
Профессор кафедры маркетинга, ТГЭУ
М.К. Аллаярова
Магистрантка 2го курса MRT-15R, ТГЭУ

Аннотация

В данном тезисе рассматривается роль интернет-маркетинга в развитии малого бизнеса и пути его оптимизации. В условиях цифровой экономики анализируются инструменты SEO, SMM и контент-маркетинга, позволяющие снижать издержки, повышать эффективность коммуникаций и усиливать взаимодействие с клиентами. Особое внимание уделено аналитическим платформам, обеспечивающим оценку конверсий и адаптацию стратегий продвижения в реальном времени. Результаты исследования подтверждают, что оптимизация интернет-маркетинга является ключевым фактором устойчивого роста малого бизнеса.

Ключевые слова: интернет-маркетинг, малый бизнес, SEO, SMM, контент-маркетинг, цифровая экономика, оптимизация, аналитика.

Annotatsiya

Mazkur tezisda kichik biznes rivojida internet-marketingning o‘rni va uni optimallashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida SEO, SMM va kontent-marketing kabi vositalardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlar bilan bevosita muloqotni kuchaytirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, tahliliy platformalar yordamida natijadorlikni o‘lchash va strategiyani real vaqt rejimida moslashtirish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari internet-marketingni optimallashtirish kichik biznesning barqaror o‘sishini ta’minlovchi muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: internet-marketing, kichik biznes, SEO, SMM, kontent-marketing, raqamli iqtisodiyot, optimallashtirish, tahlil.

Abstract

This thesis analyzes the role of internet marketing in small business development and explores key directions for its optimization. Under the conditions of the digital economy, the paper highlights the effective use of SEO, SMM, and content marketing tools to reduce costs, improve communication efficiency, and enhance customer engagement. Special attention is given to analytical platforms that measure performance and allow real-time strategy adjustment. The findings show that optimizing internet marketing is a critical factor for ensuring sustainable growth in small businesses.

Keywords: internet marketing, small business, SEO, SMM, content marketing, digital economy, optimization, analytics.

В эпоху цифровых технологий интернет-маркетинг стал неотъемлемой частью стратегий продвижения и взаимодействия с целевой аудиторией для

компаний различного масштаба. Одним из наиболее динамично развивающихся и перспективных направлений интернет-маркетинга является использование социальных сетей. Социальные сети предоставляют уникальные возможности для прямого общения с клиентами, формирования позитивного имиджа бренда и проведения эффективных маркетинговых кампаний.

Термин «интернет-маркетинг» в экономическом сообществе впервые был употреблен на страницах зарубежной литературы, которой присущи определенные понятийные расхождения. Часть экспертов для определения маркетинговой деятельности в сети интернет использовала такие понятия, как «цифровой маркетинг», «электронный маркетинг», «вебмаркетинг», «кибермаркетинг».

Так, Американская ассоциация маркетинга (AMA, англ. America Marketing Association) - одна из наиболее авторитетных организаций в области информационных технологий - указывает, что интернет-маркетинг - это маркетинговая деятельность, основанная на принципах интернета и электронной почты и включающая в себя рекламу с помощью баннеров, электронной почты, оптимизации в поисковых машинах, электронную коммерцию и другие инструменты [1]

Интернет-маркетинг включает в себя множество видов и направлений, таких как контент-маркетинг, SEO, контекстная реклама, email-маркетинг и, конечно же, маркетинг в социальных сетях. Важным аспектом успешного интернет-маркетинга является умение оценивать эффективность проводимых кампаний. Для этого применяются различные методы оценки, такие как анализ трафика, конверсий, ROI и другие показатели.

Технологии и инструменты, используемые для анализа и оптимизации маркетинговых кампаний в социальных сетях, позволяют значительно повысить их эффективность. Современные аналитические платформы предоставляют возможность отслеживать ключевые метрики, анализировать поведение аудитории и адаптировать стратегию продвижения в реальном времени. [2]

В условиях цифровой экономики малый бизнес сталкивается с необходимостью оперативно адаптироваться к меняющимся условиям рынка. Традиционные каналы продвижения требуют значительных затрат, тогда как интернет-маркетинг позволяет достигать клиентов с меньшими ресурсами и более высокой результативностью. Однако эффективность цифрового продвижения во многом зависит от грамотной оптимизации инструментов и методов, что делает данную тему актуальной как для предпринимателей, так и для исследователей.

Роль интернет-маркетинга в развитии малого бизнеса. Интернет-маркетинг представляет собой систему инструментов, направленных на продвижение товаров и услуг через цифровые каналы. Для малого бизнеса он особенно значим по нескольким причинам:

- низкая стоимость по сравнению с традиционной рекламой;
- возможность таргетирования аудитории;

- быстрая обратная связь с клиентами;
- гибкость и измеримость результатов;
- доступ к аналитике и автоматизации.

В условиях высокой конкуренции интернет-маркетинг становится не просто дополнительным каналом продвижения, а стратегическим ресурсом, влияющим на узнаваемость, продажи и лояльность клиентов. [3]

Основные инструменты интернет-маркетинга. Для стабильного развития малого бизнеса применяются следующие ключевые инструменты:

1. SEO (поисковая оптимизация)

Оптимизация сайта для поисковых систем обеспечивает органический трафик без затрат на рекламу. Важную роль играют ключевые слова, структура страниц, адаптивность и скорость загрузки.

2. SMM (продвижение в социальных сетях)

Платформы как Instagram, Facebook, Telegram и TikTok позволяют взаимодействовать с целевой аудиторией, формировать имидж бренда и стимулировать продажи через визуальный и интерактивный контент.

3. Контент-маркетинг

Публикация полезных материалов (статей, фото, видео, блогов) помогает укреплять доверие, удерживать клиентов и повышать вовлечённость.

Грамотная оптимизация интернет-маркетинга даёт малым предприятиям следующие преимущества:

- повышение конверсии и продаж;
- расширение клиентской базы без увеличения затрат;
- снижение рекламных расходов;
- укрепление бренда и репутации;
- улучшение взаимодействия с клиентами;

Оптимизация также способствует адаптации к изменениям рынка, внедрению инноваций и удержанию позиций среди конкурентов. [4]

Интернет-маркетинг является важнейшим инструментом развития малого бизнеса, однако его эффективность напрямую зависит от оптимизации используемых каналов и подходов. Применение SEO, SMM, рекламы, контент-маркетинга и аналитики в сочетании с автоматизацией и персонализацией позволяет малым предприятиям достигать устойчивого роста. Инструменты и методы оптимизации не только расширяют охват аудитории, но и повышают результативность вложений, обеспечивая конкурентные преимущества на рынке.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Смирнова, Е. (2023). Интернет-маркетинг: от теории к практике. Издательство: Питер.

2. Основные понятия и инструменты интернет маркетинга Прохорова А.М.1 Ростовский государственный экономический университет (РИНХ), г. Ростов-на-Дону

3. Кузнецова, Е. (2023). Как улучшить использование соцсетей в бизнесе. Издательство: Эксмо.

4. Смирнов, П. (2021). Контент-маркетинг: Создание эффективных стратегий. Издательство: МИФ.

YASHIL TEXNOLOGIYALARNI TARG‘IB QILISHDA MARKETING INNOVATSIYALARINING ROLI

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo‘ja qizi
TDIU ilmiy kengash kotibi
ORCID: 0009-0005-5902-6701
E-mail: n.shamshiyeva@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil marketing strategiyalari va marketing innovatsiyalarining raqobatbardoshlikka ta’siri nazariy asosda tahlil qilinadi. Ilmiy manbalar asosida ekologik qadriyatlar, iste’molchi xulq-atvori va strategik pozitsiyalash orqali barqaror raqobat ustunligi shakllanishi yoritilgan. Tahlillar marketing innovatsiyalari — xususan, raqamli kommunikatsiya va yashil brending — orqali mijoz ishonchi va bozordagi farqlanishni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Tadqiqot nazariy model ishlab chiqishga konseptual asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: yashil marketing, marketing innovatsiyasi, raqobatbardoshlik, ekologik qadriyatlar, yashil brending, iste’molchi ishonchi

Аннотация

В данной статье теоретически рассматривается влияние стратегий зелёного маркетинга и маркетинговых инноваций на конкурентоспособность. На основе научных источников анализируются экологические ценности, поведение потребителей и стратегическое позиционирование как факторы устойчивого конкурентного преимущества. Установлено, что маркетинговые инновации — особенно цифровая коммуникация и зелёный брендинг — усиливают доверие клиентов и рыночную дифференциацию. Исследование служит концептуальной основой для разработки теоретической модели.

Ключевые слова: зелёный маркетинг, маркетинговые инновации, конкурентоспособность, экологические ценности, зелёный брендинг, доверие потребителей

Abstract

This article theoretically examines the impact of green marketing strategies and marketing innovations on competitiveness. Based on academic sources, the paper analyzes how ecological values, consumer behavior, and strategic positioning contribute to sustainable competitive advantage. The study finds that marketing innovations — particularly digital communication and green branding — enhance customer trust and market differentiation. The research provides a conceptual foundation for developing a theoretical model.

Keywords: green marketing, marketing innovation, competitiveness, ecological values, green branding, consumer trust

So‘nggi yillarda ekologik barqarorlik masalalari nafaqat siyosiy va ijtimoiy maydonlarda, balki biznes amaliyotida ham ustuvor yo‘nalishga aylangan. Kompaniyalar o‘z faoliyatida ekologik qadriyatlarni inobatga olgan holda, bozordagi raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun yangi marketing yondashuvlariga murojaat

qilmoqda. Aynan shu nuqtada yashil marketing strategiyalari va marketing innovatsiyalarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ular orqali korxonalar ekologik mas’uliyatni o‘z biznes faoliyatiga uyg‘unlashtiradi, iste’molchilarning eko-harid motivlarini faollashtiradi hamda uzoq muddatli raqobat ustunligiga erishadi.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, yashil marketing strategiyalari samaradorligini belgilovchi asosiy omillar — bu korxona darajasida yashil qadriyatlarning qabul qilinishi [1], iste’molchilar xulq-atvori va yashil brendga bo‘lgan ishonchi [4][5], marketingdagi strategik yondashuvlar [6], va ular orqali ta’minlanadigan raqobat ustunligidir [2]. Shuningdek, ayrim manbalarda yashil marketing va religioz qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlik korxonaning ijtimoiy mas’uliyatli imidjini mustahkamlashi ko‘rsatilgan [1]. Yana bir muhim jihat shundaki, yashil marketing jarayonida “greenwashing” holatlari, ya’ni ataylab yashil ko‘rinishga olib boruvchi yolg‘on kommunikatsiyalar, iste’molchi ishonchini zaiflashtiruvchi xavf sifatida qayd etilgan [3].

Ko‘plab tadqiqotlar yashil marketing va innovatsion yondashuvlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni samarali natijalarga olib keluvchi omil sifatida baholaydi. Masalan, raqamli marketing vositalari orqali iste’molchilar bilan ekologik qadriyatlarga asoslangan kommunikatsiya o‘rnatilishi, yashil brendlar bilan bog‘liq bo‘lgan anglashuvni kuchaytiradi va xarid qilish ehtimolini oshiradi [4][7]. Shu bilan birga, korxona faoliyatining ekologik tavsifi aniq ko‘rsatilgan hollarda, iste’molchi ishonchi va sadoqati sezilarli darajada ortadi [3].

Ushbu tadqiqot nazariy maqola xususiyatiga ega bo‘lib, uning asosiy maqsadi — mavjud ilmiy manbalar asosida yashil marketing strategiyalari va marketing innovatsiyalarining raqobatbardoshlikka ta’sirini tushuntiruvchi kontseptual yondashuvni shakllantirishdir. Shu sababli metodologik yondashuv sifatida tizimli adabiyot tahlili va kontseptual sintez usullaridan foydalanildi. Deduktiv mantiqqa asoslangan holda, oldingi ilmiy izlanishlar umumlashtirilib, mavzuga doir nazariy asoslar tahlil qilindi va ular orqali integratsiyalashgan tushuncha maydoni yaratildi.

Natijaviy jihatdan qaralganda, yashil marketing strategiyasi — bu nafaqat ekologik javobgarlik, balki biznes barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ko‘p darajali vositadir. Bu strategiya marketing innovatsiyalari bilan uyg‘unlashgan hollarda, bozorda raqobat ustunligini qo‘lga kiritishda samarali yo‘lga aylanishi mumkin. Shu bois, mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, keyingi tadqiqotlar uchun kontseptual poydevor vazifasini o‘taydi.

Yashil marketing strategiyalari, marketing innovatsiyalari va raqobatbardoshlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish ushbu nazariy tadqiqotning markaziy yo‘nalishidir. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, yashil marketingga asoslangan strategiyalar korxona imidji, iste’molchi ishonchi va barqarorlikka intilish bilan bog‘liq holda tashkilotning umumiy raqobatbardoshligini oshiradi. Bunda marketing innovatsiyalari – ayniqsa, ekologik qadriyatlar asosida shakllantirilgan kommunikatsion texnologiyalar, yashil brending uslublari va iste’molchini jalb qilishga qaratilgan interaktiv vositalar – hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Tahlil davomida nazariy manbalarda yashil marketing strategiyalarining samaradorligini belgilovchi uchta asosiy omil ajratib ko‘rsatildi. Birinchidan, kompaniya miqyosida yashil qadriyatlarning strategik darajada tan olinishi va ularning biznes maqsadlari bilan uyg‘unlashuvi. Bu omil yashil marketingni vaqtinchalik reklama vositasidan strategik boshqaruv elementiga aylantiradi. Ikkinchidan, iste’molchilarning ekologik xulq-atvori va brendga bo‘lgan ishonch darajasi. Aynan shu omil yashil innovatsiyalarning qabul qilinishi va ommalashuv darajasini belgilaydi. Uchinchi omil sifatida – bozordagi pozitsiyalash va eko-differensiallashuv orqali erishiladigan strategik raqobat ustunligi keltiriladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, nazariy jihatdan, marketing innovatsiyalarining yashil yo‘nalishda faol qo‘llanilishi, korxonalarga bir vaqtning o‘zida ekologik va iqtisodiy samaradorlikni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Marketing texnologiyalarining ilg‘or shakllari – raqamli yashil kampaniyalar, mijozga yo‘naltirilgan yashil kontent va maqsadli ijtimoiy kommunikatsiya vositalari – ko‘plab adabiyotlarda raqobat afzalligining asosiy manbalaridan biri sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, iste’molchining ongli xarid xatti-harakatiga asoslangan yondashuv, ekologik brendga ishonch hosil qilishi orqali marketing harakatlarining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Nazariy asoslar shuni anglatadiki, marketing innovatsiyalari nafaqat yashil g‘oyalarni tarqatish, balki ularni iqtisodiy qiymatga aylantirish jarayonida vositachilik qiladi. Ushbu yondashuvda “greenwashing” kabi salbiy hodisalarni kamaytirish va iste’molchi ishonchini mustahkamlashga qaratilgan shaffof va barqaror strategiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jihatlar, o‘z navbatida, raqobatbardosh korxona modelini shakllantirishda asosiy konseptual yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, nazariy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, yashil marketing va marketing innovatsiyalarining uyg‘un qo‘llanilishi korxonalarning ekologik mas’uliyatini kuchaytirish, mijozlar bilan barqaror aloqalar o‘rnatish hamda raqobat ustunligini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy asosga ega. Ushbu qarashlar, kelgusida amaliy tadqiqotlar uchun yo‘nalish berishi bilan birga, nazariy model ishlab chiqishda ham zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Setyawati, H. A., Suroso, A., Hari Adi, P., & Helmy, I. (2020). Linking green marketing strategy, religiosity, and firm performance: Evidence from Indonesian SMEs. Management Science Letters, 10, 2617–2624. https://doi.org/10.5267/j.msl.2020.3.031

2. Khan, E. A., Royhan, P., Rahman, M. A., Rahman, M. M., & Mostafa, A. (2020). The impact of enviropreneurial orientation on small firms’ business performance: The mediation of green marketing mix and eco-labeling strategies. Sustainability, 12(1), 221. https://doi.org/10.3390/su12010221

3. Yu-Shan, C., & Ching-Hsun, C. (2013). Greenwash and green trust: The mediation effects of green consumer confusion and green perceived risk. Journal of Business Ethics, 114(3), 489–500. https://doi.org/10.1007/s10551-012-1360-0

4. Suki, N. M. (2016). Green product purchase intention: Impact of green brands, attitude, and knowledge. British Food Journal, 118(12), 2893–2910. https://doi.org/10.1108/BFJ-06-2016-0295

5. Delafrooz, N., & Paim, L. H. (2011). Green marketing and consumer purchasing behavior. International Journal of Industrial Marketing, 1(2), 1–10. https://www.macrothink.org/journal/index.php/ijim/article/view/1189

6. Polonsky, M. J., & Rosenberger III, P. J. (2001). Reevaluating green marketing: A strategic approach. Business Horizons, 44(5), 21–30. https://doi.org/10.1016/S0007-6813(01)80057-4

7. Ahmed, A., & Khan, R. H. (2018). The role of green marketing in sustainable development. Regional Formation and Development Studies, 26(2), 38–50. https://www.rfds.vtu.lt/index.php/RFDS/article/view/1777

8. Wibawa, B. M. A. (2025). Green marketing strategies in small business development: Case of Indonesian SMEs. Procedia Environmental Science, Engineering and Management, 12(1), 85–92. https://www.procedia-esem.org/article/view/2025

YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA QURILISH TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Nurimbetov Ravshan Ibragimovich
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
Menejment kafedrasi professori, i.f.d.

Annotatsiya

Qurilish sohasining resurs talabchanligi va ekologik yukining yuqoriligi hisobga olinib, barqaror rivojlanish, energiya tejamkorlik, chiqindisiz ishlab chiqarish va ekologik innovatsiyalarni joriy etish zaruriyati asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada qurilish korxonalarida yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishning tashkiliy, texnologik va institutsional mexanizmlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qurilish tarmog‘i, ekologik innovatsiyalar, energiya tejamkorlik, resurs samaradorligi, chiqindisiz ishlab chiqarish.

Аннотация

С учётом высокой ресурсоёмкости и экологической нагрузки строительной отрасли обоснована необходимость внедрения принципов устойчивого развития, энергосбережения, безотходного производства и экологических инноваций. В статье также рассмотрены организационные, технологические и институциональные механизмы реализации принципов зелёной экономики в строительных предприятиях.

Ключевые слова: зелёная экономика, устойчивое развитие, строительная отрасль, экологические инновации, энергосбережение, ресурсная эффективность, безотходное производство.

Abstract

Considering the high resource intensity and environmental impact of the construction sector, the article substantiates the necessity of implementing sustainable development principles, energy efficiency, waste-free production, and ecological innovations. It also examines the organizational, technological, and institutional mechanisms for applying green economy principles in construction enterprises.

Keywords: green economy, sustainable development, construction sector, ecological innovations, energy efficiency, resource efficiency, waste-free production.

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar inson faoliyatining ekologik oqibatlarini chuqurroq anglash va ularni kamaytirish zaruriyatini yuzaga chiqardi. Iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi, global isish, chiqindilar miqdorining ortishi kabi ekologik muammolar iqtisodiy o‘sishning an’anaviy modelini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu bois, barqaror rivojlanishga asoslangan yangi iqtisodiy paradigma – “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi shakllandi. Bu model iqtisodiy faoliyatning asosiy maqsadini nafaqat foyda olish bilan, balki ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va inson

salomatligiga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish bilan uyg‘unlashtiradi.

Yashil iqtisodiyotning markazida ekologik samaradorlik, resurs tejamkorligi, chiqindisiz ishlab chiqarish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish kabi tamoyillar yotadi. Ayniqsa, qurilish tarmog‘i bu tamoyillarning amaliyotda tatbiq etilishini talab qiluvchi eng muhim sohalardan biri hisoblanadi. Chunki qurilish iqtisodiyotning asosiy drayveri bo‘lishi bilan birga, tabiiy resurslar iste’molining eng katta qismini tashkil etadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining hisob-kitoblariga ko‘ra, dunyoda energiya sarfining 35–40 foizi, atmosferaga chiqayotgan karbonat angidrid chiqindilarining esa 30 foizdan ortig‘i aynan qurilish sohasi bilan bog‘liqdir.

Shunday ekan, qurilish tarmog‘ining rivojlanishida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy zaruratdir. Yashil yondashuv qurilish korxonalarining resurslardan samarali foydalanishini, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishini va raqobatbardoshligini oshirishni ta’minlaydi. Bu esa korxonaning barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, ekologik innovatsiyalarni joriy etish orqali korxona imijini mustahkamlash, ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish va xalqaro ekologik standartlarga mos ishlab chiqarish tizimini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Qurilish sohasining “yashil” transformatsiyasi bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ekologik xavfsiz materiallardan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini tejash, “aqlli” boshqaruv tizimlarini qo‘llash va raqamli yechimlar asosida loyihalash jarayonini takomillashtirish. Bularning barchasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga, atrof-muhitga ta’sirni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qurilish tarmog‘ida yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish institutsional yondashuvni ham talab etadi. Bu yondashuv davlat siyosati, me’yoriy-huquqiy baza, investitsion rag‘batlantirish mexanizmlari, ilmiy-texnik infratuzilma va inson kapitali bilan bog‘liq elementlarni o‘z ichiga oladi. Yashil iqtisodiy rivojlanish strategiyasi muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Aynan shunday tizimli yondashuv orqali qurilish tarmog‘i nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ekologik muvozanatni ta’minlashning ham drayveriga aylanishi mumkin.

Shu bilan birga, “yashil qurilish” bozorining hajmi ham yildan-yilga sezilarli sur’atlarda o‘sib bormoqda. 2024-yil holatiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha “green building” loyihalarining umumiy bozori 565 milliard AQSh dollari atrofida baholanib, 2034-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1,37 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda, o‘sish sur’ati esa o‘rtacha yillik 9,3 foizni tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, “yashil qurilish materiallari” bozori 2023-yilda 422 milliard dollardan ortiq hajmda baholangan bo‘lib, 2032-yilga borib 1,2 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Bu esa sohada ekologik toza,

energiya tejamkor va qayta tiklanadigan manbalarga asoslangan texnologiyalarga talabning keskin ortib borayotganidan dalolat beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda binolarda iste’mol qilinayotgan energiyaning atigi 6 foizi qayta tiklanadigan manbalardan olingan bo‘lib, bu belgilangan 18 foizlik global maqsad ko‘rsatkichidan ancha pastdir. Demak, hozirda “yashil energiya” ulushini oshirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlarini yo‘lga qo‘yish qurilish tarmog‘i uchun strategik ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, qurilish materiallari tarkibida uglerod izini kamaytirish bo‘yicha sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. 2024-yil holatiga ko‘ra, “past uglerodli beton va sement” mahsulotlari “yashil qurilish materiallari” bozorining 24,4 foizini tashkil etdi. Bu esa sanoatda ekologik innovatsiyalarni keng joriy etish, xususan, bio-beton, nanokompozit panellar, qayta ishlangan polimerlar kabi innovatsion mahsulotlarga o‘tish tendensiyasining kuchayganini ko‘rsatadi.

Qurilish tarmog‘ining “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishida bir nechta strategik yo‘nalishlar mavjud. Ularning eng muhimi – energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishdir. Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, binolarning ekspluatatsiya davridagi energiya sarfini qisqartirish va uglerod chiqindilarini kamaytirish imkoniga ega bo‘ladi. Masalan, quyosh panellari, issiqlik izolyatsiyasi kuchaytirilgan materiallar, suvni qayta ishlash tizimlari va “smart” energiya nazorati texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Bu texnologiyalar yordamida qurilish obyektlari energiya tejamkorligi bo‘yicha xalqaro “LEED”, “BREEAM” va “EDGE” standartlariga moslashtirilmoqda.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – resurslardan oqilona foydalanish va chiqindisiz ishlab chiqarish tizimini shakllantirishdir. Qurilish chiqindilari dunyo miqyosida umumiy chiqindilarning 35–40 foizini tashkil etadi. Shu bois, materiallar aylanishini ta’minlash, chiqindilarni qayta ishlash va ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish “yashil qurilish” siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘z navbatida, ekologik innovatsiyalar – bio-beton, qayta ishlangan polimerlar, nanokompozit panellar – bu tizimni samarali ishlashini ta’minlovchi asosiy vositalardir.

Uchinchi yo‘nalish – ekologik innovatsiyalarni boshqaruv tizimiga integratsiya qilishdir. Innovatsion boshqaruv modeli ishlab chiqarish jarayonida ekologik tamoyillarni strategik maqsadlarga aylantirishni nazarda tutadi. Bunda korxonalarning boshqaruv siyosati ekologik xavflarni kamaytirish, energiya balansini optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish mezonlari asosida shakllantiriladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar – BIM (Building Information Modeling) va IoT (Internet of Things) tizimlari yordamida qurilish jarayonlarining barcha bosqichlarida energiya sarfi, materiallar hajmi va chiqindilar miqdori aniqlik bilan nazorat qilinadi.

To‘rtinchi yo‘nalish – kadrlar salohiyatini rivojlantirish va ekologik madaniyatni shakllantirishdir. Yashil iqtisodiyot faqat texnologik o‘zgarishlar bilan cheklanmay, balki inson kapitalining yangicha fikrlash uslubini ham talab etadi. Qurilish sohasida ekologik menejment, energiya tejamkorlik, chiqindilarni qayta ishlash va yashil sertifikatlash bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masalaga aylangan. Shu bois, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarda “barqaror qurilish”, “yashil texnologiyalar” va “eko-innovatsion boshqaruv” kabi yo‘nalishlarda maxsus o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi lozim.

Beshinchi yo‘nalish – institutsional muhitni takomillashtirish va investitsion rag‘batlarni yaratishdir. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun davlat siyosati, me’yoriy-huquqiy baza va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari uyg‘un holda ishlashi zarur. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar, yashil kreditlar va investitsion grantlar orqali qurilish korxonalarini ekologik innovatsiyalarni joriy etishga undash amaliy natija beradi. Bu borada xalqaro moliyaviy institutlar – Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) – tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan “Green Finance” dasturlari O‘zbekiston uchun muhim tajriba maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yashil iqtisodiyot tamoyillarining amaliy natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik innovatsiyalarni joriy etgan qurilish korxonalari energiya sarfini o‘rtacha 20–30 foizga, ishlab chiqarish xarajatlarini esa 15–25 foizga kamaytirishga erishmoqda. Shu bilan birga, chiqindilar hajmini kamaytirish, qayta ishlash darajasini oshirish va ekologik imijni mustahkamlash orqali ular bozorda raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘lmoqda.

Umuman olganda, qurilish tarmog‘ining “yashil iqtisodiyot”ga mos ravishda transformatsiyalanishi iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi. Yashil texnologiyalarni joriy etish, ekologik innovatsiyalarni boshqaruv tizimiga integratsiyalash, resurslardan samarali foydalanish va inson kapitalini rivojlantirish orqali O‘zbekiston qurilish sohasida barqaror, ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali rivojlanish modeliga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (PQ-4477, 04.10.2019) – https://lex.uz/docs/4539502

2. UNECE. (2023). Guidelines on Energy Efficiency Standards in Buildings in Eastern Europe and Central Asia. Geneva: United Nations Economic Commission for Europe.

3. Ziyaev, M.K., Mukhibova, G.Ya., & Ibodullaeva, Sh.A. (2023). Features of the Construction Industry in the Context of Economic Reforms Carried Out in Uzbekistan. World Economics and Finance Bulletin, 23, 165-168.

4. Allen, J. G., MacNaughton, P., Laurent, J. G. C., Flanigan, S. S., Eitland, E. S., & Spengler, J. D. (2015). Green buildings and health. Current environmental health reports, 2(3), 250-258.

5. Sinha, A., Gupta, R., & Kutnar, A. (2013). Sustainable development and green buildings. Drvna industrija, 64(1), 45-53.

6. Ries, R., Bilec, M. M., Gokhan, N. M., & Needy, K. L. (2006). The economic benefits of green buildings: a comprehensive case study. The engineering economist, 51(3), 259-295.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING OLIY TA’LIMDA BOSHQARUV JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISHDAGI O‘RNI

Radjabov Bunyod Abduxalilovich
TDIU, Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar kafedrasi
dotsenti v.v.b., PhD, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu tezisda sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishdagi roli va samaradorligi tahlil qilinadi. Sposato[1], Zawacki-Richter[2] hamda Chen [3]tadqiqotlariga asoslanib, SI texnologiyalarining ta’lim tizimida boshqaruv, rejalashtirish, tahlil, nazorat va resurslarni boshqarishdagi afzalliklari yoritilgan. Tadqiqotda AI texnologiyalarining ma’muriy samaradorlik, qaror qabul qilishni optimallashtirish va strategik boshqaruvni takomillashtirishdagi o‘rni tizimli tarzda ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim tizimida ushbu tajribalarni joriy etish istiqbollari ham ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, oliy ta’lim, boshqaruv tizimi, avtomatlashtirish, raqamli transformatsiya, ta’lim samaradorligi.

Аннотация

В данном тезисе анализируется роль и эффективность технологий искусственного интеллекта в автоматизации управленческих процессов в высших учебных заведениях. На основе исследований Sposato, Zawacki-Richter и Chen раскрываются преимущества использования ИИ-технологий в управлении, планировании, анализе, контроле и распределении ресурсов в системе образования. В работе системно показана роль ИИ в повышении административной эффективности, оптимизации процесса принятия решений и совершенствовании стратегического управления. Кроме того, рассматриваются перспективы внедрения данных технологий в образовательную систему Узбекистана.

Ключевые слова: искусственный интеллект, высшее образование, система управления, автоматизация, цифровая трансформация, эффективность образования.

Abstract

This thesis analyzes the role and effectiveness of artificial intelligence (AI) technologies in automating management processes in higher education institutions. Based on the studies of Sposato, Zawacki-Richter, and Chen, the paper highlights the advantages of AI technologies in management, planning, analysis, control, and resource allocation within the education system. The research systematically demonstrates the role of AI in enhancing administrative efficiency, optimizing

[1] Sposato, Martin. "Artificial intelligence in educational leadership: a comprehensive taxonomy and future directions." *International Journal of Educational Technology in Higher Education* 22.1 (2025): 20.
[2] Zawacki-Richter, Olaf, et al. "New advances in artificial intelligence applications in higher education?." *International Journal of Educational Technology in Higher Education* 21.1 (2024): 32.
[3] Chen, Lijia, Pingping Chen, and Zhijian Lin. "Artificial intelligence in education: A review." *IEEE access* 8 (2020): 75264-75278.

decision-making, and improving strategic management. Furthermore, it examines the prospects for implementing these technologies in Uzbekistan's education system.
Keywords: artificial intelligence, higher education, management system, automation, digital transformation, educational efficiency.

Mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni tobora ortib bormoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tgan yig'ilishida:

"Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga – sun'iy intellekt davriga dadil qadam qo'ymoqda. Bunday texnologiyalar iqtisodiyotdan tortib, ta'lim, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va boshqaruv tizimigacha chuqur kirib bormoqda. Qaysi soha bo'lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo'ladi," – deya ta'kidlaganlar.

Darhaqiqat, sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy hajmi 2030-yilga borib 20 trillion dollardan ortishi kutilayotgani bu sohaning ta'lim va boshqaruv tizimlariga strategik ta'sirini anglatadi. Xalqaro miqyosda olib borilayotgan tadqiqotlar oliy ta'lim muassasalarida AI texnologiyalarini joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirib, inson resurslarini optimallashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash va qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirayotganini ko'rsatmoqda.[1]

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham sun'iy intellektni boshqaruvga integratsiyalash orqali raqamli iqtisodiyot ehtiyojlariga mos, tejamkor va shaffof boshqaruv modelini yaratish zaruriyati dolzarb masalaga aylanmoqda.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida boshqaruvning asosiy yo'nalishlari — rejalashtirish, nazorat, ma'lumotlar tahlili va qaror qabul qilish — tobora SI asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlar bilan boyimoqda. Sposato tomonidan ishlab chiqilgan "Educational Leadership AI Taxonomy" konsepsiyasi oliy ta'limda SI texnologiyalarini o'nta asosiy domen bo'yicha tasniflaydi. Ulardan biri – "AI for Administrative Efficiency" — boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishning asosi bo'lib, unda AI tizimlari yordamida dars jadvalini tuzish, resurslarni taqsimlash, byudjet prognozlash va kadrlar boshqaruvi amalga oshiriladi.[2]

Kuleto et al. tadqiqotlari AI asosidagi qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari yordamida oliy ta'lim muassasalarida resurslardan foydalanish samaradorligi 35–40 foizgacha oshganini ko'rsatadi.[3] Shu bilan birga, Jiao et al. (2022) tomonidan yaratilgan AI-model asosidagi talaba ro'yxatdan o'tish prognoz tizimlari 85 foiz aniqlikka ega bo'lgan. Bu esa rahbariyatga moliyaviy va inson resurslarini oldindan rejalashtirish imkonini beradi.[4]

---

[1] https://president.uz/

[2] Sposato, Martin. "Artificial intelligence in educational leadership: a comprehensive taxonomy and future directions." *International Journal of Educational Technology in Higher Education* 22.1 (2025): 20.

[3] Kuleto, V., Ilic, M., Dumangiu, M., Rankovic, M., Martins, O. M., Paun, D., & Mihoreanu, L. (2021). Exploring opportunities and challenges of artificial intelligence and machine learning in higher education institutions. *Sustainability*, 13(18), 10424.

[4] Jiao, Pengcheng, et al. "Artificial intelligence-enabled prediction model of student academic performance in online engineering education." *Artificial Intelligence Review* 55.8 (2022): 6321-6344.

Zawacki-Richter esa boshqaruvdagi AI texnologiyalarining evolyutsiyasini tahlil qilib, avvalgi avtomatlashtirilgan dasturlardan farqli o‘laroq, bugungi AI tizimlari nafaqat ma’lumotni qayta ishlaydi, balki tahliliy xulosalar asosida strategik qarorlarni shakllantirishda yordam beradi, ya’ni rahbarlik faoliyatini kognitiv darajada qo‘llab-quvvatlaydi.[1]

Quyidagi 1-jadvalda xorijiy amaliyotlar asosida oliy ta’lim boshqaruv tizimida AI texnologiyalarini qo‘llash yo‘nalishlari va ularning O‘zbekiston sharoitidagi mos talqinlari keltirilgan:

1-jadval

Xorijiy amaliyotlar asosida oliy ta’lim boshqaruv tizimida AI texnologiyalarini qo‘llash yo‘nalishlari[2]

Mamlakat tajribasi	AI qo‘llanilish yo‘nalishi	Samaradorlik natijasi	O‘zbekiston sharoitiga talqin
